

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**Hamidulla BOLTABOEV**

**JAHON ADABIYOTSHUNOSLIGI  
TARIXI**

**Darslik**

*Birinchi kitob*

Ta‘lim yo‘nalishi: 5120100 – Filologiya  
va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta‘lim yo‘nalishi uchun

**Toshkent – 2019**

**UO‘K: 821.512.133**

**KBK 83.3(50‘)6**

**83.3(50‘)6**

**B81**

**Boltaboev, Hamidulla.**

Jahon dabiyotshunosligi tarixi: darslik, birinchi kitob / Hamidulla Boltaboev; mas‘ul muharrir N.Rahmonov. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti. T.: 2019. ? b.

*Jahon adabiyotshunosligi tarixi va uning shakllanish manbalari hamda taraqqiyot tamoyillarini o‘rganuvchi ushbu o‘quv qo‘llanmaning birinchi jildi qadimgi davrlardan XVI asr manbalariga qadar yaratilgan risola, tazkira va boshqa adabiyotshunoslik janrlari asosida tartiblandi.*

*Mazkur darslik bakalavriat bosqichi talabalari, filolog-mutaxassislar va adabiy-nazariy tafakkur tarixi bilan qiziquvchi kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.*

**Mas‘ul muharrir:**

Filologiya fanlari doktori, professor

**Nasimxon RAHMONOV**

**Taqrizchilar:**

Filologiya fanlari doktori,

professor **Bahodir KARIMOV;**

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Dilnavoz YUSUPOVA**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya fakulteti ilmiy kengashining 2019-yil \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_-son bayonnoma) majlisida nashrga tavsiya etilgan.

## KIRISH

Adabiyotshunoslik ilmini o'rganishda uning tarixi, vujudga kelishi, shakllanish manbalari, tarixiy taraqqiyot tamoyillarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir fan tarixini o'rganmay turib, uning hozirgi holati haqida tasavvur qilish, fanning mohiyati, rivojlanish tendensiyalarini bilmagan holda ish yuritish mumkin emas.

Fanni o'qitishning maqsadi – “O'zbek adabiyotshunosligi tarixi” fanini o'qitishdan maqsad milliy estetik tafakkur va adabiyotshunoslik erishgan yutuqlarni zamon talablari nuqtai nazaridan o'rganishdan iborat.

Fan buyicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar kuyiladi. *Talaba:*

– adabiyotshunoslikning ilk manbalari, badiiy va tarixiy asarlar tarkibidagi nazariy qarashlar *haqida tasavvurga ega bo'lishi;*

– mumtoz va nazariy poetikaning ilmiy asoslari, o'zbek mumtoz adabiyotshunosligidagi yetakchi qarashlar *bilishi va ulardan foydalana olishi;*

– adabiyotshunoslik tarixidagi asosiy nazariy manbalarni tahlil qilish *ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak.*

# 1-mavzu. «JAHON ADABIYOTSHUNOSLIGI TARIXI» FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

## *Reja:*

1. *Adabiyotshunoslik ilmiy tizim sifatida.*
2. *Adabiyotshunoslik tarixini davrlashtirish tamoyillari.*
3. *Adabiyotshunoslik tarixida yirik tarixiy davr (yoki davriy umumlashma)lar: mifik tafakkur, kanonizatsiya va dekanonizatsiya.*
4. *Adabiyotshunoslik tarixini o‘rganishdagi mavjud zamonaviy konsepsiyalar.*

**Tayanch tushunchalar:** *adabiyotshunoslik tarixi, ilmiy tizim, davrlashtirish tamoyillari, tarixiy davr, davriy umumlashma, mifik tafakkur, kanonizatsiya va dekanonizatsiya.*

**Adabiyotshunoslik ilmiy tizim sifatida.** *Adabiyotshunoslik* – badiiy adabiyotning vujudga kelishi, tarixiy taraqqiyoti, mohiyati va aloqalarini ko‘p tarmoqlar orqali har tomonlama o‘rganuvchi qadimgi filologik fanlardan biri bo‘lib, badiiy tafakkur spetsifikasi haqidagi bilimlar, adabiy ijod genezisi, tarkibi va vazifalari; adabiy jarayonning umumiy qoidalari kabilarni o‘rganadi<sup>1</sup>. Tor ma’noda badiiy adabiyot va ijodiy jarayonning tamoyillarini o‘rganuvchi fan deb ham qaraladi.

An’anaviy adabiyotshunoslik o‘zaro mustahkam aloqada bo‘lgan *adabiyot tarixi, nazariyasi va adabiy tanqid* asosida tarkiblanib, adabiyotshunoslikning “asosiy sohalari” deb yuritilgani uchun adabiyotshunoslik tarixi adabiyot tarixi, nazariyasi va tanqid tarixiga doir qarashlarni umumlashtiradi. Bu jarayonda bevosita konkret adabiy-tarixiy faktlar va ular o‘zaro aloqadorligining keng jabhalari hisoblangani uchun ham *adabiyotshunoslik tarixi* nomi bilan markazlashadi. Shuningdek, adabiyotshunoslikning shakllanishiga xizmat qilgan matnshunoslik,

---

<sup>1</sup> *Cuddon J.A.* The Penguin Dictionary of Literary Terms and Literary Theory. London: Penguin Books, 1991. Pp. 28–29.

manbashunoslik, adabiy o'lkashunoslik (areal adabiyotshunoslik) bibliografiya, evristika, paleografiya, adabiy sharh, xronologiya kabi sohalar ham adabiyotshunoslik tarkibiga kirgani uchun adabiyotshunoslikka badiiy adabiyotni o'rganuvchi birgina fan deb emas, balki unga *ilmiy tizim* sifatida qaraladi. Chunki ularning ishtirokisiz adabiyotshunoslik taraqqiy eta olmagan kabi bu fanlar adabiyotshunoslik uchun ham "asos bo'luvchi, uning hayotini ta'minlovchi, tayanch sohalari hisoblanadi" (A.Prozorov). "Bu sohalar adabiyotshunoslik uchun ham bazaviy, fundamental va faktografik hamda empirik jihatdan istiqbollidir" (V.Xalizev). Shuning uchun ham bugungi kunda ularni yordamchi fanlar deb atash mushkul.

Adabiyotshunoslik professional istilohga ko'ra, XIX asr boshlarida vujudga kelgan bo'lsa ham, uning ildizi ilk mifik tafakkur namunalariga borib taqaladi. Adabiyotshunoslik fan sifatida ilmiy faoliyat sohiblari bilan ijodkorlar olamini o'zaro bog'lab, ijodiy yutuqlardan ilm taraqqiyoti uchun foydalanar ekan, u ish ko'rayotgan tushuncha va istilohlarda har xillik kuzatilishi mumkin. Adabiyotshunoslikdagi terminologik chalkashliklarning oldini olish, tushuncha va istilohlarni identifikatsiya qilish (muayyanlashtirish), adabiy tahlil va jarayondagi ijtimoiy ahamiyatli hodisalarga tayanib ish ko'rish bugungi adabiyot ilmining vazifalaridan.

Adabiyotshunoslik bugungi kunda mafkuraviy tazyiq, sotsialistik realizm kabi metodologik siquv va yuqoridan boshqarilishga mo'ljallangan jihatlardan xoli bo'lish bilan birga, estetika, lingvistika, falsafa, tarix, ruhshunoslikdan tashqari, kibernetika, semiologiya, sinergetika va boshqa zamonaviy fanlar bilan erkin aloqaga kirishadi.

Adabiyotshunoslikning vujudga kelishi, shakllanish manbalari, tarixiy taraqqiyot tamoyillarini o'rganuvchi fan sifatida uning maqsadi jahon estetik tafakkuri va adabiyotshunosligi erishgan yutuqlarni zamon talablari nuqtai nazaridan o'rganish; adabiy-nazariy tafakkur taraqqiyotidagi davriy bosqichlarning mohiyatini aniqlash; Sharq va G'arb tafakkurlararo mushtarak va

farqli jihatlariga tipologik yondashish; qadimgi davr, oʻrta asrlar, uygʻonish hamda XVI asrdan keyin yaratilgan adabiy-nazariy manbalarni oʻrganish, adabiy yoʻnalish va oqimlarning adabiy tafakkur tarixidagi oʻrnini belgilash; XX asr yangi davr adabiyotshunosligining vujudga kelishida omil boʻlgan nazariya va konsepsiyalarning adabiyot tarixidagi oʻrnini belgilashdan iborat. Adabiyotshunoslik tarixi tarkibiga, shuningdek, adabiyotshunoslikning ilmiy tizim sifatida shakllanish tarixi, mavjud akademik maktablar, ilmiy tizimlar va nazariy konsepsiyalarni ham oʻrganish kiradi.

**Adabiyotshunoslik tarixini davrlashtirish.** Adabiyotshunoslik badiiy adabiyot va adabiy matnga nisbatan ikkilamchi tahliliy tizim ekan, badiiy adabiyot tarixini davrlashtirishdagi asosiy tushuncha va tamoyillar uning uchun ham asos hisoblanadi.

“Davrlashtirish” tushunchasi yoki bu tushunchani tashigan istiloh tarix faniga nisbatan ishlatilgani kabi adabiyot tarixiga nisbatan ham koʻproq qoʻllaniladi. Shuning uchun “davrlashtirish” deyilganda uning predikati sifatida (nimani?) adabiyotshunoslik tarixini (umuman, badiiy adabiyotni emas) *davrlashtirish* tarzida qabul qilinadi.

Adabiyot va adabiyotshunoslik tarixini davrlashtirish uchun dastlab adabiy istilohlarni belgilab olish, soʻngra esa davrlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. “Davrlashtirish” tushunchasi asosida *davr* istilohi yotadi. Biz “davr” deb atagan kalima “zamon”, “vaqt”, “muddat”, “fursat”, “davomlilik” kabi maʼnolarni anglatadi. Biroq adabiyotshunoslar davrlashtirishga munosabatda birgina “davr” atamasini faol qoʻllaydilar, goʻyoki boshqa soʻzlar atama boʻlishga huquqli emasday. Xorijdan oʻzlashgan soʻzlar asosida rus tilida davr tushunchasi “period”, “epoxa”, “stadiya” soʻzlari orqali ifodalanibgina qolmay, har bir soʻz muayyan maʼno qamrovidan kelib chiqib, alohida atamaga aylangan. Masalan, “period” nisbatan “kichikroq davrlar”ga nisbatan qoʻllanilib, u koʻproq yillar, oʻn yilliklar va asrlarga nisbatan ishlatiladi. “Епоха” undan kengroq tushuncha boʻlib, oʻz tarkibiga bir necha asrlarni (masalan, эпоха средних веков – oʻrta asrlar

(ya'ni bir necha asr ma'nosida) birlashtirgan. O'zbek tilida esa bu tushunchani, ya'ni bir necha asrlarni qamrab oluvchi "epoxa"ni ham "davr" so'zi orqali anglatamiz.

Adabiyotshunoslikda «stadiya» (ayrim ilmiy asarlarda «stadialnaya obshnost» – «стадиальная общность») tushunchasi bor (uni o'zbek tiliga davriy umumlashma tarzida tarjima qilish mumkin. Bu istiloh umumjahon adabiyoti tarixining muayyan "davri"ga nisbatan ishlatilib, uning doirasiga antichnost (qadimgi davr), srednevekove (o'rta asrlar), Renesans – Vozrojdenie – Uyg'onish (ayrim tarixiy manbalarda intiboh) va boshqa tushunchalarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Biz o'zbek tilida uni ham "davr" deb ataymiz: *antik davr, o'rta asrlar, Uyg'onish (yoki intiboh) davri* kabi. Demak, o'zbek tilidagi adabiyotshunoslik masalalariga munosabatda har uch tushunchani bir so'z, ya'ni "davr" so'zi orqali anglatishimiz va yuqoridagi kabi yillarga nisbatan ham (20-yillar adabiyoti), asrlarga nisbatan ham (XX asr adabiyoti) hamda "davriy umumlashma"ga nisbatan ham birgina "davr" so'zidan foydalanamiz.

Adabiyot tarixi davrlashtirilayotganda "davr" so'zi zimmasidagi ana shu istilohiy "yuk"larning ayirmasini belgilab olmay turib, davrlashtirish tamoyillarini izlaganda xatoliklarga yoki kamida chalkashliklarga duch kelaveramiz. Albatta, o'zbek (kengroq ma'noda turk tili) boy til, har bir tushunchani aniq ifodalay oladigan o'z so'zlarimiz bor. Payti kelib, yuqoridagi uch ma'nodan biri "zamon" orqali, boshqasi "muddat" (yoki fursat, on va boshqalar) orqali o'z yechimini topishi mumkindir. Biroq jahon adabiyotshunosligi tarixining davrlashtirish tamoyillari ishlab chiqilayotganda yuqoridagi uch jihat hisobga olinishi lozim.

**Adabiyotshunoslik tarixida yirik tarixiy davrlar (davriy umumlashmalar): mifik tafakkur, kanonizatsiya va dekanonizatsiya.** Adabiyotshunoslik tarixining dastlabki davri sifatida u "arxaik zamon" tarzida mumtoz adabiyot shakllangunga qadar kechgan adabiy hodisalar alohida o'rganilishi kerak. Bu ayirma ham nazariy jihatdan, ham manbalarning yaratilishi va tarqalishi, ya'ni amaliy jihatdan o'z asoslariga ega. Masalaga nazariy jihatdan

yondashganda, postsovet (sho‘rodan keyingi) hududlarida markscha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar nazariyasidan uzoqlashishni ko‘zda tutgan “Adabiy davrlar o‘zgarishida poetika kategoriyalari”<sup>2</sup> jamoa tadqiqotida “Yevropa hududiga kirmagan adabiy maydonlar”ni ham hisobga olish lozimligi haqida muhim fikr bor: “*Birinchi davriy umumlashma* («arxaik zamon»)da yozma adabiyotda folklor an’analarning kuchli ta’siri kuzatiladi. Bunda mifopoetik badiiy tafakkur etakchi xususiyat kasb etadi, u so‘z san’ati ustidan “refleksiya” mavjud emas, chunki hali na adabiy tanqid, na adabiyot nazariyasi, na badiiy-ijodiy dasturlar shakllanib ulgurmagan edi. Bularning hammasi esa *ikkinchi bosqichda*, ya’ni Yunonistonda miloddan avvalgi I mingyillik o‘rtalarida shakllanib, XVIII asrning o‘rtalariga qadar davom etgan. Va nihoyat, *uchinchi bosqichda* ma’rifatchilik va romantizm adabiy sahnaga “individual-ijodiy badiiy tafakkur»ni olib chiqdi. Bunda “muallif poetikasi” “janr-uslubiy ko‘rsatmalar»dan ozod bo‘lib ustunlikka erishdi»<sup>3</sup>. Shunga ko‘ra, ilk davriy umumlashmani “mumtoz adabiyot shakllangunga qadar” kechgan vaqt, ya’ni “arxaik zamon” deb atash maqsadga yaqin keladi. Unga ko‘ra, folklor an’analar hukmron bo‘lgan, badiiy ijod namunalari mifopoetik tafakkur asosiga qurilgan, adabiy asarlar diniy va tarixiy asarlarga qorishiq holda yaratilgan, adabiy “kanon”lar esa hali yaratilmagan davrlarni alohida o‘rganish lozim. Agar adabiy hodisalar nisbatidan kelib chiqadigan bo‘lsak, dastlabki adabiy ibtido sifatida “Bilgamish”<sup>4</sup> deb belgilanadimi yoki G‘arbdagi Arastu hakimning asarlari yaratilgunga qadar kechgan falsafiy-estetik qarashlar nazarda tutiladimi, Sharq mumtoz poetikasiga asos bo‘lgan adabiy manbalar asos qilib olinadimi – bulardan qat’i nazar hali sof adabiyotshunoslik manbalari shakllanmagan, adabiy-nazariy qarashlar mifik, diniy, tarixiy, siyosiy va boshqa yo‘nalishdagi asarlar tarkibida kelgan “arxaik zamon” nazarda tutilgan. Bu o‘rinda adabiy davr chegarasini qandaydir tarixiy voqealar yoki siyosiy hodisalar asosiga emas, adabiy hodisaga aylangan *asarlari yoki adabiy siymolari* ijodi asosida belgilash mumkin.

<sup>2</sup> Аверинцев С.С., Андреев М.Л., Гаспаров М.Л., Гринцер П.А., Михайлов А.В. Категории поэтики в смене литературных эпох. М., 1994. С. 33

<sup>3</sup> Хализев В.Е. Теория литературы. М.: Высшая школа, 2005. С. 370–371.

<sup>4</sup> Крамер С. Шумеры. Первая цивилизация на Земле. М.: Центрполиграф, 2010.



*Adabiyotshunoslikda mifik tafakkur manbalari, tarixiy va diniy yodgorliklar tarkibidagi adabiy-nazariy tasavvurlar ham adabiyot tarixining ilk bosqichi* sifatida qaraladi. Shu jihatdan, ilk adabiy ta'lim o'choqlari bo'lmish Misr, Shumer, Hindiston va Xitoydagi yodgorliklar tarkibidagi nazariy qarashlar, «Bilgamish» (shumer), «Rigveda», «Mahobhorat», «Ramayana» (hind) asarlarida bayon qilingan fikrlarga ham adabiyotshunoslik manbalari sifatida qaraladi. Xitoyda Konfutsiy ta'limoti, Osiyo mamlakatlarida Budda, moniylik va boshqalar diniy inonchlar tarkibida ham muayyan ma'noda estetik-axloqiy qarashlar mujassamlangani ma'lum.

Yevropa adabiyotshunosligi antik adabiyot manbalariga tayangan holda shakllangani uchun qadimgi yunon olimlarining estetik qarashlari, xususan, Suqrot, Aflotun asarlari adabiyotshunoslik tarixi uchun muhim manbadir. Chunki ular zamirida ilk adabiy asarlar, Homer, Ezop, Esxil, Evripid, Aristofan, Pindar kabi ijodkorlarning asarlariga munosabat yotibdi. Jahon mumtoz adabiyotshunosligi tarixiga asos bo'lgan manba sifatida Arastu ta'limotiga yondashish zarur.

Ikkinchi davriy umumlashma sifatida *mumtoz adabiyotshunoslikning shakllanishi va taraqqiyoti* olinadi, bu yunon adabiyotida Arastu hakimning «Poetika» va «Ritorika» asarlarining yaratilish davridan XVIII asr o'rtalarigacha, to'g'rirog'i, ma'rifatparvarlik adabiyoti tufayli yuzaga chiqqan nazariy manifestlar Fransiyada Didro, Germaniyada Gerder nazariy ta'limotlarining vujudga kelishi bilan bog'liq holda qaraladi. Bu holat Sharq islom mamlakatlarida «ilmi adab» va uning tarkibiga kirgan fanlarning shakllanish davridan XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Sharq mamlakatlari adabiyotlarida kechgan modernlashuv jarayoniga qadar davom etadi.

Uchinchi davriy umumlashma adabiyotshunoslik tamoyillarini belgilashda bir milliy yoki hududiy birlik doirasida emas, balki umumjahon adabiyoti durdonalarini belgilash, ya'ni «dunyo adabiyoti» istilohi (Gyote)ning asosiy mezoniga aylanishi, shuningdek, keyinroq *yangi, modern, jadid* kabi tushunchalarni tashigan hamda XIX–XX–XXI asrlarda shakllangan adabiy tizim

va konsepsiyalar mohiyatiga ham mana shu davriy umumlashmadan kelib chiqib qaraladi. Bu *Yangi davr* umumiy istilohi bilan o'rganilayotgan mumtoz adabiy me'yor va qoidalarning barham topishi, "adabiy sahnaga individual-ijodiy tafakkur"ning chiqishi bilan xarakterlanadi.

Har bir davriy umumlashma haqida so'z yuritilganda, uning adabiy-tarixiy davrlarga bo'linishi mumkin va lozimligi ekanligini unutmaslik kerak. Yevropa nazariyotchilari "yangi adabiyot" istilohini XIX asrdan keyingi davrga nisbatan qo'llashadi. Chunki nazariyotchilar fikricha, ma'rifatchilik yo'nalishidan keyin yangi adabiyot xususiyatlarini belgilashda har bir milliy adabiyotshunoslik bu jarayonga turlicha yo'llar bilan kirib kelganiga qaramay, "muallif poetikasi"ni nazariyaning asosi deb qaralishida ikki muhim omil, birinchidan, o'zgarayotgan adabiy jarayon masalalari qat'iy, kanonlar asosiga qurilishi mumkin emasligi va ikkinchidan, muhimi, badiiy asar tahlili orqali muallif avvaldan belgilab qo'yilgan poetik qonuniyatlarga qay darajada amal qilganini emas, balki muallif ilgari surgan poetik tizim (XX asrning o'rtalaridan – modullar) adabiy jarayonning yangilanishiga, shu jumladan, jahon adabiyotining boyishiga xizmat qilganini aniqlashdir.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. Adabiyotshunoslikning ilmiy tizim ekanligini izohlang.
2. "Adabiyotshunoslik tarixi" fanining maqsad va vazifalarini tushuntiring.
3. Adabiyotshunoslik tarixini qaysi tamoyillar asosida davrlashtirish mumkin?
4. Adabiyotshunoslik tarixida yirik tarixiy davrlar yoki davriy umumlashma deganda nimani tushunasiz?
5. "Mifik tafakkur" yoki "arxaik" zamon istilohlarining mohiyatini tushuntiring.
6. "Kanonizatsiya" va "dekanonizatsiya" atamaları nimani anglatadi?

### ***Adabiyotlar***

1. A History of Esthetics revised and enlarged by Katharine Everett Gilbert and Helmut Kuhn. London: Thames and Hudson, 2012.

2. Arastu hakim. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. T.: Yangi asr avlodi, 2006, 2011.
3. Boltaboev H. Adabiyot ensiklopediyasi. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2015.
4. Boltaboev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2013. B. 3–7.
5. Valixo‘jaev B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. X–XV asrlar. T., 1993, 2013.
6. Cuddon J.A. The Penguin Dictionary of Literary Terms and Literary Theory. London: Penguin Books, 1991.
7. Sharq mumtoz poetikasi. 1–kitob: Manba va talqinlar. Talqin va sharhlar muallifi H.Boltaboev. T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 2008.
8. Боров Ю. Словарь терминов текстологии и генетической критики. М., 2011 (эл. версия).
9. Литературоведение как проблема. М.: Наследие, 2001
10. Прозоров В.В. О составляющих современного литературоведения // Филология. Саратов, 1996.

### **Internet saytlari**

1. [www.litera.ru](http://www.litera.ru).
2. [www.philologs.narod.ru](http://www.philologs.narod.ru).
3. [www.ziyo-net.uz](http://www.ziyo-net.uz)

## 2-mavzu. MARKAZIY OSIYODA ADABIYOTSHUNOSLIKNING ILK MANBALARI

### *Reja:*

1. *Umumturk tamadduni asoslari.*
2. *Til va yozuv tarixi adabiyotshunoslikning manbai sifatida.*
3. *Sak (skif)larning adabiy-nazariy tasavvurlari.*
4. *Miflardagi adabiyotshunoslikka oid qarashlar.*

**Tayanch tushunchalar:** *Umumturk tamadduni, til va yozuv, adabiyotshunoslik manbai, sak (skif)lar, adabiy-nazariy tasavvurlar, mifl, adabiyotshunoslik, qarashlar.*

**Umumturk tamadduni asoslari.** Turkiy xalqlar tarixi qanchalar qadim, turkiy dunyo hududi naqadar bepoyon, turk tili boy, zangin bo‘lgani kabi turk dunyosining adabiyoti ham shunchalar yuksakdir. Bu yuksaklik belgilarini biz yolg‘iz madaniy omillar doirasida olib qarasaq, bu muhtasham tarixga va cheksiz hududga, go‘zal adabiyotga nisbatan tor qaragan bo‘lamiz. Zero, turkiy xalqlar tarixining ko‘hna va boy qatlamlari xalq madaniyati va udumlari bilan bog‘liq holda shakllangan va taraqqiy etgan. Milliy adabiyot tarixi ibtidosi, davlatchilik yoki shaharsozlik tarixining ildizlarini izlaganda juda ko‘p olimlar turkiy tamaddunning shakllanish davri sifatida X–XII asrlarni ko‘rsatishgan<sup>5</sup>. Bu noto‘g‘ri qarash, Evropa, ayniqsa, sho‘ro davrida yaratilgan asarlarga singdirilgan. Biroq dunyodagi juda ko‘p turkiy xalqlar o‘zlarining ota yurtlarini Turonzamin, ya’ni Movarounnahr yoki bugungi atama bo‘yicha *Markaziy Osiyo* deb biladilar. Shuning uchun o‘zbeklar turkiy qavmning bir o‘zagi sifatida milliy madaniyat ildizlarini ham umumturk madaniy yodgorliklari va adabiy manbalaridan izlamoq lozim. Shu jihatdan qaraganda, Turk xoqonligi davri (IV–VIII asrlar) va uning

---

<sup>5</sup> Толстов С.П. Основные проблемы этногенеза народов Средней Азии. М.: СЭ, 1947. № VI-VII. С.303.

madaniyatini ayrim olimlar adabiyot va unga doir nazariy qarashlarning boshlang'ich nuqtasi deb qaraydilar. Lekin Lev Gumilevning "Turklar o'z tarixini olamning boshlanishidan hisoblasalar-da, ularning dunyoqarashidan kelib chiqilsa, bu dunyo uncha qadimiy emas. Olamning ibtidosi (ular nazarida) VI asr boshlaridir. Turklar o'z ajdodlari xunlar haqida hech narsa bilmas edilar»<sup>6</sup> degan fikrini tasdiqlash doirasida qolish bilan barobardir. Bu bilan, birinchidan, tarixchi olim so'nggi jumla orqali turkiy qavmlar ajdodlari xunlar ekanini e'tirof qiladi. Ikkinchidan, olimning "turklar qadimgi xunn davrida pishib etila boshlagan"<sup>7</sup> degan fikri orqali turkiy sivilizatsiya (tamaddun) tarixi xunlar tarixidan ham qadimgiroq ekanini eslatadi. Chunki "pishib etilish" davri boshlang'ich yoki taraqqiyot sari qadam tashlangan dastlabki davr emas, balki rivojlanish bosqichi, yuksak nuqtasi sifatida qabul qilinadi. Olimlarning e'tirofiga qaraganda, "buning sababi turklar va boshqa ko'chmanchi qabilalar qo'shnilariga nisbatan qobiliyati kam ekanligida emas, balki ular madaniyatining moddiy unsurlari bo'lgan namat, teri, yog'och va mo'ynalarning toshdan ko'ra yomonroq saqlanishidadir"<sup>8</sup>. Demak, ilk tamaddun haqida ma'lumot beruvchi manbalarni axtarganda toshbitiklardagi yozuvlar u qadar qadimgi emasligi ma'lum bo'lib qoldi. Biroq toshbitiklar yozuvi hisoblangan runiy harflar bilan yozilgan manbalarning o'zini esga oladigan bo'lsak ham m.a. VI asrga tegishli mis jomdagi yozuvni turkiy tamaddun bekatlaridan biri, deb belgilashimiz kerak bo'ladi. Ushbu yozuv harfiy belgilari jihatidan O'rxun obidalaridan u qadar jiddiy farq qilmasa ham uning yuqoridan pastga (O'rxun-Enasoy obidalari kabi) emas, balki o'ngdan chapga qarab yozilganini e'tiborga olsak, ayni davrga kelib, muayyan hududlarda runiy yozuv juda keng tarqalganiga guvoh bo'lamiz.

Markaziy Osiyo tarixi so'nggi davrlarda olimlar tomonidan quyidagicha davrlashtirilayotgani ko'proq tarixiy yodgorliklar va arxeologik qazishmalar

---

<sup>6</sup> *Gumilev L.N.* Qadimgi turklar / Tarj. B. O'rdabekli, A.Ayritomiy. T.: Fan, 2007. B. 4.

<sup>7</sup> *Gumilev L.N.* Qadimgi turklar. B.10.

<sup>8</sup> Ko'rsatilgan asar.

asosida ish ko‘rilganini tasdiqlaydi. Akad. A.Asqarov xronologik davriy tizimni belgilaydi:

1. Ibtidoiy to‘da davri (m.ам. 1 million – 40 mingyilliklar).
2. Ibtidoiy urug‘chilik jamoasi va mulk egaligining shakllanish davri (m.a. 40 mingyillikdan m. III–IV asrlargacha).
3. Ilk o‘rta asrlar davri (m. V–VIII asrlar).
4. O‘rta asrlar davri (IX–XIX asrlar).
5. Mustamlakachilik va milliy uyg‘onish davri (XIX asrning 2-yarmi – 1917 yil oktyabr to‘ntarishi)
6. Sovetlar hokimiyati davri (1917–1990).
7. Milliy istiqlol, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish davri (1991-yildan so‘ng)<sup>9</sup>.

Bu tizimda ancha munozaratalab o‘rinlar mavjud bo‘lsa-da, biz e‘tiborni madaniy tarix masalalari, til va yozuv taraqqiyotiga qaratamiz.

**Til va yozuv tarixi adabiyotshunoslikning manbai sifatida.** Til tafakkurning reallashuv shakli ekani ma‘lum<sup>10</sup>. “Tillar tarixiy ma‘lumotlar xazinasini... tillar bu yonmaydigan, yuvilib ketmaydigan, mafkuraning ta‘siriga berilmaydigan arxiv, bosh intellektual merosdirki, bu sonsiz ajdodlar avlodi (silsilasi)dan bizgacha yetib kelgan”<sup>11</sup>. Turk tilining o‘tmishiga nisbatan *tukyu* (xitoy manbalarida *turk* so‘zi shunday nomlangan), *xoqoniy*, *chig‘atoy*, *eski o‘zbek tili* atamaları qo‘llansa ham olimlar turkiy tillarning genezisi haqida fikr yuritarkan, “bronza (jez) davrida cho‘pon-chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi ko‘chmanchi turklar jamiyati

---

<sup>9</sup> Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. T.: O‘zbekiston, 2015. B. 76-90.

<sup>10</sup> Ushbu mavzuda batafsil ma‘lumot uchun qarang: Genezis uzbekskogo yazika i yego razvitiye // The Review of Central Asian Studies. Vol. 3. The Institute of Central Asian Studies. Kangnam University, Korea [Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar. 3-jild. Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazi. Kangnam universiteti, 2010. (Koreya)] 21–34 pp.

<sup>11</sup> Сулейманов О. Язык письма: Взгляд в доисторию – о происхождении письменности и языка малого человечества. Алматы-Рим, 1998. С. 204.

shakllangani, uning natijasi o‘laroq turk etnogenezi vujudga kelgani”<sup>12</sup> haqida fikr qiladilar.

Akad. N.A.Baskakov turk tili tarixini quyidagi davrlar bilan bog‘liq holda tizimli o‘rganishni taklif qilgan edi: Oltoy davri (1), xunlar davri, milodiy V asrgacha (2); qadimgi turk tili, V–X asrlar (3); o‘rtaturk tili, X–XV asrlar (4); yangi turk tili yoki ayrim qavmlar tillarining taraqqiyot davri, XVI – XX boshlari (5) va eng yangi davr XX asr ko‘rsatiladi (6). Bu o‘rinda Oltoy tillari davri (m.a. 6 mingyillikkacha kechgan davr)da turk, manjur-tungus tillari, mo‘g‘ul tillari mavjudligi manbalarda e‘tirof etiladi. Ushbu tasnifni aniqlashtirib, prof. B.YA.Vladimirsev yozadi: “mo‘g‘ul tili ham turk va tungus tillari bilan birga bir bobotilga borib taqaladiki, uni shartli ravishda *Oltoy tillari* deb ataydilar. Oltoy tili mavjud bo‘lganmi, yo‘qmi noma‘lum, biroq Oltoy tillari *mo‘g‘ul, turk, tungus* tillarining o‘zaro aloqasi tufayli rivojlanish davriga kirgan”<sup>13</sup>. Ma‘lumki, Oltoy davriga tegishli moddiy yodgorliklar etarli emas. Shuning uchun bu davr haqidagi tasavvur tarixiy tasavvurlar yoki yozma yodgorliklar bilan emas, balki “bu davr tillari va ularning xususiyatlari haqida *gipotetik*\* tiklangan qiyosiy-tarixiy metod vositasida ayrim o‘lik va hozirgi jonli tillar, bir tomondan, tungus-manjur, boshqa jihatdan, turk-mo‘g‘ul guruhlaridagi tillarning keyingi differensiyalashuvini kuzatamiz”<sup>14</sup>. Turklarning xo‘jalik va turmushi bilan bog‘liq ayrim so‘zlar barcha Oltoy tillari uchun umumiy bo‘lgan mo‘g‘ul va turk tillarida *buqa/bug‘a, buxa (mol), buxu/ bug‘u* (kiyiksimon hayvon), *bo‘ka* (qo‘y) so‘zlari o‘zakdosh bo‘lib, hayvonlarga nisbatan qo‘llanilgan. Bu so‘zlar faqat hayvon nomlarini ifodalabgina qolmay, balki qadimgi inson qarashlaridagi totem va kultrlarni ham ifodalaganki, mana shu kultrlar orqali qadimgi turklarning diniy va san‘at haqidagi tasavvurlari

---

<sup>12</sup> *Бернштам А.Н.* Древнейшие тюркские элементы в этногенезе Средней Азии // Советская этнография. Сб. статей, вып. 6–7. М.-Л., 1947. С.158; Yana qarang: *Якубовский А.Ю.* К вопросу об этногенезе узбекского народа. Т., 1941; *Эрматов Э.* Этногенез и формирование узбекского народа. Т.: Узбекистан, 1968; *Еремеев Д.Е.* Этногенез турок. – М.: Наука, 1971; *Shoniyoʻzov K.* O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. Т.: Sharq NMAK, 2001.

<sup>13</sup> *Владимирцев Б.Я.* Сравнительная грамматика монгольского письменного языка и хакасского наречия. Ленинград, 1929. С. 45.

\* *Gipotetik* (юнoнчa: hipo – ostida, asosi; tetus – joylashgan) – asosiga qo‘yilgan, tamal belgisi.

<sup>14</sup> *Баскаков Н.А.* Тюркские языки. М.: Наука, 1961. С. 29.

shakllangan, dastlabki piktografik yozuvlarda *buqa* tasviri hilol (yangi oy) shaklida tasavvur qilingan. Gʻor yoki toshlarga tushirilgan hayvonlar suratlari orasida *buqa* qadimgiroq ekani toʻgʻrisida soʻnggi paleolit (ilk tosh davri, 12-mingyillik) davriga oid Altamir (hozirgi Ispaniya hududida) gʻoridagi hoʻkiz surati, Zarautsoy qoyatoshidagi Buqalar jangi tasviri haqida qadimshunoslar xabar beradi<sup>15</sup>.

Prof. Fitrat “Sanʼatning manshai” maqolasida Fransiyaning Madilin gʻori (hozir qoʻriqxonada) dagi mamut (buqa) tasvirini ilk suratlardan biri sifatida eʼtirof etadi<sup>16</sup>. Olim ingliz fayla- sufi G.Spenser (1820–1903)ning “Asosiy ibtido” (1897) asariga tayanib, diniy tuygʻular poetik tafakkurning qadimgiroq shakli ekanini asoslash barobarida tushida hayvonlar bilan kurashgan kishilar ongida paydo boʻlgan tasavvurlarni keltirish orqali mazkur hayvon totemidan soʻz ochadi. Demak, ayni totem tasvirining gʻor devorlari, sopol idishlar va loydan yasalgan taxtachalarda aks etishi adabiyot va rassomlik sanʼati, yozuv namunalaridagi uygʻunlikni ifoda qiladi. Tabiiyki, ilk estetik tafakkur namunalari birgina badiiy adabiyotga doxil boʻlmay, balki amaliy sanʼat namunalarining barchasida aks etganligini anglatadi.

*Ilk yozuv namunalari* hisoblangan piktografik yozuvlar bilan petroglif (toshga oʻyilgan suratlar) oʻrtasida muayyan bogʻliqlik bor. Chunki petrogliflar tugal rasmlar emas, balki insonning tasavvuri doirasidagi hayvonlarning ramziy ifodasi, yaʼni belgisidir. Hozirgi semiologiya (belgi nazariyasi) fani shuni anglatmoqdaki, belgi dastlab harf sifatida tovushni emas, balki tushunchani ifoda qilgan. Tildagi ieroglifik yozuvlar “til taraqqiyotining dastlabki bosqichida ovozga taqlid (1) boʻlib, yozuv “soqov” obʼektlarni ham ovozga taqlid qiluvchi grafik yozuv asosida nomlashga kirishgan (2). Shunday qilib, soʻz yasalişining “*belgi + nom + belgining talqini = soʻz-tushuncha*» sxemasi vujudga kelgan. Hech bir til bu

---

<sup>15</sup> Saʼdullaev A., Kostetskiy V., Norqulov N. Oʻzbekiston tarixi. Eng qadimgi davrlardan milodning V asrigacha. Toshkent: Oʻqituvchi, 1999. B. 31, 44.

<sup>16</sup> Fitrat. Sanʼatning manshaʼi (kelib chiqishi) // Maorif va oʻqitgʻuchi. 1927. № 5. B. 31–34.



mexanizmni aylanib o'ta olmagan"<sup>17</sup>. Til hamda yozuvning inson tafakkuri va badiiy tasavvuri bilan parallel taraqqiyotini o'rgangan O'.Sulaymonov shumerlarda muqaddas hisoblangan 60 raqamiga tayanib, Inson va Tangri munosabatlariga oid turk va shumer leksikasi uchun umumiy bo'lgan 60 ta so'zning semantik jadvalini tuzib chiqib, shunday xulosaga keladi-ki: "Jadval shumer tili leksikasini turk tili bilan qiyoslash mumkin ekanini anglatadi. So'zlarning shakl va ma'nolarining mos kelishi tizimli, shuning uchun ham u tasodifiy emas (1). Misollar o'rganilayotgan tillarning uzoq vaqt o'zaro harakatda bo'lganini tasdiqlaydi. Ayrim hollarda shumer so'zlari turk tilidan o'zlashtirilgani ko'rinib turibdi (2)"<sup>18</sup>. Demak, qadimgi turklar tasavvuri ularning tili bilan barobar taraqqiy etgan, tasavvurdagi takomil tilda ham aks etgan, qadimgi ajdodlarimiz tildagi tovush va ma'nolarga uyg'un holda ular suratlar chizib qoldirganlar, surat bilan belgi (ieroglif) o'rtasida bog'liqlik asrlar davomida taraqqiy etib, keyingi davrlardagi fonetik yozuvga asos bo'lgan.

Turkiy til taraqqiyotidagi ikkinchi davr (VI–II mingyillik) *xunlar* davridir. Biroq xunlarning Yevropa va Osiyodagi mavjudligi m.a. ikkinchi ming yillik bilan nihoyalanganmaydi, balki ular to m.a. II asrda ham mavjud bo'lib, Xitoydagi Xan imperiyasi (m.a. 202 – m. 220 yillar) bilan o'zaro madaniy aloqada bo'lgani, ular bilan adabiy-estetik tushunchalararo munosabatga kirishgani Xitoy manbalarida qayd etiladi<sup>19</sup>. Xunn sulolasining asoschisi sifatida To'ng'u (xitoycha Cho'nvey, Cho'ngbag)ning ko'rsatilishi (m.a. 1200-yillar)<sup>20</sup> xunlar davri uzoq davom etganini anglatish barobarida bu davr ulkan va kuchli jamoalashuv davri bo'lib, Markaziy Osiyodan Sharqiy Yevropaga qadar juda katta hududda taraqqiy etgan etnik qatlamdan darak beradi. Shu o'rinda "xunn" so'zining etimologiyasi

---

<sup>17</sup> Сулейманов О. Язык письма. С. 50.

<sup>18</sup> Сулейманов О. Азия. Алма-ата, Жалынъ, 1990. С.548.

<sup>19</sup> Qarang: Буров В.Г. Философия Ханьской эпохи / Древнекитайская философия: Эпоха Хань. – М.: Наука, 1990. С.3–35.

<sup>20</sup> *Turg'un Olmos*. Qisqacha xunlar tarixi. Qashg'ar, 1986 (arab yozuvida).

bizni qiziqtiradi. *Xunnu*\* xitoycha: begona, ya'ni xitoylik emas, befoyda, natijasiz ma'nolarini bildiradi. Biroq EvroOsiyoda bir necha ming yillar davomida madaniy iz qoldirgan turkiy qavmlarni faqat xitoy tilidagi ma'nolar bilan talqin qilish kamlik qiladi. Uyg'ur yozuvidagi buddaviylik matni (Berlin kolleksiyasi)da afsonaviy *magik so'z* deb ta'riflanadi<sup>21</sup>, Katta qomus (BSE)da Ural va Markaziy Osiyodagi ko'chmanchi elatlar turkiy qavmlar<sup>22</sup> deb tavsiflanib, xunlar ularning keyingi G'arbga qarab yurishlari tufayli Yevropani zabt etgani tilga olinadi. N.YA.Bichurin xitoy manbalariga asoslanib, qadimda xitoylar bilan aloqaga kirishgan, lekin xitoy bo'lmagan (xuddi *arab va ajam* munosabatida *arab va arab bo'lmagan* deb talqin qilingani kabi) turklar, "xitoyliklar bu so'zning talaffuzida o'z tiliga moslab *xun* (johil) va *nu* (erkin emas) ma'nolarini beradilar. Biroq *xunnu* mo'g'ul tilida kishi nomidir, xitoycha harfiy ma'noga ega emas", deb yozish bilan *Xun-nu* Shi-Szu, ya'ni *Xunnu* bu qavmning asoschisi ekanini aytadi.<sup>23</sup> Prof. Q.Mahmudov xitoyliklarda turkiy qabilalarga nisbatan *xu* (uyg'urlar esa, *хуху*), mo'g'ullarga nisbatan *ju* atamasi qo'llanilgani, Buyuk Xitoy devori *xu* qabilalarining hujumlaridan saqlanish uchun qurilganini ma'lum qiladi<sup>24</sup>. Xunlar Shimoliy Xitoy, Mo'g'uliston, Ordos, Gansu, G'arbda Kasbiy dengizi bo'ylari va Kavkaz tog'larigacha, Sharqda Buyuk Xitoy devorigacha, Janubda Hindiston va Tibetgacha bo'lgan ulkan hududda yashaganlar. M.a. I asrda ular bir necha qabilaviy ittifoqlarga, ya'ni Sharqiy ittifoq bilan G'arbiy ittifoqqa bo'linib ketgan. G'arbiy ittifoq Yevropaga ketib, Shimoliy Kavkazda alanlar davlatini, Frakiyada gotlarni, *Atilla* davri (434–453) Sharqiy Rim va Vizantiyani egallab, shuhrat qozongani ma'lum. Biroq N.A.Baskakov til nuqtai nazaridan sharqiy xunlar davrida "tillar hali differensiyallashmagani va o'g'uz-qorluq-qipchoq guruhini tashkil etganini yozib, o'zi tomonidan tuzilgan "Turkiy tillar taraqqiyoti jadvali"ga

---

\* *Xunnu* – xitoycha: begona, ya'ni xitoylik emas (Гумелев Л. Хунны. М.: ИВЛ, 1960), befoyda, natijasiz (Drevnetyurkskiy slovar. L.: Nauka, 1969. S. 638) ma'nolarini bildiradi.

<sup>21</sup> Ko'rsatilgan asar.

<sup>22</sup> *Иностранцев К.А.* Хунну и гунны. Л., 1926; *Бернштам А.Н.* Очерк истории гуннов. Л., 1951; БСЭ. т.7. М.: СЭ, 1972. С. 450.

<sup>23</sup> *Бичурин Н.Я.* С.39.

<sup>24</sup> *Махмудов Q.* Qadimgi Tutkiston. В.22.

ishora qiladi va bu jarayon m.a. V asrga qadar davom etganini mazkur jadvaldan ko‘rish mumkin<sup>25</sup>.

“O‘zbek tili tarixi” mualliflari esa mana shu jarayonni kuzatib, uni aks ettiruvchi ichki va tashqi manbalarga e‘tibor qaratadi<sup>26</sup>. Tashqi manbalar sifatida xitoy va yunon manbalari belgilansa, ichki manbalar deb sharqiy xunlar hududida yaratilgan adabiy-diniy asarlarning til jihatiga e‘tibor qaratadi.

Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf; xitoylik sayyoh va tarixchilar Sima Syan, Ban Gu, Chjan Syan asarlarida Markaziy Osiyo madaniy tarixi bilan bog‘liq kuzatishlar mavjud. Agar fikrimizni dunyo tan olgan tashqi manbalar orqali davom ettirsak, yunon tarixchisi Geradot (m.a. 484–425) kitobida “skiflar (“saq” so‘zi yunon manbalarida “skif” orqali ifodalangani uchun butun Ovro‘pa ularni *skiflar* deb ataydi)ning 500 so‘zi keltirilib” sharhlangani e‘tiborni tortadi<sup>27</sup>. Z.Gasanovning aniqlashicha, ularning aksariyati turk tillarining so‘z yasash xususiyatiga to‘g‘ri keladi<sup>28</sup>.

**Sak (skif)larning adabiy-nazariy tasavvurlari.** Jahon madaniyati tarixida chuqur iz qoldirgan *saklar* m.a. VI–V asrlarda Qora dengizning shimolidan Yoyiq (Ural)ga qadar hududda yashashgan. Bu turkiy qavm *shak/sak/say/saka/saqa/saxa/iskif/skif/ massaget* kabi turli tillarda turlicha nomlangan, biroq so‘zning asl o‘zagi *saq* bo‘lib, manbalarda xunlarning ajdodlari sifatida ko‘rsatiladi<sup>29</sup>. Qadimshunos S.L.Rudenko Oltoy o‘lkasida olib borgan arxeologik qazishmalar natijasida saqlarning kiyimlarida aks etgan o‘ziga xosliklar, Assuriyaning ittifoqchisi sifatida qatnashgan janglardagi harbiy mahorati, ularning suratlari esa Bobilning Namrud saroyi xarobalarida chizib qoldirilgan rasmlarda aks etganini qayd etadi<sup>30</sup>. Shuningdek, saqa madaniyatiga oid kuzatishlar yunon tarixchilari Geradot, Arrian, Pliniy, Strabon, Polien, Ktesiy

<sup>25</sup> Баскаков Н.А. Тюркские языки. С.37.

<sup>26</sup> Рахмонов Н., Содиқов Қ. О‘zbek tili tarixi. Т.: 2009. В. 7–8.

<sup>27</sup> Геродот. История. М., 1961.

<sup>28</sup> Гасанов З. Царские скифы. – Нью Йорк, 2002. С.395.

<sup>29</sup> Махмудов Қ. Qadimgi Tutkiston. В.22.

<sup>30</sup> Руденко С.И. Культура населения горного Алтая в скифские времена. М.-Л., 1968. С. 13-14, 17.

asarlarida uchraydi. Bu manbalardagi ma'lumotlarni jamlaganda, saqlar m.a. II asrgacha Turonda hayot kechirganligi ma'lum. Bu haqda turk manbalarida ham yozishgan: "Turklar Tangritog' (Tyan-Shan)ning shimoliy va g'arbiy yonbag'irlaridan to Orol ko'liga qadar uzangan cho'llarda ilk bor tarix sahnasiga chiqdilar. Turklarning bizga ma'lum bo'lgan ilk siyosiy tashkillanishi miloddan oldingi VIII asrga to'g'ri keladi. Bu paytda Tangri tog'lari atrofida qurilgan va Chindan Yevropaga qadar yoyilgan *Saqa imperatorligi* qurildi<sup>31</sup>.

Saqlar uch qabilaviy uyushma tarzida hayot kechirgan bo'lib, ularning *xaumavarga*, *tigraxauda* va *tiay-tara-darayya* urug'lari Persepol yaqinidagi Naqshi Rostam darasidagi qabrtoshlarda uchragan<sup>32</sup>. Tigraxauda saklari (ust qismi o'tkir qalpoq kiyuvchilar), xaumavarga saklari (xaom ichimligini qaynatuvchilar)ni Geradot *ortokaribantiy* va *amyurgiya* skiflari deb nomlagan. *Tiay-tara-darayyya* (daryo ortidagilar) "Sug'diyonaning narigi tomonida" yashaganlar Persepol va Ekbotanadan topilgan yozuvlarda aks etgan<sup>33</sup>. Ular yashagan hududlar sifatida Murg'ob vodiysi, Amudaryoning yuqori oqimi, Oloy va Farg'ona vodiylari ko'rsatiladi. Bundan tashqari, O'rta Osiyo saqlari yunonlardan keyingi manbalarda *day (dah)*, *issedonlar* deb ham yuritilgan.

Markaziy Osiyo hududidagi yozuvlar haqida akad. A.Asqarov ma'lumot berib, qadimgi ajdodlarimiz *Xorazm yozuvi*, *Parfiya yozuvi*, *Bohtariy yozuvi*, *sug'diy yozuv*, *qadimgi turkiy (runiy) yozuv* qo'llaganliklarini qayd etadi. "Noma'lum yozuv"lar sirasiga m.a. IV–III asrlarga tegishli Issiq hududidan topilgan yozuvni kiritadilar.<sup>34</sup> Demak, qadimgi saqlarning ham o'z yozuvi ham mavjud bo'lgan va bir emas, hududlarga ko'ra bir necha yozuvlardan foydalanganlar<sup>35</sup>. Qadimgi yozuv mutaxassislari I.M.Dyakonov, V.A.Livshits, S.G.Klyashtor-niyning xabariga ko'ra, "Issiq" yozuvi ilmda aniqlangan mavjud alifbolardan farqlanadi.

---

<sup>31</sup> Ibtidosidan bugungi kuniga qadar Turkiya Turk adabiyoti / Sana-Ismlar-Matnlar. Ankara, 2003. S. 13.

<sup>32</sup> История Узбекистана в источниках / Сост. Лунин Б.В. Т., 1984. С. 31–40.

<sup>33</sup> *Shoniyozov K.* O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T.: Sharq NMAK, 2001.

<sup>34</sup> *Asqarov A.* O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. T.: O'zbekiston, 2015. B. 126–134.

<sup>35</sup> Bu haqda qarang: *Ishoqov M., Sodiqov Q., Omonov Q.* Mangu bitiklar. T., 2009. B. 7.

“Issiq” yozuvini topgan K.Akisev uni saqlar madaniyati bilan bog‘laydi. Ular “SHosh (Toshkent tumani) hududida, Shimoliy Qirg‘iziston va Qozog‘istonning janubida hayot kechirganlar<sup>36</sup>. Olimning fikricha, Issiq shahristonidan topilgan ashyolar orasida kumush kosa tegrasiga yozilgan *saq yozuvi* til xususiyatlari bilan boboturk tili g‘oyalariga mos keladi. Bu yozuvlar 1981 yilda I.S.Kuznetsov tomonidan o‘qilgan va e‘lon qilingan<sup>37</sup> kosada “Va yana Arsatai (пращур) bor edi, u Tong ma‘budini himoya qilgan” (“Я был ещё Арсатай пращур, кто ладно Весы Зари защищал”) so‘zlari bilan yozuv o‘rtasida romb shakli bor edi. “Vesi Zari” so‘zlari ma‘buda Tarani anglatadi. O‘sha davrda Uraldan Uzoq Sharqqa qadar davom etgan “Grand Tartariya” (Buyuk Tartariston) deb yuritilgan ulkan hududda ma‘bud Tarxa va ma‘buda Tara (aka-singil)ga topinganlar<sup>38</sup>. Sirdaryoning quyi oqimidagi saqlarning idishlardagi yozuvlarini o‘rgangan olim O.A.Vishnevskayaning aniqlashicha, “Butun holida topilgan va tiklangan idishlar: kosa, ko‘za, piyola (krujka), hammom buyumlarida ham shunday yozuvlar bo‘lgan<sup>39</sup>.

Tilga olingan faktlar saqlarning adabiy tafakkuri ancha rivojlanganini ko‘rsatadi. Ular boshqa ibtidoiy estetik tafakkur sohiblari singari o‘z qarashlarini ma‘budlar bilan bog‘liq holda ifoda etgan, inonchni ifodalovchi bu yozuvlarning inson uchun zarur bo‘lgan ashyolarda aks etishi ularning yozuvlari yana ham qadimgiroq ekanini anglatadi.

Saqlarning madaniy qarashlari haqida tarixchi R.Rahmonaliev yunon manbalari va Assiriya yilnomachilarigaga tayanib, m.a. 750 va 700-yillarda kimmeriylarni Turkiston va G‘arbiy Sibirdan kelgan saqlar siqib chiqargan i ularni assiriyaliklar «ashkuzay», yunonlar «skif»lar deb ataganini aniqlaydi. Bu davrda saqlarning asosiy jamoasi Tyan-Shan, Farg‘ona va Koshg‘arda saqlanib qolsa-da,

---

<sup>36</sup> *Акишев К.А.* Курган Иссык. Искусство саков Казахстана. М.: Искусство, 1978. С.5.

<sup>37</sup> *Омонжолов А.С.* Материалы и исследования по истории древнетюркской письменности. Алма-ата, 1975. С.62.

<sup>38</sup> *Акишев К.А.* Курган Иссык. Искусство саков Казахстана. М.: Искусство, 1978. С.74.

<sup>39</sup> *Вишневская О.А.* Культура сакских племен низовьев Сырдарьи в VII-V до н.э. М., 1973.

ma'lum qismi To'rg'ay va Janubiy Uraldan Rossiya (hozirgi) janubiga qarab yurgani ma'lum bo'ladi.

*Massagetlar* Orol dengizining sharqida Yaksart (Sirdaryo) va Balxash bo'ylarida yashagan, ularni Geradot *saqlar* deb ataydi<sup>40</sup>. Strabon bo'lsa, massagetlarning besh qavmi: derbiklar, amasiaklar, attaslar, xorazmliklar va abgaslarni tilga oladi. *Massagetlar*\* Marsellin, Kassiy, Arrian asarlarida *sarmat* qavmining (alan qabilasi) ibtidosini ham tashkil etgan. Geradotga ko'ra, Skifiya hududi kvadrat (yoki romb) shaklida bo'lib, bu ham ilohiy ma'noga egadir. Bu kvadrat janubi dengiz, shimoli afsonaviy Ripey tog'lari osmon bilan tutashib ketgan. Saqlar mifologiyasiga ko'ra, ma'buda Tabiti uy turmushining homiysi. Oliy ma'bud esa Papay deb nomlanadi, yunon tarixchilari uni Zevsga qiyoslaydilar.

R.Raxmonaliev fikricha, mifologiyaning ushbu nuqtasi butun *saqlar san'ati* uchun muhimdir. Chunki saqlar san'atida ashyolarda naturalizm aks etgan bo'lib, u assiriya va yunonlarga amaliy san'at sifatida o'tgan<sup>41</sup>. Hozirgi Rossiyaning janubidagi "Cho'l estetikasi" nomi bilan asrlarcha davom etgan madaniyat sharqda Mo'g'uliston va Xitoyga qadar cho'zilgan hududda davom etgan bo'lib, bu saqlarga tegishlidir. "Eng boshdan saqlar san'atida ikki oqim: naturalizm, sekin-asta assiriy-axomaniylar manbalari bo'yicha ellinizm, boshqa tomondan, amaliy san'at yo'nalishi, qaysiki, u vaqti bilan birinchi yo'nalishni cheklab, sof amaliy bezak san'ati maqsadiga qaratilgan. Nihoyat, *animalistik realizm*\* orqali chorva va ovchilik bilan shug'ullangan xalqning dekarativ uslubi shakllangan. Bunday yo'nalish g'arbda skif-sarmatlar, sharqda esa xunnlarning ko'chmanchi hayot

---

<sup>40</sup> *Герадот. История / Историка античности. Т.1: Древняя Греция. М.: Правда, 1989. С. 120/*

\* *Massagetlar* – *ma* + *saq* so'zlarining yunonlar tomonidan buzib talaffuz qilinishi natijasida manbalarda massaget so'zi saqlanib qolgan bo'lib, qadimshunos Kristensen talqinicha, "katta (yoki yuqori) saqlar" degani.

<sup>41</sup> *Рахмоналиев Р. Империя тюрков. М.: Прогресс, 2002. С. 912.*

\* *Animalistik realizm (animaliya* – fransuzcha hayvonlar) – tabiiy hayotni o'z holida ko'rsatishga qaratilgan adabiy yo'nalish. Masalan, ingliz adibi Seton-Tomsonning asarlari shu ruhda yozilgan.

sharoiti bilan belgilanadi”. Geradot yozishicha, saqlarning boshlariga tik, usti cho‘qqi qalpoq kiyganlar. Bu kiyim bilan Issiqda topilgan kosaga tushirilgan romb tasvirida umumiy ramz yo‘qmikan, degan taxmin yuzaga keladi. Chunki tasvirda rombning yuqori qismi ularning qalpog‘iga o‘xshash shaklga ega. Yana shu asarda aytilishicha, massagetlar, asosan, oltin va mis buyumlarni keng qo‘llaganlar, temir va kumush nisbatan kam, ikkinchi darajali qismlar uchun ishlatilgan<sup>42</sup>.

Saqlarning taqinchoqlarida “hayvonot uslubi” (zverinyy stil) aks etgan bo‘lib<sup>43</sup>, pichoq, xanjar va qilichlar dastasi, ayollar taqinchoqlari: oynalar dastasi, bilaguzuk, isirg‘a va boshqalarda kiyiklar, ho‘kiz va buqalar tasviri tushirilgan. Ular bu shakllardan tumor sifatida ham foydalanganki, bu yovuz kuchlarni haydash, ulardan saqlanish vositasi deb qaralgan (pichoq va xanjarlar dastalari hayvonlarning shoxlaridan tayyorlanishi ana shu madaniyatning izlari)<sup>44</sup>. Ular qoldirgan suratlarda, ko‘proq, hayvonlar ramzlari borligiga e‘tibor qarataylik. Hatto keyinroq turkiy qavmlarning *bo‘ri ramzi* mana shu ko‘chmanchi hayotda antilopa (kiyiklarning ilk ajdodi)ni quvib yetganlari uchun bayroqlariga ham ko‘chib o‘tgan. Tabiiyki, saqlar ramziy belgilar bilan ish ko‘rarkanlar, uning aniq asoslarini real hayotda uchratganlar. Bu animalistik syujetlar *magik va mifik mohiyat* kasb etgan.

Tarixchi Geradot shunday yozadi: “Bu orollarda (Araks / Amu-daryodagi) shunday kishilar yashaydi: ular yozda yerdan kavlab olingan turli ildizlar bilan oziqlanadilar. Yana yoz oylarida pishgan mevalarni to‘plab, qishga zahiraga saqlab qo‘yadilar. Bundan tashqari, (u yerda) yana shunday daraxtlar o‘sadiki, massagetlar bir joyga to‘planib, o‘t yoqadilar, gulxanga shu mevalarni tashlab, uning atrofida o‘tiradilar. Saqlar mevalarning o‘tda yonishidan keladigan hiddan kayflanadilar, xuddi ellinlar vinodan sarmast bo‘lganlari kabi. Ular olovga qancha ko‘p meva tashlasalar, shuncha ko‘p kayflanib, so‘ng qo‘shiq aytib, o‘yinga

---

<sup>42</sup> Хазанов А.М. Золото скифов. М., 1975.

<sup>43</sup> Граков Б. Н. Скифы. М., 1971.

<sup>44</sup> Латышев В.В. Известия древних писателей греческих и латинских о Скифии и Кавказе. Т. 1-2. СПб, 1893–1906.

tushadilar”<sup>45</sup>. Bu kabi kuzatuvlar massagetlar haqidagi tasavvurimizni to‘ldiradi, bu qavmlar madaniyati saqlar e’tiqodidagi inonchlarga yaqinligini ko‘rsatadi.

M.a. IV asrdan, tarixchilarning yozishicha, YevroOsiyo hududida xunlar, sarmatlar nomi bilan bog‘liq madaniy harakatlarning asosida ham saqlarning qarashlari yotadi. M.a. III asrdan Markaziy Osiyoda buyuk davlat Parfiya vujudga keldi, Arshak yetakchiligidagi saqlar lashkarlari Eronni maqduniyaliklardan ozod qildilar va Iskandar Maqdunli xarob qilgan mamlakatda yevropalik olimlar sarmatlar bilan bog‘lab tushuntirayotgan Qora dengiz bo‘ylarida o‘zlari (g‘arb skiflari)ning davlatini barpo qildi.

**Miflardagi adabiyotshunoslikka oid qarashlar.** Qadimgi miflarda *kosmogoniya\**, Buyuk To‘fon davri va undan insoniyatni olib chiqishga urunish, G‘arb bosqinchilari (Maqdunli Iskandar) va Eron istilosi kabi olamshumul masalalar aks etgan.

Geradot asari bo‘yicha, Kirning so‘nggi yurishi Xivaning sharqiy qismida yashagan massagetlarga qarshi (m.a. 530) uyushtirilgan bo‘lib, uning o‘limi ham o‘sha erda yuz bergan edi. Axomaniylar imperiyasini yaratgan, Astiag (Midiya podshohi)ni mahv etib, uning poytaxti Ekbatana (m.a. 550) bosib olgan, Kryozni tor-mor qilib (m.a. 546), Kichik Osiyoda o‘z hukmronligini o‘rnatgan va o‘z hududiga Bobil, Assiriya, Suriya, Palastinni qo‘shib olgan Kirning vafoti massagetlar malikasi *To‘maris* (manbada Tomiris) qo‘lida bo‘ldi. Bu tarix Geradotning mashhur asari vositasida butun dunyoga tanilgan bo‘lib, u saqlar (yunonlilar talaffuzida *masaq/massaget*) haqidagi qahramonlik qo‘shig‘idir.

Adabiyot va tarix bo‘yicha yozilgan darslik kitoblarida afsonalar sifatida tavsiya etilgan “To‘maris” qissasi<sup>46</sup> Geradot asarida o‘ta aniqlik bilan

---

<sup>45</sup> *Герадот. История / Историки античности. Т.1: Древняя Греция. М.: Правда, 1989. С. 115.*

\* *Kosmogoniya* – olamning yaratilishi haqidagi miflarni o‘rganuvchi soha.

<sup>46</sup> “O‘zbek adabiyoti tarixi”ning 1-jildida bu asarlar “Qadimiy qissalar” sarlavhasi ostida berilgan. Qarang: O‘zbek adabiyoti tarixi. I tom. T.: Fan, 1978. B.45.



tasvirlanadi<sup>47</sup>. So‘ngra “Tarix”da Kirning mashvarat qilgani, massagetlar eriga o‘tib, jang qilmoqchi bo‘lgani, To‘maris va‘dasida turgani aytiladi. Shu o‘rinda hikoya so‘ngida tarixchi keltirgan ushbu so‘zlar e‘tiborli: “Kirning o‘limi haqidagi juda ko‘p hikoyalardan, menimcha, eng haqiqatga yaqini shu”. Bu tarixdan massagetlar badiiy tafakkuriga oid ikki nuqtani ilg‘ash qiyin emas. Birinchisi, haqiqat va xiyla munosabati. Xiyla yo‘lini tutgan, buni o‘ziga odat qilib olgan Kir halokatga mahkumdir. Hatto Kirning halokati tushida ma‘budlar orqali ayon eslatiladi. Ikkinchisi, Geradot keltirgan yuqoridagi odat. Ularning mast qiluvchi ichimlikka munosabati (saqlar mast qiluvchi ichimlik ichmas, yovvoyi mevalarni yoqib, huzur qilishlarini eslang). Bu To‘maris so‘zlarida ko‘rinadi: *“Ey qonxo‘r Kir! Uzum suvi ichganda siz eroniylar aqlingizni yo‘qotib qo‘yasizlar. May miyangizga urganda, siz mast-alast bo‘lib, og‘zingizdan noma‘qul so‘zlarni chiqarasizlar. O‘g‘limni jang maydonida emas, zaharli ichimlik bilan, nayrang bilan qo‘lga olding!”* Shuningdek, So‘zga ehtiyotsizlik ham mastlik natijasi: *“noma‘qul so‘zlarni rost odam emas, mast odam aytadi”*<sup>48</sup>. Kir va‘dasida turmadi, To‘maris ayol bo‘laturib va‘dasiga binoan chekindi, Kir shuncha lashkar bilan daryoning narigi sohiliga o‘tgandan so‘ng ham rost jangga kirishmay, xiyla yo‘lini tanladi. Mana bu qarashlardagi ma‘naviy ziddiyat va uning natijasi muallif nazarida oliy haqiqat uchun zarur edi. Ayni voqeada turklarga xos yana bir muhim jihat, o‘z so‘zida qat‘iy turishlik seziladi. Kir so‘zida turmadi, To‘maris esa *“Men jangda halollik bilan yengdim. Sen makr yo‘lini tanlading. Ontimga amal qilib, seni qonga to‘ydiraman”*, deydi. Qarashlardagi ziddiyatning natijasi o‘laroq yuzaga chiqqan To‘maris so‘zlari turklarning jasoratiga umrboqiylik bag‘ishlagan. Rost so‘zga ishonch, rost so‘z g‘alabasining tayin etilishi saqlar badiiy tafakkurining yuksakligini ko‘rsatuvchi axloqiy-estetik omildir.

Kirning saqlar yurtiga hujumi haqida boshqa yunon tarixchisi Ktesiy xabar beradi. Uning asarida yozilishicha, Kir saqlar yurtiga bostirib kiradi va qo‘li

---

<sup>47</sup> *Герадот. История / Историка античности. Т.1: Древняя Греция. М.: Правда, 1989. С. 116.*

<sup>48</sup> *Герадот. История / Историка античности. Т.1: Древняя Греция. М.: Правда, 1989. С. 117.*

baland kelib, podshoh Amorgni asirga oladi. Bundan g‘azablangan malika Sparetra barchani oyoqqa turg‘azib Kirni kuch bilan yengadi va asirlar ayirbosh qilinganda, eri Amorgni ozod qiladi<sup>49</sup>. Bu kichik qissada ham saqlar ustunligi hikoya qilinish bilan birga asosiy qahramon vazifasi *ayol kishi* – *Sparetraga* yuklanadi. *Har ikki hikoya To‘maris ham, bunisi ham ayol qahramonligiga urg‘u beradi. Saqlar tasavvurida ham, hayotida ham ayol jasorati yuksak qadrlanadi.*

Kirning vafotidan ancha keyin taxtga chiqqan Doroga qarshi yolg‘iz kuch podachi Shiroq (yunon manbasida Sirak) qissasi e‘tiborli. Poliennning “Harbiy hiylalar” kitobidan o‘rin olgan bu voqea ham xayoliy afsona emas, tadbirkorlik qissasi sifatida qadr topgan. Unda jangovorlik tabiati bilan bir qatorda aql-idrok g‘alabasi kuylanadi. Bu bamisoli eroniylarning xiylalariga xiyla bilan javob berish taktikasini qo‘llagani uchun cho‘ponning o‘limi nafaqat tadbirlilik, balki o‘ziga xos jasorat sifatida talqin qilinadi.

Yuqoridagi miqlarda ikki jihat zulm va xiylaga nisbatan haqiqat jangi, ikkinchisida xiylaga xiyla bilan javob berish usuli beriladi. Har ikki yo‘l ham saqlarning g‘alabasini (qahra-monning vafotidan qat‘i nazar) ta‘minlagani yunon olimlari tomonidan tan olingan.

“Striangey va Zarineya” qissasida ayol idroki faol atribut sifatida ko‘rsatiladi. Saqlar podshohi Marmarey o‘limidan keyingi voqeada o‘zining haloskori Striangeyning sevgisini rad etishga kuch topgan Zarineya tasvirlanadi. Biroq Striangey o‘z muhabbatini sevgilisiga xat orqali anglatish barobarida usiz o‘ziga o‘limni ravo ko‘radi.

Agar turli manba va ashyolarda aks etgan saqlar dunyoqarashi va tuyg‘ulari haqidagi qissalar jamlansa, ular yashagan muhit, kechirgan voqealar, his etgan tuyg‘ulari xronologik tartibda o‘rganilsa (hali bu ilmiy harakatdan ko‘ra talqin va tasavvurlar kuchiga suyanib ish ko‘rilmoqda), nafaqat tarix uchun, balki adabiyotshunoslik tarixi va falsafa uchun ham kuchli materiallarga ega bo‘lamiz.

---

<sup>49</sup> Qarang: *Синявский Б.Я. Между Помиром и Каспием. М., 1966. С. 95-96.*

Beruniyning “Osor ul-boqiya” asarida Eron hukmdorlaridan *Vishtasp* (yunon manbalarida *Gistasp*) hukmronligining 30-yilida Zardusht bilan uchrashgani haqida ma’lumot bor. Vishtasp Zardusht ta’limotini qabul qiladi. Shu va boshqa manbalar asosida “Avesto”ning ilk yaratilish davri haqida fikrlar yuzaga chiqadi. “Avesto” Eronda bir necha marta ko‘chirilgani va kitobat qilingani, bu e’tiqoddagilar musulmonlikka qadar Eronda ko‘proq saqlanib qolgani uchun Ovro‘pa olimlari orasida bu mo‘tabar manbaga nisbatan eroniylar yodgorligi sifatidagi qarash shakllangan. Biroq “Avesto”dagi voqealar o‘rni sifatida Xorazm, Baqtriya, Sug‘d va uning atroflaridagi joy nomlari keltirilishi ushbu adabiy manba Markaziy Osiyo xalqlariga ko‘proq taalluqli ekanini anglatib turibdi. Asarga Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining mushtarak yozma yodgorligi sifatida qarovchilar ko‘pchilikni tashkil qiladi. “Avesto”da bevosita tarixiy ma’lumotlar u qadar ko‘p emas, lekin Markaziy Osiyo xalqlarining adabiy-nazariy qarashlarini o‘rganishda u muhim ilmiy manba va shakllangan diniy ta’limot sifatida asqotadi.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. “Umumturk tamadduni” birikmasining mohiyatini tushuntiring va uning asoslarini belgilang.
2. Qadimgi turkiy til va yozuv tarixiga oid manbalarda aks etgan adabiyotshunoslik unsurlarini aniqlang.
3. Sak (skif)larning adabiy-nazariy tasavvurlarini sharhlang.
4. Miflardagi adabiyotshunoslikka oid qarashlar asosida yotgan haq, chin tushunchalariga adabiy istiloh sifatida yondashib, ularning matn tarkibidagi o‘rnini izohlang .

### ***Adabiyotlar***

1. Abu Rayhon Beruniy. Al-osoru-l-boqiya an-al qurunu-l-holiya. T.: Fan, 1968.
2. Abdurahmonov A. Turküy adabiyotning qadimgi davri. T.: Yangi asr avlodi, 2005.
3. Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. T.: O‘zbekiston, 2015.

4. Baltabaev H. Genezis uzbekskogo yazыka i ego razvitie // The Review of Central Asian Studies. Vol. 3. The Institute of Central Asian Studies. Kangnam University, Korea [Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar. 3-jild. Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazi. Kangnam universiteti, 2010 (Koreya)] 21-34 pp.

5. Fitrat. San'atning mansha'i (kelib chiqishi) // Maorif va o'qitg'uchi. 1927. № 5. B. 31–34.

6. Gumilev L.N. Qadimgi turklar / Tarj. B. O'rdabekli, A. Ayritomiy. T.: Fan, 2007.

7. Mahmudov Q. Qadimgi Turkiston. T.: MUMTOZ SO'Z, 2012.

8. O'zbek nasri tarixidan. T.: Fan, 1982.

9. Sa'dullaev A., Kostetskiy V., Norqulov N. O'zbekiston tarixi. Eng qadimgi davrlardan milodning V asrigacha. Toshkent: O'qituvchi, 1999.

10. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T.: Sharq NMAK, 2001.

11. Sa'dullaev A., Kostetskiy V., Norqulov N. O'zbekiston tarixi. Eng qadimgi davrlardan milodning V asrigacha. Toshkent: O'qituvchi, 1999.

12. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. T.: 2009.

13. Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida / Z.A'lam tarj. T.: Yurist-Media, 2008.

14. Баскаков Н.А. Тюркские языки. М.: Наука, 1960.

15. Бернштам А.Н. Древнейшие тюркские элементы в этногенезе Средней Азии // Советская этнография. Сб. статей, вып. 6–7. М.-Л., 1947. С.158;

16. Бернштам А.Н. Очерк истории гуннов. Л., 1951.

17. Геродот. История / Историки античности. Т.1: Древняя Греция. М.: Правда, 1989.

18. Граков Б. Н. Скифы. М., 1971.

19. Гумилев Л.Н. Қадимги турклар / Tarj. Б.Ўрдабекли, А.Айритомий. Т.: Фан, 2007.

20. Дьяконов М.М. Очерк истории древнего Ирана. М., 1961.
21. Еремеев Д.Е. Этногенез турок. – М.: Наука, 1971.
22. Иностранцев К.А. Хунну и гунны. Л., 1926;
23. Стависский Б.Я. Искусство Средней Азии. Древний период. М., 1974.
24. Сулейманов О. Язык письма: Взгляд в доисторию – о происхождении письменности и языка малого человечества. Алматы-Рим, 1998..
25. Тюркологические исследования. Москва-Ленинград, 1963. С. 214-233.
26. Толстов С.П. Основные проблемы этногенеза народов Средней Азии. М.: СЭ, 1947. № VI-VII.
27. Шахермайар Ф. Александр Македонский. М.: Наука, 1984.
28. Эрматов Э. Этногенез и формирование узбекского народа. Т.: Узбекистан, 1968.
29. Якубовский А.Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. Т., 1941

### 3-mavzu. YOZMA MANBALARDAGI NAZARIY QARASHLAR

#### *Reja:*

1. *“Avesto”da ezgu so‘z poetikasi.*
2. *Sug‘d manbalarida adabiy-estetik tasavvur.*
3. *Buddaviylik va moniylik manbalari.*
4. *O‘rxun-Enasoy obidalarda nazariy fikrlar.*

Sharq xalqlarining qadimgi adabiy, ma’naviy, madaniy va falsafiy nodir yodgorliklaridan biri “Avesto” ming yillar davomida tarixchi, filolog, madaniyatshunos, etnograf olimlar tomonidan jahonning turli mamlakatlarida o‘rganilib kelinmoqda.

“**Avesto**” (hozirgi tilda “Asosiy kitob” ma’nosida) zardushtiylikning diniy e’tiqod kitobi bo‘lishi bilan bir vaqtda so‘z san’ati yodgorligi hamdir. Zardushtiylar ezgu ishlar ma’budi Axura Mazda (Hurmuzd, yunonlarda Hermis, Germes)ga ibodat qilish bilan birga Quyosh, olov, zamin – Yer, suv – daryo va soylarga, shuningdek, nomoddiy, ma’naviy, umuminsoniy ideallar: Asha (haqiqat)ga, Baxt-iqbol ma’budasi – Ashiga (tole’, taqdir)ga sajda qilishgan. Axura Mazdaning olti yordamchisi yoki tajalliysi – Amesha Spentalarga tavof qilinib, yashtlar – salavotlar aytiladi. Bu olti tajallilar – Axura-Mazdaning kuch-qudrati timsollari: 1. Vohu-Mana – ezgu niyat. 2. Asha-Vaxishta – eng yaxshi haqiqat. 3. Spenta-Armayti – muqaddas halollik, sofdillik. 4. Xshatra-Varya – niyatdagi hokimiyat. 5. Xarvatat – butunlik, yaxlitlik. 6. Umuratat – uzoq umr, abadiy hayot. Bu olti ideal – axloqiy va ma’naviy kamolotga eltuvchi kuchlar insonlar uchun eng oliy qadriyatlar sifatida ulug‘langan. “Avesto”da aytilishicha, mana shu olti muqaddas kuchlar Axura Mazda tomonidan eng avval yaratilgan<sup>50</sup>.

---

<sup>50</sup> Авеста. Душанбе: Адиб. 1990.

“Avesto” tili qadimgi sanskrit bilan qadimgi pahlaviy tili qorishig‘idan iborat ekanligi aniqlangan. “Avesto”da Baxdi (Box-tar, Baqtriya)<sup>51</sup>, Orol, Amudaryo havzasi – Xorazm vohasi realiyalari saqlanib qolganligidan zardushtiylik avval Xorazmda paydo bo‘lib, keyin (ehtimol, kayoniylar yoki sosoniylar davrida) Hindistonga va Eronga tarqalgan, degan xulosa qilish mumkin. Ming yillar davomida yo‘qolgan “Avesto” matni fransuz olimi Anketil dyu Perron tomonidan topilib, 1771-yilda fransuzchaga tarjima qilindi. Unga ko‘ra «Avesto» matni to‘rt qismdan iborat: *Yasna* (“Diniy marosimlar”), *Yasht* (ma’no jihatdan Yasnaga yaqin; eng qadimgi ibodat-madhlardan iborat), *Visparad* (“Barcha ilohlar haqidagi kitob”, unda olti ma’naviy qadriyat – ideallarni ulug‘lovchi ibodat qo‘shiq-lari mavjud), *Vendidod* (“Yovuz ruhlarga qarshi qonunlar majmuasi”). *Yasna* tarkibiga kirgan madhlar “gatlar” (ayrim manbalarda “gohlar”) deb nomlanib, ularni Zardushtning o‘zi yozgan deb taxmin qilinadi. Gatlar tarkibida Jamshid (Yima), Gershasp, Afrosiyob (Alp Erto‘nga) kabi afsonaviy qahramonlar hayoti lavhalari uchraydi<sup>52</sup>.

Vendidod (ma’nosi: devlardan uzoqlashtiruvchi qonun yoki devlarga qarshi nizomlar) – bu bo‘limda ezgulik Tangrisi Axura Mazdaning o‘z payg‘ambari Zardushtga yovuzlik, yomonlik yetakchisi *Axriman* (sanskritcha: Angri Manyu)ning zararli kirdikorlarini tushuntiradi. Zardushtning savollariga Axura Mazda javob beradi. Bu javoblarda ezgulik ma’budi Xurmuz zardushtiylarning qadimiy vatanlari, u yerda bor yaxshiliklar va Axrimanning tabiatga, insonlarga zararli kuchlari nimalar ekanligini bildi-radi. Bu mamlakatlarning nomlari qadimiy sanskritcha ekanligi shuni ko‘rsatadiki, zardushtiylik Hindistonga, undan keyin Eronzaminga va Yunonistongacha tarqalgan.

Evropa olimlari “Avesto”ning “Videv” qismini *geografik poema* deb ataydilar. Bu bo‘limda yer kurrasining odamlar yashaydigan qismlarida Axura Mazda qanday ne’matlar yaratgani, Axriman o‘sha joylarda insonlarga zarar va

---

<sup>51</sup> Bu haqda qarang: *Shirinov T., Shaydullaev Sh.* Baqtriya – ming shaharli mamlakat / Termiz: tarixiy tadqiqotlar, ilmiy xulosalar. T., 2001.

<sup>52</sup> Авеста. Душанбе: Адиб. 1990.

halokat keltiruvchi jonzotlarni, yovuz kuchlar, devlar, turli kasalliklarni keltirib chiqargani aytiladi. Mamlakat nomlari orasida Eron-Vij (Xorazm), Sug‘d, Marv, Balx, Niso (Marv bilan Balx oralig‘ida), Hirot, Viya Gita (Qobul), Urviy, Xannat (Gurgon o‘lkasi), Herxutti, Hirmand va boshqalarlarning kelishi “Avesto” yaratilgan va iste’molda bo‘lgan hudud haqida nisbatan aniqroq ma’lumot beradi. Axura Mazda aytadiki, Yer yuzida insonlar uchun tayyorlangan eng yaxshi mamlakat Oriynam-Vayja bo‘lib, u yerda xushmanzara Vahvi daryosi oqadi. Avestoshunoslar<sup>53</sup> buni Oriylar eri, Pomir-Oloy yoki Hindikush mintaqasi deb taxmin qiladilar. “Avesto”da aytilishicha, bu mamlakatda (Oriynam-Vayjada) Angri-Manyu, Axriman devlar bilan ilonlar mavjud, o‘n oy qish fasli va ikki oy yoz bo‘ladi. Axura Mazda yaratgan ikkinchi mamlakat Hova (Xivaga alo qador emasmikin) bo‘lib, u yerda sug‘diyalar yashaydi. Bu joyning ofati chorva mollarni halok etuvchi zaharli pashshalardir. Bu so‘zlarga ko‘ra, Sug‘diyona zaminida, Zarafshon vohasida qadimgi vaqtlarda botqoqliklar bo‘lganini bildiradi. Uchinchi mamlakat – Mouru, aholisi Artaga – Olov ruhiga sadoqatli odamlar yashaydi. Axriman bu yerga yuborgan ofat – gunoh, zino ishlaridir. To‘rtinchi mamlakat – Bahdi (Baqtriya), bu joylarda bayroqlar hilpirab turadi (harbiy qudratiga ishora bo‘lsa kerak). Bu joyning ofati bug‘doylarni yeb ketuvchi hasharotlar, chumoli, chigirtkalardir. Beshinchi mamlakat – Mouru va Bahdi o‘rtasida joylashgan Nasayo bo‘lib, u joyning ofati shakkoklik, dinga, Xudoga ishonmaslikdir. Oltinchi mamlakat – Xorayvo, bu joyda bir uyda odam o‘lsa, barcha u erni tark etadi. Yig‘i, faryod ko‘payadi. Yettinchi mamlakat – Vaqarta. Ofati Girshasp shohni yovuz pari asir etganligidir.<sup>54</sup> Otashparastlarning suvlar, daryolar ma’budasi Ardivisura –Anaxita, ya’ni Nohid yulduziga bog‘lab madhu sano aytishlari bejiz emasdir.

“Avesto”ni faqat otashparastlar kitobi deyish, zardushtiylikni esa faqat otashparastlik dini deyish to‘g‘ri emas. Chunki bu muqaddas yodgorlikda

---

<sup>53</sup> *Бертельс Е.Э.* История персидско-таджикской литературы. М.: Наука, 1960; *Дьяконов М.М.* Очерк истории древнего Ирана. М., 1961 в.б.

<sup>54</sup> Литература Древнего Востока. М.: Изд. МГУ, 1984. С. 5–6.



Quyoshga, uning zamindagi ramzi bo‘lgan olovga ibodat qilishdan tashqari, yana Mitra – Mehr, Suv yulduzi – Anahita, Bahrom – Vertragna, Ashi – Haqiqat, Asha – baxtli Tole’ga ham sajda va ibodat qilinadi. Boshqacha aytganda, “Avesto”da tabiatning qudratli kuchlari poetik tafakkur bilan ilohiylashtiriladi, muqaddas qadriyatlar, ideallar sifatida tabiatni yashnatuvchi kuchlar ulug‘lanadi.

“Avesto”da *mehr* so‘zi Quyoshdan farqli o‘laroq, odamlar o‘rtasi-dagi oqibatni, va’daga vafodorlikni, lafzga, aytilgan so‘zga sadoqatni bildiradi. Poetik tafakkurda inson hayotidagi muhim o‘rni jihatidan vafo – mehr-oqibat Quyoshga tenglashtiriladi. Demak, mehr-oqibat, vafo, sadoqat Quyosh kabi ko‘ngillarni nurlantirib yashnatadi, ruhiy olamni go‘zallashtiradi. Qadimshunos, folklorshunos I.M.Steblyn-Kamenskiy “Mehr – yasht”ni, “Mitra madhi”ni tarjima qilib, so‘nggi so‘zga bunday izoh beradi: “Mitra – ahd-paymon (ahdlashuv, qasamyod, shartnoma) ma’budasi, uni Quyoshga sajda qilish bilan madh etadilar”<sup>55</sup>.

“Avesto”da “Mehr – yasht” eng salmoqli, davomli, badiiy jihatdan yuksak, so‘z san’atining nodir namunasi bo‘lib, uni zardushtiylar poetik tafakkurining cho‘qqilaridan deyish mumkin. Shu bilan birga “Mehr – yasht”da va’daga vafo bilan javob berish, so‘zida, lafzida turish – zardushtiylarning keng ma’naviy qadriyatlaridan biri sifatida benihoya e’zozlanadi. Yashtda Ahura Mazda o‘z payg‘ambari Zardushtga tushuntirishicha, “*so‘zida turmaydigan odam razil, yuzta ablahdan ham yomondir, shundaylar mamlakatni xarob qiladi. Va’daga vafo qilgan, so‘zida turgan odamga muqaddas nurlar yaxshi farzandlar ato qiladi. ...So‘zga sadoqat (mehr-oqibat) bizga yordamga kelsin, bizga g‘alaba bersin, bizga baxt-iqbol, yolg‘onga bo‘ysunmaydigan, rostlik, to‘g‘rilik, halollik keltiruvchi bepoyon yaylovlar egasi Mehrni sharaflayman!*”<sup>56</sup> “Mehr – yasht”da “so‘z san’ati, muqaddas hikmatlar, rost, haqqoniy so‘zlar bilan *mehr-oqibatni* e’zozlaymiz”, deyiladi. Unda poetik tafakkur bilan Mehr-oqibat shaxs kabi jonlantiriladi: “Bepoyon yaylovlar egasi Mehr-oqibatning so‘zlari haqqoniy, bu so‘zlarning quloqlari mingta, ko‘zlari lak-lak, pahlavon kelbatli, xushsuratdir.

<sup>55</sup> Авеста. Душанбе: Адиб. 1990.

<sup>56</sup> Авеста. Душанбе: Адиб. 1990. В. 57.

Kishvarlarning shohlari qonxo‘r dushmanlar qo‘shiniga qarshi jangga borayotganida Mehr-oqibatga iltijo qiladi. Ikki dushman qo‘shindan qay biri Ijod qiluvchi, G‘olib, Mehrni iymon-ishonch bilan, yaxshi niyat bilan, kuch-quvvat, shiddat bilan sharaflasa (ya’ni unga chin yurakdan ibodat qilsa), u o‘shanga zafar keltiradi”.<sup>57</sup> Mehr ma’budaning doimiy safdoshlari – Rashnu (Adolat) va Sraosha (aybdorlarni jazolovchi, ya’ni Qonunlar bo‘lsa kerak) bo‘lib, Mehr-oqibat so‘ziga, ahd-paymoniga amal qilmaydiganlarni bunday jazolaydi: avval qo‘llarini, so‘ng oyoqlarini ishlatmay qo‘yadi, ko‘zini ko‘rmaydigan, qulog‘ini eshitmaydigan qilib qo‘yadi.<sup>58</sup>

“Avesto”da Mehr-oqibat ma’budi fasohatli so‘z aytuvchi, ibo-datlarni xushnud qabul qiluvchi, yuksak – a’lo, don, Ilohiy So‘z manbai deb sifatlanadi. Ibodat qiluvchi Mehr ma’budidan kuch-qudrat, g‘alaba, farovon hayot, haqqoniylik, yaxshi shon-shuhrat, halollik-mardlik, olimlik (ilm-ma’rifat), valiylik, ilohiy bilimlar, haqiqat, hikmatli so‘zlar ato etishini so‘raydi.

“Avesto”ning “Yasna” bo‘limida Zardusht ixtiro qilgan Mazda-Yasna dinining qasamyodi, shahodat kalimalari beriladi. Bu kali-ma va duolar sanskrit tilida *mantra* deb atalmish “Avesto” ta’limoti, otashparastlik qadimgi Hindistonga ham tarqalganligini bildiradi. “Avesto”da ezgu so‘z va bunday so‘zlarni ijod qiluvchi muqaddas zotlar e’zozlanadi. Ezgu so‘zlarni, albatta, yaxshi amallar, xayrli, savob ishlar – vafo, sadoqat, poklik, saxovat fazilatlarini bilan mustahkamlash zarur. “Avesto”da aldov, riyo-munofiqlik, makkorlik bilan aytilgan yolg‘on so‘zlar dev va shaytonlarga asir tushgan razil va tuban odamlar sifatida qoralanadi. “Yasna” kitobining 28-fasli so‘zga bag‘ishlangan bo‘lib, Artaga – Haqiqatga, Vahumanaga – Ezgu niyatga xizmat qiluvchi so‘zlarga muqaddas, ezgu so‘zlar bo‘la oladi. So‘zlarda moddiy olam va ruhiy olam aks etadi. Yaxshi so‘z bilan dushmanlar do‘stga aylanadi. Ezgu so‘z haq yo‘lga boshlaydi.

“Avesto” tarkibi, ifoda uslubi va timsollar tizimi bilan adabiy manbalarga yaqin turadi. Shunday ekan, unga adabiy-nazariy manba sifatida qarash orqali

---

<sup>57</sup> Ko‘rsatilgan asar. B. 58.

<sup>58</sup> Ko‘rsatilgan asar. B. 59.

zardusht e'tiqodidagilarning adabiy timsollarga munosabati, ezgulik haqidagi qarashlari va estetik tafakkurlari oydin aks etganini kuzatdik. Manbadagi *ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amal* uch e'tiqodiy birligining kun tartibiga chiqarilishi va unga amal qilinishni ta'minlash uchun qilingan harakatlar ham "Avesto"ga adabiy-estetik manba sifatida yondoshishni quvvatlaydi: "*Ezgu o'y, ezgu so'z va ezgu ishlar bilan ezgu o'y, ezgu so'z va savob ishni alqayman. O'zimni bori ezgu o'ylarga, ezgu so'zlar (aytish)ga, yaxshilik ishlar amaliga baxshida qilaman, barcha yomon o'ylardan, yomon so'z va yomon ishlardan yuz o'giraman... Ne so'z eltar yutuqqa, Nedur ul, dardlarga em, Ne so'z ajinalarning Yovligin barbod etar? Foniyy dunyoda ne so'z Ezgulikka yo'g'rilgan, Ne so'z o'tkinch dunyoda Damingdan poklanib, Bo'lgan ozoda?*"<sup>59</sup>

«Avesto»ning ilk nusxalari asosida sosoniylar (m.a. VII–III asr) davrida 21 kitob holida yig'ilgan, bizgacha ularning chorak qismigina yetib kelgan. Shunday ekan, uning to'liq matni qo'lga kiritilganda edi, unga adabiyotshunoslikka dahldor manba sifatida yondashuv orqali ko'p muhim xulosalarga kelish mumkin bo'lar edi. Manbaning qayta tiklangan matniga «Zand» nomi bilan sharhlar bitilgan ma'lum.

Inson olamni komillikka yetkazmok, uchun pok tiyatlik, fidoyilik bilan mehnat qilmog'i, kurashmog'i lozimligini qayta-qayta ta'kidlanadi: «Insonni xiradmand, til-zabonli qilib yaratgan Tangriga olqishlar bo'lsin! U insonni yomonlikka qarshi kurashsin, uni nest-nobud etsin, deb barcha mavjudotga rahbar va sarvar etdi»<sup>60</sup>.

**Sug'd manbalarida adabiy-estetik tasavvur.** Saqlar Oltoy va Idil o'lkalaridagina emas, balki Markaziy Osiyoning tubjoy aholisi sifatida hayot kechirganlari, ularning *sug'd* madaniyati va etnosi bilan aloqadorligini prof. Q.Mahmudov shunday asoslay-di: "*Saqa* nomi *sug'd* yoki *so'g'ud* so'zi, turkiy qavmlarda qo'llangan *kavla-kuvla* hamda *ag'uz-o'g'iz* (sut mahsuloti) kabi *saqa* so'zidagi *a* tovushi *o'* unlisi bilan almashib (talaffuzda) *so'qa* va undan *so'q* so'zi

<sup>59</sup> Avesto. M.Ishoqov tarj. // O'zbek tili va adabiyoti. 1999. 2-son

<sup>60</sup> Homidiy H. «Avesto»дан «Shohnoma»га. T.: Sharq NMAK, 2007.

hosil bo'lgan. *So'qa/so'g'a* so'ziga qadimgi turkiy tilga xos *-t, -d* ko'plik qo'shimchasi qo'shib, *so'g'ud* shakli hosil bo'lgan, *sug'ud* shakli ko'plik ma'nosini ifodalagan. Asrlar davomida forsiy tillar asosida *-yona* qo'shimchasi qo'shib, *Sug'diyona* shakli hosil bo'lib, jug'rofiy makon ma'nosida qo'llanilgan"<sup>61</sup>. Mahmud Koshg'ariyning ko'rsatishiga ko'ra, *sug'daq* – Bolasog'unda joylashgan bir qavm, ular Samarqand va Buxoro o'rtasidagi *Sug'ddan* bo'lgan<sup>62</sup>. Sug'dshunoslarning yozishicha, sug'dlar *Sog'd / So'g'ud / Sug'diyonada* Markaziy Osiyoning m.a. I mingyillik o'rtalarida yashagan. Sug'dlarning negizi ko'chmanchi va o'troq saqlardir. Sug'dlar hozirgi tojik va o'zbeklarning ajdodlaridan biridir<sup>63</sup>. Qanday nomlanishi va so'zning etimologiyasidan qat'i nazar bu qadimgi xalq madaniyati, badiiy tafakkuri va estetik qarashlari haqida fikr yuritish uchun ayrim ashyoviy va yozma manbalarga egamiz.

Sug'dlar m.a. IV–III asrlarda tashqi dunyo bilan aloqa bog'laganlar. Ular g'arbda Dunay bo'ylarigacha, janubda Xitoy va Sharqiy Turkiston aholisi bilan yaqin aloqada yashaganlar. M.a. III asrga oid *numizmatik manbalar\** sifatida yirik kumush yombilar parcha) m.a. I asrga tegishli mayda kumush tangalar Jizzax atrofidan topilgan. Dalvarzin kolleksiyasida ham bunday tangalar uchraydi. Yirik yombida kamonchi tasviri, mahalliy hukmdorlarning bosh qismi surati aks etgan. Ermitajdagi juda ko'p tangalarda ham sug'd yozuvlari aks etgan. Ularni o'rganish natijasida Markaziy Osiyoda kumush tangalar mil. V asrgacha faol qo'llanilishda bo'lgani aniqlangan. So'ngra esa bronza tangalar muomalaga kiritilgan. Bronza tangalar Zarafshonning quyi oqimi, Buxoro atrofidan topilgan. Panj shahri kolleksiyalarida xoqon va malikaning bosh suratlari kandakorlik (chekanka) bilan aks ettirilgan tangalar uchraydi.

<sup>61</sup> Mahmudov Q. Qadimgi Turkiston. T.: MUMTOZ SO'Z, 2011. B.7.

<sup>62</sup> Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'oti-t-turk / Turkiy so'zlar to'plami. Uch jildda. I jild. Nashrga tayyorl. A.Rustamov, H.Boltaboyev. T.: MUMTOZ SO'Z, 2016. B.30, 471.

<sup>63</sup> Стависский Б.Я. Искусство Средней Азии. Древний период. М., 1974; Согдийский сборник. Сб. статей о памятниках согд. языка и культуры. Л., 1934; Согдийцы. БСЭ. т.24. кн.1. М., СЭ, 1976. С. 66.

\* *Numizmatik manbalar* – tangalar, tangasimon yorliq va tamg'alar.

«O‘zbek nasri tarixidan» jamoa tadqiqotida tilga olingan Mug‘ tog‘i qasrida topilgan Sug‘d taqvimi<sup>64</sup>, Sharqiy Turkistondagi sug‘d tilida yozilgan ona va qiz o‘rtasidagi oilaviy maktub<sup>65</sup> ni ham mavzuga daxldor manba deyish mumkin. Sug‘d yozma manbalardan biri *Bug‘ut bitigi* deya nomlanib, uning VI asrga oid ekani rus va o‘zbek olimlari tomonidan asoslangan<sup>66</sup>. “Sug‘dcha Bug‘ut bitigi... qabr qurilmasi ustiga o‘rnatilgan, balandligi 1,98 m., eni 0,7 m., qalinligi 0,2 m. tosh lavhadir. U qadimgi turkiy xalqlar udumiga ko‘ra, toshdan yo‘nib yasalgan toshbaqa haykali ustiga tik holda (turadi)...<sup>67</sup> Tosh lavhaning o‘ng va chap yonboshi va yuza qismida qadimgi sug‘d yozuvida bitiklar yozilgan. Undagi yozuvlarning hozirgi tilga tabdilicha, *“Bu tosh lavhani Chiniston hukmdori Kursat davrida turklar o‘rnatdilar... Ular turk xoqo-ni Nivar xoqon barcha... kirdi. Va mana shu payt janob Muxan xoqon bilan janob Maxan tigin... shu paytdan boshlab ular borliq dunyo uchun xaloskor edilar... Ular (ikkovi) do‘st edilar... ular ko‘plab xayrli ishlar yasadilar... xalq ichida biror kimsa bormi, shunday ishlarni...”*<sup>68</sup> matnidan anglashilishicha, turklar o‘rnatgan bu lavhaning asosiy vahramonlari *Muxan xoqon va Maxan tigin*dir. Bu shaxslar dunyoning xaloskori sifatida ko‘rsatilishiga sabab ular “birgalikda hamjihatlik bilan elni boshqargan davrlar abadiylikka daxldor bo‘ldi” (M.Is‘hoqov izohi). Ularning do‘stligi, ahilligi xalqning tinch yashashi va ko‘plab xayrli ishlar “yasalishi”ning omilidir. Demak, estetik ideal sifatida talqin etilayotgan shaxslar – xoqonlar, turklar e‘tiqodicha, Tangri bilan insonni o‘zaro bog‘lab turuvchi, ularning munosabatini saqlovchi ijtimoiy institut vazifasini bajargan.

Kompozitsion lavhaning tepasi qubba shaklida bo‘lib, go‘yo tosh tepasida turgan bo‘ri obrazini ifodalagan. Prof. M.Is‘hoqov bo‘ri tasvirini odam bolasini

<sup>64</sup> Согдийские документы с горы Муг. Выпуск I: А.А.Фрейман, Описание, публикации и исследование документов с горы Муг. М., 1962.

<sup>65</sup> O‘zbek nasri tarixidan. T.: Fan, 1982. B.18

<sup>66</sup> *Кляшторный С.Г., Лившиц В.А.* Согдийская надпись из Бугута // Страны и народы Востока. Вып. X. М., 1971. С. 121-146; *Чугуевский Л.И.* Новые материалы к истории согдийской колонии в Дуньхуане // Страны и народы Востока. Вып. X. М., 1971. С. 147-156; *Исхаков М.М.* Центральная Азия в системе мировой письменной культуры. Т., 2008.

<sup>67</sup> *Ishoqov M., Sodiqov Q., Omonov Q.* Mangu bitiklar. T., 2009. B.9.

<sup>68</sup> Ko‘rsatilgan asar. B. 21–22.

emizib turgandek qiyofada Ashina afsonasi bilan bog‘lab tasavvur qiladi. Undan “Bug‘ut yodnomasining bu alomati Birinchi turk xoqonlig‘i saltanatining mafkuraviy asoslariga ishora qiladi” deya xulosa chiqaradi. Turk afsonalarida bo‘ri timsoli va turkiy xalqlar hayotida bo‘ri totemiga doir ko‘plab afsonalar uchragani uchun ayni o‘rinda yuqorida tilga olingan Ashina afsonasining estetik mohiyatiga e‘tibor qarataylik.

Afsona turk bayonchisining tilidan hikoya qilingan bo‘lib, u 629 yilda xitoy xoqonlari sulolasi yilnomalarida yozib qoldirilgan (Chjou-shu 556–581 – yillar xronikasi). Afsonaga ko‘ra, turklarning Katta botqoq sohilida (boshqa bir manbaga ko‘ra Si xay, ya‘ni G‘arbiy dengiz sohilida) yashagan ajdodlari boshqa qabila tomonidan qirib tashlangan va birgina 9 yoshli bola qolgan, uni bir urg‘ochi bo‘ri oziq bilan ta‘minlab kelgan va keyinchalik bola voyaga yetgach, uning xotiniga aylangan. Odamlardan yashirinib bo‘ri g‘orda yashagan va 10 farzand tuqqan. Bo‘ri bolalari Gaochan qizlariga uylangan. Ulardan biri yangi urug‘ boshlig‘i bo‘lgan Ashina o‘ziga tobelar bilan birga Oltoy o‘lkalariga ketgan va *turk* nomini olgan. Bu totemistik xarakterdagi afsonadagi *bo‘ri* ramzi keyinchalik turk xoqonlari bayroqlarida timsol, ramz sifatida aks etgan. Bayroqdorlarni esa bo‘rilar deb atashgan. Bug‘ut yodgorligining xususiyati shundaki, Ashina urug‘idan bo‘lgan xoqonlarga tegishli barcha dafn kompleksini birinchi turk xoqonligi (551–630) davriga taalluqli ekani aytiladi<sup>69</sup>.

*Ashina* (xitoy-mo‘g‘ulcha: ulug‘ bo‘ri) – turkiy urug‘lardan biri-ning nomi bo‘lib, u haqda miqlar tarqalgan. Ashina ismi turk xoqonlari nomiga qo‘shib aytiladigan faxriy unvonga aylanib ketgan. Mas., Ashina Xelu (VII asr), Ashina Sher kabi. Tan imperiyasi davrida bu urug‘ vakillari xitoyliklar tomonidan tor-mor qilingan<sup>70</sup>. Tosh lavhadagi bo‘rining odam bolasini emizi-shida mana shu va ushbu mavzudagi boshqa afsonalarga ishora bo‘li-shi mumkin. Ko‘rinadiki, bo‘ri totemi faqat mardlik, jangovorlik yoki hujumkorlik timsoli emas. U ona timsolida

---

<sup>69</sup> Bu haqda batafsil ma‘lumot uchun qarang: *Boltaboyev H. Ashina / Adabiyot ensiklopediyasi*. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2015. B. 598.

<sup>70</sup> *Gumilev L.N. Qadimgi turklar*. T.: Fan, 2007. B.26-30.

turkiy xalqlarga mehribonlik qilgan haloskor ma'nosida ham keladi. Shunday ekan, turli ramzlardagi bo'ri timsoli bilan bog'liq lavhalarni umumlashtirib, uning falsafiy ma'nosini axtarishga ehtiyoj tug'iladi.

Bug'ut yozuvlarida turk onomastikasi aks etgan bo'lib, ularda 4 xoqon nomi ulug'lanadi: *Nivar xoqon; Muxan xoqon, Bumin xoqon, Taspar xoqon*. Faqat bu yerda Bumin xoqon nomi uchinchi bo'lib kelayotganining sababi muallif ularni xronologiya bo'yicha emas, balki davr nuqtai nazaridan o'ziga yaqinroq bo'lganini avval keltirgan ko'rinadi. Muxan xoqon davrida ashin urug'lari buddaviylik e'tiqodida bo'lgani kuzatiladi. Bug'ut lavhalari turklar orasida tarqalganini buddaviylikning Sangxi manbasini tilga olishi bilan e'tiborli. Hindistonlik rohib Chinagupta bir necha missionerlar bilan turklar orasida o'n yillar davomida buddaviylikni targ'ib qilganlar. Shu davrda buddaviylikning Taspar xoqon uchun buddaviylikning ayrim sutra (duo)lari turk tiliga tarjima etilgan, buddaviylik ibodatxonalari qurilib, ularning marosimlari ijro etilgan. Bug'ut yodgorligini runiy yozuv manbalari (Kul tegin va Bilga hoqon) bilan qiyosan o'rganilganda, ayni davrda didaktik-falsafiy ta'limot bu manbalarda tarixiylik bilan barobar tarzda qo'llanilganini ko'rish mumkin<sup>71</sup>. Shu bilan birga Bug'ut yodgorligida bayon 3-shaxs tilidan (muallif nutqi) olib borilgan bo'lsa, yuqorida nomlari tilga olingan runiy manbalarda ko'proq 1-shaxs bayonining yetakchi bo'lganini kuzatamiz. Sug'd yozuvidagi boshqa manbalar (Mug' tog'idan topilgan hujjatlar, Panjikentdan topilgan sopol va metall bo'yumlardagi yozuvlar) Bug'ut yodgorligidan keyin yaratilganini nazarda tutsak, bu manbadagi yozuvlar sug'dlarning ilk adabiy tafakkurining natijalari sifatida qabul etiladi.

Sug'd yozma manbalaridan yana biri "Mug' tog'i hujjatlari" umumiy nomi ostida ilmiy taomilga kirgan<sup>72</sup>, 1932–33 yillarda topilgan Panch viloyatida

---

<sup>71</sup> *Кляшторный С.Г., Лившиц В.А.* Согдийская надпись из Бугута // Страны и народы Востока. Вып. X. М., 1971. С. 121–146.

<sup>72</sup> Согдийский сборник. М.-Л., 1934; Согдийские документы с горы Муг. Вып. I-III. М., 1961-1963; Согдийские документы с горы Муг. Выпуск II: Юридические документы и письма. Чтение, перевод и комментарии В. А. Лившица. М., 1962; *Ishoqov M.* Unutilgan podshohlikdan xatlar. T., 1992.

topilgan arxeologik majmuaga tegishli. So‘g‘dshunoslar shartli ravishda A-14 raqami bilan belgilagan hujjatdagi maktubda shunday so‘zlar bor: “*Janobi hukmdorga, buyuk tayanchimiz, Sug‘d podshohi, Samarqand hokimi Devashtichga uning eng e‘tiborsiz quli Fatufarndan murojaatnoma*”. Unda yozilishicha, shu satrlar muallifi Sug‘d podshohiga qadar Choch, Farg‘ona hamda hamda Ustrushona viloyati dushman (arablar) qo‘l ostida bo‘lgani aytiladi. V.A.Livshitsning taxminiga ko‘ra, maktub 712–714 yillarda yozilgan<sup>73</sup>. Garchi maktub arab istilosi tufayli mil. VIII asrga tegishli bo‘lsa ham uning mazmunidan Sug‘d hukmdori mamlakatni Samarqandda turib boshqargani, Choch, Farg‘ona, Chodirchik (prof. M.Ishoqov fikricha, Zomin, Mirzacho‘l va Jizzax erlari)dagi vaziyat haqida xabar berib turgan. Ayni hujjatlar nafaqat filologik ilmlar tarixi, balki diplomatiya tarixi nuqtai nazaridan ham ahamiyatlidir.

**Buddaviylik va moniylik manbalari.** *Budda* so‘zi qadimgi sanskrit tilida “nurlangan” degan ma‘noni anglatadi. Miloddan avvalgi VI–V asrlarda paydo bo‘lib, O‘rta va Uzoq Sharq, Markaziy Osiyo mamlakatlarida diniy e‘tiqod sifatida amalda bo‘lgani mutaxassislarga yaxshi ma‘lum. Buddaviylik asoschisi Siddhartta Gautama (623–544) hisoblanadi. Nisbatan qadimgi Budda haykalining Termiz yaqinidan topilishi bu qarashni tasdiqlaydi. Biroq buddaviylik aks etgan adabiy manbalar, bu e‘tiqodga doir muqaddas kitoblarning aksariyati Hindiston va Xitoyga tegishli bo‘lib (bu haqda yuqoridagi boblarda fikr yuritilgan), ularning ayrimlarigina turkiy tilga tarjima qilingan. Mana shunday manbalardan biri “*Oltun yorug‘*”dir. U m.a. I asrda sanskrit tilida yozilgan, so‘ngra xitoy tiliga tarjima qilingan. Xitoy tilidagi nusxa asosida IX–X asrlar oralig‘ida turk tiliga tarjima qilingan. Shunday ekan, bu adabiy yodgorlikka bevosita turkiy xalqlar adabiy-estetik tafakkuriga doxil asar sifatida yondashish u qadar to‘g‘ri bo‘lmasa-da, asar matnining O‘zbekistonda chop etilishi<sup>74</sup> munosabati bilan ajdodlarimiz muayyan

---

<sup>73</sup> *Лившиц В.А.* Правители Парча // Народы Азии и Африки. 1979. № 4.

<sup>74</sup> Oltin qorug‘. 1–kitob. T.: Fan, 2009; 2–kitob. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2013.



davr davomida e'tiqod qo'ygan inonchning mohiyati bilan umumiy tarzda bo'lsin tanishish imkoniyatiga egamiz.

Buddaviylikda ruhning ko'chishi (hind buddaviyligida sansara), uning qayta tug'ilib, jonli va jonsiz narsalar shakliga kirishi ahamiyatli hodisa sanaladi. "Buddaviylik faqat diniy tizim emas, balki falsafa va etika sifatida shakllangani o'z isbotini topgan"<sup>75</sup> degan qarash asosida prof. N.Rahmonov manbaning axloqiy jihatlarini xususida so'z yuritib, "Buddaviylik falsafasi tizimida shart va natija munosabatlari muhim nazariy tushunchalardan biridir. Bu munosabatlar jonzoatlarning komillikka erishuvi uchun birinchi shartdir" degan xulosaga keladi<sup>76</sup>. "Oltin yorug'"da ham buddaviylikdagi 4 haqiqat xususida so'z yuritiladi. "Uningcha, 1) turmush azob-uqubatlardan iborat; 2) azob-uqubatlar yuzaga kelishining sababi – odamlarning istak va nafslari; 3) bu azob-uqubatlardan qutilish uchun odamlar o'z istak va nafslarini tiyishlari kerak; 4) Buddha kashf etgan aqidalarga amal qilish azob-uqubatlardan ozod qiladi"<sup>77</sup>.

*Moniylik* e'tiqodi Markaziy Osiyoda m. III asrda vujudga kelgan "*Xuastuanift*" ("*Moniylik tavbanomasi*")da aks etgan. Bu diniy oqim Moniy ibn Fatak (216–277) nomi bilan bog'lanadi, unga tegishli manbalar sifatida bir qancha she'r va qo'shiqlarni va yuqoridagi manbani ko'rsatish mumkin. Nashrga tayyorlovchi L.Dmitrievaning fikricha, u dastlab qadimgi tillardan (masalan, pahlaviy) birida tuzilgan va turkiy tillardan eski uyg'ur tiliga tarjima qilingan. Asar m. V asrda yozilgani mutaxassislar tomonidan aniqlangan<sup>78</sup>. Har uchala nusxa asosida rus olimasi L.Dmitrieva yig'ma matn yaratib, uni nashr qildirgan. Nashrdagi dastlabki 39 qator Berlin nusxasi asosida, keyingi 40–48 qatorlar Berlin

---

<sup>75</sup> Лысенко В.Г., Терентьев А.А., Шохин В.К. Ранняя буддийская философия. Философия жайнизма. М.: ИВЛ, 1994. С. 21–23.

<sup>76</sup> Rahmonov N. Ruh va e'tiqod butunligi / Oltin qoruq. 2–kitob. T.: MUMTOZ SO'Z, 2013. B.7.

<sup>77</sup> Abdurahmonov A. Turküy adabiyotning qadimgi davri. T.: Yangi asr avlodi, 2005. B. 38.

<sup>78</sup> Chuastuanift, das Bussgebet der Manichaer. Herausgegeben und übersetzt von W. Radloff. St.-Petersbourg, 1909; Radloff W. Altürkische Studien. St.-Petersbourg, 1911. 442–446 pp; Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. М-Л., 1951. С.108.

va London nusxalari asosida, 49–73 qatorlar o‘z vazni saqlangan holda London va 74–221 qatorlar Sankt-Peterburg (asarda Leningrad) nusxasidan yig‘ilgan.<sup>79</sup>

“Tavbanoma”da nur va zulmat o‘rtasidagi kurashga ahamiyat qaratilgani bois nur taratuvchi Quyosh, Oy kabi osmon jismlari muqaddas sanaladi. Nur va zulmat esa o‘z mantig‘ini yaxshilik va yomonlik kurashida ko‘radi. Shuningdek, manbada tana va ruh sevgisi ham o‘zaro qarshilantiriladi, tana sevgisiga berilganlar ishratga, boylikka ruju qo‘ysalar, ular ruhiy olamda asosiy ma’naviy boylik hisoblangan nurdan uzoqlashadilar. Moddiy olam yovuzlik makoni bo‘lib, u zulmat va jaholatdan iborat. Ma’naviy (ruhiy) olam esa insonni abadiylikka yetaklaydi, degan falsafa bu oqimning asosida yotadi. Matndagi (6-bo‘lim) “*Ey Xudo-yim, gunoh bilan yurib, (bularni) bilmasdan Xudoga yolg‘on so‘zlab, yomon, uyatli gap gapirgan edik. Kechirilmas gunoh qilgan edik. Ey Xudoyim, endi men, Raymast shoh, tavba qilyapman, gunohdan ozod bo‘lay, deb iltijo qilyapman. Gunohlarimni kechir!*” munojotidan ma’lum bo‘lishicha, *yolg‘on so‘z* aytish faqat uyatligina emas, balki *kechirilmas gunoh!* Shuning uchun u 5 ma’budga: shabboda (havo), shamol, nur, suv va olovga gunoh ma’budlari (matnda xudolar deb berilgan) deb qaralib, o‘n qavat osmon va sakkiz qavat yer bu 5 ma’bud izmida ekani aytiladi, chunki ular Xudoning jangchilari, *baxt va taqdir (1), rang va qiyofa (2), mohiyat va jon (3), qudrat va nur (4), asos va ildiz (5)* ular uchundir.

O‘n besh bobdan iborat asarning dastlabki bobidagi so‘z gunohiga oltinchi bobda yana qaytib, “so‘zimiz bilan o‘n xil ayb, xato qildik, qancha gunoh qildik” deya ular *yolg‘on qasam, gunohkorga yolg‘on guvoh bo‘lishlik, begunohlarni ta’qib (so‘zi uchun), mishmish tarqatib badnom qilishlik, fikr va aql bilan halok qilishlik, aldab yo‘ldan urishlik, jonivorlarni va insonlarni o‘ldirishlik* kabi gunohlar uchun tavba qilinadi. Keyingi bobda *pok, muqaddas yozuvni bilmaslik, ilohiy qonunni tan olmaslik, yolg‘on ma’budlarga ishonishlik* ham shunday gunohlar qatoriga qo‘shiladi. Tavbanoma so‘ngida “*Bo‘tirmish tarxon*

---

<sup>79</sup> Тюркологические исследования. Москва-Ленинград, 1963. С. 214–233.

“*Xuastanift*”ni tamomladi” so‘zlaridan kelib chiqib, asar nomi “*Xuastanift*” sifatida qabul qilingan, biroq Bo‘tirmish tarxon muallif yoki tarjimon ekani munozaralidir. *Moniylik ruhidagi she’rlar*, ko‘pincha, *ilohilar*, ya’ni ilohiy qo‘shiqlar, ayrim shaxslar madhi (Aprinchur), o‘lim tasviri kabilarni o‘z ichiga oladi. Ulardan so‘nggisida

[Mazmuni]

*Tangri kalomini qadrlamaganlar,  
Zulmat shaytonlariga tolpinganlar,  
O‘n minglarcha gunoh qilganlar”<sup>80</sup>*

kabi Tangri kalomiga amal qilishlik, ya’ni So‘z (ilohiy kitob ma’nosida)ni muqaddas bilib, unda yozilganlarni bajo keltirishlik talab etiladi.

Turk tili taraqqiyotidagi xarakterli davrlarni ko‘rsatar ekan, N.A.Baskakov so‘z yuritilayotgan uchinchi davr a) tuki (V–VIII asrlar), b) eski uyg‘ur (VIII–IX asrlar) c) eski qirg‘iz (IX–X asrlar) tillarini esga oladi<sup>81</sup>. Ayni davrni tilshunos olimlar turkiy til shakllanishining mumtoz davri sifatida qarab, hududiy jihatdan ayrim farqlar mavjudligiga qaramay, *turkiy adabiy til* ayni davrda shakllanganini qayd etishgan<sup>82</sup>. Adabiyotshunos olimlar, xususan, I.V.Stebleva V–VII asrlarni turkiy adabiyotning *ilk mumtoz davri* deb belgilab, bu bilan qadimgi turk adabiyotidagi poetik janrlarning shakllanishida real yo‘llarning vujudga kelgani va keyingi davrlarda mumtoz adabiy asarlar yaratilishi uchun asos bo‘lganini ta’kidlaydi<sup>83</sup>.

Fitrat “burung‘i Xorazm madaniyatining turklarniki bo‘lg‘ani kabi ixtilofli nuqtalarni nazarg‘a olmag‘animizda ham tukiular, qoraxoniylar, qoraxitoylar,

---

<sup>80</sup> Matn ushbu manbadan olingan: O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1–jild. / Tuzuvchilar: N.Rahmonov, H.Boltaboyev. T.: Fan, 2003. B. 44.

<sup>81</sup> Баскаков Н.А. Тюркские языки. С. 29–30.

<sup>82</sup> Кондратьев В.Г. Об отношении языка памятников орхоно-енисейской письменности к языку древнейугурских пасятников // Советская тюркология. 1973. № 3. С.26.

<sup>83</sup> Стеблева И.В. Поэтика древнетюркской литературы и ее трансформация в раннеклассический период. М.: Наука, 1976. С.3.

chig‘atoylar davrlariga oid tarixiy vasiqalar bu masalaning izohi uchun yetarlidir. Miloddan so‘ng oltinchi asrda “tukyu”larning qurg‘an hukumatlari bilan miloddan ikki asr burung‘i xunnlarni eska olg‘anda feodalliq qurilishining turkiy xalqaro juda ko‘bdan boshlang‘ani ma‘lum bo‘ladir”, deb yozgan<sup>84</sup>. Bu fikr adabiyotshunoslik taraqqiyotida Kul tegin, Bilga Qoon, Tunyuquq va boshqa manbalar ham sezilarli iz qoldirganini anglatadi.

***O‘rxun-Enisoy obidalari adabiyotshunoslik manbai sifatida.*** Toshbitiklarda aks etgan O‘rxun–Enisoy\* obidalari V–VII asrlarda qadimgi turk tili va yozuvidagi adabiy-tarixiy yodgorlik sifatida qadrlil. Ular Mo‘g‘ulistondagi O‘rxun va Janubiy Sibirdagi Enisey daryolari sohillarida topilgani uchun ham shunday nomlangan. Mo‘g‘ulistondan SHimoliy dengizlargacha, Uraldan Saxalinga qadar davom etgan hududda shu yozuvdagi yodnomalar uchraydi. Shimoliy Kavkazda XV asrda ham O‘rxun yozuvidan foydalanilgan. O‘zbekiston hududida (Farg‘ona, Surxondaryo va boshqalar joylar)dan 20 dan ortiq *runiy* (runa – “sir” so‘zidan, *sirli* ma’nosida) yozuvi yodgorliklari topilgan. S.G.Klyashtorniyning yozishicha, Markaziy Osiyo tarixini (arab istilosiga qadar – H.B.) tadqiq etishning qiyinligi uning manbaviy zahirasi yetarli emasligi bilan belgilanadi: manbalar miqdori u qadar ko‘p, ularda aks etgan voqealar ko‘lami ham u qadar keng emas, bizgacha yetib kelgan manbalarning ko‘pchiligi O‘rta Osiyodan tashqarida yaratilgan, ularning yozilgan vaqti esa o‘rganilayotgan davrga unchalik yaqin emas... Xuddi shunday qadimgi turk manbalari qatoriga runiy yozuvidagi bitiklar ham kiradi<sup>85</sup>. Tahlilga tortilishi lozim bo‘lgan manbalar, birinchi navbatda, runiy yozuvdagi yodgorliklar: Kul tegin, Bilga xoqon, Tun Yuquq, O‘ngin va Suji hamda boshqa bu yozuvdagi yodnomalar (masalan, Irq bitigi), shu bilan birga, ayni davrda yashagan, turkiy

---

<sup>84</sup> *Fitrat*. O‘zbek adabiyoti namunalari. 1–jild. Toshkent-Samarqand, 1928. B. 11–12.

\* *O‘rxun-Enisoy* – janubda hozirgi Mo‘g‘ulistondagi O‘rxun va Shimoliy dengizlarga quyiluvchi daryolar, ularning havzalari va sohillarida topilganiga ko‘ra, ushbu bitiktoshlar ilmga shu istiloh bilan kirib kelgan. Hozirgi Yenisey daryosi nomi aslida turk tilida *yeni* (yangi) va *soy* (suv) ma’nolarini anglatgan. Keyingi davr yozuvlarida Yenisey o‘rniga “Enasoy” deb yozish urf bo‘lgan.

<sup>85</sup> *Кляшторный С.Г.* История Центральной Азии и памятники рунического письма. Санкт-Петербург: Изд. С-ПГУ, 2003. С. 3.

xalqlar bilan yaqin qo'shnichilik qilgan xitoy va fors manbalari, yunon sayyohlarining esdaliklari va arab istilosi davridagi jangnoma, fathnoma yoki jug'rofiy yo'nalishdagi asarlardir. Shunday qo'shimcha manbalardan biri sifatida S.G.Klyashtorniy Abu Muhammad Ahmad ibn A'som Kufiyning "Kitob al-futuh" asarini keltiradi. Mazkur asar qisqartirilgan holda Muhammad Mustavfiy Hiraviy (XII asr) tomonidan fors tiliga tarjima etilgan bo'lib, ushbu manbaga yondashgan olimlar, asosan, fors tilidagi qisqa tarjima bilan cheklanishgan. Mazkur asarning arab tilidagi to'liq nusxasi Istanbulda To'piqopi saroyi muzeyidan topilgandan so'ng A.N.Kurat bu mukammal tarixning "Qutaybaning Xorazmga yurishi", "Xorazm va uni zabt etgandan so'ng Qutaybaning Sug'dga yurishi", "Hajjojning Qutaybaga maktubi", "Qutaybaning Samarqandga hujumi va bu shahar aholisi bilan jang", "Qutaybaning Samarqand bilan tinchlik o'rnatishi va u yerga islom lashkarlarining kirib kelishi", "Hurak (manbada Gurak ixshid o'g'li) bilan tuzilgan shartnoma" bo'limlarini e'lon qilishi bilan turk yurtlarining arab istilosidan avvalgi holatiga oid ko'plab ma'lumotlar ma'lum bo'ldi<sup>86</sup> (Co'nggi shartnomaga K.Smirnova batafsil sharh yozgan<sup>87</sup>). Bu qo'shimcha manbalarni o'rganishni bu davr tarixi va adabiyotini o'rganuvchilar ixtiyoriga havola qilgan holda bevosita bitiktoshlarda aks etgan adabiyotshunoslikka oid qarashlarga yuzlanamiz.

*Kul tegin* bitiktoshi 732 yili Turk xoqonligi (551–745)ning lashkarboshisi sharafiga o'rnatilgan. Bitiktosh ikki qismdan: Kichik va Ulug' bitikdan (muallifi *Yo'llig tegin*) iborat. Vatan manfaati yo'lida xizmat qilish, mamlakatning mustahkam, osoyishta bo'lishi uchun kurash bitiktoshlarda bosh maqsad ekani aytiladi. Asarda Tabg'ach, Tibet, Sug'd, Turgash, Qirg'iz kabi etnos va joy nomlari tilga olingan. Enisoy bitiklari marsiya va madhiya janrlarining qadimgi turk adabiyotidagi ildizlari haqida tasavvur beradi.

---

<sup>86</sup> Mufassal ma'lumot uchun qarang: *Кляшторный С.Г.* История Центральной Азии и памятники рунического письма. Санкт-Петербург: Изд. С-ПГУ, 2003. С. 5.

<sup>87</sup> Qarang: *Смирнова К.* К истории Самаркандского договора. С.69–79.

Bitiktoshlar XIX asr oxirlarida topilib, U.Tomsen tomonidan o'qilgan va ilmiy muomalaga kiritilgan. Ba'zi yodgorliklar *deshifrovka*\* qilingan emas, biroq ular AQSh, Polsha, Vengriya, Finlyandiya va Turkiyada ham o'rganilgan. Rossiyada V.Radlov, S.Malov, I.Stebleva, S.Klyashtorniy ishlari ma'lum. O'zbekistonda Fitrat, A.Qayumov, N.Rahmonov va boshqa olimlar asardan namunalar va tadqiqot ishlarini chop qildirishgan.

Toshbitiklarning bayon uslubi va ulardagi she'riy hamda nasriy bayonning xarakterini chuqur o'rgangan olim I.V.Stebleva badiiy tasvir vositalaridan kelib chiqib, ular muayyan tarzda shakllangan poetik uslubning namunasi ekanligini aniqlagan. Bu jihatlar nafaqat badiiy adabiyotning formal kategoriyalarini belgilashda, balki turkiy xalqlarning estetik ideali shakllanishida ham ma'lum rol o'ynaganini qayd etadi<sup>88</sup>. Kul tegin yodgorligining Kichik va Ulug' bitiklarini To'n Yuquq yodgorligi bilan solishtirib, olim ularning bayon tarzidagi uch muhim element: zachin, voqea bayoni va xotimani aniqlaydi. Kul tegin Kichik bitigining dastlabki uch satri she'riy zachin vazifasini bajargan: *Tangritag' tangrida bolmysh turk Bilga qoon bu otka olurтым. Sabытын tukati asidgil... (Osmonday Tangridan bo'lgan turk Bilga (dono) xoqon bu taxtga o'tirdim. So'zimni eshitgil tugal...)* undan keyingi satrlarda nutq qaratilgan shaxslar: jiyani, o'g'illari, qardoshlari, xalqi, o'ngdagi shadapit beklari, so'ldagi tarxonlar, buyruq beklari sanaladi. Bizningcha, bu erda o'g'illaridan ham avval jiyaning nomini keltirishiga sabab ushbu yodgorlikning muallifi – jiyani *Yo'llig' tegin*, ya'ni abadiylashtiruvchidir. Matn oxirida ham *Bu bitik bitikma atысы Yolыg' tigin (bu bitik bituvchining jiyani Yo'llig' tegindir)* kabi qayta urg'u berilishi bejiz emas. 1-bo'lim oxiridagi *Otuz (o'ttiz)*, 2-bo'lim so'ngidagi ancha *bodun (shuncha xalq)* kabilar olim aniqlagan tizimga ko'ra xotima, umumlashtiruvchi so'z va iboralardir. 5-bo'limda *tabg'ach bodun sabы suchug ag'ысы уымshaq armis*,

---

\* *Deshifrovka* – biror tushuncha ma'lum bir yozuv orqali shifrlanadi, ya'ni o'sha mazmunning kodiga aylanadi. Deshifrovka qilish noma'lum matnni o'qish, uning harflarini tiklab, joriy yozuvga o'girish demakdir.

<sup>88</sup> *Стеблева И.В. Поэтика древнетюркской литературы и ее трансформация в раннеклассический период. М.: Наука, 1976. С.8.*

*suchig sabyn yımshaq ag‘ın arıp (tabg‘ach elining so‘zi shirin, kiyimi nafis, shirin so‘zi va nafis kiyimi bilan aldab) jumlası bilan tabg‘achlarga tavsif beriladi. Mana shu tavsifning o‘zida shirin so‘zga aldanmaslik, nafislik har doim ham haqiqat keltirmasligi haqidagi qarashlar aks etgan. Bu chaqiriqqa amal qilmaslik nati-jasida (7–bo‘lim): Bilik bilmas kisi ol sabıyg‘ alıp yag‘ru barıp, okush kishi oltig (ilmsiz kishi u so‘zga ishonib, unga yaqinlashib, ko‘p kishi o‘ldi) ko‘p yo‘qotishlar bo‘lgani aytiladi. Demak, yolg‘on so‘z shirin va ipakday muloyim bo‘lmasin, uning makriga kirish halokat keltiradi, degan hikmatni mana shu lavhadan uqish mum-kin. Shuningdek, matnda Turk bodun, toq arıyqaqsan, achsıyq, tosyıq omaz san, bir todasar achsıyq omazsan. Antag‘ınıyng uchun igidmish qag‘anıyng sabyn almatın, yır saru bardıyg‘, qor anta alqıntyg‘. Anta qılmyshy yır saru qor turu olu yorıyur artig. Tangri yarlıqadıq uchun ozim qıtyım bar uchun qag‘an olurıpan yoq chyg‘anı bodunyg‘ qor qobartdıım, chyg‘anı bodunyg‘ bay qıltyım, az bodunyg‘ okush qıltyım. Aza bu sabımda igid barg‘u? Turk baglar bodun asiding. Turk bodunyg‘ tirip al tutsıyqıngın bunta urtyım, yangılyp ulvsikingin yama bunta urdıım, nangnang sabıım arsar, bangu tashqa urtyım. Angar koru biling, turk amti bodun baglar, bodka korugma baglar, ku yangıltachysız. Man bangu tash... (Turk xalqi, to‘kis ishonuvchansan, samimiy (bilan) nosamimiyni ajrat-maysan, kim qattiq gapirsa, samimiyni ham tanımaysan. O‘shanda har erdayliging uchun tarbiyat qilgan xoqoningning so‘zini olmayin har qaerga ketding, u yerlarda butunlay g‘oyib bo‘lding, nom-nishonsiz ketding. O‘sha erda qolganing har yerda zo‘rg‘a o‘lib-tirilib yurgan eding. Tangri yorlaqagani uchun, iste‘dodim, baxtim bor uchun men sizlarga xoqon bo‘ldim. Xoqon bo‘lib (yo‘q) qashshoq xalqni oyoqqa turg‘azdim. Qashshoq xalqni boy qildim, oz xalqni kupaytirdim. Yo bu so‘zimda yolg‘on bormi? Turk xalqi beklari, buni eshiting! Turk xalqini birlashtirib davlat tutishingizni bu yerda toshga o‘yib yozdim. Adashib ayrilganingni ham bu erda yozdim. Nimaiki so‘zim bo‘lsa, mangu toshga o‘yib yozdim. Unga qarab biling, turkning endigi xalqi, beklari, uy, dunyogagina qaraydigan, ko‘ziga faqat mol-*

*mulk ko‘rinadigan beklar, sizlar gumrohsizlar. Men mangu toshga hammasini o‘yib yozdim)*<sup>89</sup>.

Matndagi tarqoq qavmlarni birlashtirish, birlik bo‘lgandagina taraqqiyot bo‘lishi, mol-mulk istagida tarqalib ketganlarning, o‘z yeridan ayrilganlarning qismatiga doir aniq xulosalar toshbitiklarga zarb qilingan. Ayniqsa, matnning 1–shaxs tilidan, bevosita xoqon nomidan bayon qilingani uning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Turkiy qavmlarni birlikka, ittifoq bo‘lib yashash va rivojlanishga undaydi.

Kul tegin yodgorligi Ulug‘ bitigi mazmunan jangnomani eslatishi mutaxassislar tomonidan bayon qilingan. I.V.Stebleva bitik syujetida ketma-ket tarzida bayon qilingan 6 hikoyani aniqlaydi: 1) turk xalqining buyuk ajdodlari haqida; 2) turklarning xitoyliklar tomonidan bo‘ysundirilishi (720–721); 3) Iltarish xoqon (Bilga xoqonning otasi) hikoyasi; 4) Qapag‘an xoqon (Bilga xoqonning tog‘asi) haqida hikoya; 5) Bilga xoqon (hukmdor-lik davri 716–734) haqida hikoya; 6) Kul (685–731) tegin hikoyasi. Bu yozuvlar Kichik bitikdan hajm jihatidan keskin farqlanib, uni mazmunan takrorlamasa ham kompozitsion jihatdan (ehtimol, bir muallif tomonidan bitilgani uchun) avvalgi matndagi kabi bayon tarzida zachin, voqealar rivoji va yakun (xotima)ni kuzatish mumkin. Jangda yengilganlarga qarata aytilgan: *Turk og‘uz baklari bodun asading! Uza tangri basmasar, asra yar talinmasar turk bodun ilingin torungin kim artati (Turk o‘g‘uz beklari, ey xalq, eshiting! Tepadan osmon bosmagan bo‘lsa, pastda yer yorilmagan bo‘lsa, ey turk xalqi, davlatingni, saltanatingni kim buzdi?!)* so‘zlari turklarning engilmasligi Ko‘k tangrisi haqidagi miflardagi fikrlarga uyg‘un keladi.

Shuningdek, matn so‘ngida Kul teginning o‘limi munosabati bilan aytilgan *Inim Kul tegin kargak boltı, ozim saqıntım; korur ko‘zum ko‘rmas tag, bilir biligim bilmaz tag boltı, ozim saqıntım. Od tangri yasar, kisi oglyı qop oligli torumis. Ancha saqıntım; kozda yash kalsar, ati da kongulta syg‘ıt kalsar,*

---

<sup>89</sup> Matn keltirilgan manba: O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1–jild. / Tuzuvchilar: N.Rahmonov, H.Boltaboyev. (Transkripsiya va tarjima N/Rahmonovga tegishli). T.: Fan, 2003. B.46–48.



*yanturu saqıntım, qatyg'dı saqıntım: aki shad ulayu ini yigunim og'lanım bag'larım bodunım kozi qashy yablaq boltachy tip saqıntım (Inim Kul tegin vafot etdi, vujudim alam chekdi. Ko'rar ko'zim ko'rmayotganday, bilar aqlim bilmayotganday bo'ldi, jonim azobda qoldi. Dunyoni Tangri yaratadi, inson bolalari o'ladigan qilib yaratilgan. Shunchalar alam tortdimki, ko'zga yosh kelganda, ko'ngilga yig'i kelganda qayta alam chekdim, qayta qayg'urdim. Ikki shad, keyingi inim, jiyanim, o'g'illari, beklarimning ko'zi, qoshi yomon bo'ladi, deb qayg'urdim)* so'zlari poetik jihatdan o'ta yuksak va ta'sirli. Ajdodlarimizning badiiy tafakkur tarzi qanchalar yuksak va nozik bo'lganini anglatadi.

Bilga xoqon bitiktoshida ham avvalgi yozuvdagi uslubiy jihatlar saqlangan, uning boshlanmasidagi *Tangri tag tangrida yaratmısh turk Bilga qag'an sabım: qangım turk bilga... anta amti al...tısy ar, toquz og'uz yidinikar, kulug baglari bodunı...* (Ko'kday Xudo yaratgan turk Bilga xoqon so'zim: otam turk dono xoqoni taxtga o'tirganda to'qqtz o'g'uz qahramonlari, mashhur beklari va uning xalqi...) so'zlari 1–shaxs nomidan hukmdorning taxtga o'tirishi va uning bajargan ishlari bayon qilinadi. Agar mavjud uch yodgorlikdagi tarixiy voqea va ularga berilgan sifatlarni umumlashtirsak, Bilga xoqon barcha toshbitiklarning asosiy bosh qahramoni. Unga taxt buyuk ajdodlaridan meros qolgan, u o'zidan avval hukmdorlik qilgan otasi Iltarish xoqon yurishlarini davom ettirgan, tog'asi Qapag'an xoqon vafotidan keyin uyg'urlar, tatabiylar, qorluqlar, basmillar, qidanlar, xitoyliklar va og'uzlar bilan jang qilgan. Bu janglarda uning shavkatli bahodiri va ukasi Kul Tegin katta jasorat ko'rsatib, mardlarcha halok bo'lgan. To'n Yuquq uning dono maslahatgo'yi bo'lgan, uning dono siyosati bilan turklar hududi kengaygan, bir qator qo'shni viloyatlar bo'ysundirilgan.

Uchinchi yodgorlik To'n Yuquq sharafiga yozilgan bo'lib, uning muallifi avvalgilaridan farq qiladi (Yo'llig tegin emas). I.V.Steblevaning kuzatishicha, bitiktoshni To'n Yuquqning o'zi yozgan<sup>90</sup>. Biroq matn strukturasi, uning yozilish uslubi avvalgi bitiklarga yaqin. Shunday ekan, bu uch matnning ichki poetik

---

<sup>90</sup> *Стеблева И.В. Поэтика древнетюркской литературы и ее трансформация в раннеклассический период. С. 37.*

xususiyatlarini o‘rganish orqali islomgacha bo‘lgan turk she‘riyati va nasrining poetikasiga doir xulosalar chiqarishga asos beradi. Bizni bu o‘rinda bitiktoshlar poetikasi emas, balki ular vositasida ilgari surilgan adabiyot qoidalari, badiiy ifoda tarzi va bayon uslubi qiziqtiradi. Shu jihatdan To‘n Yuquq bitigi mazmun va ifodasiga ko‘ra avvalgi matnlardan teranroq (ehtimol, uni donishmand To‘n Yuquqning o‘zi yozgani uchun bo‘lsa kerak), fikr ifodasida badiiy vositalar san’atkorona qo‘llanilgan. Matn 14 roviylik siklidan tashkil topgan. Bu matn ham 1–shaxs tilidan bayon qilingan. U Iltarish xoqonning ishonchli vakili, aksariyat har bir sikl To‘n Yuquqning bir dono maslahati yoki xoqonga murojaati bilan yakunlanadi. Mualliflarning fikriga ko‘ra, dunyo yuqori, o‘rta va quyi qatlamdan iborat. Yuqori – osmon, quyi – yer, ularning o‘rtasida Inson. Shu kabi dunyoda ilohiy va insoniy zotlar yashaydi. Xoqonlar ilohiy (osmon tangrisi, Ko‘k tangri) zotlar sanaladi, ular Tangri farzandlari yo doimo Tangri tomonidan hayotda, yurishlarda, martabaga erishishda qo‘llanilib turilgan, ularning muvaffaqiyatsizligi ham Tangrining g‘azabini qo‘zg‘atganidan, deb anglatiladi. Osmon quyoshning izmida bo‘lganidan ularning harakat yo‘nalishi ham kun chiqish va botish tomonlari bilan bog‘liq: oldingi tomon (olg‘a) –sharq, orqa (qaytish, chekinish) – g‘arb, o‘ng – janub, so‘l – shimol. “Dunyoning to‘rt tarafidagi ellarni bo‘ysundirdim” (Bilga xoqon) so‘zlari ham jahonni egalladim ma’nosida emas, balki yuqoridagi tomon ifodalarining ramziy tushunchalari bilan bog‘liq. Toshbitiklardagi «*Yo‘q chiqan buduniq ko‘p ko‘bartdim, chiqan buduniq bay qildim, az buduniq o‘kush qildim*» (Mazmuni: *yo‘qolib borayotgan xalqning sonini orttirdim, qashshoq xalqni boy qildim, ozchilikni ko‘p xalq qildim*) so‘zlari mardona turk nasrining so‘nmas ovozi sifatida yangraydi.

Toshbitiklardan boshqa runiy yozuvda qog‘ozga bitilgan qadimgi manba «Irq bitigi» (Fol kitobi)da ham ajdodlar estetik tafakkuri aks etganini kuzatish mumkin. Toshbitiklardan boshqa runiy yozuvda qog‘ozga bitilgan qadimgi manba “Irq bitigi” (Fol kitobi)da ham ajdodlar badiiy tafakkuri aks etgan etganini kuzatish mumkin. “Irq bitigi”ni ayrimlar “Ta’birnoma” tarzida zamonaviy tilga o‘girishadi,

biroq bu atama hozirgi anglamda ko‘proq tush ta’birlarini bildiradi. “Irq bitigi” esa mazmunan ko‘proq fol kitobiga yaqin keladi. VII–IX asrlarda bu nomda bir necha bitiklar tuzilgan bo‘lib, ular insonning yaqin kelajakdagi ishlaridan, baxtu iqbolidan so‘z yuritadi. Bunday asarlarning bizgacha yetib kelgan dastlabkisi VIII asrning oxirlariga tegishli bo‘lib, O‘rxun yozuvida bitilgan bu bitik Sharqiy Turkistondan topilgan. Undan mazmunan tamomila farq qiluvchi boshqa manba ham “Irq bitigi” nomi bilan yuritiladi va u IX asrda moniy yozuvida bitilgan. Ayni manba 14 qismdan iborat bo‘lib, unda Quyosh, uchrashuv, lashkar, tog‘, kamayish, yuz o‘g‘irish, sevinish, chuqur (quduq), qarshi kelmoq, huzur-halovat topmoq, bola tarbiyasi, Quyosh nuri, birlashuv va jazolash kalima-tushunchalar ta’bir qilinadi. Bu ta’birnomalarda So‘zga munosabat: keskin so‘z (2), ovoz berajak til (8), so‘zning tuguni (9), e’tiborli so‘z (10) tilga olinar ekan, ular ezgulikka, yaxshi amallarga xizmat qilishi lozimligi uqtiriladi. Tahlikadan uzoqlashib, ezgulikka erishmoq uchun olim va fozillarga hurmat ko‘rsatish (5) lozimligi ta’kidlanadi. Huzur-halovat topish bayonida *nomingni mushki anbar kabi yoyilishini istasang, og‘zingdan chiqqan so‘zga e’tiborli bo‘l*, hikmati aytiladi. Bu folnomalarning so‘nggisida avvalgilari kabi faqat ayrim so‘z va hodisalarning ta’birini berish bilan cheklanmay, inson nima qilishi kerakligi ham uqtirilgan: “*Edgu qilyinch yaratynmaqin egsuma*” (*Yaxshilik uchun g‘ayratingni ayama*)<sup>91</sup>. Tabiiyki, bu kabi tushunchalar qanday sharhlanishidan qat’i nazar ajdodlarimizning ezgulikka bo‘lgan ishonchining mustahkamligidan darak beradi.

Demak, runiy yozuvi manbalari janubda O‘rxun daryosi (Mo‘g‘u-liston)dan shimolda Enisoy vodiysiga qadar, g‘arbda Idil bo‘ylaridan Uzoq Sharqqa qadar cho‘zilgan keng hududda tarqalgan va ular mazmunan ajdodlarimizning tushuncha-tafakkur tarzlarini aks ettirar ekan, ayni manbalar ozmi-ko‘pmi xalq adabiy-nazariy tafakkurining hosilasi ekanini ko‘ramiz.

Prof. I.V.Stebleva O‘rxun-Enisoy obidalari bo‘yicha olib borgan keyingi tadqiqotlarini yanada chuqurlashtirib, bu matnlar bilan birga moniylik va

---

<sup>91</sup> O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-jild. / Tuzuvchilar: N.Rahmonov, H.Boltaboyev. T.: Fan, 2003. B. 82.

buddaviylik asarlarining ritmik xususiyatlariga va intonatsion poetikasiga e'tibor qaratdi. Ularni qadimgi turk adabiyotining janrlari va mualliflarning poetologik qarashlari bilan qiyosan o'rganishi natijasida "yuqoridagilarni umumlashtirib aytadigan bo'lsak, biz ko'rib chiqqan matnlar, she'riy asosda rekonstruksiya qilingani bilan ularning yagona poetik qonuniyatlar va she'r shakllari asosida tuzilgani shubha uyg'otmaydi. VIII asrning o'rtalaridan boshlab (ilk adabiy matnlar – O'rxun obidalari) taxminan XII asrgacha (buddaviy matnlar) Markaziy Osiyoda turk she'riy asarlari u qaysi davlat hududida va qaysi madaniy va diniy oqim yo'nalishidagi ekanidan qat'i nazar yuqoridagi qonuniyatlar asosida yaratilgandir",<sup>92</sup> degan xulosaga kelingan. Mazkur adabiy matnlarning "tarixiy-qahramonlik dostonlari, turli mavzulardagi poetik miniatyuralar, epitafiya (yig'i), madh, sevgi va *meditativ*\* lirika, falsafiy didaktik mavzulari"ni belgilagani holda ularda misraning ikki yoki uch turoqdan iborat bo'lib, bo'g'in guruhlari (turoq taktlari) izosillabizmga bo'ysunishini va ular *alliteratsion tizim*\*\* hosil qilishini kashf qildi. Adabiy janrlar mavjudligi va taraqqiyotidan kelib chiqib, bu davr adabiyotshunosligida poetologik istilohlar shakllanganini qayd etdi. Runiy yozuvdagi *kuy/yir-er/jir; qo'shug'/qo'shiq/qo'shma/goshma*, moniy matnlaridagi *ko'k/ko'g-/kyug* kabi she'riy va *sutur/sutra* nasriy janrlar bu davr adabiyoti shakllangan qonuniyatlar asosida taraqqiy etganini aniqladi<sup>93</sup>. Islom ta'sirida va tashqaridan kirib kelgan ayrim poetik qonuniyatlar (masalan, arab aruzi, qofiya tizimi, fors ohanglari) mana shu mavjud turk poetik tizimiga moslashtirilgani va ularning rivojlanishi uchun ham asos bo'lganini "Qutadg'u bilig" va "Devonu lug'oti-t-turk" tarkibidagi adabiy asarlar misolida tushuntirib berdi.

Demak, Markaziy Osiyoda islomgacha yaratilgan adabiy manbalar turli ashyolarga (teri, namat, sopol, tosh) bitilgani uchun ham ular to'liq saqlanmagan

---

<sup>92</sup> *Стеблева И.В.* Тюркская поэтика. Этапы развития VIII-XX вв. М.: ИФВЛ, 2012. С.50.

\* *Mediativ* –

\*\* *Alliterasion tizim* (alliterasiya - undoshlarning uyg'unligi) - tovush uyg'unligiga asoslangan tizim, nutq shakli.

<sup>93</sup> *Стеблева И.В.* Тюркская поэтика. Этапы развития VIII-XX вв. М.: ИФВЛ, 2012. С.54–55.

bo'lsa-da, bizgacha yetib kelgan adabiy matnlar adabiyotshunoslikning ilk davri haqida tasavvur uyg'otadi. Ayniqsa, "Avesto"dagi mukammal ta'limot va O'rxun-Enasoy obidalarining poetikasiga doir kuzatishlar ayni davrlarda shakllangan adabiy-nazariy qonuniyatlar ustuvor ekanini belgilaydiki, ushbu davrni mutaxassislar *ilk mumtoz adabiy davr* ("Ranneklassicheskiy period", I.V.Stebleva) deb atashgani bejiz emas.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. "Avesto"da ezgu so'zning poetik xususiyatlari nimalarda ko'rinadi.
2. "Sug'd manbalari" deyilagnada qaysi yozuv va hududdagi adabiy manbalar tushuniladi?
3. Buddaviylik manbasi sifatida "Oltin yoruq" asari haqida ma'lumot bering.
4. Moniylik manbalariga munosabatda ularning janr va mavzu yo'nalishlarini aniqlagan holda misollar orqali tushuntiring.
5. O'rxun-Enasoy obidalarida aks etgan poetik qonuniyatlarni aniqlang.

### ***Adabiyotlar***

1. Avesta. Izbrannyye gimni / Per. I.M.Stebelin-Kamenskogo. Dushanbe: Adib, 1990.
2. Boltaboev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. T.: MUMTOZ SO'Z, 2013. B. 290–333.
3. Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari / Nashrga tayyorl. O.Hamroeva. Mas'ul muharrir H.Boltaboev. T.: MUMTOZ SO'Z, 2009.
4. Fitrat. O'zbek adabiyoti namunalari. 1–jild. Toshkent-Samarqand, 1928; T.: MUMTOZ SO'Z, 2013.
5. Homidiy H. «Avesto»dan «Shohnoma»ga. T.: Sharq NMAK, 2007.
6. Chuastuanift, das Bussgebet der Manichaer. Herausgegeben und ubersetzt von W. Radloff. St.-Petersbourg, 1909.
7. Ishoqov M., Sodiqov Q., Omonov Q. Mangu bitiklar. T., 2009.

8. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-jild. T.: Fan, 2005.
9. Oltun yorug‘. 1-kitob. T.: Fan, 2009; 2-kitob. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2013.
10. Qayumov A. Qadimiyat obidalari. T., 1971.
11. Qayumov A., Isxoqov M., Otaxo‘jaev A., Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklar. T.: Yozuvchi, 2000.
12. Rahmonov N. Ko‘hna bitiktoshlar. T., 1990.
13. Rahmonov N. Turk xoqonligi. T., 1993.
14. Shirinov T., Shaydullaev Sh. Baqtriya – ming shaharli mamlakat / Termiz: tarixiy tadqiqotlar, ilmiy xulosalar. T., 2001.
15. Авеста. Избранные гимны / Пер. И.М.Стеблин-Каменского. Душанбе: Адиб, 1990.
16. Бертельс Е.Э. История персидско-таджикской литературы. М.: Наука, 1960.
17. Бичурин Н.Я.
18. Енисейская письменность тюрков. М.-Л., 1952.
19. Исхаков М.М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры. Т., 2008.
20. Кляшторный С.Г. История Центральной Азии и памятники рунического письма. Санкт-Петербург: Изд. С-П ГУ, 2003.
21. Кондратьев В.Г. Об отношении языка памятников орхоно-енисейской письменности к языку древнеуйгурских пасятников // Советская тюркология. 1973. № 3.
22. Лысенко В.Г., Терентьев А.А., Шохин В.К. Ранняя буддийская философия. Философия жайнизма. М.: ИВЛ, 1994.
23. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. М.-Л., 1959.
24. Омонжолов А.С. Материалы и исследования по истории древнетюркской письменности. Алма-ата, 1975.
25. Рахмоналиев Р. Империя тюрков. М.: Прогресс, 2002.

26. Стеблева И.В. Тюркская поэтика. Этапы развития VIII-XX вв. М.: ИФВЛ, 2012.

27. Стеблева И.В. Поэтика древнетюркской литературы и ее трансформация в раннеклассический период. М.: Наука, 1976.

**28.** Согдийские документы с горы Муг. Выпуск I: А.А.Фрейман. Описание, публикации и исследование документов с горы Муг. М., 1962.

## 4-mavzu. ISLOM RENESSANSI DAVRIDA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI

### *Reja:*

1. *Adabiyotshunoslikning islomiy manbalari.*
2. *Markaziy Osiyodagi ilk islom davlatlarida adabiyotshunoslik ilmi.*
3. *Mahmud Koshg'ariy asari tarkibida adabiyotshunoslikka oid lavhalar.*
4. *“Devonu lug‘atit turk”dagi adabiy janrlar tasnifi.*

*Tayanch tushunchalar:* islomiy manbalar, ilk islom davlatlari, Mahmud Koshg'ariy, “Devonu lug‘atit turk”, adabiy janrlar, tasnif.

**Adabiyotshunoslikning islomiy manbalari.** Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati, ma'naviyatining eng asosiy va nihoyatda muhim tarkibi bo'lgan islom dini ilk o'rta asrlarda barcha musulmon mamlakatlari singari mintaqada ma'naviy hayotida muhim taraqqiyot omili hisoblangan. VIII asrlarda shakllangan kalam ilmi islomning nazariy-falsafiy ta'limotidan iborat bo'lib, Markaziy Osiyoda ham keng tarqaldi. Qur'ondagi axloqiy va huquqiy me'yorlar shariatga ham asos bo'ldi va huquqiy tizim sifatida kuchga kirdi.

*Tafsir ilmi* islom dinshunosligining muhim tarmog'i sifatida Qur'on, Hadis va boshqa diniy manbalarni talqin etuvchi sohaga aylandi. Bu ilmlarni shakllantirish va rivojlantirishda Movarounnahr va Xurosonning dinshunos olimlari, mutafakkirlari ham katta hissa qo'shdilar, bu bilan ular butun musulmon olamida nom qozondilar. Umuman, qadimdan ilm o'lkasi hisoblangan O'rta Osiyoda islom diniga ma'naviy madaniyatning ifodasi axloqshunoslikning yo'nalishi sifatida munosabatda bo'lingan. Xususan, IX asrda musulmon o'lkalarida hadis to'plash, uni o'rganib tartibga solish muhim sohalardan hisoblangan. To'plangan hadislarning hajmi, chinligi, tartibi, ahamiyati bilan musulmon olamida olti muhaddis (hadis to'plovchi) mashhur bo'ldi. Shulardan uchta o'rta osiyolikdir.



Muhaddislar ichida *Ismoil Buxoriy* (809–870) buxorolik ustozlari Muhammad ibn Salom Poykandiy (777–839), Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy Ju'fiy (vaf. 843-y.)lardan ko'p hadislarni yod oldi. Haj ziyorati asnosida Balx, Bag'dod, Kufa, Basra, Damashq, Makkayu Madina shaharlarida bo'ldi. Hadis ilmida Amr ibn Fallos, Abu Iso Termiziy, an-Nasoiy, Abu Zar'a, Yusuf Foryobiy, Abu Bakr ibn Huzayma kabi shogirdlar yetishtirdi. U 20 yoshidayoq bir necha kitoblar muallifi sifatida mashhur bo'ldi. Allomaning "Al-adab al-mufrad" («Adab durdonalari»), "Al-jome' as-sahih" ("Ishonch-li hadislar to'plami")dan tashqari yana yigirmaga yaqin kitobi bo'lib, ko'plari bizgacha yetib kelmagan. Alloma tasnif qilgan "Sahihi Buxoriy" to'rt jild (juz), 160 qismdan iborat bo'lib, 3450 bobni o'z ichiga oladi. "Al-Jome' as-sahih" butun musulmon olamida keng tarqalgan, unga sharhlar, talqinlar yozilgan<sup>94</sup>.

Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan mashhur muhaddislardan yana biri *Imom Termiziy* (824–892) bo'lib, o'ndan ortiq asarlar muallifidir. "Jome' al-kabir" ("Jome' at-Termiziy"), "Ash-shamoyil an-nabaviya", "Al-ilal fi-l-hadis", "Risala fil xilof val-jalal", "At-Tarix", "Kitob az-Zuhd" kabi asarlar shular jumlasidandir. Bu asarlar hadislardan tashqari filologiya, tarixga oid masalalarni ham o'z ichiga qamrab olgan. Termiziyning musulmon olamiga mashhur qilgan asari "Jome' at-Termiziy" (yoki "Sunani Termiziy") haqiqiy deb tanilgan mashhur 6 hadis to'plamlaridan biridir. Bu hadislarda ma'naviy-ahloqiy masalalar, insonparvarlik g'oyalari o'zining keng ifodasini topgan.

Mashhur muhaddislardan yana biri Abu Abdurahmon *Nasoiy* bo'lib, (830–915) u Niso shahrida (hozir Turkmaniston hududi) tug'ilib, Sharqning qator ilm markazlarida ta'lim olgan. Misrdalik chog'ida hadislar to'plami "as-Sunai al-kubro"ni, so'ngroq uning asosida eng ishonarli hadislarni ajratib "Al-Mujtaba" nomli qisqartirilgan "as-Sunan" kitobini yozib qoldirgan. Olti mashhur hadisshunoslik manbalaridan qolgan uchtasi Eron va arab mamlakatlaridadir.

---

<sup>94</sup> *Ismoil Buxoriy*. Al-jome'u-s-sahih. 1–2 jild. T.: Movarounnahr, 2011.

O'rtaosiyolik olimlar hadis bilan birga fiqh va tafsir yozish sohasida ham shuhrat qozonganlar. Masalan, *Burhoniddin Marg'ino-niy* nomi bilan mashhur Ali ibn Abu Bakr Farg'oniy Rishtoniy (vaf. 1197-y.)ning fiqh ilmiga oid kitobi "Hidoya fi-l-furuz" ("Shariat sohalari bo'yicha qo'llanma") musulmon huquqshunosligi sohasidagi eng yirik va keng tarqalgan asarlardan biridir. Xorazmshohlar hukmronligi davrida Movarounnahrda Abul Hasan Xorazmiy, Nahaviy Adab, Yoqut Sakkokiy kabi islom qonunshunosligi, ilohiyoti bilan chuqur shug'ullangan taniqli olimlar haqida manbalarda ma'lumotlar keltiriladi.

Markaziy Osiyoda bitilgan tafsirlar orasida Abul Qosim Mahmud Zamahshariyning «Al-kashshof fi tafsir al-Qur'on», Yaqub Charxiyning «Tafsiri Charxiy» kabi asarlari mashhur. Turk dunyosida barcha mufassirlar tomonidan tan olingan nisbatan to'liq Turkiy tafsir (XII–XIII) Markaziy Osiyoda tafsirchilik tarixi muayyan ma'noda muvaffaqiyat bilan taraqqiy etgani belgisidir.

Tasavvufning Bag'dod maktabi shakllanishi davrida yuzaga chiqqan turkistonlik sufiylar Ibrohim Adham, Shaqiq Balxiy hamda ularning davomchisi Hakim Termiziy faoliyati yetarli o'rganilmagani uchun Markaziy Osiyoda tasavvuf tarixi xususida so'z yuritgan olimlar boshlang'ich nuqta sifatida Yusuf Hamadoniy faoliyatini e'tiborga oladilar.

Abu Ishoq *Ibrohim Adham* ibn Mansur (vaf. 161/778-y.) asos solgan tasavvuf maktabiga nisbatan *adhamiylik* yoki *adhamiya* istilohi qo'llaniladi. Ibrohim Adhamning tarjimayi holi "Vafiyyat-u-l-a'yon" (Ibn Xallikon), "Sharhu-l-maqomot al-hari-riyya" (Sharishiy), "Tarojimu a'lami-n-nisa" (A'lamiy Hoyiriy), "Al-vofiyu bi-l-vafiyyat" (Sadafiy), "al-A'lom" (Zarkaliy), "Al-bidoya va-n-nihoya" (Ibn Kasir), "Huliyatu-l-avliyo" (Abu Na'im Isfahoniy) kabi asarlarda aks etgan. Hikmatlaridan birida aytilishicha: "Sening Allohga bo'lgan muhabbating meni gunohga yetaklaydigan nazardan to'sdi". Ibrohim Adhamning tasavvufiy hayotini o'zida jam qilgan qissalar jahonning turli mamla-katlariga tarqalgan.

Y.E.Bertelsning fikriga ko‘ra, “biror bir shaxsning hasbu holiga oid kitob yo‘qki, unda Ibrohim Adhamga bag‘ishlangan bo‘lim bo‘lmasin”<sup>95</sup>.

Ibrohim Adhamning samoviy majlislarida uning o‘g‘li va shogirdi Shaqiq Balxiy (vaf. 790-y.) ham ishtirok etgan, ustozning tarbiyalarini olib tasavvufda yuksak maqomga erishgan. Abu Abdurahmon Sulamiyning «Tabaqotu-s-sufiyya» asarida “Birinchi tabaqa” mutasavviflardan biri sifatida Shaqiq Balxiy nomi keltirilgan va bir necha hikmatlaridan namunalar berilgan. Ulardan biri: “*Sen berayotgan va senga berilayotganlar farqiga yetgin: agar senga berayotgan inson sen uchun mahjub bo‘lsa, sen dunyoga mahjub ekansan; agar sen berayotgan kimsa senga mahjub bo‘lsa, sen oxirat uchun mahjubsan*”<sup>96</sup>.

*Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Bashir Hakim Termiziy* (~859–932)ning manqabaviy hayotiga oid ma’lumotlar Tojiddin Sabkiy, Xatib Bag‘dodiy, Ibn Hajar Asqaloni, Abdurahmon Sulamiy asarlarida, bevosita o‘zining «Badvu-sh-sha’n» («Maqomotning ibtidosi») risolasida mavjud. Manbalarda Hakim Termiziyning 400 dan ortiq asar yozgani tilga olinadi, ulardan bizning davrimizgacha 57 tasi yetib kelgan. Hadis ilmiga bag‘ishlangan «Navodir al-usul fi ma’rifat axbor Rasul» («Rasululloh xabarlarini bilishda nodir usullar»), tasavvufga oid «Kitob haqiqat al-odamiya» («Insoniyat haqiqati to‘g‘risida kitob») va «Adabu-n-nafs» («Nafs odobi») asarlarini alohida qayd etish lozim. Termiziyning «Xatmu-l-avliyo» (yoki «Xatmu-l-valoyat») asarida valiylik haqidagi qarashlari bayon qilingan. Asarda yozilishicha, aql-zakovat o‘zlashtira oladigan eng oliy bilim – ma’rifat yoki hikmatdir, bu inson qalbini yorituvchi «ilohiy nur»dir. Turfa ilmlarni o‘qib-o‘rganish jarayonida uni egallash mumkin, ammo asl ma’rifat Allohning o‘zi yarlaqagan zotlargagina nasib bo‘ladi. Hakim Termiziy sufiy avliyolarni ayni shunday zotlar sirasiga kiritadi<sup>97</sup>. “Adabu-n-nafs” (“Nafs odobi”) asarida yozishicha, “*nafs lazzat va shahvatga o‘rganib qolgan va havosi bilan amal qilishga ham. Qalbingning ustida*

<sup>95</sup> *Бертельс Е.Э.* Суфизм и суфийская литература. С.182.

<sup>96</sup> *Abu Abdurahmon Sulamiy.* Tabaqoti sufiyya / M.Nuriddinov tarj. T.: Fan, 2004.

<sup>97</sup> *Uvatov U.* Al-Hakim at-Termiziy (hayoti va merosi). T., 2001.

*amir bo'lib turib olgan. U shahvat bilan bo'lgan amirlikdir. Bas, uni tiyishga ehtiyoj tug'iladi. Agar uni odatlaridan qaytarsang, tiyiladi*"<sup>98</sup>. Mutaxassislar Hakim Termiziyning yuqoridagi asarlaridan kelib chiqib, uni *hakimiylik tariqatining asoschisi sifatida qadrlaydilar.*

Yuqorida ko'rsatilgan manbalar sharhi orqali tasavvuf adabiyoti hali to'liq holda o'zining maxsus janrlarini yaratmay turib ham adabiyotshunoslik masalalari bilan chambarchas bog'liq holda rivoj topganini kuzatish mumkin.

**Markaziy Osiyodagi ilk islom davlatlarida adabiyot-shunoslik ilmi.** IX–X asrlarda Markaziy Osiyoda Somoniylar (818–1005), Xorazmshohlar (995–1017 – ma'muniylar; 1077–1231 – anushteginlilar), G'aznaviylar (977–1186), Saljuqlilar (1036–1194), Qoraxonlilar (992–1211) davlatlari shakllangan bo'lib, o'lkaning dovrug'i olamga yoyilganining sababi bularda fan va madaniyatga e'tibor yuksak darajada bo'lganidandir. Bu mamlakatlarni birlashtirgan umumiy ilmiy-madaniy hodisa sifatida nafaqat islom e'tiqodi, balki arab-fors-turk tillarining rasmiy til darajasida ekanligi va turli fanlarga oid manbalarning har uch tilda bitilganligidir.

Y.E.Bertels "O'rta Osiyoda fors tilidagi adabiyot" nomli tadqiqotida yuqorida nomlari tilga olingan sulolalar davri X–XV asrlar davomida hozirgi Eron O'rta Osiyo bilan siyosiy va madaniy hayotda o'ta yaqin bo'lganliklarining sababi bu sulolalarning vakillari hozirgi Afg'oniston va qisman Eronni boshqarganliklarini va nihoyat, bu hududlarning hammasi "fors adabiyoti" deb nomlangan adabiy majmu' (kompleks) tarkibida ishtirok etgan va O'rta Osiyodagi fors tilli adabiyotning mavqei va salmog'i xususida batafsil tahliliy qarashni ifoda qiladi<sup>99</sup>.

Buxoroda markazlashgan *somoniylar sulolasi* samanxudotlardan bo'lib, ularning ayrim vakillari somoniylar sulolasiga borib ulanadi. Asli balxlik Somonxudot islomni qabul qilib, xalifa Ma'mun xizmatida e'tibor topgani uchun uning avlodlari Nuh Samarqandni, Ahmad Farg'onani, Yah'yo Shoshni va Ilyos Hirotni boshqargan. Rasmiy sulola Farg'ona hukmdori Ahmad I ibn Asad ibn Somon nomi bilan boshlanib (819), keyinroq Nasr I ibn Ahmad (864) va Ismoil I

---

<sup>98</sup> *Al-Hakim at-Termiziy.* Adabu-n-nafs. Termiz, 2006.

<sup>99</sup> *Бертельс Е.Э.* История литературы и культуры Ирана. М.: Наука, 1988. С.261-301.

ibn Ahmad (892) davrlarida mashhur bo‘ldi<sup>100</sup>. Ular poytaxt tutgan Buxoro qudrati (Buxoro quvvati islomi din ast) nafaqat diniy ilmlarda, balki dunyoviy fanlar taraqqiyotida ham, adabiyot va san’atda ham peshqadam bo‘ldi. Yangi fors adabiyotining asoschisi Abu Abdulloh Rudakiy bevosita shu madaniy muhitda kamol topdi.

*Abu Abdulloh Rudakiy* (858–941) somoniylardan Nasr ibn Ahmad saroyida xizmat qilgan. Manbalarda xushovoz hofiz bo‘lgani, ud chalishda mahoratli ekani (Abdurahmon Jomiy)<sup>101</sup>, musiqa fani ustodi, qasida va masnaviyini go‘zal aytishi (Davlat-shoh Samarqandiy)<sup>102</sup> zikr qilinadi. S.Ayniyning talqinicha, fors tilida birinchi devon tartib bergan shoir<sup>103</sup>. Asarlarining umumiy hajmi 700 mingdan 1.300 ming misragacha ko‘rsatiladi. “Modari may” (“May onasi”), “Shikoyat az piri” (“Qarilikdan shikoyat”) qasidaları mashhur. “Sahli mumtane” (osonu mumkin emas) uslubining asoschisi.

*Abu Abdulloh Muhammad Xorazmiy* X asrda yashagan, uning bizgacha yetib kelgan yagona asari «Mafotihu-l-ulum» («Ilmlarning kalitlari») somoniylar sulolasining uchinchi vakili Nuh b. Mansur (975–997) xalifaligi davrida yozilgan. Vazir Abul Hasan Ubaydulloh Utbiyga bag‘ishlangan bu asar arab tilida bitilgan bo‘lsa ham, uning mundarijasidan muallifning fors, yunon va qadimgi suryoniy tilidan xabardorligi ma’lum. Qomus shaklida yozilgan asarda o‘sha davr fanlarining muhim sohalariga oid atamalarning ma’nolari ochib berilgan. Asar ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘limning 5–bobi ilmi aruz, qofiya va sanoye’ga oid istilohlarni yoritishga bag‘ishlangan. Bob, o‘z navba-tida, besh qismdan iborat: 1–qism mazkur fanning tarkibi, aruz tizimidagi atamalar; 2–qism aruz variantlari va illatlarning nomlari; 3–qism qofiya va uning tarkibi; 4–qism mazkur atamalarning kelib chiqishi va ulardan foydalanish usullari, 5–qism

---

<sup>100</sup> Босворт К.Э. Мусульманские династии. Справочник по хронологии и генеалогии. Пер. с англ. П.А.Грязневича. М.: Наука, 1971. С.145–146.

<sup>101</sup> Jomiy A. Bahoriston / Sh.Shomuhamedov tarj. T., 1997. B.67–68.

<sup>102</sup> Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo‘stoni / B.Ahmedov, N/Norqulov tarj. T., 1981. B.22–27.

<sup>103</sup> Ayniy S. Asarlar. Sakkiz jildda. 8-j.. T., 1967.

she'riyat tanqidi va undan foydalanish yo'llari haqida. Shuningdek, to'rtinchi bobning 8–qismi «kotiblarning so'zdan foydalanishdagi mahoratlari»ga bag'ishlangan. Abu Abdulloh Xorazmiy asari ungacha yaratilgan arab tilidagi poetik manbalar Xalil ibn Ahmad lug'ati, Ibn Mu'tazzning «Ilmu-l-bade'», Qudama ibn Ja'farning «Naqdu-sh-she'r» kabi asarlaridan unumli foydalangani uchun ham alohida ahamiyatlidir. Chunki bu asarlarning ayrimlari bizgacha yetib kelmagan, saqlanganlarining ham mazmuni boshqa manbalar va tarjimalar orqali o'rganilmoqda.

Qomusini bunday fundamental asosga qurish barobarida muallif o'z davrigacha yaratilgan aruzshunoslik ilmiga doir istilohlarni tizimli suratda yoritdi, aruz tizimidagi mavjud tushunchalarni alifbo tarzida izohlash bilan cheklanmay, ularning qat'iy qoidalari, bu fanning tarkibi, vazn va bahr munosabatlari, har bir bahrning turlari va variantlarini ishlab chiqdi. Ma'lumki, arab aruzi kvalitatif (lotincha «sifat») she'r tizimiga kirsada<sup>104</sup>, u bo'g'in (hijo) asosiga emas, balki harflar asosiga qurilgan. «Bunda ularning o'ziga xos harakatlari, talaffuziga alohida e'tibor beriladi. So'zning butun tarkibi «harakatlangan harf» va «harakatlanmagan harf» terminlari yordamida belgilanadi»<sup>105</sup>. Abu Abdulloh Xorazmiy asarida arab aruzining mana shu xususiyatidan kelib chiqib istilohlarning sharhlanganini kuzatish mumkin. Bu asar garchi izohli lug'at tarzida tuzilgan esada, keyinroq Markaziy Osiyoda yaratilajak Mahmud Zamahshariy, Abu Hafs Nasafiy, Yusuf Sakkokiy va boshqa allomalarning aruziy tadqiqotlari uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Somoniylar davrida Buxoroda yashagan shoir, olim va sayyoh *Abu Mansur Saolibiy* (961–1038) Xurosonning Nishopur shahrida tug'ilgan. Iroq, Xuroson, Movarounnahr va Xorazmda yashagan. "Shohnomai Saolibiy" masnaviysi forsiy adabiyotda mashhur bo'lgan, uni arabchadan fors tiliga tarjima qilgan eronlik olim Mahmud Hidoyat olimning 34 asarini sanab o'tadi. Ular orasida arab tilida

---

<sup>104</sup> Adabiyot nazariyasi. II jild: Adabiy-tarixiy jarayon. T.: Fan, 1979. B. 349–355.

<sup>105</sup> *Ziyovuddinova M.* Abu Abdulloh al-Xorazmiyning «Mafotuhu-l-ulum» asarida poetika. T.: 2001. B.82.

yoʻzilgan “Yatimat ad-dahr fi mahosin ahlu-l-asr” (“Asr yaxshilari haqida durdonalar”, 995–1000, 1020) tazkirasi mashhur. Asar 4 qismdan iborat, har bir qism 10 bobni tashkil qiladi. 1–qismda Hamdoniylar sulolasi (Suriya) va unga qoʻshni Misr va Mavsil shoirlari; 2–qismda Iroq ahlidan boʻlgan va dahlamiylar davrida yashagan shoirlar, 3–qism Jabal, Fors, Jurjon, Tabariston va Isfahon shoirlari va 4–qism somoniylar davridan gʻaznaviylar davlatining ilk davrigacha Xuroson, Movaroun-narda yashagan shoirlar ijodidan namunalar beradi. Buxoroda yashagan 47 va xorazmlik 7 shoir haqida maʼlumot bor<sup>106</sup>. Bu shoirlar faqatgina arab tilida asarlar yozish bilan cheklanmagan, turkiy va forsiyda yozilgan asarlarni ham arab tiliga tarjima qilganlar. Asarda adab va sheʼr ustozlari Abu Bakr Xorazmiy va Abul Fazl Hamadoniy ijodiga keng oʻrin berilgan. Tazkira tarkibida, asosan, qasida va hajv, vaf va fardlar uchraganidan maʼlum boʻladiki, somoniylar davrida mana shu adabiy janrlar mashhur boʻlgan. Tazkiradagi muallif qasidalardan keltirilgan parchalarda hukmdorlar, qoʻmondonlar va shoirlar vaf etiladi. Masalan, Abu Zarir Balxiy qasidasi Abul Abbos Maʼmuniy degan shoirga, Huzaymiy qasidasi esa Iskofiy taxallusli shoirga bagʻishlangan. Hajvlarda esa ayrim amir va amaldorlar tanqid ostiga olingan. Masalan, Abu Tayyib Tohiriyning amir Ahmad ibn Ismoil (907–914)ga va Nasr ibn Ahmad (914–943)ga qarata aytilgan hajvlari bor. Bulardan tashqari, ayrim shaharlar, tashlandiq joylar va qarovsiz qolgan manzillar haqida ham hajvlar yozilgan. Vaf sheʼrlarida yil fasllari, tabiat hodisalari, uy jihozlari, yozuv qurollari, taom va ichimliklar asos qilib olingan. Baʼzi sheʼrlari muammo yoki chiston janrlarining dastlabki namunalari kabi tasavvur beradi<sup>107</sup>.

Fors tilidagi *ilmi bade*ʼning ibtidosi asl ona yurti fargʻona vodiysi boʻlgan Umar Roduyoniy (XI asr)ning «*Tarjumonu-l-balogʻa*» («Balogʻat tarjimoni») asarida aks etgan. Muallifning birdan-bir asari «*Tarjumonu-l-balogʻa*» orqali uning taxminan XI asrning ikkinchi yarmida Fargʻona vodiysida yashaganini aniqlash mumkin. «*Tarjumonu-l-balogʻa*» haqida turk olimi Ahmad Otash

<sup>106</sup> Abu Mansur as-Saolibi. Yatimat ad-dahr. 4–qism / I. Abdullayev tarj. T.: Fan, 1976.

<sup>107</sup> Abdullayev I. Buxoroning arabiynavis shoirlari. T.: Fan, 1965.

«Oriyens» majallasida ma'lumot bergan<sup>108</sup>, so'ngra asar 1961-yili Eronda chop etilgan<sup>109</sup>. Asarning har ikki nashri (Istanbul va Tehron) asosida tojik olimi Xudoy Sharipov ushbu asardan namunalar tanlab olib, «Muntaxobi «Tarjumonu-l-balog'a» nomi bilan 1987-yili Dushanbeda nashr qildirgan<sup>110</sup>. Muhammad Umar Roduyoniy muqaddimada fors tilida bunday asar yo'qligi tufayli uni yozishga kirishganini, sanoye' ilmi haqida arab tilida yozilgan Imom Nasr ibn Hasan Marg'inoniy «Mahosinu-l-kalom» («So'z go'zalliklari») asariga suyanganini bayon qiladi.

O'ziga Nasr ibn Hasanning «Mahosinu-u-kalom»i va Muhammad ibn Umar Roduyoniyning «Tarjumonu-l-balog'a» asarlarini o'rnak bilgan xorazmshohlar saroy shoiri *Rashididdin Vatvotning* «Hadoyiqu-s-sehr fi daqoyiqu-sh-she'r» («She'r nazokatidan yaratilgan sehrlil bog'lar») nomli asarini ilmi bade'ga bag'ishlagan (bu haqda xorazmshohlar adabiy muhiti munosabati bilan to'xtalamiz). Bundan tashqari, fors tilida badiiy san'atlar tasnifiga bag'ishlagan Husayn Voiz Koshifiy, Shams Faxriy, Toj Xalaviy va Sharaf Ramiyning risolalari ham yozilgan edi<sup>111</sup>.

*Nizomiy Aruziy Samarqandiy* (XI asr oxiri – 1160)ning ismi Ahmad ibn Umar, Nizomiy – shoirlik taxallusi, aruz ilmining yetuk mutaxassisi bo'lgani uchun qalam ahli uni Aruziy deb atashgan. Asli Samarqanddan bo'lib, 45 yil Gur va Bomiyon (Afg'onistonning shimoliy g'arbi) viloyatlari hukmdorlari xizmatida bo'lgan. Nizomiyga shuhrat keltirgan asosiy asar “Chahor maqola” (“To'rt maqola”, 1157-y.) bo'lib, o'zbek tiliga “Nodir hikoyatlar” nomi bilan tarjima qilingan. Kitob hamd, na't, muqaddima qismlaridan tashqari to'rt maqolani o'z ichiga oladi: 1. Dabirlik (kotiblik) ilmining mohiyati va yetuk dabir sifatleri. 2. She'r ilmining mohiyati va shoir salohiyati. 3. Yulduzlar ilmining mohiyati va

---

<sup>108</sup> *Mehmet Umar Roduyani*. Tarcumani-l-Balağa. Hazirlayan Ahmat Ataş. İstanbul, 1949.

<sup>109</sup> *Muhammad ibn Umar ar-Roduyoniy*. Tarjumonu-l-balog'a. Bo tasnifi muqaddima va zaylu havoshi va tarijimi a'lom ba xomai qavim. Tehron, 1339.

<sup>110</sup> Мунтахаби «Тарчумону-л-балоға» (Таҳияи матн, муқаддима ва тавзеҳоти Худой Шарифов). Душанбе: Дониш, 1987.

<sup>111</sup> *Мусульманкулов Р.* Персидско-таджикская классическая поэтика. X–XV вв. М.: 1989. С. 14.



munajjimlar salohiyati. 4. Tib ilmining mohiyati va tabiblar zaruriyati. Nizomiy talqinicha, mamlakat ishlarining mustahkamligi – shohga, uning nomini (qasabasi, mulki, viloyati, lashkari, xazinasini) qoldirish – davriga, unga shuhrat baxsh etilishi – shoirga, turmush tadbirlarining o‘ngidan kelishi – munajjimga, badan sihati – tabibga bog‘liq. Shuningdek, agar ilmdan bahra topmagan, har bir nuqtani yod olmagan, har hakimdan bir hikmat eshitmagan va har adibdan bir san‘at o‘rganmagan dabir (bitikchi)ning so‘zlari a‘lo darajaga yetmaydi.

Aruziy Samarqandiy dabir (kotib)lik kasbida ishlab, hukmdorlar xizmatida bo‘lgani uchun juda ko‘p ilm-fanlarni va san‘atlarni yaxshi bilishi ravshan sezilib turadi. Bir jihatdan dabirlik kasbi shoirlikka yaqin turadi. Dabir ham, shoir ham so‘z ustalaridir. Lekin bular o‘rtasida farq shundaki, shoir vazn, turoq, qofiya yordamida go‘zal, nafis fikr va tuyg‘ularni ifodalasa, dabir mantiqiy va ritorik ishontirish, dalillash bilan muxtabga (xitob qilinayotgan odamlarga) ta‘sir ko‘rsatadi. Agar dabir mantiq kuchi va so‘z nafosati bilan odamlarning qarashlariga ta‘sir ko‘rsatsa, shoir tinglovchi, o‘quvchilarning hissiyot va tasavvurlariga ta‘sir qilib, bilim va zavq bag‘ishlaydi.

“She‘r ilmining mohiyati haqida”gi bobda “*Shoirlik shunday san‘atki, bu san‘at orqali hayajonlantiruvchi tushunchalar hosil qilinadi va ta‘sirchan o‘xshatishlarni bir-biriga bog‘laydi. U shunday yo‘lda kichik ma‘noni kattaga, kattani kichikka aylantiradi. Chiroyli(k)ni xunuk libosda ko‘rsatadi, xunukni chiroyli suratda jilvagar qiladi...*”<sup>112</sup> deb yozadi. Tabiiyki, bu yerda fikr so‘zning badiiylik tabiatiga ko‘chadi, shoirlilik kasb emas, balki usta san‘atkorlik ekani, xunukni jozib bir tarzda jilvagar qilish, kezi kelganda, go‘zalni xunuk libosda tasvirlay bilish mahorati unda hunar kabi mavjud bo‘lishi lozimligini uqtiradi.

Nizomiy Aruziy yosh shoirlarga saboq berib, aruz ilmini yaxshi bilishni istaganlar ustod Abul Hasan Saraxsiy Bahromiyning “G‘oyata-l-aruzayn” (“Ikki aruz chegaralari”), “Kanzu-l-qofiya” (“Qo-fiya xazinasini”), “Naqdi maoniy” (“Ma‘nolar talqini”), “Naqdi alfoz” (“Iboralar talqini”), “Sirqot”

---

<sup>112</sup> Nizomiy Aruziy Samarqandiy. Nodir hikoyatlar. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1985. B. 47.

(“Ko‘chirmachilar”), “Tarojim” (“Biografiya”, “Tarjimai hollar”) kitoblarini o‘qishni tavsiya qiladi.

Shoir she‘r san‘atining go‘zalligi, unda nafosatli, fasohatli so‘zlar dardga malham bo‘lishi ta‘kidlaydi. Aruziy fikricha, “chiroyli yolg‘on” – shoirning bahoriy so‘zlari kundalik zerikarli hayotni bezab, bayramga aylantiradi. She‘riyat – inson ko‘nglidagi his-tuyg‘ularning nozik tovlanishlari, murakkab ruhiy kechinmalarni aks ettira oladi. Shoir oddiy hayotda ko‘z ilg‘amas noyob go‘zallik borligini ko‘rsatib, insoniy xis-tuyg‘ularni noziklashtiradi. Uning fikricha, badiiy to‘qima haqiqatga yaqin yoki unga o‘xshash bo‘lishi muhimdir. She‘rda badiiy to‘qima nafis, gulgun so‘zlar bilan, vazn va ohang bilan tabiatga taqlid qilishdir.

Aruziy Samarqandiy fikricha, she‘riyat – ijodiy taxayyul, xayolotning go‘zal olami bo‘lib, bu olamning nasrdan farqlanuvchi o‘z qonun-qoidalari bor. She‘riyat hayot haqida bilim bermaydi, balki u estetik vazifani bajaradi, hayot go‘zalliklaridan zavqlanish, adolatsizlik, tubanliklaridan qayg‘urish kabi ruhiy holatlarni uyg‘otadi. Shuning uchun shoir zehni o‘tkir va hozirjavob, so‘zga chechan bo‘lishi kerak. Mana shunday shoirlardan Rudakiy, Muizziy, Farruxiy, Burhoniyning badihago‘ylik iste‘dodini yuksak qadrlaydi. Muizziyning Rudakiyga nazirasi, shu shoirning Oy haqida badihasi, Abu Bakr Azraqiyning nard o‘yini haqida aytgan to‘rtligi, Abu Said Rashidiyning tuzsiz she‘r degan ta‘naga javoban aytgan “she‘rim asalday shirin, unga tuz na darkor” mazmunidagi javoblarni badiha – improvizatsiyaning go‘zal namunalari deb maqtaydi.

Aruziy Samarqandiy nafaqat shoirlar, balki serqirra olimlar Abu Bakr Roziy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom hayotiga doir nodir hikoyatlari bilan sharqona adab ilmi tarixida yorqin iz qoldirdi. Aruziy Samarqandiy kitobida she‘riyatni qadrllovchi va shoirlarni hurmat qiluvchi saljuqiy hukmdorlardan To‘g‘onshoh ibn Alp Arslon ismini uning homiyligida ijod qilgan shoirlar munosabati bilan keltiradi, Varsad shahrida podshoh saroyida badiha she‘r aytib, mukofot olganini eslashni ham unutmaydi. Alohida hikoyatda sulton Mahmud G‘aznaviy va Firdavsiy voqeasiga to‘xtaladi. Aruziy Samarqandiy yozishicha, Firdavsiy “Tus-

ning Tabaron nohiyasining Boj qishlog‘idan edi. “Shohnoma”ni tugatish uchun 25 yil ter to‘kdi. ...So‘z shuhratini Arshi a’loga yetkazdi, lazzatda esa zilol suvga monand qildi.”<sup>113</sup>

Nuriddiy Muhammad *Avfiy Buxoriy* (1171–1233) – shoir va tazkiranavis, tarjimon. U Buxoroda taxsil olgach, Samarqandda (1201–1220)da qoraxonli Qilich Arslon xizmatida munshiy bo‘lgan. Xorazm, Marv, Nishopur, Hirot, G‘azna shaharlariga sayohat qiladi. Xorazmda Najmiddin Kubro va uning shogirdi Majididdin Bag‘dodiy (Farididdin Attorning ustoz) bilan suhbat quradi. Mo‘g‘ullar istilo etgan joylarni tark etib, Loho‘r va Dehliga sayohat qiladi. Umrining so‘ngiga qadar Hindistonda Shamsiddin Eltutmish dargohida adabiy faoliyatini davom ettiradi. “Lubobu-l-albob” (“Ilmlar mag‘zi”) tazkisasi fors tilida yozilgan ilk tazkira bo‘lib, Buxoro va Xorazmda boshlangan va 1222–23 yillarda Hindistonda yakunlangan<sup>114</sup>. Tazkirada X–XIII asr boshlarida yashagan 300 shoir haqida ma’lumot bor, asar muqaddima va 12 bobdan iborat. Dastlabki 4 bob nazariy ma’lumotlardan iborat: *1–bob. She’r va shoirlik fazilati; 2–bob. She’rning lug‘aviy ma’nosi haqida; 3–bob. Birinchi she’r aytgan kishi kim ekani haqida; 4–bob. Forsiyda ilk she’rni kim aytgani haqidadir.* 5–12 boblar davomida IX–XIII asrlarda Movarounnahr, Xuroson, Hindiston va Iroqda yashagan shoirlar haqida ma’lumot berilgan. 5– va 6–boblarda “*Nomdor sultonlar va mamlakat ulug‘larining go‘zal she’rlari borasida*” va “*amir va vazirlar ijodi haqida*” fikr yuritgan. 7–bobning 1–faslida Movarounnahrning ulamolari, fozillari zikr etilsa, 10–bobda saljuqlilar davridagi go‘zal she’rlar sohiblaridan so‘z yuritadi. Unda muallif Movaraunnahr shoirlaridan Abu Muhammad Samarqandiy, Shihobiddin A’maq Buxoriy, Muhammad ibn Ali So‘zoniy, Ali Shatranjiy, Nizomiy Aruziy

---

<sup>113</sup> *Nizomiy Aruziy Samarqandiy*. Nodir hikoyatlar. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985. B.47.

<sup>114</sup> *Murtazayev B.* Avfiyning “Lubobu-l-albob” tazkirasining tarkibi va mundarijasiga doir / O‘zbek adabiyotshunosligida talqin va tahlil muammolari. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2014. B.120–124.

Samarqandiy; Hamididdin Javhariy Mustavfiy va boshqalarni tilga oladi<sup>115</sup>. Qariyb to‘rt yuz yillik adabiyot tarixiga oid manbalarni o‘zida jamlagan bu tazkiraning o‘zbek tilida nashr etilishi adabiyotshunoslik va mumtoz adabiyotga oid ilmdagi juda ko‘p noaniqliklarga ochiqlik kiritishiga ishonchimiz komil.

1223-yili Avfiy arab adibi Abu Ali Muhassin Tanuhiyning “Al-Faraj ba’da-sh-shidda» (“Qiyinchilikdan keyingi shodlik”) asarini fors tiliga tarjima qilgan. Bu asarga Avfiy “Javome’u-l-hikoyot va lavome’u-l-rivoyot» degan nom bergan («Hikoyalar to‘plami va rivoyatlar shu’lolari”, 1228-y.). Asarda avliyo va anbiyolar hayoti, karomat va mo‘‘jizalari, xalifalar, ajam shohlarining adolatli va adolatsiz ishlari haqida hikoyalar keltirilgan. Bu hikoya va rivoyatlarda diniy bag‘rikenglik, xalqlarning o‘zaro hamjihat bo‘lib tinch yashash g‘oyalari aks etgan. Har bir qismi 25 bobdan tashkil topgan asarning 2–qismida odob, tavoze, lutf, karam, sabr, vafo, mehr va muruvvat ulug‘lanadi. Asarning 3–qismida zolimlik, kibru havo, baxillik, kazzoblik (yolg‘onchilik), munofiqlik va hasadgo‘ylik illatlari qoralanadi. 4–qismda ayollarning vafodorligi, ziyrakligi va zakovati yoqlanib, ulardagi salbiy illatlar tanqid ostiga olinadi<sup>116</sup>.

Rudakiydan Avfiygacha o‘tgan qariyb uch yuz yillik adabiy tarix davomida sulolalar almashganiga qaramay, somoniylar davrida boshlangan fors tilidagi adabiy an’analar davom etganini ko‘ramiz.

*Xorazmshohlar sulolasining* ildizlari Qiyot afrigiylari (mil.avv. 305–yillardan)ga borib ulansa-da, Qo‘hna Urganchning abbosiylar tomonidan ishg‘ol etilishi tufayli Abu Ali Ma‘mun I (992-y.)dan boshlangan bu sulola 1017 yilda g‘aznaviylarning yurishi tufayli Xorun ibn Oltuntosh (1032-y.) tufayli yangi sulolaga almashadi va 1077-yilda boshlangan *anushtaginlar* davlati dastlab saljuqli sultonlari ixtiyorida bo‘lgan Xorazmni to mo‘g‘ul istilosiga qadar boshqargan. Anushtagin G‘archaiy (1077-y.) bosh bo‘g‘ini bo‘lgan bu sulola Jaloliddin Manguberdi (1220–1231)ga qadar davom etadi. Islomni Qutayba ibn

---

<sup>115</sup> Avfiy Muhammad Buxoriy. Tazkirai Lubobu-l-albob. 1–2 jild. Prof. Braun nashri asosida. Muqaddima va sharhlar muallifi Muhammad Qazviniy. Tehron: Mumtoz, 1361. 1036 s.

<sup>116</sup> Avfiy M. Nodir hikoyatlar. T., 1977; Hikoyalar va rivoyatlar. T., 1983.

Muslimning Markaziy Osiyoga yurishi davridan qabul qilgan Xorazm davlati XIII asrga qadar yuksak ilm va madaniyat o‘chog‘i bo‘lganini bu zamindan yetishib chiqqan allomalar orqali ham bilish mumkin. Xorazmning jahon fani va madaniyatiga yetkazib belgan ulug‘ dohiylari qatorida dastlab Muso Xorazmiyni tilga olamiz.

*Muhammad ibn Muso Xorazmiy* (780–850) dunyo riyoziyot ilmi rivojiga behisob hissa qo‘shgan, Marvda Ma‘mun saroyiga jalb etilib, so‘ng xalifalik markazi Bag‘dodda xizmat qilgan va “Baytu-l-hikma” ilmiy markazida rahnamolik qilgan olimdir. Hozirgi ilmda “algebra” va “algoritm” tushunchalarining paydo bo‘lishi Xorazmiy faoliyati bilan bog‘liq. “Algoritm” Xorazmiy (al-Garezmus) nomining lotin tilidagi ifodasidan, “algebra” so‘zi esa uning matematikaga oid “Al-jabr va al-muqobala” asarining birinchi so‘zining lotincha talaffuzidan olingan. Xorazmiy qalamiga 12 turli sohalarga oid risolalar mansub. Bu asarlar XII asrda lotin tiliga tarjima etilgan. “Arifmetikaga oid risola”ning arabcha nusxasi saqlanmagan. Lotincha nusxasi “Al-Xorazmiy hind hisobi haqida” deb nomlangan. Olimning riyoziyot ilmiga oid ikkinchi risolasi “Algebra haqidagi risola” ham XI asrda lotin tiliga tarjima etilgan. Bu har ikki risola matematika rivojida yangi bir davr ochgan asarlardir. Bundan tashqari, Xorazmiyning “Ziji” (yulduzlar jadvali) lotinchaga o‘g‘irilgan. Uning mashhur asari “Kitob surati-l-ard” (“Yer yuzining kartasi”) musulmon Sharqida jug‘rofiya ilmini boshlab bergan. Xorazmiy O‘rta asr Sharqida birinchi bo‘lib tarix yozganlardan. Uning “Kitob at-tarix” asaridan ayrim parchalar saqlanib qolgan. Bular-dan tashqari olimning astrologiyaga oid, kalendar tuzish, vaqtni o‘lchash, soat haqida ham risolalar yozgani ma’lum, lekin ularning ko‘pchiligi bizga qadar yetib kelmagan. Hindistonda vujudga kelgan o‘nlik tizimi Xorazmiy asari tufayli musulmon Sharqi va Ovro‘paga ma’lum bo‘ldi. Uning “Ziji” asari qadimgi yunon va hind astronomiyasi erishgan yutuqlar asosida yaratilgan bo‘lib, u o‘rta asrlarda bu sohadagi tadqiqotlarni boshlab berdi.

Xorazmiyning zamondoshlaridan biri mashhur astronom *Abul Abbos Ahmad Fargʻoniy* (vaf. 860-y.) boʻlib, u xalifalik markazi Bagʻdodda xizmat qilgan. Musulmon Sharqida falakiyot ilmiga asos soldi. Uning jugʻrofiya, falakiyotga oid asarlari bilan birga dunyoga mashhur qilgan “Javomi ilm an-nujum va-l-harakat as-samoviya” kitobidir. Bu asar XII asrdayoq lotin tiliga tarjima etilib, tezda butun Ovroʻpada mashhur boʻlib ketdi. “Algoresmus” kabi uning lotincha nomi “Alfraganus” ham oʻsha davrdagi juda koʻp manbalarda uchraydi.

Xorazmiy va Fargʻoniy bilan birga Bagʻdodda boshqa oʻrtaosiyolik olimlar ham ilm rivoji yoʻlida jasorat koʻrsatdilar. Bular orasida Abu Mashar Balxiy, ota-oʻgʻil Marvoziy, Marvaruddiy, Saraxsiy kabi mashhur nomlarni uchratish mumkin.

Xorazmshohiyalar sulolalarining nisbatan bardavom va taraqqiyparvar qismi anushtaginlilarga oiddir. *Anushtagin* (1077–1097)ning oʻgʻli Qutbiddin Muhammad taxtga chiqqach, mana shu sulolaga asos solingan. 1097–1231-yillarda anushtaginlilar sulosasi Xorazm taxtini boshqargan<sup>117</sup>.

*Umar Zamahshariy* (1075–1144) Xorazmning Zamahshar qishlo-gʻida tugʻilgan, asosan, gumanitar ilmlar sohasida shuhrat qozongan, bir necha yil Iroq va Hijozda boʻlgan. Zamahshariyning “al-Kashshof” asari Qurʻoni karimning eng moʻtabar tafsirlaridan hisoblanadi, jumladan, arab adabiyotiga oid “Asosu-l-balogʻa”, “Samimu-l-arabiya” (“Arab tilining magʻzi”), “Muqaddimatu-l-adab”, “Maqomat” kabi asarlari filologlar ichida mashhur. Mahmud Zamahshariy «Qustosu-l-aruz» («Aruziy zehn tarozusi») asarida arab aruzining asosiy qonuniyatlari, taqtiʼ usullari bayon qilingan. «*Asosu-l-balogʻa*» («Balogʻat asoslari») arab tili lugʻati boʻlib, 3742 soʻzni oʻz ichiga oladi. Shundan 2707 soʻzning asosiy maʼnosi, 1035 soʻzning oʻz maʼnolari bilan birga koʻchma maʼnosi ham berilgan. Lugʻat tarkibiga koʻra bosh soʻz va uning maʼnosi, bosh soʻz hosilalari, izohlovchi manbalar: Qurʻoni karim oyatlari, hadislar, xalifa va sahobalarning soʻzlari, sheʼrlar, maqollar va iboralardan iborat. Shuningdek,

---

<sup>117</sup> *Bunyodov Z.* Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097–1231). T., 1998; *Bunyodov Z.* Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar. Xorazmshohlar davlati. T.: MUMTOZ SOʻZ, 2012.

soʻzning majoziy maʼnosi, bosh soʻz majoziy maʼnoda ishlatiladigan jumlar va qoʻshimcha materiallar ham berilgan boʻlib, bu jihatdan badiiy asarlarga murojaat etilgan<sup>118</sup>.

“Muqaddimatu-l-adab” lugʻat kitobi boʻlib, uni XX asr oʻzbek ilm ahliga tanitganlardan biri Fitratning shu nomdagi maqolasi boʻldi<sup>119</sup>. Kitob besh qismdan iborat: ismlar, feʼllar, harflar, ism oʻzgarishlari, feʼl oʻzgarishlari. Kitobdagi har bir arabcha soʻzning forscha, oʻzbekcha (chigʻatoycha), moʻgʻulcha muqobil variantlari ham berilgan<sup>120</sup>.

“Atvoqu-z-zahab fi-l-mavoʻiz va-l-xutab” (“Oʻgit va nasihat-larning oltin shodalari”, 1130) ayrim manbalarda “Nasoyihu-s-sigʻar” (“Kichiklarga nasihatlar”) deb atalgan nasihat tarzida aytilgan yuz maqoladan iborat asardir. Ixcham va goʻzal tarzda hikmatlar shodasi kabi tartib berilgan. Har bir maqola mavzuga oid Qurʼoni karimdagi oyati karima bilan tugallangan<sup>121</sup>. Zamaxshariyning buyuk xizmatlaridan yana biri uning “Asmou ul-avdiya va-l-jibol” (“Vodiy va togʻ ismlari”) jugʻrofiy lugʻatidir. Unda Arabiston, Suriya, Misr, Iroq, Eron, Hindiston, Ispaniya, Oʻrta Osiyodagi jugʻrofiy nomlar izohi beriladi. Shuningdek, olim johiliyya davri arab shoiri *Shanfara Azdiy* (VI asr)ning murakkab qasidalaridan biri “Lomiyatu-l-arab» (“Arab lomiyasi”) qasidasiga “Ajabu-l-ajab fi sharhi “Lomiyatu-l-arab” (“Ajoyibot-larning ajoyibiga “Lomiyatu-l-arab” sharhi) nomli maxsus sharh yozgan<sup>122</sup>.

Akademik Z.Bunyodov anushtaginlilar davri manbalarini tadqiq etar ekan, “Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097–1231)” asarida eʼtibor-ni jangu jadallarga emas, balki madaniy hodisalarga qaratdi. Jumladan, asarning 8–bobi “Xorazmshohlar davlatida madaniy hayot” qismida yozadi: “Xorazmshohlar davlatida, ayniqsa, Sulton Takish va Aloiddin Muhammad davrlarida madaniy

---

<sup>118</sup> *Sulaymonova N.* Mahmud Zamahshariy “Asosu-l-balogʻa” asarining manbashunoslik tadqiqi. NDA. T., 2007.

<sup>119</sup> *Zamahshariy M.* Muqaddimatu-l-adab / Nashrga tayyorl. Z.Islomov. T., 2008.

<sup>120</sup> *Fitrat.* Muqaddimatu-l-adab / Tanlangan asarlar. 4–jild. T.: Maʼnaviyat, 2006. B.135–140.

<sup>121</sup> *Zamahshariy M.* Oltin shodalar / Turkchadan M.Mahmud va N.Rahim tarj. T., 2010.

<sup>122</sup> *Rustamov A.* Mahmud Zamahshariy. T.: Fan, 1971.

hayot ravnaq topgan. Qasidago'y va dostonchi shoirlar ijodi gullab-yashnagan. Xorazm she'riyati maktabining deyarli barcha vakillari saroy shoirlari edilar... Shulardan eng ko'zga ko'ringani shoir va olim *Rashididdin Muhammad Umariy Vatvot* (1115–1182) o'zining she'riyat nafosati haqidagi «*Hadoyiqu-s-sehr fi daqoyiqu-sh-she'r*» («She'r san'atining sehrli bog'lari») kitobini xorazmshoh Otsizga bag'ishladi<sup>123</sup>. Rashididdin Vatvot 55 bobdan iborat bo'lgan asarining har bir bobi bir poetik san'atga bag'ishlangan va ilovada yana 8 ta san'at haqida to'xtaladi. Shunday qilib, olim arab va fors she'riyatidagi 63 san'atning tabiatini o'rganadi va ularga dastlab Qur'oni karim, hadisi shariflardan, so'ngra esa arab va fors shoirlari ijodlaridan namunalar (arab adiblaridan 305, forslardan 209) keltiradi. Ma'lumki, ilmi badoye' ilmi adab tizimidagi aruz va qofiya ilmlari bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham Vatvot asarining dastlabki qismida aruz va qofiya ilmi bilan bog'lanmagan to'qqiz, so'ngra qasida va ruboiylarda faol qo'llanilgan uch san'at turi haqida to'xtaladi. Ayrim san'atlarning turli ko'rinishlari, masalan, tajnisning yetti xil ko'rinishi, maqlubning to'rt xili haqida ham alohida tushuntirish beradi. Asarning yana bir o'ziga xos jihati shundaki, u faqatgina she'riy janrlarni qamrab olmagan, balki nasriy asarlardan ham namunalar keltiradi.

Turk olimi Ibrohim Qafas o'g'li "Xorazmshohlar davlati tarixi" asarini yozishda asoslangan adabiy manbalar sifatida Rashididdin Vatvotga tegishli to'rt asarni keltirib, ularga izoh beradi. Birinchisi: "Abkoru-l-afkor fi rasoil va-l-ash'or" bo'lib, unda Vatvotga oid (jami 40 ta) insho namunalaridan tashqari xorazmshohlarga bag'ishlangan turli qasidalar ham o'rin olgan (aksariyati Vatvot qalamiga mansub); ikkinchisi "Aroisu-l-xavotir va nafoisu-n-navodir"da 50 ta maktubdan tashqari, devonga oid o'nlab hujjatlar bor; uchinchi to'plam "Umdatul-bulag'o va uddatu-l-fusaho"da 30 maktubdan tashqari 25 arabcha va 25 forscha qasida-lar; nihoyat, to'rtinchi to'plam "Munshaoti Rashididdin Vatvot" asarida bir

---

<sup>123</sup> *Bunyodov Z.* Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar. Xorazmshohlar davlati. T.: MUMTOZ SO'Z, 2012. B. 300–314.



qator qit'a va ruboiylar borki, bularning hammasi, bir jihatdan, Rashididdin Vatvot adabiy merosining ko'lami haqida xabar bersa, ikkinchi jihatdan, bu qasida va qit'alarda Vatvot kabi o'z zamonasi ulkan allomasining nazariy-falsafiy qarashlari aks etgan<sup>124</sup>.

Fors adabiyotshunosligidagi ilmi bade'ga bag'ishlangan ilk asar Umar Roduyoniy bilan «Tarjumu-l-balog'a» va «Hadoyiqu-s-sehr» asarlaridagi ayrim san'atlarning nomlanishida tafovutlar bor. «Tarjumu-l-balog'a»da muqtadob, mutobaqa, mujarrad, i'na-tu-l-qarina deb nomlangan san'at turlari «Hadoyiqu-s-sehr»da ishtiyoq, raddu-l-a'juz, hazf, tazminu-l-muzdavij deb yuritiladi. Tajnis va tashbihning ko'rinishlari ham turlicha izohotlar bilan keladi. Masalan, tajnisi mutlaq – tajnisi tomm, tajnisi muraddad – tajnisi mukarrar; tashbihi makniy – tashbihi kinayat, tashbihi muzdavij – tashbihi tasviyyat kabi<sup>125</sup>. Rashididdin Vatvotning nodir maktublardan iborat «*Rasoi'l*» («Nomalar») to'pla-mi ikki qismdan iborat: 1. Xalifalar, hukmdorlar (podshohlar), sultonlar, vazirlar, amirlar, valiyalar, qozilar va muftilarga bitilgan nomalar. 2. Ulamolar, shayxlar, mashhur kishilar, shoirlar, do'stlar va boshqalarga yozilgan maktublar. Bu manba davrning ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotini o'rganishda g'oyat muhim ahamiyatga ega<sup>126</sup>.

Shuningdek, olim bu davrda ijod bilan mashg'ul bo'lgan Jaloliddin Muhammad ibn Abdurazzoq va uning o'g'li Kamoliddin Ismoil Isfahoniy, malikulqalom Xoja Zahiriddin Tohir ibn Muhammad Faryobiy (1160–1202-y.), sultonulfuzalo Asiriddin Axsikatiy (vaf. 1184-y.), faxrul-mashoyix Abul Qosim Ali ibn Muhammad ibn Ali Adib al-Xorazmiy (vaf. 1165-y.), faxrulafozil Abu Hafz Umar ibn Muhammad ibn Umar Xorazmiy (vaf. 1155-y.), Kamoliddin Abul Faraj Yusuf ibn Mahmud ibn Ahmad Samarqandiy, Muayyanuddin Abu Sa'd

---

<sup>124</sup> Qarang: *Ibrohim Qafas og'li. Xorazmshohlar davlati tarixi / Yusuycyφ Hamadoniydan Jaloliddin Manguberdigacha. T.: Navro'z, 2016. B. 155, 169.*

<sup>125</sup> *Рашид ад-дин Ватват. Хада'ик ас-сехр фи дақа'ик аш-ши'р. Перевод с персидского и факсимиле. М.: Наука, 1985. С.161-172.*

<sup>126</sup> *Bunyodov Z. Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar. Xorazmshohlar davlati. T.: MUMTOZ SO'Z, 2012. B. 161.*

Ibrohim ibn Foris ibn Rustam Xorazmiy va boshqa olim va adiblarning nomlari (yana 46 kishi)ni keltiradi.

Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkistonda nisbatan o‘z hukmronligini nisbatan uzoq tutib turgan sulola *qoraxonlilar davlati* (992–1211) edi. Ular o‘zlarining buyuk Turon qahramoni Alp Erto‘nga nomi bilan bog‘laganlari holda sulola asoschisi Sotuq Bo‘g‘roxon (859–955) islomni qabul qilish bilan birga Abdul Karim nomini ham oldi va ordan ko‘p o‘tmay Buxoroni egalladi (992-y.). Bu sulola XI asrda Markaziy Osiyodagi kuchli hukmdorlardan biriga aylanib, markazlashgan davlat tuzgan edi<sup>127</sup>. Abdulkarim Sotiq Bo‘g‘roxon o‘zini *qoraxon – ulug‘ xon* deb e‘lon qilgan. Shundan so‘ng bu suloladagi barcha hukmdorlar o‘zlarini *qoraxonlilar* deb atagani uchun, davlat nomi ham shunday yuritilgan. Davlatning barpo bo‘lishida qorluq, chigil, yag‘mo qavmlari yetakchilik qilgan.<sup>128</sup> 1130-yilda qoraxonli Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon (1102–11) saljuqlilarga yengilganidan so‘ng davlat tanazzulga uchragan. Sulolaning so‘nggi vakili 1212-yili Muhammad Xorazmshoh tomonidan qatl qilingan.

Bolosog‘un, Koshg‘ar singari shaharlarda madaniy hayot gullab-yashnagan. Qoraxonlilar davlatning hududi Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Tyon Shanning janubiy yon bag‘irlariga yoyilgan<sup>129</sup>. Davlat hujjatlari, diplomatik yozishmalar tunk (uyg‘ur) yozuvida olib borilganiga qaramay, X asrdan yozma adabiyot arab yozuvi orqali ham tarqala boshladi. Muayyan davrda har ikki yozuv parallel ravishda qo‘llanilgan. Ayrim manbalarning (mas., “Qutadg‘u bilig”) har ikki yozuvda ko‘chirilgan nusxalari bizgacha yetib kelgan. Bu davrda bir qator diniy va axloqiy mavzuda asarlar yaratilgan, davlat boshqaruvi xususida nizomlar tuzilgan. Ayni davrda Qur‘oni karimning turk tiliga ilk tafsiri amalga oshirilgan. Noma‘lum muallif tomonidan yozilgan, saqlanish o‘rniga ko‘ra Rilands (Rylands)

---

<sup>127</sup> Босворт К.Э. Мусульманские династии. С.157–158.

<sup>128</sup> Караев О. История Караханитского каганата X – нач. XIII вв. Фрунзе, 1983.

<sup>129</sup> Shoniyo'zov Q *Qarluq davlati va qarluqlar*. T., 1999.

nusxasi deb yuritilgan<sup>130</sup> bu tafsirda turkcha tarjima arabcha va forscha matnlar ostida satrorasi tarzida yozilgan.

Davrining yetuk manbasi, shubhasiz, turk epik tafakkur taraqqiyotining sarchashmasi bo'lgan *Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"* (1069-y.) asaridir. Koshg'arda yozib tugallangan bu asar Qora Bo'g'roxonga taqdim etilgan. Bu ilk epik dostonning shuhrati haqida mana shu satrlar xabar beradi:

*Chiniylar "Adabu-l-muluk" deb atar,  
Mochinlar "Anisu-l-mamolik" deyar.  
Bu Mashriq elining donishmandlari  
"Ziynatu-l-umaro" deyishdi bari.  
Eronlik "Shohnoma" dedi bilgilig,  
Turonlik nom qo'ydi: "Qutadg'u bilig"<sup>131</sup>.*

Yusuf Xos Hojibning nizomnoma, qomus sifatlarini olgan mazkur asarida ijtimoiy hayotning turli jabhalariga doir mulohazalar aytilishi barobarida o'z davrining madaniy hayotiga tegishli satrlarni ham uchratamiz. Ayniqsa, muallifning bilim, til, zakovat borasidagi fikrlari adabiyotshunoslik taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin:

*Ko'ni so'zda tashtin so'zug so'z tema  
Ko'ni egri farqi o'runqli qara*

(To'g'ri so'zdan tashqari so'zni so'z dema, To'g'ri (va) egrining farqi oq (va) qora (farqi kabidir)<sup>132</sup>.

"Qutadg'u bilig"ga yirik epopeya yoki doston sifatida qarashning o'z yetarli emas, chunki bu asar tarkibida Bolosog'unij davrida mashhur bo'lgan masnaviy,

---

<sup>130</sup> Türkçe İlk Kur'an Tercümesi (Rylands Nüshası) / Karahanlı Türkçesi. Prof. Dr. Aysu Ata. Ankara, 2004.

<sup>131</sup> *Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Transskripsiya va hozirgi o'zbek tiliga tavsif. Nashrga tayyorl. Q.Karimov. T.: Fan, 1971.*

<sup>132</sup> Ko'rsatilgan asar.

toʻrtlik, qasidai holiyya kabi adabiy janrlar sintezini koʻrish mumkinki, buni qoraxonlilar davri adabiy muhitida yaratilgan asarlarning janrlar koʻlami haqidagi maʼlumot va namunalar sifatida qabul qilish mumkin<sup>133</sup>.

Qoraxonlilar davrida yaratilgan buyuk ilmiy asar *Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk”* (1070) kitobidir. Garchi izohli lugʻat tarzida tilshunoslik yoʻnalishida bitilgan kitob boʻlsa-da, muallif buyuk tilshunos vazifasini bajarish bilan cheklanmay, adabiyotshunos va folklorshunos olim sifatida masalaga yondashib, har bir soʻz qoʻllanilgan ashyoviy misollarni zamonidagi va oʻzigacha yaratilgan adabiy manbalardan keltiradi. Bu haqda muallifning oʻzi: “Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida (yaʼni ajam harflari tartibida) hikmatli soʻzlar, sajʼlar, maqollar, qoʻshiqlar, rajaz (jangnoma aytimlari) va nasr deb atalgan parchalar bilan bezadim”<sup>134</sup>. Agar mutaxassis nigohi bilan qaralsa, Mahmud Koshgʻariy shunchaki badiiy asar namunalarini keltiribgina qolmagan, ularni janr jihatlaridan kelib chiqib tasnif ham qilgan. Tasnifdagi har bir asarga tavsif bergan, ular qoʻllanilgan asarlar, bu asar mansub qabilalar va ayrim oʻrinlarda ularning mualliflarini ham tilga olgan.

“Devonu lugʻotit turk”da umumiy hajmi 764 misra boʻlgan 289 toʻrtlik va ikkilik (bayt) sheʼriy namunalar berilgan. Shu faktning oʻziyoq “Devon...”ga qadar turkiy sheʼriy shakllar va muqaddimada tilga olingan janrlar shakllanganligini koʻrsatadi<sup>135</sup>. “Devon...”da til, adabiyot, tarix, falsafa, geografiya, huquq, tabobat, ilohiyot, hayvonot va oʻsimlik dunyosi, mantiq, ilmi nujum, siyosat, harbiy sanʼat, axloqshunoslik, etnografiya singari sohalarga oid maʼlumot va misollar uchraydi. Kitobga ilova qilingan xarita filologiya ilmida tuzilgan ilk dialektologik xarita hisoblanadi.

IX–XII asrlar davomida dunyo madaniyatiga ilm-fanning turli sohalari boʻyicha, xususan, anʼanaviy, noanʼanaviy, falsafiy, tabiatshunoslik ilmlari

---

<sup>133</sup> Тухлиев Б. Вопросы поэтики “Кутадгу билиг” Юсуфа Хас Хаджиба. Т., 2004. С.12–52.

<sup>134</sup> *Mahmud Koshgʻariy. Devonu lugʻoti-t-turk / Turkiy soʻzlar toʻplami. Uch jildda. I jild. Nashrga tayyorl. A.Rustamov, H.Boltaboyev. T.: Mumtoz soʻz, 2016. B.44.*

<sup>135</sup> Qarang: *Boltaboyev H. Qagimgi turkey manbalar Fitrat talqinida / Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalar. T.: MUMTOZ SOʻZ, 2008. B.3–8.*

sohasida ham juda ulkan hissa qo‘shdilar. Bu davrda yashab ijod etgan o‘rtaosiyolik buyuk olimlarning ijodi, faoliyati, asarlari jahon ilm-fani rivojida ham nihoyatda muhim o‘rin tutadi.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. *Adabiyotshunoslikning islomiy manbalari.*
2. *Markaziy Osiyodagi ilk islom davlatlarida adabiyotshunoslik ilmi.*
3. *Qoraxonlilar davrida yozilgan manbalarni aniqlang.*
4. *Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida adabiyotshunoslikka doir qanday qarashlar aks etgan?*
5. *Mahmud Koshg‘ariy asaridagi lanrlar tasnifini keltiring.*

### ***Adabiyotlar***

1. Abu Mansur as-Saolibiy. Yatimat ad-dahr. 4–qism / I. Abdullayev tarj. T.: Fan, 1976.
2. Abdullayev I. Beruniyga zamondosh shoirlar. T.: Fan, 1975.
3. Abdullayev I. Buxoroning arabiynavis shoirlari. T.: Fan, 1965.
4. Bunyodov Z. Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar. Xorazmshohlar davlati. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2012.
5. Bunyodov Z. O‘zbekistonning taniqli olimlari Ibn Fuvvatiy kitobida / Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar. Xorazmshohlar davlati. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2012. B. 300–314.
6. Fitrat. Muqaddimatu-l-adab / Tanlangan asarlar. 4–jild. T.: Ma’naviyat, 2006. B.135–140.
7. Go‘zal A. Yassaviy “Faqrnoma”si. T.: Navro‘z, 2014.
8. Ibrohim Qafas og‘li. Xorazmshohlar davlati tarixi / Yusuycyφ Hamadoniydan Jaloliddin manguberdigacha. T.: Navro‘z, 2016.
9. Ismoil Buxoriy. Al-jome‘u-s-sahih. 1–2 jild. T.: Movarounnahr, 2011.
10. Juvayniy A. Tarixi Jahongusho / Jahon fotihi tarixi. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2015. B

11. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'oti-t-turk / Turkiy so'zlar to'plami. Uch jildda. I jild. Nashrga tayyorl. A.Rustamov, H.Boltaboyev. T.: Mumtoz so'z, 2016.
12. Murtazayev B. Avfiyning "Lubobu-l-albob" tazkirasining tarkibi va mundarijasiga doir / O'zbek adabiyotshunosligida talqin va tahlil muammolari. T.: MUMTOZ SO'Z, 2014. B.120-124.
13. Rustamov A. Mahmud Zamahshariy. T.: Fan, 1971.
14. Shoniyozov Q. Qarluq davlati va qarluqlar. T., 1999.
15. Sulaymonova N. Mahmud Zamahshariy "Asosu-l-balog'a" asarining manbashunoslik tadqiqi. NDA. T., 2007.
16. Tarixi jahongushoi Juvayniy. Atomalik Alouddin binni Bahouddin Muhammad binni Shamsiddin Muhammad Juvayniy. Tehron, 1370. 2-jild.
17. Türkçe İlk Kur'an Tercümesi (Rylands Nüshası) / Karahanlı Türkçesi. Prof. Dr. Aysu Ata. Ankara, 2004.
18. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Transskripsiya va hozirgi o'zbek tiliga tavsif. Nashrga tayyorl. Q.Karimov. T.: Fan, 1971.
19. Zamahshariy M. Oltin shodalar / Turkchadan M.Mahmud va N.Rahim tarj. T., 2010.
20. Zamahshariy M. Muqaddimatu-l-adab / Nashrga tayyorl. Z.Islomov. T., 2008.
21. Ziyovuddinova M. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning «Mafotuhu-l-ulum» asarida poetika. T.: 2001.
22. Караев О. История Караханитского каганата X - нач. XIII вв. Фрунзе, 1983.
23. Хисамов Н.Ш. Поэма "Кысса-и Йусуф" Кул Али. М.: Наука, 1979.

## 5-mavzu. SOF ADABIYOTSHUNOSLIKKA DOIR RISOLA VA TAZKIRALARNING SHAKLLANISHI

### *Reja:*

1. *O'рта asrlar fan va madaniyati*
2. *Abu Nasr Forobiy ta'limoti.*
3. *Abu Rayhon Beruniy va adabiyotshunoslik.*
4. *Abu Ali ibn Sino ta'limoti.*

**Tayanch tushunchalar.** *Forobiy ta'limoti, Beruniy va adabiyotshunoslik, Abu Ali ibn Sino, irfoniy ishq falsafasi,*

***O'рта asrlar fan va madaniyati*** shu darajada yuksaklikka ko'tarilganki, dunyoviy ilmlar, turli aniq fanlarning yutuqlari, natijalari uning mazmunini belgilashda muhim ahamiyat kasb etgan, turli sohalarda ijod etilib, katta yutuqlar qo'lga kiritilgan. Markaziy Osiyoda ilmning ko'lami, miqyosi, kengligi ayrim mualliflar asarida uchrovchi ilmlar tasnifida yaqqol namoyon bo'ldi. O'z davrining qomusiy olimlari Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabilar bu masalaga katta e'tibor berdilar, ayrim mualliflar esa unga maxsus asarlar bag'ishladilar.

**Abu Nasr Forobiy ta'limoti.** Markaziy Osiyolik buyuk alloma, faylasuf va adib Abu Nasr Forobiy (873–950) O'tror qishlog'ida tug'ilgan, Forobda o'qigan, Shoshda bo'lgan, Buxoro va Samarqandda tahsil olgan. Arab mamlakatlarida yashagan, Bag'dodda yirik olimlar bilan uchrashgan, Damashq va Halabda amir Sayfuddavla homiyligida ijod qilgan. Forobiy o'z davridagi mavjud ilm sohaslariga oid 160 dan ortiq ilmiy risola yaratgan. "Ixso al-ulum va-t-ta'rif" ("Ilmlar xosiyati va ta'riflari") risolasida o'ttizdan ortiq fan sohasining tasnifi berilgan. Tadqiqotchilar Forobiy shug'ullangan fan tizimlari sifatida falsafaning umumiy masalalari, materiyani o'rganuvchi, ya'ni tabiiy fanlar, ijtimoiyat, siyosat

hamda filologiya (ilmi adab) kabi yo‘nalishlarini aniqlaganlar<sup>136</sup>. Forobiyning filologik tadqiqotlari “Kalamu-sh-she‘r va-l-qavofi” (“She‘r va qofiyalar haqida so‘z”), “Kitobu-l-xitoba” (“Ritorika haqida kitob”), “Kitobu-l-lug‘at” (“Lug‘atlar haqida kitob”), “Kitobun fi-s-sano‘atu-l-kitobi” (“Xattotlik haqida kitob”), “Tahsilu-s-saodat”, “Ta‘diqot” va boshqalardir. San‘at sohasida “Musiqqa kitobi”, “Musiqada ohangdoshlik”, “Katta musiqqa kitobi”, “Ritmlar tasnifi haqida kitob” asarlarini yozgan<sup>137</sup>.

Forobiyning «Kitobu-sh-she‘r» asari arab va yunon she‘r tizimining o‘zaro qiyoslanishi jihatidan e‘tiborli. Forobiy masalaga ancha keng qaragan va she‘riy asarning ikki jihati: ma‘no bilan uning vazn jihati she‘rning asosi bo‘lishi kerakligini uqtirgan: *“She‘riy so‘zlar ma‘lum vaznga tushirilib, she‘riy bo‘laklarga bo‘linsagina aytilgan so‘zlar she‘r bo‘la oladi. Qadimgi shoirlar nazdida she‘r tuzilishi va uning javhari – asosi ana shulardan iborat bo‘lgan. She‘r biror narsaga taqlid qilingan so‘zlardan tashkil topishi kerak. She‘r tuzilishida tutilmagan mana shu ikki xil yo‘l faqat taqlid-tashbih bo‘lishinigina emas, balki ular orqali taqlid qilinishi mumkin bo‘lgan narsalarni ham bilishni taqozo qiladi. Bunday qonun-qoidalarga rioya qilishning eng kichigi vazn masalasidir”*<sup>138</sup>. She‘r tuzilishida ritm tushunchasi (Abu Nasr Farobiy asarida “zarb” deb tushuntirilgan) odatda bir xil ohangga uyg‘un kelgan tovushlar yig‘indisining ma‘lum bir muddat (vaqt birligi) ichidagi takroridan iborat deb talqin etiladi. Nutqda (she‘riy nutqda ham) tovushlar birikmasi o‘zaro biror tizimga solinib, ritmik birlik hosil qilinadi. Tovush va tovushlar birikmasi bo‘g‘in (aruziy istilohga ko‘ra, hijo – Hamidullo Boltaboyev)ni, bo‘g‘inlar o‘zaro birikib rukn yoki turoqni, bularning tizimli yig‘indisidan esa, bayt va misra kabi ritmik birliklar hosil qilingan. Shundan kelib chiqqan holda muayyan bir tilning fonetik

---

<sup>136</sup> *Фараби. Философские трактаты. Алма-ата: Наука, 1972; Логические трактаты. Алма-ата: Наука, 1975.*

<sup>137</sup> *Хайруллаев М. Фараби. Т.: Фан, 1966; Хайруллаев М. Уй г‘онish davri va Sharq mutafakkiri. Т.: O‘zbekiston, 1971.*

<sup>138</sup> *Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri / Arabchadan tarjima, izoh va muqaddima muallifi A.Irisov. Т.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 1993.*



xususiyatlariga mos keluvchi ritmik birliklardan hosil qilinadigan she'r tizimini qo'llash odat tusiga kirgan<sup>139</sup>.

Forobiy "Ixso'u-l-ulum" ("Ilmlarning hosiyatlari")da ("Ilmlarning kelib chiqishi" – "Hudusu-l-ulum"ga adashtirmaslik lozim) she'riyat haqidagi qisqa mulohazalarini asarning tilshunoslik va mantiq qismlarida keltiradi. Alloma bu asarida she'riy tafakkur qoidalarini tilshunoslik nuqtai nazaridan tushuntiradi. Forobiy fikricha, shoir ona tilining leksik-semantik boyligi, Alisher Navoiy iborasi bilan aytsak, ma'nolar xazinasini yaxshi bilishi zarur. "Har xalqning tilini inja (go'zal, nafis) qiluvchi (til ilmining) yetti katta bo'limi bor: 1) yakka so'zlar ilmi (sarf); 2) birikma so'zlar ilmi (sintaksis, nahv); 3) yakka so'zlarning qonun-qoidalari; 4) so'z birikmalarining qonun-qoidalari; 5) to'g'ri yozish qoidalari; 6) to'g'ri o'qish qoidalari (bu ikki bo'lim arab alifbosida yozish va o'qishga taalluqli); to'g'ri she'r (yozish va o'qish) qoidalari; 7) she'r qonunlari ilmi. Forobiy fikricha, she'r ilmi til jihatidan qaraganda uch bo'limdan iborat: 1) oddiy va murakkab vaznlarning qo'llanilishi, ya'ni nutq tovushlariga ko'ra vaznlarning turli (ochiq, yopiq bo'g'inlar) hijolarni bilish; 2) baytlarning oxirida keladigan so'zlarning tovushlari bir-biriga muvofiq kelishi (radif va qofiya); 3) qaysi so'zlarni she'r-nazmda va qaysi so'zlarni nasrda qo'llanish mumkinligi (she'riy til va nasriy til qoidalari)<sup>140</sup>.

Ayni zamonda, Forobiy aruz ilmi (yunoncha: prosodiya) tilshunoslik sohasidan ko'ra, mantiq ilmiga yaqinroq ekanligini ta'kidlaydi. Aruz ilmining vaznlarga (bahrlarga) munosabati mantiq ilmining fikrlash qoidalariga munosabati kabidir. Forobiy fikricha, mantiq ilmi aqliy fikrlash (bilan haqiqatni aniqlash) qoidalarini, namunalari (modellari)ni o'rgatsa, aruz ilmi she'riy fikrlash qonun-qoidalarini o'rgatadi.

Forobiy "Ixso'u-l-ulum"ning mantiq qismida ham she'riyat nazariyasi haqida ayrim fikrlarini bildiradi. Shu o'rinda mantiq so'zi nutq to'g'riligi, haqqoniyligini

---

<sup>139</sup> Boltaboyev H. *Mumtoz she'r tuzilishi va uning metrik asoslari / Sharq mumtoz poetikasi. T.: ЎМЭДИИ, 2006.*

<sup>140</sup> Mahmudov M. Forobiy va Arastu "Poetika"si // Jahon adabiyoti. 2011. № 3.

bildirishi, nutq soʻzi esa uch maʼnoni ifodalashi haqida fikr yuritadi: 1) inson koʻnglida tugʻilgan soʻzlarning tovushlar yordamida ifodalanishi; 2) inson ruhiy holati (tasavvurlari)ni maʼqulotlar – aqliy tushunchalarni bildirishi (nutq); 3) insonda azaliy, fitriy, tugʻma holda mavjud boʻlgan, uni boshqa jonzodlardan ajratib turuvchi ruh quvvati (yaʼni, quvvai tamiz – yaxshiyu yomonni, rostu yolgʻonni, halol va haromni farqlash quvvati). Quvvai tamiz, Forobiy fikricha, hamma odamlarda bir xil boʻlmaydi

Forobiy fikricha, inson fikr-mulohazalari besh turlidir: 1. Dalil, burhonli. 2. Jadalliy (dialektik). 3. Sufastoiy (mugʻolata, sufistik). 4. Xitobiy ( ritorik). 5. Sheʼriy (poetik) fikr-mulohazalar farqlanadi. Alloma yozadi: “Insonlarning maʼquloti (aqliy tushunchalari), ilmlari va sanʼatlari (kasb-hunarlar) shu quvvat ila qoʻlga kiritilur. Ashyoning (narsaning) jiddiy (diqqat ila) tadqiqi shu quvvat bilan, goʻzal va chirkin ishlar ham shu quvvat bilan farqlanur”<sup>141</sup>.

Shundan soʻng Forobiy dalil-burhonli fikr, jadalliy (dialektik) fikr, sufastoiy (mugʻolata, gʻalat, xato qiluvchi, yanglish-tiruvchi) fikr, xitobiy ( ritorik) fikr va sheʼriy fikr haqida alohida taʼrif, tushunchalar beradi. “Sheʼriy soʻzlarga kelsak, – deydi mutafakkir, – ular suhbat vaqtida tilga olingan narsa yo holatni, afzallik yoki pastlikni yanada aniqroq, ravshanroq tasvirlash, kuchaytirish uchun qoʻllaniladi. Bunda (sheʼriy tafakkur ham) goʻzallik va chirkinlik, yuksaklik va tubanlik (olchoqlik)ni yoki shu kabi (hayot hodisalarini) tasvirlashdir”<sup>142</sup>.

Forobiy Aflotun va Arastu asarlarining tarjimoni va sharhlovchisi sifatida ham mashhur. Arastuning oʻndan ortiq ilmiy asarlariga sharhlar yozgan. Masalan, Arastuning “Fi sinoʻati-sh-sheʼr” (“Poetika”) asariga yozilgan sharhi nafaqat yunon olimining poetikaga doir taʼlimotini tushuntirishda, balki sanʼat va adabiyot xususidagi nazariy bilimlarning bilimdoni ekanini anglatadi. Forobiyning “Sheʼr kitobi”da Arastuning “mimesis” nazariyasi haqida: “Baytlardagi soʻzlardan tushuniladigan maʼnolar oʻsha soʻz borayotgan (hind poetikasi “Dxvanyaloka”da ifodalanishi kerak maʼno va ifodalangan maʼno deyilgan) narsa va hodisalarga

---

<sup>141</sup> *Farabi M.* Ilmlernin sayimi. Istanbul: Milliy Egetim basim evi, 1986. S.75.

<sup>142</sup> Koʻrsatilgan asar. B.80.

o'xshaydigan – taqlidiy bo'lmog'i kerak"<sup>143</sup>. Bu yerda muallif Arastu "Poetika"sini sharhlayotgan bo'lsa-da, "Ilmlarning hosiylari"da poeziyaning asosiy qonuniyati, tamoyili – "mimesis" (hayotga o'xshatish – taqlid san'ati) ekanligi tasdiqlamoqda. "She'riy so'zlarni his etgan vaqtimizda, – deydi Forobiy "Ilmlarning hosiylari" asarida, – ruhimizda hosil bo'lgan xayol (tasavvur) nimaning o'xshashi tasvirlangan bo'lsa, go'yo o'sha (she'rdagi) o'xshash narsaning o'zini ko'rganday his qilamiz o'zimizni". Shu o'rinda Forobiy she'rda tasvirlangan (sevinchli yoki qayg'uli) manzara, holat bizning hayotimizda emasligini bilsak ham, she'riy so'z ta'sirida, o'sha voqea, holat shoir (rassom) tasvirlaganidek bo'lgan, deb ishonamiz deydi, bu adabiy-nazariy fikr ham she'r san'ati tabiatini tushunish uchun juda muhim ahamiyatga ega. Mutafakkir buning sababini quyidagicha tushuntiradi: "Odamlar, ko'pincha, o'z mulohaza-o'ylari va ilmiy bilimlariga qarab emas, balki o'z tasavvurlari bo'yicha ish qiladilar, garchi qilayotgan ishi o'y-mulohaza va ilmiy bilimlarga zid kelsa ham. Odatda suhbatli tomoshalarda narsalarni yoki ish-harakatga o'xshash holatlarni tasavvur qilganida shu holatlarga tushadi."<sup>144</sup> Bu yerda Forobiy "suhbatli tomoshalar" deb, yunon tragediyalarini nazarda tutadi. Aktyorlar mujassamlantirgan, qahramonlarning xarakterlarini ochuvchi nutqi, dialoglarini u "suhbatli tomoshalar" deb atagan. Forobiyning odamlar ko'pincha "o'y-mulohaza va ilmiy bilimlari bilan emas, tasavvurlari bilan harakat qiladilar", degan fikrini yanada aniq-ravshan tushunish uchun uning "aytish kerakki, odamlar aqliy faoliyatda, ilm-fanlarda va san'at, kasb-hunarda o'y-mulohaza, aqliy bilimlarni ishga soladilar, lekin mahsusot – his qilinadigan, estetik idrok etiladigan olam, hayot voqea, hodisalarini tushunishda tasavvurlarga asoslanadilar" fikrlari yordamga keladi. Bu fikr ilm-fanga, kasbiy san'atlarga emas, balki nafis san'atga, poeziyaga taalluqlidir.

Forobiy Aflotun va Arastu asarlarining tarjimoni va sharhlovchisi sifatida ham mashhur. Arastuning o'ndan ortiq ilmiy asarlariga sharhlar yozgan olim "Fi sino'ati-sh-she'r" ("Poetika") risolasiga yozilgan sharhi nafaqat yunon olimining

---

<sup>143</sup> Forobiy A. She'r san'ati. T.: g'afur g'ulom nomidagi nashr., 1979. B.13.

<sup>144</sup> Farabi M. Ilmlernin sayimi. Istanbul: Milliy Egetim basim evi, 1986. S.80.

poetikaga doir ta'limotini tushuntirishda, balki san'at va adabiyot xususidagi nazariy bilimlarning bilimdoni ekanini anglatadi. Forobiyning yuqoridagi fikrlari Arastu "Poetika"da poeziyaning kelib chiqishi haqida aytgan fikrlariga hamohangdir. Ma'lumki, Arastu fikricha, poeziya san'atining kelib chiqishiga birinchi sabab – odamlar bolalik chog'laridan taqlid, o'xshatishga, voqea, ish-harakatlarni qaytadan jonlantirishga, tasvirlashga qobiliyatli ekanligidir. Bu fikrni yanada aniqlash uchun aytish kerakki, bunday qobiliyat birovda zaif, birovda (rassomlar, shoirlarda) kuchli bo'ladi va u tug'ma iste'dod deb ataladi. Ikkinchi sabab, Arastu fikricha, odamlarning tasavvur quvvatidir. Bu quvvat ham iste'dodga aloqador bo'lib, turli odamlarda turlichadir.

Forobiy "Ixsou-l-ulum" asarida she'riyat haqida aytgan fikrlarini "She'r kitobi"da yanada rivojlantiradi. Arastu "Poetika"siga sharhidan farqlanuvchi bu asarida Forobiy vaznlar, ritm, qofiya, turoq, sabab, vatadlar, (hijolar) haqida asosan arab she'riyatiga muvofiq fikrlarni bildiradi: "Arablar o'z she'rida baytlarning oxirlariga ko'proq e'tibor beradilar. Shuning uchun ham arab baytlari ma'lum bir o'lchovdagi mahdud (cheklangan – *tarj.*) so'zlar bilan mukammal va go'zal bo'ladi. Bu hol esa ularda kam qo'llaniladigan yo bo'lmasa, ko'pchilik orasida mashhur bo'lgan so'zlarni ishlatish bilan yuz beradi"<sup>145</sup>.

Forobiy mimesis – taqlid faqat she'riyatdagina emas, ritorika – notiqlik san'atida ham mavjudligini aytar ekan, she'rda va suhbatli asar – dramada taqlid-o'xshatish zaruriy shart bo'lsa, notiqlik san'atida taqlid, aktyorday obrazga kirib, nutqini jonlantirishi asosiy emas, yordamchi vosita ekanligini tushuntiradi. Qadimgi Yunonistonda ko'pchilik shoirlar mohir notiq, ba'zi notiqlar esa shoir bo'lganlar. She'riy nutqda ham notiqlar ijtimoiy, falsafiy, ilmiy fikr-mulohazalarni bildirishi mumkinligi haqida Forobiy bunday yozadi: "*Ko'pchilik shoirlar (hamda notiqlar) o'z (ilmiy) fikr-mulohazalarini boshqalarda qanoat hosil bo'ladigan darajada ifodalashga tug'ma qobiliyatli bo'ladilar. Ular o'sha qoniqarli mulohazalarini she'riy yo'l bilan ifoda etganlar. Buning oqibatida ular ko'pchilik*

---

<sup>145</sup> Forobiy A. She'r san'ati. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashr., 1979. B.13.

<sup>145</sup> Ko'rsatilgan asar. B.13.

*nazdida she'r bilan bitilgani uchun uni she'riy asar sifatida qabul qilganlar. Aslida u xitobiy bir mulohaza bo'lib, o'sha shoirlarning she'riy yo'ldan chekinib, xitobiy ( ritorik) yo'lga mayl etganlari edi, xolos.*"<sup>146</sup>

Forobiy badiiy asarda qahramonlarning xarakterlari qanday ochilishi haqida fikrlaydi: *"Shunday qilib, (badiiy asarda tasvirlangan) insonning fe'l-atvori ko'proq o'zining xayollariga (ya'ni hayot haqidagi tasavvurlariga) bog'liq bo'ladi. Bular, ko'pincha, (adib, shoirning) bilimi yo andishasiga bog'liq bo'ladi"*<sup>147</sup>. Bizningcha, Forobiy bu yerda shuni aytmoqchiki, adib, shoir, rassom (taqlidchi, tasvirlovchi)ning xayollari (hayot, odamlar haqida tasavvurlari), bilimi, fikr-o'ylari badiiy asar qahramonining fe'l-atvoriga, xarakteriga ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy barkamol, yetuk – daho ijodkorlarning asarlarida qahramonlar ham (agar u ideal yoki ijobiy qahramon bo'lsa) jasur, adolat va haqiqat, ozodlik uchun kurashuvchi bo'ladi. Mabodo mana shu yetuk adiblar, shoirlar, rassomlarning qahramonlari salbiy bo'lsa, adolatsiz, tuban fe'l-atvorli bo'lsa ham hayotdagiday tuban qilib tasvirlanadiki, uni ko'rgan yoki o'qigan kishilar bunday nojo'ya harakatlardan o'zlarini tiysinlar: *"ammo shunisi ham borki, ko'pincha, ijodkorning bilimi va andishasi xayolidagi narsalariga (ya'ni, tasvirlanayotgan narsalarga, ehtimol, tuban fe'l-atvorli qahramonlarning qilmishlariga) teskari kelib ham qoladi. Bunday paytlarda u (ijodkor) o'z fe'l-atvori, o'z bilimi va andishasiga ko'ra emas, balki (o'sha tasvirlanayotgan odamlar, qahramonlarning) xayoliga ko'ra ish tutadi"*<sup>148</sup>. Bizningcha, bu yerda hozirgi adabiyotshunoslik taraqqiyoti davridan ming yil avval Forobiy badiiy asarda xarakterlarning o'z fe'l-atvori, tasavvurlariga, hayotiy qarashlariga ko'ra, mustaqil harakat qilishini, ya'ni xarakter mantiqidan kelib chiqish zarurligini anglatmoqchi bo'lgan.

Arastu "Poetika"sida aytilgan, poeziya san'atining asosiy tamoyili – hayotga o'xshatish ma'nosidagi taqlid-mimesis hodisasini Forobiy shunday tushuntiradi. U poeziya san'atini hayotni aks ettirish deb biladiki, bu hozirgi poetika

---

<sup>146</sup> Ko'rsatilgan asar. B.14.

<sup>147</sup> Forobiy A. She'r san'ati. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashr., 1979. B.19.

<sup>148</sup> Ko'rsatilgan asar. B.19.

nazariyasida ham to‘g‘ri hisoblanadi. Lekin she‘riyat – poeziyada hayotni aks ettirishning turlicha darajalari borligini Forobiy bunday tushuntiradi: *“Mana shu aks-o‘xshashliklarning ba‘zilari eng mukammal bo‘ladi, boshqalari nuqsonli bo‘ladi”*<sup>149</sup>. She‘riyatda, umuman, san‘atda hayotni aks ettirishning mukammal va nuqsonli darajalarni kim aniqlaydi, degan savol tug‘iladi. Forobiy shu haqda yozadi: *“Ularning mukammalligi, yo nuqsonli ekanini aniqlash shoirlar va turli-tuman, til va lug‘atlardagi (fikrlarini va) she‘riyatni o‘rganayotgan ma‘rifat ahlining fikr doirasiga kiradi”*<sup>150</sup>.

Forobiy fikricha, she‘riyatda hayotning tasviri, aks – o‘xshashliklarda ham mubolag‘a, tashbih, favqulodda o‘xshatish (loflar) bo‘lsa ham ularni mug‘olata – sofistika deyilmaydi: *“...bundan hech kim mug‘olata-sofistika bilan aks-taqlid ikkovini bir so‘z deb o‘ylamasin. Bular ikkovi ba‘zi sabablarga ko‘ra bir-biridan butunlay farq qiladi. “Sufastoiy (sofist) eshituvchini (suhbatdoshini) g‘alatga undab (yanglishtirib), haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, nuqsonli narsalarni ko‘z oldiga keltirib qo‘yadi. U xatto mavjud narsani nomavjud deb, nomavjud narsalarni esa, mavjud deb tasavvur qildiradi. Ammo (shoir, adib) taqlidchi (aks ettiruvchi) bo‘lsa, narsa suratining teskarisini emas, balki uning o‘xshashini tasavvur qildiradi”*<sup>151</sup>.

She‘riy fikrlashning boshqa turdagi fikr-mulohazalardan farqini Forobiy yana bunday tushuntiradi: *“Mulohaza yo qat‘iy, yo qat‘iy emas, qiyosiy bo‘lishi mumkin. Bordiyu u (fikr) qiyosiy bo‘lsa, u holda bilquvva, uning tabiatidan, yo bo‘lmasa, bilfe‘l-harakatidan (hosil) bo‘ladi. Bordiyu, (qiyos, o‘xshlik) uning tabiatidan bo‘lsa, u holda u yo istiqro‘ (induktiv) bo‘ladi, yo bo‘lmasa, mulohaza tamsil (analogiya, o‘xshashlik) bilan bo‘ladi. Tamsil (o‘xshatish) esa ko‘pincha she‘r san‘atida ishlatiladi. Bundan ayon bo‘lishicha, she‘riy mulohaza tamsil (analogiya)ga kiradi”*<sup>152</sup>.

---

<sup>149</sup> Ko‘rsatilgan asar. B. 28.

<sup>150</sup> Ko‘rsatilgan asar. B.28.

<sup>151</sup> Forobiy. Shoirlar san‘ati qonunlari haqida. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashr., 1979. B.29.

<sup>152</sup> Ko‘rsatilgan asar. B.29.

Fikr – mulohazalar qaysi sohalarda, qaysi ilm-fanlarda va qanday maqsadlarda aytilishiga (yozilishiga) qarab, yana bir qancha turlarga bo‘linadi. Shu nuqtai nazardan Forobiy fikr-mulohazalarni yana quyidagicha tasnif qiladi: 1. Butunlay rost mulohazalar. 2. Butunlay yolg‘on mulohazalar. 3. Rostlik va yolg‘onlikda teng me‘yordagi mulohazalar ( ritorik). 4. Butkul rost mulohaza. Bu, hech so‘zsiz, burhoni, isbotli deb ataladi. 5. Rost tomoni ko‘proq mulohazalar. U holda u jadaliy (dialektik) bo‘ladi. 6. Rostligi butunlay kamayib boraversa, u holda sufastoiy (sofistik) mulohazalardir. 7. Mulohaza butunlay yolg‘on bo‘lsa, u holda uni hech shubhasiz, *she‘riy (badiiy)* deb ataladi. “Ushbu qismlarga bo‘linish natijasiga ko‘ra, – deydi Forobiy, – she‘riy mulohaza na isbotli, na dialektik, na xitobiy-ritorik va na sofistika emasdir”<sup>153</sup>.

Nima uchun she‘riy mulohaza “yolg‘on” deb atalishining sababi u hayotning aslidagidek emas, balki to‘qima, ijod qilingan bo‘ladi. Agar obrazli so‘zlar to‘g‘ri ma‘noda tushunilsa, u yolg‘on bo‘lib chiqadi. Shundan keyin Forobiy she‘riy tafakkurning qanday navlarga bo‘linishi haqida gapiradi: «Ular (yunon adabiyotidagi janrlar – Hamidulla Boltaboyev) quyidagilardir: trago‘ziyo (tragediya), disirambi (difiramb), kumuziya (komediya), yombi (yamb), damoto (drama), diag‘ram (diagramma), saturo (satira), poema, epos, ritoriy (ritorika) va akustika»<sup>154</sup>. Forobiyning yunon she‘riyati nav‘lari haqidagi ba‘zi fikrlari taxminiy, ba‘zilari noaniq ekanligini ko‘ramiz: “Difiramba – she‘riyatning bir turi bo‘lib, uning vazni tragediya vaznidan ikki barobar katta bo‘ladi (?) Unda yaxshilik va maqtaladigan barcha xulq-atvorlar, insoniy fazilatlar zikr etiladi”<sup>155</sup>. Drama janriga “ammo dramaga kelsak, – deydi Forobiy, – u ham xuddi yuqorida keltirilganlar kabi she‘r turlaridan biri sanaladi: faqat bunda ma‘lum voqealar va ma‘lum shaxslar to‘g‘risida mashhur bo‘lgan masal va naqlllar zikr qilinadi.

---

<sup>153</sup> *Forobiy*. Shoirlar san‘ati qonunlari haqida. B.29–30.

<sup>154</sup> *Farabi M.* Ilmlernin sayimi. Istanbul: Milliy Egetim basim evi, 1986. S.78.

<sup>155</sup> Ko‘rsatilgan asar. B.33.

Shunisi ham borki, bular yo mahoratning zo‘rligidan va g‘oyatda go‘zal bitilganidan odamni xushnud qiladi.”<sup>156</sup>

Shu bilan birga Forobiy Arastu “Poetika”sining bizgacha yetib kelmagan qismlari haqida ham qimmatli ma’lumotlar beradi. “Poetika”ning mavjud matnida difiramba, yombu (yamb) vaznidagi asarlarning ma’no-mazmuni, eyniy, satira, poema, diagramma, akustika, efajonosus (ko‘chirma asar) haqida ayrim-alohida ta’riflar beriladi. *“Ammo eyniyga kelsak, – deydi Forobiy, – bu ham she’riyatning nav’laridan biri bo‘lib, unda odamni xursand qiladigan mulohazalar zikr qilinadi. Shunisi ham borki, bular yo shoir mahoratining zo‘rligidan (ya’ni shoirning noyob she’riy san’atlarni bilishidan) va g‘oyat go‘zal bitilganidan odamni xushnud qiladi”*. Bu yerda Arastu aytgan ilohiy iste’dod va malaka, qobiliyat (texne) haqida gap boradi. Arastu malaka, mahoratga nisbatan tug‘ma iste’dodni afzal deb biladi. Forobiy esa *“tabiatan shoirlar tashbeh va tamsilga layoqati yaxshi bo‘ladi. Lekin bu xil shoirlar she’r san’atidan keragicha xabardor bo‘lavermaydilar, balki ular tug‘ma qobiliyatlarining yaxshiligi bilangina qanoatlanadilar. Bunday shoirlar chinakam musaljis – mulohazakor shoirlardan sanalmaydilar”* deb yozish bilan tug‘ma iste’dod bilan birga tajriba, adabiy zahmatning ham ijodiy jarayonda o‘rni borligini uqtiradi<sup>157</sup>.

Ko‘rinadiki, Forobiyning adabiyotshunoslikka doir ta’limoti Arastu talqinchisi doirasida qolib ketmagan, Arastu va Aflotunning asarlarini tushuntirishi barobarida ularni ayrim jihatdan to‘ldirgan. Yunon faylasuflari faqat o‘z adabiyotlari doirasida fikr yuritgan bo‘lsalar, Forobiy ularning fikrlarini arab va hind poetikasidagi qarashlar bilan solishtirgan. Bundan tashqari she’riyat (badiiy adabiyot)ga xos xususiyatlarni aniqlab, she’riy mulohazalar (asarlarni) falsafiy mulohaza (sillologizm)dan farqlagan va uning estetik jihatlariga urg‘u bergan. Shuningdek, Forobiy ta’limotida vazn, zarb (ritm) va ne’r navlari masalalari ham yetarlicha izohlangan. Mumtoz Sharq adabiyotidagi ifoda shakllari (nazm, nasr) talqini bilan cheklanmasdan yunon she’r shakllariga ham imkon doirasida sharhlar

---

<sup>156</sup> Forobiy. Shoirlar san’ati qonunlari haqida. B.33.

<sup>157</sup> Ko‘rsatilgan asar.



bergan. Natijada Forobiyning adabiyotshunos sifatidagi faoliyati o‘z davridan ancha ilgarilab ketgan edi.

**Abu Rayhon Beruniy va adabiyotshunoslik.** Ulug‘ o‘zbek olimi va mutafakkiri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad (973–1048) zamonasining barcha fanlari bilan shug‘ullangan. Xorazmning Qiyot shahrida tug‘ilgan, 22 yoshida o‘z vatanidan chiqib ketgan (Berun – «tashqari» nisbasiga e’tibor bering). Fanning bir yuz ellikdan ortiq sohalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yaratgan<sup>158</sup>. Ma’mun akademiyasi deb nomlangan ilmiy anjumanda faol qatnashgan. Abu Rayhon badiiy adabiyotning nazariy masalalariga bag‘ishlangan “Fazl ahlining she’rda aytilgan fikrlarini bayon qilish kitobi”, “Tanlangan asarlar va she’rlar kitobi” kabi asarlar yozgani ma’lum. “Al-Osoru-l-boqiya” (“O‘tmish yodgorliklari” / “Xronologiya”), “Kitobu ma lil hind min ma’qulatin fi-l-aqli av marzulatin”, (“Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limot-larini aniqlash kitobi” / “Hindiston”), “Kitobu al-jamohir fi ma’rifati al-javohir” (“Javohirlarni bilish usullari kitobi”, / “Minerologiya”), “Kitobu-s-saydana” (“Dorilar bilimi kitobi” / “Farmakognoziya”) asarlarida san’at va adabiyot muammolarining ayrim qirralariga aniqlik kiritgan, asar bag‘ishlangan soha bilan bog‘liq holda she’riy talqinlar ham bergan.

Beruniyning badiiy asarlar yozgani (arab tilida) haqida Yoqut Hamaviyning «Majma’u-l-udabo» («Adiblar to‘plami») asarida ma’lumot berib, uning ijodidan 37 baytli qasida, 3-4 she’riy parcha keltirilgan<sup>159</sup>. To‘rtlik:

[Tarjima:]

*Mehnatsiz shuhrat qozongan odam*

*Osoyishtalik, farovonlik soyasida yashaydi.*

---

<sup>158</sup> *Abu Rayhon Beruniy asarlari: Qadimgi xalqlardah qolgan yodgorliklar.* T., 1968; Qonuni Mas’udiy, I qism, 1–5-maqolalar. T., 1973; II qism, 6–11- maqolalar (A.Rasulov tarj.). T., 1976; Hikmatlar (to‘pl. va nashrga nayyorl. A.Irisov). T., 1973; Tarvihalar: «Javohirot kitobi»dan (arabchadan M.Tursunov tarj.). T., 1991; Feruza (Javohirlar haqida naql va hikoyatlar). T., 1993; 100 hikmat: Ibratli so‘zlar (tarj. Va nashrga nayyorl. A.Irisov). T., 1993; Tavhim (A.Ahmedov tarj.). T., 2006.

<sup>159</sup> *Qayumov A. Beruniy va adabiyot.* T., 1973.

*Yaxshi kiyinadi, rohatda (kun ko 'radi),  
Lekin ulug'lik kiyimida u hamisha yalang'ochdir.*

Beruniy zamonida she'riyat benihoya taraqqiy etgan. Professor I.Abdullayev "Beruniyga zamondosh shoirlar" kitobida O'rta Osiyo, jumladan, Xurosonda yashab ijod qilgan 13 shoir haqida Yoqut Hamaviyning "Mu'jamu-l-ubado", Ibn Xallikonning "Vafoyotu-l-a'yon", Ibn al-Asirning "Komil fi-t-Tarix", hozirgi G'arb sharqshunoslaridan K.Brokkelman, I.Y.Krachkovskiy asarlariga suyanib, qimmatli ma'lumotlar beradi.<sup>160</sup>

*She'r va shoirlik pozitsiyasi. Ritm va vazn munosabati.* Beruniy "Hindiston" asarida hind she'r ilmiga maxsus bob (13–bob) ajratilib, unda hind tili grammatikasi va fonetikasi qoidalarining she'r ilmida aks etishi muammolari o'rganilgan va ushbu ilmga tegishli 8 kitobning nomini keltirgan: «Aindra» (Indra tuzgan), «Chandra» (Buddaning suhbatdoshlaridan Chandra ishlagan), «Shokata» (Shokatoyana qabilasi tomonidan tuzilgan), «Ponini» (tuzuvchining ismi bo'yicha), «Kotantra» (Sharvavarman tuzgan), «Shashidevavritti» (Shashideva tuzgan), «Durgavivritti» (muallif ismi bilan yuritilgan) va «Shish'yahitovritti» (Ugrabxo'ti tuzgan).<sup>161</sup> Bu hind mumtoz she'rshunosligining mutaxassislar tomonidan tuzilgan ro'yxati emas, balki Beruniy tomonidan o'rganilib, so'ngra har bir asarga qisqa istiografik tavsifdan so'ng ular asosida tushuntirilgan hind vaznshunosligi manbalaridir<sup>162</sup>. Bu sakkiz kitobdagi fikrlarni umumlashtirib Beruniy yozadi: «*Bu ilm (ya'ni nahv ilmi<sup>163\*</sup> – Hamidulla Boltaboyev)dan keyin chanda degan ilm keladi. Chanda aruz ilmiga muqobil turadigan she'r*

<sup>160</sup> Abdullayev I. Beruniyga zamondosh shoirlar. T.: Fan, 1975.

<sup>161</sup> Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. T., 1965.

<sup>162</sup> Bu haqda qarang: Sharq mumtoz poetikasi H.Boltaboev talqinida. T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. B.155, 171–174.

\* Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Beruniy nahv (sintaksis) orqali nasriy matnlar o'rganilishiga ishora bergan va she'r ritmikasi esa aruz bilan o'lchanishini qayd etgan. Bu jihatdan Beruniy X asrdayoq nasr va nazmning ritmik xususiyatlarini farqlagan va bu ifoda shakllarining o'ziga xos tabiatini nafaqat arab-turk adabiyotida, balki hind manbalarida ham kuzatgan.

<sup>163</sup> Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. T.: Fan, 1965. B. 121.

vaznlaridan iboratdir. Hindlar chandaga juda muhtojlar, chunki ular kitoblarini nazm bilan tuzishni maqsad qilib olganlar. Chanda, ya'ni she'r vazni san'atini dastlab Pingalu va Chalitu yuzaga chiqargan. Bu borada ishlangan kitoblar ko'p. Ularning eng mashhuri "Gaysitu" kitobi bo'lib, tuzuvchisining ismi bilan aytilgan, hatto aruz ham shu ism bilan atalgan... Ular Xalil ibn Ahmad va aruzchilarimiz belgilaganidek, harflarni sanashda sukunli (harakatsiz) va harakatli harflarni mana shu ikki belgi / < bilan tasvirlaydilar. Bularning birinchisi, ya'ni so'l tomondagisi (chunki ular so'l tomondan yozadilar) lagxu deb ataladi. Bu yengil demakdir. Ikkinchisi, ya'ni o'ng tomondagisi guru deb ataladi. Bu og'ir demakdir. Og'ir vaznning miqdori avvalgining, (ya'ni yengilning) ikki barobari bo'lib, ikki yengil bir og'ir o'rnida turadi...»<sup>164</sup> Ko'rinadiki, she'r vaznlarini diakirik belgilar orqali paradigmasini aniqlash ham arab tilidagi she'rshunoslikda Beruniydan boshlangan. Ma'lumki, aruzning o'zgarmas qoliplarini yaratgan arab olimlari hijo va ruknlarni belgilar bilan emas, harflar va ular asosida yasaladigan (ma'no anglatish-anglatmasligidan qat'iy nazar) so'zlar bilan (mafoiylun, foilotun kabi) ifodalagan. Ayni holat arab aruzida xafif (yengil) va saqil (og'ir) sabab sifatida yuritilganini unutmagan holda Beruniy asarida qadimiy hind she'r tizimi arab va ajam metrikasiga qiyosan o'rganilganini aniqlash mumkin. Asar hind she'r tuzilishi bilan birga Hind-Yevropa tillaridagi fonetik hodisalarni ham anglatadi va arab aruzini tushunishga ham yordam beradi.

“Ma'danshunoslik” asarining muqaddimasida alloma insonning nutqi go'zal bo'lishi kerakligini aytib, nutqning ikki xil shakli *nasr va nazm* xususida so'z yuritadi (yuqoridagilarga ilova ravishda). Nasr qoidalari navh (sintaksis) ilmida bayon qilingan bo'lib, unga amal qilish orqali nasrdagi nutq tartibga solinadi. She'r o'lchovlari esa, xususan, aruz va qofiya ilmi nazmda yozilgan asar muvozanatini tutib turadi. Nutq mazmuni mana shu ikki xil shaklda ifoda qilinishiga ko'ra, uning mazmundor va go'zal bo'lishi ham mana shu unsurlar bilan bog'liqdir, degan nazariy xulosa qiladi.

Ma'lum bo'lishicha, Beruniy asarlarida yunon, arab va hind she'r nazariyasi uchun asos bo'lgan ritmik birliklar ishlab chiqilgan. Bunday birlik sifatida yunonlilarda "metr", arablarda "rukn" va hindlarda "shloka" olingan bo'lib, ularning o'zaro munosabati izchil tartibda o'rganilgani yuqoridagi iqtibosdan ma'lum. Chunki hind-yevropa oilasiga kiruvchi tillar poetikasi qadimgi sanskrit asosida yaratilgani barcha mutaxassislarga ayon.

*Obrazli tafakkur, badiiy san'atlar.* Beruniy adabiy merosi tarkibida adabiy-nazariy qarashlar va o'ziga zamondosh bo'lgan shoirlar ijodiga munosabat yetakchilik qiladi. Abu Rayhon Beruniy "al-Javohir" asarida saksondan ortiq shoir ijodiga murojaat qiladi. Asarda johiliyya davri arab shoirlari Qays ibn Mulavvah, Hotam Toiy, Ibn Sa'd ijodidan ham namunalar keltirilgan. Jumladan, muallif ushbu asarida arab va fors tillarida baravar ijod qilgan Hamza Isfahoniy, Abu Bakr ibn Husayn Ko'histoniy, Abul Qosim ibn Bobak Jurjoniy, Mansur Muvarrid Forsiy, Gadoiriy, Darshor ibn Burd, Abu Mansur Saolibiy, Abubakr Xorazmiy, Xotibiy ibn Nasrovayh Samarqandiy va boshqalarni tilga oladi va asar so'ngida shunday xulosaga keladi: «*Shoirlar tabiatdagi narsa-hodisalarning hamma vaqt ham aniq xususiyatlarini tasvirlashga qiziqmaydilar, balki ularni kishilar tasavvuridagi holatiga ko'ra qalamga oladilar*»<sup>165</sup>. Bu o'rinda Beruniy lirik turga xos fikrlarni bayon qilish bilan birga uni epik tur (rivoya)dan farqli jihatlariga ham e'tibor qaratgan.

Qimmatbaho toshlar va ma'danlar tasnifiga bag'ishlangan bu asarda ayrim la'l va ma'danlar haqida ma'lumot berarkan, u haqda adiblarning fikrlarini ham keltiradi. Masalan, «Lu'lu» bobining «Gavhar va uning nomlarining adiblar tomonidan ta'rifla-nishi» faslida adabiyot masalalariga to'xtaladi. Shoir qo'llagan badiiy san'atlarning o'sha tasvirdagi narsa yoki hodisaga mos kelish-kelmasligini sharhlarkan, bir shoirning (arab tilidagi she'rning mazmuni)

---

<sup>165</sup> Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. T.: Fan, 1965. B. 123.

*Mening qalbim nozik qomatli,  
beli niholday harakatlanuvchi jononga qaratilgan,  
U qiz husnu jamolda dengiz qirg‘oqqa uloqtirgan gavhardek*

baytidagi tashbih qo‘llanilishi haqida «Lekin bu o‘xshatish ma’no jihatidan to‘g‘ri emas, chunki gavhar qirg‘oqqa uning chig‘anog‘i o‘lgandan keyingina uloqtiriladi. Bunday holda esa gavhar yemirilish va o‘zgarishlardan buzilgan bo‘ladi» deb yozadi. Shoirning tashbihi haqida ma’danshunos allomagina bunday nozik kuzatish qilishi mumkin. Bu hol Beruniy ilmiy uslubining o‘ziga xos tomoni bo‘lib, ayni holatni chuqur ilg‘agan akademik A.Qayumov “Beruniy va adabiyot” asarida ulug‘ alloma tilidan hikoya qiladi: “*Biz she’riy parchalarni ko‘p-ko‘p keltiramiz, ular orqali fikrlarimizni isbot qiluvchi dalillar va ma’lumotlarni bayon qilamiz, izohlaymiz... she’r o‘quvchiga huzur va rohat bag‘ishlaydi, uzoq yo‘l bo‘yidagi buloqlar singari dam olish va hordiq chiqarishga xizmat qiladi*”<sup>166</sup>.

*Tarjima nazariyasi va qiyosiy adabiyotshunoslik.* Beruniyning estetik qarashlari xususida so‘z yuritganda, N.Karimovning “Beruniyning estetik qarashlari, mutaxassislarining fikrlariga qara-ganda, Arastu va Aflotun singari yunon faylasuflarining asarlaridan ma’lum darajada oziqlangan”<sup>167</sup> degan xulosasiga suyanmaslik mumkin emas. Allomaning Abu Tammom (arab shoiri) haqidagi «Abu Tammom ash’origa sharh», «Abu Tammom ijodida alif bilan tugallanadigan qofiyali she’rlar» kabi risolalari, fors tilidan arab tiliga tarjima qilgan «Qosimu-s-surur va Ayni-l-hayot», «Hurmuzdiyoy va Mehryob», «Lolmoh va Kiromiduxt», «Vomiq va Uzro», «Bomiyonning ikki sanami», «Nilufar», «Dabistiy bilan Borbahokor hikoyasi» kabi tarjima asarlari, taassufki, bizgacha yetib kelmagan. Biz bu ro‘yxatni faqatgina Beruniydan keyin bu sohalarga qo‘l urgan olimlarning asarlari orqaligina tikladik. Shu bilan birga alloma «Panchatantra» («Kalila va Dimna»)ning Abdulloh ibn Muqaffa (VSh asr) tomo-

<sup>166</sup> Qayumov A. Beruniy va adabiyot / Asarlar. 9-jild. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2010. B.154.

<sup>167</sup> Karimov N. Hindiston, Homer va Beruniy / Adabiyot va tarixiy jarayon. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2012.

nidan amalga oshirilgan arab tiliga tarjimasidan qoniqmay, uning o‘zi imkoniyat topib, asarni arabchaga o‘g‘irishni orzu qilgan. Sakskritni mukammal bilgan olim tarjimon asliyatga mos ish tutish lozim, matnga aralashib, unga begona so‘zlarni qo‘shish mutarjimlik ishiga yot narsa ekanligini aytadi: *“al-Muqaffa kitobga o‘zidan “Barzovayh” bobini qo‘shib, diniy e‘tiqodi sust kishilarni mannoniya mazhabidan qaytarmoqchi bo‘lgan. Bob orttirish bilan ishonchsiz bo‘lgan kishi tarjimaga ham qo‘shib ishonchsizlikni orttirishdan chetda qolmaydi”*<sup>168</sup>. Bu bilan matnshunoslik va tarjima nazariyasida muqim ustivor qonuniyat sanalgan matnga munosabatda xolislik, unga aralashmaslik lozimligini tarjima nazariyasi fan sifatida shakllanishidan 900 yil avval ko‘rsatib bergani ma’lum bo‘ladi.

**Abu Ali ibn Sino ta’limoti.** Mashhur tabib, faylasuf, musiqashunos va tasavvufshunos alloma Abu Ali ibn Sino (980–1037) “shayxu-r-raisi” (“Donishmandlar raisi”) nomi bilan mashhur bo‘lgan. Abu Alining yigitlik davri Nuh II ibn Mansur Somoniy hukmronligi yillari (976–997)da Buxoroda o‘tdi. Abu Abdulloh Notiliydan falsafa, Hasan ibn Nuh Qumriydan tabiiyot ilmini o‘rgandi. Buxoroni qoraxonlilar zabt etgach, 1000 yilda Buxorodan chiqib, Xorazmga bordi va Xorazmda Ma’mun akademiyasida ishladi. Jurjonga kelib, hokim Qobus ibn Vashmgir saroyida vazir va tabib sifatida shuhrat qozondi. 1019–21 yillarda Hamadonda vazir lavozimida xizmat qildi.

Ibn Sino zamonasidagi mavjud ilmlarining yetakchisi sifatida 450 dan ortiq asar yozgan, shundan 242 tasi bizgacha yetib kelgan. Falsafa sohasida “Tabiiyot”, “Mantiq”, “Ba’d at-tabia” (“Metafizika”), “Azhaviyya” (“Yorug‘lanish”) asarlari muallifi. Mantiq ilmiga oid “Arg‘anun” (“Organon”) to‘plamini tuzgan, bu to‘plam mantiqqa oid “Ma’qulot” (“Sillologizm”), “Muqaddima” (“Topika”), “Xitoba” (“Ritorika”) fanlarini qamrab olgan. Asosiy ilmiy asarlaridan biri “Tib qonunlari” uzoq davr mobaynida dunyo tibbiyot xodimlari uchun qo‘llanma bo‘lib kelgan. Tibbiyotga oid “Risolayi nabz” (“Puls haqida ta’limot”), “Javdiya” (“Ajoyib maslahatlar”) asarlari ham ma’lum. 149 bobdan iborat “al-Vohiya»

---

<sup>168</sup> Beruniy. Hindiston. T.: Fan, 1965. B.130.

(“Fayziya”) asari retseptlar to‘plamidir. “Urjuza” tibbiy doston bo‘lib, 1329 baytdan iborat bu asarda muallif san‘at (she‘riyat) va ilm (tibbiyot)ni o‘zaro birlashtiradi. “Shoirlar so‘z sohiblari bo‘lsa, tabiblar sog‘lik farishtalaridir. Ulardan biri go‘zal so‘zlar bilan ruhni quvontirsa, ikkinchilari sadoqat bilan jism (tana)ni davolaydilar” deb yozgan edi muallif bu asar xususida.

Badiiy ijod sohasida fors tilida 46 ruboiy, 5 qit‘a, 2 bayt yozgani va arab tilidagi “Qasidayi ayniya” asari ma‘lum. Umar Xayyom ruboiyda Abu Alini o‘ziga ustoz deb bilgan. “Tayr qissasi”da tana qafasidan qutilgan ruhning arshi a‘loga, ya‘ni o‘zi yaratilgan joyga qaytishi ifodalangan. “Salomon va Ibsol”, «Hayy ibn Yaqzon», “Yusuf”, “Me‘rojnoma” kabi nasriy asarlari X–XII asrlarda O‘rta Osiyodagi badiiy nasrning yuksak namunalari. Ibn Sino Sharqda falsafiy she‘riyatni boshlab bergan allomadir. Jumladan, “Ayniya” qasidasida u ruh to‘g‘risida mushohada yurgizib, inson tabiatidagi ziddiyatlarni ko‘rsatgan, nokasu nojins shaxslardan nafratlanib, jaholat va hasadni tanqid qilgan bo‘lsa, «Xayy ibn Yaqzon» («Uyg‘oq o‘g‘li Tirik»), «At-Tayr» («Qush»), «Salomon va Ibsol» falsafiy qissalarida bir qator tamsiliy obrazlar yaratib, hayotiy kuzatishlarini mavhum mushohadalar shaklida o‘rtaga tashlaydi. Bu qissalarning hammasi ham inson, uning taqdiri to‘g‘risida hikoya qiladi. Komil inson fazilati nimadan iborat, degan savolga javob qidiradi. Mazkur falsafiy qissalar ma‘nolari g‘oyat teran va ko‘p narsalarga dalolat etuvchidir. Fardjon qal‘asida, mahbuslikda yozilgan «At-tayr» («Qush»), tadqiqotchilar fikricha, muallif ahvolini ifodalovchi asardir. Tutqunlikdagi azob-uqubat, dushmanlar ta‘qibi asarda ramziy yo‘sinda bayon etilgan. Ammo bu hikoyat o‘zining hayotiy aslidan ham kengroq va teranroqdir. Undan ruh tutqunligi, jism tuzog‘ida azob chekishi, unga do‘stlari – aql va bilim ba‘zan yordam bermasligi, dushmani – nafs domiga giriftor bo‘lishi g‘oyalari ham tushuniladi. Darhaqiqat, Ibn Sino hikoyatda do‘stlik fazilatlari, insoniylik haqida fikr yuritayotib, birodarlik shartini o‘rtaga soladi: «Ey, birodarlar, es-hushingizni jamlang va do‘stlaringiz uchun yuzdan pardani ko‘taring. Qachonki, bir-birlaringizning ichki sirlaringizni pardasiz ko‘rib, bir-biringiz kamoliga sababchi

bo'lsangiz – baxt sizga yuz ko'rsatadi... odamlarning ablahi va yalqovi o'z kamolidan orqada qolganidir»<sup>169</sup>.

Bu g'oya, ya'ni aql takomili va ruhning quvvat topib poklanish bilan jismni yayratishi, halovatga olib borishi «Hayy ibn Yaqzon» qissasida yanada izchilroq yoritilgan. Ibn Sino aql kuchiga juda katta baho beradi va u orqali ruh kamolotini inson hayotining mohiyati deb tushuntiradi. Asarda tasvirlanishicha, bosh qahramon o'z oshna-og'aynilari bilan shahar tashqarisiga sayrga chiqib, bir nuroniy cholni uchratadi va u bilan suhbat quradi. Mo'ysafid – Hayy ibn Yaqzon o'zi haqida hikoya qilgan ekan, tinglovchini xayolan dunyo sayohatiga olib chiqadi. «Hunarim jahonni sayohat qilish va barcha ilmlardan xabardor bo'lishdir», – deydi u. Chunki u aql timsoli. Dunyoni faqat aql bilan bilish mumkin – mazkur ramz ma'nosi shu. Shuning uchun olim mantiq ilmining foydasini alohida ta'kidlaydi. «Yomon oshnolar» – g'azab, yolg'on, qalloblik, shahvatparastlik, ochko'zlik, hirs, hasad kabi tuban xislatlar zararini ko'rsatib, ularni jilovlab olish, iloji bo'lsa, ulardan butunlay qutulishga da'vat etadi. Asar qahramoni xayoliy dunyo siru asrori bilan tanishtirish haqidagi iltimosiga mo'ysafiddan rad javobini oladi. Chunki aql rahnamoligiga erishish uchun dastlab g'arazli oshnolardan qutulish lozim edi. Suhbat davomida mo'ysafid dunyoning tuzilishi, materiya, ong, hayvonot va o'simliklar olami xususida, ularning inson ruhi bilan aloqasi, vujudining tuzilishi haqidagi dualistik qarashlarni qatorlashtiradi. Odam organizmidagi sezgilar, dunyoni bilish yo'llari, inson tabiatidagi xilma-xil xislatlar, jaholat va ilm, shakl va mazmun, ruhning modda bilan mushakkal bo'lib, o'zgarish qonuniyati kabi masalalar – Ibn Sinoning ilmiy-falsafiy asarlarida zikr etilgan qarashlar endi badiiy ramziy-tamsiliy obrazlar vositasida tushuntiriladi. Mo'ysafid xayolan falakka ko'tarilib, sayyoralar, burjlar, ularning xususiyatlari, ular haqidagi asotir – rivoyatlarni keltiradi. Bu sayyoralarda manzil qurgan kishilar fazi-latlari aytiladi. Falak bilan ruhlar, farishtalar, faol aql, nazariy aql va amaliy aql kabi tushunchalar, ularning vazifalari aytiladi. Asar oxirida podshoh

---

<sup>169</sup> *Abu Ali ibn Sino. Tayr qissasi / Islom tasavvufi manbalari. Nashrga tayyorl. H.Boltaboyev. T.: O'qituvchi, 2005.*



huzuri – Abadiyat quyoshi manziliga yaqinlashish va undan keladigan quvonch tavsifi beriladi. Aql timsoli Hayy ibn Yaqzon, insonga tuban xislatlar, nomaqbul xulqdan poklanish yo‘lini ko‘rsatuvchi kuchdir. Yozuvchi g‘azab, hirs, hasad singari yomon xislatlarni qoralaydi. Ularni odamning yovuz dushmani, deb e‘lon qiladi. Chunki bu kabi salbiy xulq insonni tubanlashtirishdan tashqari, uning dunyoni tushunish, oliy maqsadlarga intilishiga ham to‘sqinlik ko‘rsatadi.

Adabiyotshunoslikka oid “Al-hikmat al-aruziya” (“Aruz hikmatlari”), “Al-mantiq fi-sh-she’r” (“She’riy nutq”), “Al-qasoyid fi-l-uzmat va-l-hikmat”, tilshunoslikka oid “Lisanu-l-arab” (“Arab tili”), “Maxoriju-l-huruf” (“Harflarning mahrajlari”) asarlarini bitgan. O‘zbek tiliga “She’r san’ati” deb o‘girilgan “Al-mantiq fi-sh-she’r” asari to‘rt fasldan iborat bo‘lib: birinchi fasl – she’r haqida umumiy tushuncha, she’riy shakl va yunon she’ri navlari haqida; ikkinchi fasl – she’rdagi umumiy g‘araz (maqsad) turlari va taqlidlar haqida; uchinchi fasl – she’rning dastlab paydo bo‘lish kayfiyati (sababi) va she’r turlari haqida; to‘rtinchi fasl – bayt miqdorining g‘arazlar bilan munosabati, xususan, fojia haqida va uning bo‘limlari bayonidan iborat. Dastlabki fasl shunday boshlanadi: “Eng avvalo biz shularni aytmoqchimiz: she’r odatda timsolli so‘zlardan iborat bo‘lib, u bir-biriga teng hamda vaznli gaplardan tuziladi. Arablarda esa she’r qofiyali bo‘lib, she’rlarda ma’lum hisobda ritm bo‘lishi tushuniladi. Bir-biriga teng bo‘lishning ma’nosiga kelsak, bunda she’rdagi har bir gapning ritmli qismlardan tuzilganligi anglashiladi. Odatda so‘zning avvalgi ritmi bilan keyingi ritmining nisbati bir xil kelishi kerak”<sup>170</sup>. Ibn Sino bu o‘rinda aytilgan ritm (vazn) va qofiyadan tashqari uning mantiqi timsolli (obrazli) fikrlash ekaniga e’tibor qaratadi: “...mantiqshunos she’rga uning obrazlilik jihatidagina diqqat qilmog‘i kerak. Timsol orqali (obraz-li qilib) aytilgan so‘z kishi ruhini o‘ziga bo‘ysundiradigan bir holat kasb etadi... Bunday holatda o‘sha aytilgan so‘zlar to‘g‘rimi yo noto‘g‘rimi uning uchun ahamiyati bo‘lmaydi. Chunki asli – tabiatida rost so‘z hech mahal obrazli

---

<sup>170</sup> *Abu Ali ibn Sino. Salomon va Ibsol. Sher san’ati. Falsafiy qissalar / Islom tasavvufi manbalari. Nashrga tayyorl. H.Boltaboyev. T., 1980. B.87.*

aytilgan va yo obrazli aytilmagan soʻzlarga oʻxshamaydi”.<sup>171</sup> Xuddi shu jihatdan Ibn Sino sheʼrni tushunishda oʻz salafлари va zamondoshlaridan ilgari ketdi, chunki uning eʼtiborini arab sheʼridagi kabi vazn va qofiya jihatlari emas, balki uning timsoliy (obrazli) tabiati tortdi. Sheʼrning rost voqealar haqida xabar berishi muhim emas, balki uning obrazli fikrlashi muhimdir, degan mantiq bilan masalaga yondashdi. Bu jihatdan sheʼrning “taʼsir kuchi”, “odamlarni taajjubga solishi”, “taqlidlar”, “xayoliy (toʻqima) obrazlar” kabilar risola muallifi tomonidan tahlil markaziga qoʻyildi. Shundan kelib chiqib, risolaning ikkinchi “taʼlimi”da sheʼrning umumiy maqsadi va taqlid turlariga yuzlandi. Alloma yunon manbalariga suyanib aniqlashicha, “sheʼr uch xil narsa bilan xayolga taʼsir etadi”: lahn – garmoniya (1), taqlid – tashbihli soʻzlar (2) va ritm (vazn va qofiya) (3). Sheʼrning dastlab paydo boʻlishi xususida “inson quvvati (ruhiy quvvat – Hamidulla Boltaboyev)da sheʼr tugʻilishining ikki sababi boʻladi: ularning biri taqlid – tashbih bilan lazzatlanish, ikkinchisi esa yoshlikdan boshlab shu taqlidning inson faoliyatida ishlatilib kelinishi. Mana shu xislat bilan inson barcha tilsiz hayvonlardan farq qiladi”.<sup>172</sup> Insondagi taqlid maymundagi kabi harakatga yoki toʻtiqushdagi kabi tovush (soʻz)ga taqlid emas. Inson taqlid qilarkan, u maʼnoga ishora qiladi, oʻsha ishoralar esa (sheʼriy) taʼlim oʻrnini egallaydi. Insondagi taqlidga ritm joʻr boʻlsa, maʼnoviy ishoralar ruhga kuchli taʼsir qiladi, *“ruh bundan yengil tortadi, shavqqa toʻladi va taqlid bilan lazzatlanadi”*. Ayni fikrlar ayrim sheʼr navlariga emas, butun badiiy asarlarga tegishli boʻlgani uchun bular qatoriga alloma “ikkinchi sabab” qilib, “odamlar tabiatidagi kompozitsiya va kuylar taʼlifiga boʻlgan muhabbat”ni keltiradi. *“Mana shu ikki sabab yuz bergach, sheʼr tugʻiladi. U kishi tabiatiga asta-sekin singib, una boshlaydi. U koʻproq tabiatan shoir boʻlganlarda favqulodda va tabiiy ravishda yaratiladi”*<sup>173</sup>. Ibn Sino asarida bunday nazariy umumlashmalar muayyan janrlar talqini bilan birga beriladi. Toʻgʻri, muallif koʻproq yunon sheʼr navlariga va adabiy turlariga

---

<sup>171</sup> Koʻrsatilgan asar. B.90.

<sup>172</sup> Koʻrsatilgan asar. B.104.

<sup>173</sup> Koʻrsatilgan asar. B.105.

murojaat qiladi va nihoyat, so‘nggi “ta’lim”da esa har bir adabiy tur o‘ziga munosib vaznda aytilishini ta’kidlaydi. Shundan kelib chiqib, epos va epopeya vazni, masal va hikoyalar vazni, shuningdek, fojia va drama vazni belgilanadi. Ibn Sino belgilagan tushunchalar qamrovi birgina lirik asarlarga munosabatda emas, balki epik va dramaturgik janrlarga nisbatan ham qo‘l kelishi so‘nggi jumladan ayonlashgan bo‘lsa kerak. Mana shularning barchasi “san’atkorlik” (mahorat) deb nomlanadigan tushunchaga bog‘lanadi. “San’atkorlik esa she’riyatning oliy darajasidir”.<sup>174</sup> Shuning uchun ham «shoirlar – olam shahzodalari, ya’ni ruh hakimlari»dirlar.

Ibn Sinoning mazkur xulosasi badiiy-estetik tafakkur tarixida ilmiy inqilob ediki, shuning uchun ham u Dante va boshqa G‘arbiy Yevropa Uyg‘onishining ilk namoyandalari orqali Renessans g‘oyalariga borib ulanadi. O‘rta asr Yevropasi Sharqning ilm-mada-niyat yutuqlari bilan birga, estetik qarashlari, adabiy-badiiy an‘analarini ham qabul qilib olgani haqida olmon olimi Herder yozadi: «*Arablar (arab tilida yozgan mualliflar – Hamidulla Boltaboyev) falsafa bilan poeziya sintezini nihoyasiga yetkazdilar hamda she’riyatni ko‘tarinki tasavvuf g‘oyalari bilan sug‘ordilar... arab faylasuflari ayni paytda shoir ham edilar, shuning uchun o‘rta asrlarda tasavvuf bilan adabiyot doimo yonma-yon yuradigan, bir-biriga o‘tadigan hodisa bo‘ldi*»<sup>175</sup>. Professor Najmiddin Komilov «Tafakkur karvonlari» kitobida Sharq Uyg‘onish davri madaniyatining G‘arb xalqlari madaniyatiga ijodiy ta’siri haqida yozgan mulohazalari zaminida Ibn Sino kabi Sharq falsafasi va adabiyotshunosligining muhtasham darg‘alari turadi.

Abu Ali ibn Sino insonning ashyo va hodisalarga, go‘zal shakllarga maylini u «Risola fi-l-ishq» asarida batafsil bayon etgan. Bu fikr risolada ruh kamoloti, aql xislatlari va muhabbat masalasi bilan zich aloqadorlikda olib tushuntirilgan. O‘z navbatida, Ibn Sinoning olamni yagona ruh – Aqli Kull boshqaradi, butun holat va harakatlar o‘shaning xislatidan, degan fikri Irfon bosqichi tasavvuf adabiyotining o‘zak masalalaridan hisoblanadi. Ibn Sino shogirdi Abdulloh al-Ma’sumiy-al-

<sup>174</sup> Ko‘rsatilgan asar. B.114.

<sup>175</sup> Гердер Г. Идеи к философии истории человечества. С. 573–574.

Faqihning taklifi va iltimosi bilan yozilgan “Risola fi-l-ishq” asarining ilk bobini “Al-faslu-l-avval: Barcha yakka mohiyatli mavjudotlarning ishqiy quvvati haqida” deb nomlab,<sup>176</sup> unda yozishicha, Alloh taolo yaratgan barcha yakka ashyolar – narsalar o‘zidagi kamchilik va nuqsonlarni yo‘qotib, komilroq, mukammalroq bo‘lishga, yomonligidan qochib, tabiiy yaxshi holatiga qaytishga intiladi. Shu sababli, oliy ruhga tobe’, taalluqli bo‘lgan barcha mavjudotlar tabiiy ravishda yaxshilikka intiladi, hayotni sevadi. Bundan kelib chiqadiki, barcha mavjudotlarda (hayotga, yashashga) muhabbat bo‘lgani sababli ular mavjuddirlar. Shu jihatdan olamdagi barcha mavjudotlar uch turli martabada bo‘ladilar: 1. Komillikka erishgan mavjudot. 2. Nuqsonli (zararli) mavjudot. 3. Shu ikki holatning o‘rtaligida bo‘lgan mavjudot. (Mantiqiy fikrlar tartibiga ko‘ra), ko‘p nuqsonli, buzilgan, fasodli g‘izo quvvati ham yo‘qolgan mavjudotlar yo‘qlikka qarab boradi.<sup>177</sup> Shu boisdan ruh afzalligi va aql kamoloti haqidagi ta’limot, «Riso-la fi-l-ishq»da zikr etilgan fikrlar Ibn Sino badiiy asarlari-ning ham bosh mundarijasidir deyish mumkin. Risolada ulug‘ alloma “har bir jonzotning javharidan kelib chiqadigan ishq to‘g‘risida” gap boshlab, so‘ngra oddiy jonsiz mavjudotlar (ma’danlar)ga xos, o‘simliklar va hayvoniy mohiyat egalari hamda yosh va yorqin chiroy bilan ajralib turadiganlar ishqidan tortib “Ahli dil (ilohiy qalblar) ishqiga bag‘ishlangan sahifalar bilan o‘z qarashlarini nihoyasiga yetkazadi. Mulohazalar so‘ngida: “Agar Mutlaq ezgulik tajalli etmaganida undan hech narsa olib bo‘lmasdi. Undan hech narsa olib bo‘lmaganda esa hech narsa mavjud bo‘lmaydi. Shunday qilib, agar Uning tajallisi bo‘lmaganida, borliqning o‘zi ham bo‘lmasdi; demak, Uning tajallisi butun borliqning sababchisidir. Oliy zotga bo‘lgan ishq qanchalik Uning ulug‘ligi uchun bo‘lsa, ishq ham shunchalik ulug‘vor bo‘ladi. Unga bo‘lgan sevgining haqiqiy manbai uning tajallisidadir. Uning tajallisiga

---

<sup>176</sup> *Абу Али ибн Сино. Рисола фи-л-ишқ // Серебрянов С.Б. Трактат Авиценны о любви. Тбилиси: Мецниереба, 1976. С.38.*

<sup>177</sup> *Ко‘rsatilgan asar. В.39.*

ilohiy qalblar ana shunday erishadilar. Shunga ko‘ra, aytish mumkinki, ilohiy qalblar Unga bo‘lgan ishq manbaining mohiyatidir”<sup>178</sup> deyilgan.

So‘nggi ikki asar faylasuf va adabiyotshunos allomani ulug‘ tasavvuf olimi qiyofasida tasavvur etishga imkon beradi. Adabiyotshunoslik tasavvuf ilmidan ayro ravishda islom olamida taraqqiy etishi mumkin bo‘lmaganidek, ulug‘ allomaning yana bir fayzli asari “At-tanbeh va-l-ishorat»”ga yuzlanamiz. Asarning birinchi qismida mantiq, ikkinchi qismida tabiiyot, uchinchi qismida ruhshunoslik (metafizika)ga oid masalalar ko‘rib chiqiladi. So‘nggi qismda muallif ijod va yaratuvchanlik tushunchalarining farqi haqida, ruhning tanadan ajralishi, shodlik va baxt, sufiylikning darajalari (obid, zohid va orif), mo‘jiza va karomatlar xususida so‘z yuritadi. Asarning xulosa qismi “Vasiyat” deb nomlangan. “Ruh (jon) haqida” asarida ma’dan ruhi, o‘simlik va hayvon ruhlari, inson ruhi va uning kamoloti hamda ruhning tanadan ajralgandan keyingi hayoti haqida so‘z yuritadi.

“Yorug‘lanish” asarida basirat – qalb ko‘zi ochilgan, yanglishlar qorong‘uligidan qutulib, ongi va shuuri yorishgan zotlarning Ilohiy olam asrorini kashf etish qudratiga ega bo‘lishi haqidagi tasavvuf ta’limoti bayon qilgan. Bu asarlari bilan buyuk alloma tasavvuf ta’limotida *irfoniy ishq* falsafasini ilgari surgan.

Ibn Sino ta’limotidagi, ruhning muhabbat vositasi bilan kamol topishi, demakki, insonning ouhiy taraqqiyot jarayonida balog‘atga yetib, fazilat topishi g‘oyasi G‘arb olimlari ham benihoya qiziqtiradi. Kamolotga intilish, Ibn Sino talqinicha, agar ruh o‘zining moddiy jismlarga yo‘naltirilgan tomoni ta’siriga berilsa, kishini ma’naviy qashshoqlik, baxtsizlik sari yetaklaydi. Ruhning farog‘ati ham moddiy olamdan uzoqlashuvi, uni ato etgan ruhlar olami tomon parvozi bilan amalga oshadi. “Inson ruhiyatining baxtu kamoli, uning Aqli Kull bilan qo‘shilishi yoxud unga yaqinlikka erishishi orqali qo‘lga kiritiladi. Zero, ishq mohiyati – o‘zidan afzal va mukammaliga qarab intilish, uni idrok etish, his etish, unga yaqin

---

<sup>178</sup> *Abu Ali ibn Sino. Ishq haqida risola* (M.Mahmud, Z.Bahriddin tv tarj). // Sharq yulduzi. 2014. 1-2 soh.

bo‘lish uchun kurashishdan iboratdir”.<sup>179</sup> Ibn Sino aytadiki, barcha jonli va jonsiz mavjudotda ham ishq mavjud, ularning har biri, o‘z darajalariga ko‘ra o‘zgarishda, ko‘payish va yangilanishda, ya’ni kamolotga tomon intilishdadir. Chunki kulli ashyo tabiiy ravishda Birinchi sababga qarab intiladi. Alloma risolasi quyidagi so‘zlar bilan boshlanadi: «Boshqariladigan har bir alohida javhar, tabiatiga ko‘ra, Sof Xayrning yagona javharidan yaralgan juz’iy (individual) xayr hisoblanmish o‘z takomiliga intiladi... barcha mavjud ashyolar tabiiy istakka – tug‘ma ishqqa egadirlar. Bundan chiqadigan mantiqiy zarurat shuki, ishq ashyo (narsa, unsur)larning yashash sababidir». Bu kabi ishq o‘simliklar va hayvonlarda ham mavjud, ammo ulardagi ishq oliy ruh sari intilish va u bilan yaqinlashish qobiliyatidan mahrum. Bunday qobiliyat faqat inson ruhiyatidagina yashaydi. Insoniy muhabbat go‘zallikka (chiroyli shakllar, yoshlik, navqironlik, go‘zal chehralarga) mehr qo‘yishda, aqliy-ma’naviy va hissiy kamolot uchun kurashda namoyon bo‘ladi. Inson hech qachon erishilganga qanoat qilmaydi. U hamma vaqt bilmaganini bilishga, hali qo‘lga kiritmagani yutuqqa muyassar bo‘lishga, musaffolik va go‘zallikni idrok etish bilan ruhini qoniqtirishga ruju qo‘yadi. «Ishqning har bir ko‘rinishi allaqachon erishilgan yoxud erishilishi lozim bo‘lgan narsada, ya’ni sevganiga yetishmoqda zuhurlanadi. Xayrning fazilati ko‘paygan sari ishq sohibi (obyekti)ning qimmatini oshadi, shunga ko‘ra, xayrga nisbatan ishq ham kuchaya boradi».<sup>180</sup>

Azaliy sabab mohiyati jihatidan mutlaq sof, ezgulik demakdir. Buning isboti quyidagicha: Ilk sabab haqiqiy borliq hisoblanadi. Haqiqiy tabiatga qarashli barcha mavjud narsalar ma’lum ezgulikdan mosuvo emas. Ezgu-xayr yo mohiyatli, yoki mutlaq, yoxud erishilgan (keyin qo‘lga kiritilgan) bo‘ladi. Azaliy sabab bu – ezgulik, uning ezguligi mohiyatan yoki mutlaq va yo erishilgan bo‘lishi mumkin. Agar erishilgan bo‘lsa, ikkidan biri: yo uning mavjudligi o‘z hayoti uchun zarur, u holda uning manbai ilk sabab (azaliy sabab) bo‘ladi. Azaliy

---

<sup>179</sup> *Komilov N.* Tafakkur karvonlari. B.78.

<sup>180</sup> *Абу Али Ибн Сино.* Рисола фи-л-ишк. Тбилиси, 1976. С.49.

sababda hech qanday ayb va nuqson yo‘q, (u har qanday nuqsondan holi)dir. Bu quyidagicha isbotlanadi, barkamollikning aksi nuqsondir.

Shunday qilib, Azaliy sabab o‘ziga nisbatan o‘xshash bo‘lgan sifatlarning barchasiga ega ekanligi aniq bo‘ldi. Azaliy sabab o‘z mohiyatiga ko‘ra xayrlikdir, shuningdek, boshqa mavjud ashyolarga sababchi hamdir. Chunki u borliqning mavjudligi va saqlanishiga Bosh sababchidir. Unga xos bo‘lgan kamolot borliq va intilish barkamolligi uchun ham xosdir.

Yetuk insoniy ruh va farishtalar ruhi Ezguyi mutlaqning mohiyatiga tenglashtirilgan va layoqati jihatidan o‘ziga o‘xshash aql bovar qiluvchi ashyolar mushohadasi bilan bog‘liqdir, saxiy insonlar qalbi singari haqiqat yo‘lida qilingan harakatlar tufayli sodir bo‘ladi hamda tug‘ilish, qabz bo‘lish navbatining davomiyligini saqlashda Ezguyi mutlaqning mohiyatiga erishish bilan samoviy mohiyatlarni uyg‘otadi. Bunday taqlid Ezguyi mutlaqqa yaqinlashish maqsadida paydo bo‘ladi va bu yaqinlikdan maqsad, komillik va himmat egasi bo‘lmoqdir. Bu Azaliy sabab yordami bilan amalga oshiriladi hamda Uning mohiyatidan kelib chiqadi. Bu xuddi sevgan narsaga yaqinlik qilish (yo‘lini) izlaganga o‘xshab ketadi. Biz aniqlaganimizdek, Ezguyi avval barcha ahli dil (ilo-hiy qalb)lar uchun muhabbat manbaidir.

Ibn Sino fikricha, Oliy ezgulik barcha ahli dil (ilohiy qalblar)ning ishq manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ishq hech qachon so‘nmaydi, hamisha komillik va komillikka yaqin darajada bo‘ladi. Ular komillik darajasida bo‘lgan taqdirdagina sevgi ular uchun zaruriyatga aylanadi. Komillikka yaqin darajada bo‘lsa, uni insoniy sevgi deyiladi, farishtalar sevgisi deb atashga hali vaqt erta. Zero, oxirgisi (ya’ni farishtalar sevgisi) abadiy komillik kasb etadi. Avvalgisi (ya’ni insoniy muhabbat) komillikka yaqin darajadagi sevgida odam qalbi hali aql bovar qiladigan ashyolarni his qilishning tabiiy istagi bilan to‘la bo‘ladi. Uning komilligi shu bilan belgilanadiki, mushohada jarayonida u ko‘proq komillik kasb etishga harakat qiladi va narigi dunyo – oxiratni mushohada qilishga o‘tadi. Har bir aqliy ne’mat (qadriyat), avvalo, qalb orqali ilg‘ab olinadi va yakka (o‘ziga xos) javharda

mavjud bo‘ladi. Buning sababchisi bo‘lgan ilk aqliy ne‘matning xususiyati shunday. Bunday qalblar o‘z borliqlarida azaldan tug‘ma ishqqa ega bo‘ladilar. Birinchidan, Mutlaq haqiqatga, ikkinchidan, aqliy ne‘matlarga muhabbat ana shu ishqning asosini tashkil etadi. Aks holda, ularning o‘z kamoloti sari intilishi bekorchi bo‘lib qolardi.

Demak, insonlar va farishtalar muhabbatining haqiqiy manbai (Sof ezgulik – Alloh)ning o‘zidir. Bu fikrlarni sharhlagan olim N.Komilov yozadiki, «Modomiki, ishq kishining istak-xohishi, sa’yu ko‘shishlarini ifodalari ekan, bu harakat pastta yo‘nalsa (zero, «Ruhning bir yuzi pastga qaragandir...») deydi Ibn Sino), hirsiiy, hayvoniiy quvvatlar g‘olib kelib, ruh yemiriladi. Natijada, inson baxtsizlikka uchrab, tubanlashadi. Bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun hayvoniiy quvvatlarni insoniiy quvvatlarga bo‘ysundirib, nafsii oqilaga to‘la itoat ettirish lozim. Shundagina aql, bu demakkim, ishq rivoj topib, ruh musaffolashadi... Ibn Sino bu xususda deydi: *«Agar odam go‘zal qiyofani hayvoniiy quvvatini qondirish uchungina sevsaa – bu qoralashga, hatto mahkum etilishga loyiqdir... Mabodo, kishi dilkash chehrani aql-idrok bilan sevsaa, hali tushuntirganimdek, buni baland rutbaga erishish vositasi, ezgulikka yaqinlashish, deb hisoblash lozim. Chunki u Birinchi manba ta’sirini – sof ishq chashmasini yanada yaqinroq his etadi, ko‘proq oliymaqom, samoviiy mavjudotlarga yaqinlashadi. Bu esa uning xulqi nafis, dilkash ham navqiron bo‘lishining garovidir»*. Zero, zukko va farosatli kishilar, oqil faylasuflar «qalb mehvarida yashiringan sof muhabbatni tashkil etadigan» hislardan bahra olishga oshiqadilar. Shunday qilib, muhabbat oxir-oqibatda shaxsni ruhan olijanob bo‘lishga yordamlashadi, uni ezgulik manbaiga yaqinlashtiradi. Chinakam ilohiiy ishq ana shudir.

Olimning “Al-ishorat va-t-tanbihot” (“Ko‘rsatma va tanbehlar”) asarida sufiylar amaliyotining ruhiy asoslari ishlab chiqilgan. Sufiiylikning ilk martabasiga kirgan odam tolib deb ataladi. “Bu pog‘onada tolib riyozat va qiyinchiliklarga chidab, uch maqsadni ko‘zlaydi: 1) Haqiqatga aloqasi bo‘lmagan barcha aqidalardan voz kechishi; 2) osiiy (isyonkor) ruhini xotirjam ruhga aylantirishi



(chunki xotirjamlikda fikrlash, tafakkur quvvati ziyoda, xayol munosib, savobli ishlar bilan mashg‘ul bo‘ladi va tuban, gunoh ishlardan uzoqlashadi); 3) muqaddas sirni anglash, mukoshafat (kashf etish) boshlanadi.

Alloma darvishlik darajalari haqida so‘z yuritarkan, ularning ruhlari badanlari qafasidan chiqib, ilohiy olam sari parvoz qilganini mashhur qissa orqali tushuntiradi: “Agar sen musaffo qalblarga rohat bag‘ishlovchi “Salamon va Ibsol”<sup>2</sup> qissasini eshitish baxtiga musharraf bo‘lsang, bilgilki, Salamon – sening bir o‘xshashing va Ibsol sen tasavvuf tariqatida erishadigan yuksak darajangdir. Agar sen darvishlar ahlidan bo‘lsang, bu majoz, masalning ma’nolarini tushuna olasan”.

Ibn Sino ta’limotida moddiy va ma’naviy olam yaxlit qabul etilganidek, insonning jismi ham uning ruhiy holati bilan bir butunlikda yashaydi. Insonning ruhiy kamoloti ma’naviy yuksak-ligining alohida bosqichidirki, u ilm bilan takomillashib boradi va bu yo‘lda botiniy va zohiriy ilmlar inson kamolotiga birday xizmat qiladi.

Abu Ali ibn Sinoning *ifroniy ishq falsafasini* asos qilib olgan tasavvuf ta’limoti keyingi asrlarda yanada rivoj topdi, ingliz olimi J.Trimingemning «Islomdagi tasavvuf tariqatlari» kitobida yozilishicha, Markaziy Osiyoda alohida tasavvuf maktablari shakllanishiga sabab bo‘lgan bir qator allomalarni yetishtirdi<sup>181</sup>.

### ***Savol va topshiriqlar***

- 1. Abu Nasr Forobiyning adabiyotshunoslikka doir asarlarinin sharhlang.*
- 2. Abu Rayhon Beruniyning qaysi asarlarida adabiyotshunoslik masalalari aks etgan.*
- 3. Abu Ali ibn Sino ta’limotida adabiyotning orni.*

---

<sup>181</sup> *Тримингэм Ж.С.* Суфийские ордены в Исламе (под ред., предисл. и примеч. О.Ф.Акимовской). М.: Наука, 1989.

### *Adabiyotlar*

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri / Arabchadan tarjima, izoh va muqaddima muallifi A.Irisov. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 1993.
2. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. T., 1965.
3. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardah qolgan yodgorliklar. T., 1968;
4. Abu Rayhon Beruniy. Qonuni Mas’udiy, I qism, 1–5-maqolalar. T., 1973; II qism, 6–11- maqolalar (A.Rasulov tarj.). T., 1976;
5. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. T.: Fan, 1965. B. 123.
6. Abu Ali ibn Sino. Ishq haqida risola (M.Mahmud, Z.Bahriddiniv tarj). // Sharq yulduzi. 2014. 1-2 son.
7. Abu Ali ibn Sino. Tayr qissasi / Islom tasavvufi manbalari. Nashrga tayyorl. H.Boltaboyev. T.: O’qituvchi, 2005.
8. Beruniy. Hindiston. T.: Fan, 1965.
9. Farabi M. Ilmlernin sayimi. Istanbul: Milliy Egetim basim evi, 1986.
10. Forobiy A. She’r san’ati. T.: G’afur G’ulom nomidagi nashr., 1979.
11. Forobiy. Shoirlar san’ati qonunlari haqida. T.: G’afur G’ulom nomidagi nashr., 1979. B.29.
12. Karimov N. Hindiston, Homer va Beruniy / Adabiyot va tarixiy jarayon. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2012.
13. Mahmudov M. Forobiy va Arastu “Poetika”si // Jahon adabiyoti. 2011. № 3.
14. Qayumov A. Beruniy va adabiyot / Asarlar. 9-jild. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2010.
15. Qayumov A. Beruniy va adabiyot. T., 1973.
16. Xayrullayev M. Uy g’onish davri va Sharq mutafakkiri. T.: O‘zbekiston, 1971.
17. Фараби. Логические трактаты. Алма-ата: Наука, 1975.
18. Фараби. Философские трактаты. Алма-ата: Наука, 1972.

## **6-mavzu. XII-XIII ASRLARDA ADABIYOTSHUNOSLIK TARAQQIYOTI**

### ***Reja:***

- 1. Markaziy Osiyoda tasavvuf adabiyoti va adabiyotshunoslik masalalari.*
- 2. Naqshbandiylik tariqati va adabiyotshunoslik.*
- 3. Mo‘g‘ul istilosi davri adabiyotshunosligi.*
- 4. Oltin O‘rda adabiyotshunosligi.*

***Tayanch tushunchalar:*** *tasavvuf adabiyoti, mo‘g‘ul istilosi davri, Oltin O‘rda adabiyotshunosligi.*

Markaziy Osiyo adabiyotshunosligi asos e‘tibori bilan, o‘zi ish ko‘rayotgan janrlar tizimi va ma‘naiy-ilmiy yo‘nalishi bilan bevosita tasavvuf adabiyotidan oziq olib, u bilan o‘zaro aloqadorlikda taraqqiy topgan. Shunday ekan, o‘rtaosiyolik ulug‘ mutasavvif adiblar faoliyatida adabiyotshunoslikning ayrim jihatlari aks etishi shubhasiz.

*Yusuf Hamadoniy* qadim Turkiston ma‘naviyatida o‘ziga xos dunyoqarash, tasavvuf tizimini barpo etgan, rivojlantirgan olim va orif bir zotdir. Abdulxoliq G‘ijduvoniyning «Maqomoti Xoja Yusuf Hamadoniy», Farididdin Attorning «Tazkiratu-l-avliyo», Abdurahmon Jomiyning «Nafahotu-l-uns», Alisher Navoiyning «Nasoyimu-l-muhabbat» tazkiralarda u haqda ma‘lumot berilgan. Shayx Hamadoniyning «Rutbatu-l-hayot» («Hayot martabasi»), «Kashf», «Risola dar odobi tariqat» («Tariqat odobi haqida risola»), «Risola fi anna-l-kavna musaxxarun lil inson» («Yaratganning hukmidagi borliq va Inson menligi haqida risola»), «Risola dar axloq va munojot» («Axloq va iltijo haqida risola») kabi asarlar yozgani ma‘lum. «Rutbatu-l-hayot» risolasi savol-javob tarzida bayon qilingan bo‘lib, unga berilgan o‘n to‘rt savol va ularning javoblari asosida tartib qilingan. Asarda «halol va harom, moddiylik va ruhoniyyat, dunyo va oxirat,

tubanlik va yuksaklik» kabilar hamda ularning oqibatlari haqida fikr yuritiladi<sup>182</sup>. Allomaning xonaqohi «Xuroson Ka’basi» nomini olgan, Turkiston piri Xoja Ahmad Yassaviy va Xojayi jahon Abdulxoliq G’ijduvoniyni tarbiyalab kamolga yetkazgan shayx Yusuf Hamadoniy xojagon-naqshbandiyya tariqatidagi «xush dar dam», «nazar bar qadam», «safar dar vatan», «xilvat dar anjuman» qoidalarini ham ishlab chiqqan<sup>183</sup>.

Yusuf Hamadoniy tasavvuf maktabining yirik namoyandalaridan biri o‘zbek (turk) tilidagi tasavvuf adabiyotining asoschisi *Xoja Ahmad Yassaviy* (vaf. 1166–67) hisoblanadi. Ilk tahsilni otasi Shayx Ibrohimdan, so‘ng piri Arslonbobodan olgandan so‘ng Buxoroda Yusuf Hamadoniyga shogird bo‘lgan. Biroz vaqt o‘tgach, shayxlikni Abdulxoliq G’ijduvoniya topshirib, Yassiga qaytgan. Xoja Ahmad *yassaviylik (jahriylik)* tariqatining asoschisi va ilk turk mutasavvifi sifatida mashhur. Ahmad Yassaviy ibodat adabiyoti va hikmat janrining boshlovchisi sifatida ilk adabiy maktabga asos solgan. Bu tariqatning asosi, yo‘nalishi va ta’siri masalalari «Maslaku-l-orifin», «Lama’ot», «Samarotu-l-masho-yix», «Javohiru-l-abror», “Faqrnoma” kabi manqaba va risolalarda bayon qilingan. “Devoni hikmat” nomi bilan bizgacha yetib kelgan kitob, asosan, shogirdlari tomonidan tartib berilgan<sup>184</sup>. Kitobdagi hikmatlarning bosh g‘oyasi – “ilohiy ishq borliqning tub sababi va ma’nosi bo‘lgani holda u insoniy muhabbatni rad etmaydi... Haqiqiy ishqdan ko‘zlangan maqsad diydor ko‘rishdir. Haq oshig‘i zuhd va taqvo ahliga o‘xshab jannat ilinjida yashamaydi. Chinakam oshiq bir daqiqa bo‘lsin Haqdan g‘ofil qolmaydi. Chunki g‘ofillik bilan oshiqlikning hech bir bog‘liqligi yo‘q. Zero, oshiqlik kamoliga erishmasdan Haq diydorini mushohada etish imkonsiz. Inson ishq yo‘lida xuddi Layli va Majnun, Farhodu Shirin, Vomiqu Uzro yanglig‘ sodiq bo‘lmog‘i shart:

---

<sup>182</sup> *Xoja Yusuf Hamadoniy*. Hayot mezoni (“Rutbatu-l-hayot”). Tarj.: S.Sayfulloh, N.Hasan, So‘ng so‘z muallifi H.Boltaboyev. T., 2003. B.4.

<sup>183</sup> *Xoja Abdulloh G’ijduvoni*. Maqomoti Yusuf Hamadoniy. T., 2003. B. 80-81.

<sup>184</sup> *Fitrat*. Ahmad Yassaviy. Yassaviy maktabi shoirlari to‘g‘risida tekshirishlar tekshirishlar / Tanlangan asarlar. 2–jild. T.: Ma’naviyat, 2000.

*Qul Xoja Ahmad zohid o'lma, oshiq bo'lg'il,  
Bu yo'llarda bebok yurma sodiq bo'lg'il.  
Layli Majnun, Farhod Shirin, Vomiq bo'lg'il,  
Oshiq bo'lmay Haq diydorin ko'rsa bo'lmas"<sup>185</sup>.*

“Devoni hikmat”da ilohiy ishq g‘oyasi va ma’rifiy mazmun yetakchilik qiladi. Ushbu to‘plamga va “Boqirg‘on kitobi”ga kirgan yassaviylik maktabiga mansub boshqa shoirlarning asarlari xususida ham shu fikrni aytish mumkin<sup>186</sup>.

«Faqrnoma» risolasida yassaviylik tariqatining asoslari aks etgan (ayrim mutaxassislar uni Yassaviyga nisbat berishadi). Unda “faqr Haq taoloning bog‘i vaslidin daraxte turur, ul daraxtning butog‘i aql turur, reshasi (yaprog‘i) hidoyat turur, mevasi xayru saxovat turur, soyasi qanot turur, oning bo‘yi shavq turur, oning bargi har kimga tegdi – amali solih hosil qildi, har kim mevasidan yedi – hayoti jovidon topti va agar bo‘yi (hidi) har kimga tegsa mastu hayron bo‘lg‘ay va agar soyasida o‘rin olsa oftobi haqiqat anga tushgay” degan tavsif bilan faqrlilikning olti odobi, sakkiz maqomi va yetti martabasi keltiriladi<sup>187</sup>. Ayni mana shu talqindan so‘ng sufiylar orasida tasavvuf bir daraxdirki, uning tomiri shariatda, tariqat uning shoxlari, ma’rifat yaproqlari bo‘lsa, haqiqat uning mevasidir, degan poetik ifoda ommalashgan. Ayni jihatga urg‘u bergan professor Abdurahmon Go‘zal yozadi: “Yassaviy ifodalarida nasihat, irshod va tanqid o‘zaro uyg‘unlashgan. Shuning uchun ham u faqat idel mohiyat kasb etgan “yaxshi” va “yaxshilik”ka emas, “yomon” va “yomonlik” xususida ham to‘xtaladi. Buni yolg‘iz diniy bir doirada izohlash albatta to‘g‘ri bo‘lmaydi”<sup>188</sup>

“Faqrnoma”ning XVII asrga tegishli qo‘lyozmasi saqlanib qolganiga qaramay u yuz yillar davomida asosiy ma’rifiy-nazariy adabiyot sifatida qo‘llanilgan. Ayniqsa, Yassaviy maktabi shoirlari ushbu asarni o‘zlariga nazariy manba qilib olgan holda Xoja Ahmad hikmatlariga ergashib, bu adabiy janrni XX asr

<sup>185</sup> Go‘zal A. Yassaviy “Faqrnoma”si. T.: Navro‘z, 2014. B.37.

<sup>186</sup> Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat / Nashrga tayyorl. R.Abdushukurov. T., 1992. 208 6.

<sup>187</sup> Ko‘rsatilgan asar. B. 11.

<sup>188</sup> Go‘zal A. Yassaviy “Faqrnoma”si. T.: Navro‘z, 2014. B.27.

boshlariga qadar davom ettirganlar. Biroq ularning ayrimlari bizgacha yetib kelmagan, faqat birgina XVII asrda kitobat qilingan, Hakim Sulaymon otaga nisbat berilgan “Boqirg‘on kitobi”dagi hikmatlarning ayrimlari shu maktabning boshqa ijodkorlariga ham tegishli.

Yassaviylikning tariqatdagi izlari va adabiyotdagi davomchilari xususida so‘z yuritganda fikr Hakim Sulaymon ota Boqirg‘oniyga bog‘lanadi. Chunki birgina “Boqirg‘on kitobi” guvohligida ham ushbu masalani hal qilish bilan cheklanmay Hazrat Navoiy tilga olgan “*Borg‘onlar qaytmas bo‘ldi, magar manzil andadir*” baytining o‘ziyoq muallifning adabiy darajasidan xabar beradi. Garchi yassaviylik yo‘li adabiy yo‘nalish emas, balki ma‘rifiy xarakterda bo‘lsa ham badiiy adabiyot taraqqiyotiga o‘ziga xos hissa bo‘ldi. Fitrat XX asr boshlarida yozganidek, o‘zbek adabiyotida “Yassaviy maktabi” deb atalgan adabiy maktabning yaraptilishiga sabab bo‘ldi. Bu maktabning Shams O‘zgandiy, Iqoniy, Qul Ubaydiy, Xudoydod, Qul Sharif, Faqiriy, Azim Xoja\* kabi davomchilari Yassaviy yo‘lidan borib, hikmat janrining takomil topishiga sababchi bo‘ldilar. Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari” (1-jild) asarida yozishicha, “Bu (o‘zbek adabiyoti namunalari – Hamidulla Boltaboyev) namunalarning eng burung‘isi “Qutadg‘u bilig” kitobidir. Ondan keyin qatorlanib, “Hibatu-l-xaqoyiq”, “Abu Muslim” (mil. 1155), Yassaviy hikmatlari, Boqirg‘on hikmatlari”, milodiy 1233 da Ali otli bir kishi tomonidan yozilgan “Yusufu Zulayxo” kitobi, eng so‘nggida yaralgan “Qisasu-l-anbiyo” kitobi keladir”<sup>189</sup>.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Yahmad Yassaviy asos solgan jahriylik tariqati asosida bir necha tariqatlar (bektoshiylik va boshqa) vujudga kelgani kabi adabiy maktabi ta’sirida Yunus Emro (turk), Qul Ali (tatar, “Yusuf va Zulayxo” muallifi, 1233), Maxtumquli (turkman) singari yetuk shoirlar shakllandi.

Qur‘oniy syujetlar asosida yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” dostoni Qul Ali qalamiga mansub bo‘lib, asarning til xususiyatlariga ko‘ra “Turkiy Tafsir” (XIII

---

\* R o‘yxat “Boqir g‘on kitobi”ga hikmatlari kirgan shoirlar asosida tuzilgan.

<sup>189</sup> Fitrat A. O‘zbek adabiyoti namunalari. 1-jild. Toshkent-Samarqand, 1928. Qayta nashri: T.: MUMTOZ SOZ, 2012.

asr)ga yaqin bo'lgani uchun olimlar asarni mana shu davr adabiy hayotiga mansub deb biladilar. Dostonning manbalari xususida so'z yuritilganda musulmon olimlari uni Qur'oni karimning 12–surasi (Yusuf) va Firdavsiy dostoni bilan bog'lashadi. Undan keyin yaratilgan Jomiyning dostoni va Durbekka nisbat berilgan “Yusuf va Zulayxo”dan ham Qul Alining ta'sirini izlaydilar. Adabiy ta'sir masalalari qanday bo'lishidan qat'i nazar turkiy tilda ushbu dostonning avvalgi namunalari uchramaydi. Dostonning “vatani” xususida so'z ketarkan, Fuod Ko'prulu asardagi yassaviylik izlarini tahlil qilib, uni Markaziy Osiyo bilan bog'laydi<sup>190</sup>. Bu qarash A.N.Samoylovich va Y.E.Bertels tomonidan ham quvvatlangan<sup>191</sup>. Ayniqsa, bu asarni uning forsiy syujetlarini yaratgan Abdulloh Ansoriy (“Anisu-l-muridin”) va Jomiyning shu nomdagi dostoni bilan bog'lovchilar ham yo'q emas. Muallif dostonda adabiyotshunoslik uchun muhim bo'lgan estetik ideal muammosini yuzaga chiqarib, hukmdorga xos sifatlar ichida dastlabkisi sifatida adolatli bo'lishlikni, so'ngra go'zallik va donolik, bahodirlik va shirinsuxanlikka e'tibor qaratilishi lozimligini ta'kidlaydi<sup>192</sup>. Yusufning tashqi go'zalligi bilan uning qalbi uyg'un ekani dostonning musulmon versiyalarida ulug'lansa, ushbu syujetga asos bo'lgan nasroniy qissalarda esa Yusufning go'zalligini ikonallashtirilgani – sanamlar qiyofasiga tenglashtirilgani uning motivlari turli xalqlar tomonidan turlicha talqin qilinganini ko'rsatadi\*. Abdulloh Ansoriy Yusuf go'zalligini ilohiy tajalli orqali tushuntirsa, Qul Ali syujetida uning insoniy sifatleri ulug'langanini kuzatamiz.

**Naqshbandiylik tariqati va adabiyotshunoslik.** Markaziy Osiyodagina emas, balki dunyoga keng tarqalgan tasavvufiy *Xojagon tariqatining* shakllanishida ham Shayx Yusuf Xamadoniy maktabining alohida o'rni bor. Chunki ushbu maktab ta'limoti *Xojayi Buzurg Abdulxoliq G'ijduvoni* (1103 y.t.)

---

<sup>190</sup> *Köprülü M.F.* Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar. İstanbul, 1986.

<sup>191</sup> *Самойлович А.Н.* К истории литературного среднеазиатского тюркского языка / Мир-Али-Шир. Л., 1928. С.18-19; Бертельс Е.Э. Литература народов Средней Азии от древнейших времен до XV в. // Новый мир. 1939. № 9. С. 275.

<sup>192</sup> *Хусамов Н.Ш.* Поэма “Кысса-и Йусуф” Кул Али. М.: Наука, 1979. С.44.

\* Nasroniylik va G'arbiy Yevropa adabiyotshunosligi manbalarini o'rganganda “Повесть об Иоасафе”, “Иосиф Прекрасный” kabi asarlar zamiridagi qarashlarga murojaat qilamiz.

tomonidan davom ettirilar ekan, Yusuf Hamadoniy asos solgan dastlabki to‘rt rashha (ulug‘lik tomchisi) "xush dar dam" (har damda xushnudlik), "nazar bar qadam" (har qadamdan ogohlik), "safar dar vatan" (vatanda safar), "xilvat dar anjuman" (anjumanda xilvat) G‘ijdivoniy tomonidan sakkizga yetkazilgan: "yod kard" (yodga olish), "boz gasht" (xushnudlik), "nigoh dosht" (nigoh solish), "yoddosht" (yod olish). Abduxoliq G‘ijdivoniyning "Maqomoti Yusuf Hamadoniy" asarida Yusuf Hamadoniyga ergashgan Hasan Andoqiy, Xoja Abdulloh Barrafiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Aliyona va o‘zining nomini keltirib: "Bu azizlarning yo‘li barcha ofatlardan xolidir. Unda na ta‘til (bo‘shliq) rangi, na tashbih hidi bor (Allohning sifatlarini inkor etmaydilar va Uni boshqa narsaga o‘xshatmaydilar). Aksincha, faqat xolis hidoyat va ma‘rifat nuridan iboratdir", deb yozgan<sup>193</sup>.

Xojagon ta‘limoti haqida Faxriddin Ali Safiyning "Rashahotu ayni-l-hayot", Muhammad Porsoning "Faslu-l-xitob" asarlarida bu yo‘l davom ettirilgan. Xoja Muhammad Porso "Faslu-l-xitob" asarida "Hazrati Xoja Abdulxoliqning yo‘llari tariqatda hujjat hisoblanadi", deb yozgan<sup>194</sup>. Shuning uchun silsilaning boshi sifatida Yusuf Hamadoniy ko‘rsatilsa ham, lekin xojagon tariqati bevosita Abduxoliq G‘ijdivoniy ta‘limotidan boshlangan, keyin esa Amir Temur zamonida buyuk sohibqiron va uning avlodlarini bu tariqat pirlariga ergashishi tufayli kengayib, jahonga Bahouddin Naqshband nomi bilan tarqalgan.

**Mo‘g‘ul istilosi davri adabiyotshunosligi.** Insoniyat tarixida sharaflari va olamshumul muhim voqealar bo‘lgani kabi tarixida "eng qora va kir" (Abdulla Qodiriy) davrlar ham bo‘lganki, barcha manbalarda XIII–XIV asrning birinchi yarmidagi *Mo‘g‘ul istilosi davri* shunday tilga olinadi. Dunyo tamaddunining kulini ko‘kka sovurgan (o‘zi bosib olgan joylarda), Xurosondan to shimoldagi dengizlargacha, Hindistondan to Kafkaz va Kafkazorti yurtlarigacha faqat qirg‘in va ofatlar sababchisi bo‘lgan Chingizxon davri madaniyati tumanli tasavvur

---

<sup>193</sup> Xoja Abdulxoliq G‘ijdivoniy. Maqomoti Yusuf Hamadoniy. T.: Yangi asr avlodi, 2005. B.12.

<sup>194</sup> Qarang: Hasaniy M., Razzoqova M. Xojagon tariqati va Xoja Hasan Andoqiy. T.: 2003. B.13.



qilinadi. Shuning uchun ham barcha darsliklarda (u sho‘ro davri mahsulimi yoki mustaqillikdan keyin yaratilgan bo‘lsin; xorijdami yoki vatan ichkarisida) bir ovozdan istibdod va to‘xtalish (turg‘unlik) davri sifatida qabul etilgan. Bu fikrga dalil sifatida ulug‘ shoir va mutasavvif Najmiddin Kubroning shahid bo‘lishi munosabati bilan yozilgan *“Ta’rifi shahri Xorazm”* asarida yozilgan so‘zlarni keltirish mumkin: *“Chingiz alayhi-l-la’naning qadami tekkanda (Xorazm davlati hududida, 1221-yil – Hamidulla Boltaboyev) o‘n ikki ming masjidi jome’, har masjidda ikki yuz (ba’zilarida yuz ellik) hofizi qur’onxon, to‘rt yuz ming yetti yuz yetmish yettita amaldagi masjid (masjidi hayit), o‘n ikki ming xonaqoh... uch ming yetti yuz mashoyixi kibor, abdollaru devonalar benihoyat hisobsiz edilar... to‘rt yuz munajjimi komil, ming uch yuz kotib... bor edi. Bu nav’ obodon viloyatlarni o‘n yetti yil ichida Chingiz alayhi-l-la’na buzdi”*<sup>195</sup>. Kuchli ehtiros va nadomatlar bilan sof o‘zbekcha bitilgan bu tarixchadan Chingizxon istilosiga qadar mavjud bo‘lgan ilmiy-madaniy muhit haqida tasavvur olish mumkin. Biroq ulug‘ xalqlar shoirlarining ovozi o‘chgan, san’atkorlarning sozlari tingan, adib va olimlarning qalamlari singan bo‘lishi mumkin bo‘lmagan holdir. Bir yerda bo‘lmasa ikkinchi joyda, bir tilda bo‘lmasa ikkinchi tilda (bu yurtlarning istiloga qadar adabiyotlari kamida uch tilli bo‘lganini eslang), adabiyot namunalari yozib qoldirilgan, davr adabiyotshunosligining ayrim jihatlari, adiblari ijodlarining xususiyatlari, tarixiy va diniy asarlar qatida qolgan ijod namunalari xususida so‘z yuritishga kasb mas’uliyati jihatidan ham burchlimiz.

Har bir hokimiyat egasi o‘zining qonuniy hukmdor ekanini asoslash maqsadida tarixiy bitiklar yozdirgan. Xuddi shu ma’noda mo‘g‘ul istilosi tarixi aks etgan Juvayniyning *“Tarixi jahongusho”*, Ibn al-Asirning *“Tarixi komil”*, Nasaviyning *“Siyрати Jaloliddin Mankburni”*, Rashididdinning *“Jome’u-t-tavorix”* asarlari birlamchi manba hisoblanadi. Ulug‘ sulton Jaloliddin Manguberding kotibi Nasaviyning tarix kitobida davr adabiy hayotiga oid ko‘plab ma’lumotlar keltiriladi. Muqaddima va 108 bobdan iborat asarning dastlabki 4 bobi

---

<sup>195</sup> Qarang: Ta’rifi shahri Xorazm / Z.Bunyodov. Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar. Xorazmshohlar davlati. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2012. B.316-318.

mo'g'ullarning kelib chiqishi, Chingizxonning paydo bo'lishi va ko'tarilishi, uning Mo'g'uliston va Xitoydagi istilosi haqida qisqa hikoyalar bo'lsa, qolgan qismlari bevosita Movaraunnahr tarixiga doir voqealardir. Asardagi adabiy materiallardan ma'lumki, Nasaviy asarini arab tilida yozgani holda forsiy va turkiy tilni hamda bu tillardagi tarixiy-adabiy manbalarni yaxshi bilan. Nasaviy o'z asarida shoirlar Abul Muzaffar Abivardiy, Nizomiy Ganjaviy, Zahiriddin Faryobiy, Afzaliddin Koshoniy nomlarini tilga oladi, ularning davr adabiy muhitidagi o'rnini aniqlashtiradigan ma'lumotlar beradi. Shuningdek, Haririyning "Maqomat", Badiuzzamonning "Munshaot", Utbiyning "Tarixi Yaminiy", Abushsharaf Munshiyning "Tarjumai tarixi Yaminiy", Bahromshohiyning "Kalila va Dimna" va boshqa asarlar nomlarini tilga olish bilan ulardagi timsol va adabiy hodisalarni qalami ostidagi tarix voqealariga kiyoslaydi, tasvirdagi adabiy-madaniy muhitni yoritishda foydalanadi<sup>196</sup>. Mashhur arab shoirlari Abu Tammom, Mutanabbiy, Abu Firas kabilarning mumtoz she'rlaridan maroq bilan ko'chirmalar keltiradi.

Tarix kitoblaridan ma'lum bo'lishicha, sulton Jaloliddinning Nasaviydan boshqa kotibi ham bo'lgan. Uning ismi Xoja Nuriddin Zaydariy Xurosoniy bo'lib, fors tilida "*Nafsat al-masdur fi futur zaman as-sudur va zaman sudur al-fudur*" nomli biografik asar yozgan. Mazkur asar mazmuni va muallifi hali tarixchilarimizga noma'lum bo'lgani uchun bu uni ayrim olimlar Nasaviy asariga aynanlashtirib, ikkinchi kitobi deb qarasar, ayrimlari "Siyrat..."ning boshqa nomi degan xato talqinlarga boradilar.

Xorazm adabiy tarixi manbalarini qiyosan o'rganish natijasida ilm ahliga faoliyati noma'lum bo'lgan va asarlari bizgacha yetib kelmagan yuzlab nomlarni uchratish mumkinki, ularning faoliyatini o'rganish yana milliy adabiyotshunosligimiz zimmasida qoladi.

---

<sup>196</sup> Nasaviy. Jaloliddin Manguberdi. T., 2008.

“*Tarixi jahongusho*” (“*Jahongirlik tarixi*”) asari<sup>197</sup> muallifi Aloiddin Atomalik Juvayniy (1226–1283) zamondoshlari va keyingi davr muarrixlarining ma’lumotiga ko‘ra, sohibdevonlar sulolasiga mansub bitikchi, munshiy, tarixnavis bo‘lishi barobarida yaxshigina adib ham edi. Markaziy Osiyo va Eron, Mo‘g‘uliston va Xitoyning XIII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini aks ettirgan «*Tarixi Jahongusho*» (1260) asari 3 jilddan iborat bo‘lib, 1–jild mo‘g‘ullar tarixi, Chingizxonning davlat tepasiga kelishi va istilochilik yurishlaridan to Kuyukxon davri (1246–48)gacha kechgan voqealar, shuningdek, Jo‘jixon, Chig‘atoy va avlodlarining tarixini aks ettiradi; 2–jild Xorazmshohlar tarixi va Movarounnahr va Xurosondagi mo‘g‘ul hukmdorlari (1258 yilgacha) kechmishiiga bag‘ishlangan. 3–jildda Huloguxon tomonidan Eronning zabt etilishi (1256–58), Ismoililar davlati tarixi batafsil bayon etilgan. Markaziy Osiyo tarixi uchun asarning 1–2 qismlari alohida qimmatga ega.

Muallif mo‘g‘ul hukmdorlari talabi bilan qalam yuritgan bo‘lsa ham ular tomonidan amalga oshirilgan qatli omlar, qirg‘inbarot janglarga xolis nazar bilan qarab turolmaydi. Ochiq so‘z bilan ayta olmagan so‘zlarni nazmiy parchalar vositasida kitobxonlarga yetkazadi: “She’r: [*Bilimsizlar belini yostiqa suyagan kuni bilimli kishilarning bellari sindi*]. *Olimlar xayrli ishlar bilan mashg‘ul bo‘larkan, ular kun kechirish qayg‘usiga tushib qoldilar, johillar esa ne‘matlar ichida suzmoqdalar. Hur kishilar oziqsiz, yigitlar surgunda, kelib chiqishiga ko‘ra aslzodalar erishganlarini qo‘lidan oldirgan, hisoblilar o‘z hisoblaridan adashgan, aqllilar falokat hududiga tushib qolgan, tadqiqotchilar o‘z mavzularining asiri bo‘lgan, bilimdonlar johilning xizmatiga kirgan, yetuk barkamol kishilar razillik kasaliga duchor bo‘lgan, maqom sohiblari g‘aflatda qolib zalolat yo‘liga o‘tgan, yaxshini yomondan farqlay oladigan kishilar vijdotsiz, razillar qo‘liga asir bo‘lib tushgan davr edi*”<sup>198</sup>.

---

<sup>197</sup> تاريخ جهان كشاي جويني. عظاملك علاالدين بن بهالدين محمد بن شمسالدين محمد جويني. جيلد ۲. ص. ۸. ۱۹۷  
(*Tarixi jahongushoi Juvayniy*. Atomalik Alouddin binni Bahouddin Muhammad binni Shamsiddin Muhammad Juvayniy. Tehron, 1370. 2–jild. B.8.

<sup>198</sup> *Juvayniy A. Tarixi Jahongusho / Jahon fotihi tarixi*. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2015.

Anglashiladiki, asarda bunday nazmiy parchalar bilan bir qatorda Qur’oni majiddan keltirilgan oyati karimalar, hadislardan namunalar ham talaygina. Ular orqali muarrix tarix tili bilan ayta olmagan fikrlarni badiiy adabiyot vositasida o‘quvchilarga havola qiladi, kitobxonni mushohada qilishga, tarix haqiqatini butun ko‘lami bilan his qilishga undaydi.

Mazkur tarix tadqiqotchisi Muhammad Qazviniyning “Maxsus muqaddima”sida Juvayniylar xonadoni va ular bilan yaqin aloqada bo‘lgan shoirlar, xususan, xorazmshohlar saroyida ijod qilgan Rashididdin Vatvotdan tortib mashhur Shayx Sa’diygacha tasvirdagi davr ijodkorlari xususida ham so‘z yuritadi. Ushbu lavhalarni o‘qigan kitobxon mazkur tarixiy manba adabiyotimiz kechmishini o‘rganish uchun ham juda zarur ekanini tushunib yetadi va undan adabiyot tarixini tadqiq etish uchun ham muhim iqtiboslar va fikrlar ola biladi. Tarix kitoblari Sulton Sanjar va Xorazmshoh Otsiz o‘rtasidagi jangu jadallardan so‘z yuritsa, tazkiralarda Hazoraspni qamal qilgan Sulton Sanjar saroyi shoiri Anvariyning bir ruboiysi keltiriladi:

*Ey shoh, hame mulki zamin hasb turost,  
Va z-davlatu iqbol jahon kasb turost.  
Emruz bik jumla Hazorasp begir,  
Fardo Xorazmu sad hazor asp turost.*

Tarjimasi:

Ey shoh Sanjar mulki jahon mavjudot sengadir,  
Taqdir va tole’ yor bo‘lsa, koinot ham sengadir.  
Bir hamla ila bu kun Hazoraspni ol,  
Ertaga butkul Xorazmu ming ot sengadir.

Unga javoban Rashididdin Vatvotning o‘z hukmdori qudratini vasf etib yozgan:

*Gar xasm tu ay shoh shud Rustam gard*

*Yak xar z-Hazorasp tu natavonad bo 'rd'*<sup>199</sup>

baytini o'qiymiz. Biroq bizdagi kitoblarda bu bayt "Xorazmshohimiz Rustami doston kabidir beshak, Shu sabab Hazoraspga kirolmagan hech bir eshak"<sup>200</sup> kabi tarjima qilinganini uchratamiz. Juvayniy tarixida esa, Anvariyning yuqoridagi maktubiga javoban aytilgan bayt mazmunan [Ey shoh, sening raqibing Rustam kabi pahlavon bo'lsa-da, Hazoraspdan hatto bir eshak ham ololmaydi] kabidirki, bu yuqoridagi tarjimadan ko'ra aniqroq. Mazkur tarixda keltirilgan forsiy baytning tarjimasi ham mantiqan to'g'ri, ham badiiy san'at – tanosub nuqtai nazaridan birinchi misraga uyg'un. "Tarixi jahongusho"da bu kabi aniqlik bilan aytilgan hikmat va nazmiy namunalar talaygina. Ayni tarix bag'ridagi adabiy parchalarning ilmiy muomalaga kiritilishi adabiyotimizni boyitishga ham o'z hissasini qo'shishi shubhasiz.

Juvayniylar sulosasi haqida *Xoja Nosiriddin Tusiy* "Avsofu-l-ashrof" nomli asarini Shamsiddin Muhammad Juvayniy nomiga, nujum (yulduzlar) haqidagi forsha "Tarjimai samarai Batlimus"ini esa Shamsiddinning o'g'li Isfahon va Ajam Iroqi boshqaruvchisi bo'lgan *Xoja Bahouddin Muhammad* nomiga bag'ishlagan edi. Eronlik olim Muhammad Qazviniyning yozishicha, *Safiuddin Abdulmo'min Yusuf b. Faxir Urmaviy* "musiqada ismi zarbulmasal bo'lgan edi, bu borada ustozlarning ustози hisoblanadi va bir qancha muhim ahamiyatli asarlar yozdi", deb ma'lumot beradi. Safiuddin keyinchalik ham Alouddin Atomalik va akasi Shamsiddin Juvayniyning yaqin suhbatdoshlaridan biri bo'lib qoldi. Bag'dodning rasmiy yozishmalar mudirligi unga berildi. Lekin 1294-yil 28-yanvarda hibsonada vafot qildi. Safiuddin musiqa haqidagi "Risoi Shurfiya"ni *Xoja Shamsiddin Juvayniyning* o'g'li Shamsiddin Xorun nomiga atab yozdi. Boshqa bir muallif Kamoliddin Misam Bahroniyning (vaf. 679/1280–81) mashhur

199 ۸. تاريخ جهان كشاي جويني. عظاملك علاالدين بن بهالدين محمد بن شمسالدين محمد جويني. جيلد ۲. ص 199

Tarixi jahongushoi Juvayniy. Atomalik Alouddin binni Bahouddin Muhammad binni Shamsiddin Muhammad Juvayniy. Tehron, 1370. 2-jild. B.8.

200 *Rahimov J.* Vatanning sheryurak bahodiri. T.: O'qituvchi-Talqin, 2015. B.39.

“Nahju-l-balog‘a” nomli kitobiga yozilgan sharhi ham Alouddin Atomalik nomiga atab qalamga olingan edi. Qozi Nizomiddin Isfahoniyning “Shurafu ayvoni-l-bayon fi sharafi bayti sohibdevon” nomli asari ham mana shu sulolaga bag‘ishlangan bo‘lib, sohibdevon Shamsiddin Muhammad Juvayniy, uning ukasi Atomalik Juvayniy va ularning otalari Bahouddin Muhammadning madhidan iborat qasida va g‘azallar majmuasi hisoblanadi. Kitobda muallif yuqorida ismlari zikr qilingan kishilar va ularning didi, adabiyotga munosabati haqidagi she‘rlarga ham o‘rin bergan.

Ibn Sayqal al-Jazariy nomi bilan tanilgan Shamsiddin Muhammad b. Nasrulloh b. Rajab Haririy ellik maqomadan iborat bo‘lgan “Maqomoti Zaynabiyya” nomli asarini ularning nomiga bag‘ishlab yozgan edi. Bulardan tashqari, Muhammad Qazviniy Shayx Sa‘diy Sheroziyning bu oila bilan munosabati haqida keng to‘xtalib, ular haqida yozgan qasida va asarlaridan ko‘plab misollar keltirgan. Sa‘diyning Atomalik Juvayniy va akasi Shamsiddin bilan bo‘lgan aloqalari haqida mashhur shoir “Devon”ining kotibi ikki hikoya keltiradiki, ular davr adabiy hayotining manzarasini tasavvur qilishga yordam beradi<sup>201</sup>.

Markaziy Osiyo nomini dunyoga tanitgan alloma va adib Ahmad ibn Umar *Najmiddin Xivaqiy Xorazmiy* (1145–1221)dir. Shayx *Kubro* (ulug‘ shayx) unvon bilan mashhur bo‘lgan alloma kubroviylik (yoki zaxabiylik) tariqatiga asos solgan. Majididdin Bog‘dodiy (Farididdin Attorning piri), Sa‘diddin Humaviy, Bobo Kamol Jandiy, Sayfiddin Boxarziy, Najmiddin Roziy kabi shogirdlar yetishtirgan. «Usuli ashara», «Risola ilal hoyim», «Favoyihu-l-jamol» kabi ilmiy risolalar va ruboiylar yozgan. Alloma aqli avval va aqli kabir xususida so‘z yuritib, aqli avval ma’naviy ilm va g‘aybiy hisni topib, qalbda ma’nolar zuhur etishi va ma’no manbai (qalb)da barham topgunicha solik to‘rt xil holatni boshdan kechirishini ranglar orqali tushuntiradi: oq rang – islom, sariq rang – iymon, zangori – ehson va ko‘k rang – yaqin (ishonch) belgisidir. Ruhning bir rang (bosqich)dan boshqa

---

<sup>201</sup> Bu hikoyalar uchun qarang: *Muhammad Qazviniy*. Maxsus muqaddima / *Juvayniy A.* Tarixi Jahongusho / Jahon fotihi tarixi. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2015. B. 61–62.

rangga tajrijiy ravishda o'tishi uning takomilini anglatadi<sup>202</sup>. "Favoyihu-l-jamol" asarida esa yetti rang ruhiy holat belgisi sifatida berilgan: tasavvufdagi ilk bosqich e'tiqod va iymon, ko'pincha, yashil, qizil va qora ranglar bilan izohlanadi. Yashil rang – qalbning barhayotlilik ramzi, undan keyin keluvchi qizil – aqiq tosh rangi esa aqli kabirning rangidir. "Favoyihu-l-jamol"da yozilishicha, *"aqli kabirning rangi ustida aqiq tosh yanglig' qizil nuqtalari bor bir qora lavha kabi peshonada zuhur bo'ladi... bu rang g'aybat holida ko'rilgan sayyorni parishon qiladi, parchalaydi. Buning sababi: zaifning kuchliga qarashga kuchi yetmaydi. Ammo bu holat boshlang'ich paytda emas, tasavvufiy hayotning intihosida sodir bo'ladi. Rangdan-rangga o'tib oxiri oq va rangsizlik sodir bo'lishi solikning rang-baranglikdan qutilib, yakranglikka – vahdat olamiga qo'shilishiga ishoradir"*<sup>203</sup>. Mumtoz adabiy namuna-larni uqishda asqotishi mumkin bo'lgan bunday ranglarning ramziy ma'nolari har bir adabiyotshunos uchun amaliy qo'llanma bo'la oladi. Chunki kubroviylik tariqatining izlari aks etgan badiiy adabiyot namunalari sifatida Pahlavon Mahmud ruboiylari va Ogahiyning ayrim g'azallari tilga olinadiki, ularning ma'no qatlamlarini tushunishda Shayx Kubro "yordamga keladi".

Puryorvaliy laqabi bilan mashhur bo'lgan *Pahlavon Mahmud* (1247–1325) falsafiy va sufiyona ruboiylari bilan bir qatorda "Kanzu-l-haqoyiq" (Haqiqatlar xazinasini) nomli masnaviy yozganligi Lutf Alibek Ozarning «Otashkada», Ahmad Roziyning «Haft iqlim» asarlarida aytilgan<sup>204</sup>. "Kanzu-l-haqoyiq" tasavvuf masalalarida she'riy til bilan muhokama yuritishga bag'ishlangan falsafiy masnaviyalar jumlasidan bo'lib, ko'p o'rinda muallif o'z mulohazalarini kichik hikoya va rivoyatlar bilan asoslashga harakat qiladi<sup>205</sup>.

Pahlavon Mahmud ruboiylari serhikmatlilik tufayli jaholatga va nodonlikka qarshi otilgan o'q sifatida shuhrat topgan:

---

<sup>202</sup> Komilov N. Najmiddin Kubro. B.22.

<sup>203</sup> Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. v.12.

<sup>204</sup> Manbalarda Pahlavon Puryorvaliy zikri / Tarj. Va tabdil muallifi J.Mahmudov. T., 2007.

<sup>205</sup> Ishoqov Y. Pahlavon Mahmud / O'zbek adabiyoti tarixi. 1-jild. T.: Fan, 1978. B.169.

*Oqil aqli hirsga qachon bo‘lgandir gado,  
Hasadchi hasadidan qachon mis bo‘lgan tillo.  
Nomard it kabidir, mard esa daryoi muhit  
Ayt-chi, it nafasidin iflos bo‘larmi daryo?*

Ruboiydagi “daryoi muhit” timsolini sufiylar vujud dunyosini nur daryosi doim poklab turadi, vujudning botini nurdir, shirkdan xalos bo‘lish va kasrat (kasrat – ko‘plik)dan qutilish uchun ushbu nurga yetishish, uni ko‘rmoq va mazkur nur bilan olamga boqmoq lozim, deb talqin qilishadi. Shunday ekan, daryoi muhitni bir “it nafsli nomard” ifloslantira olmaydi.

Tasavvufiy adabiyotlarda juvonmardlik Pahlavon Mahmud ta’limoti bilan bog‘langani aytiladi. Jumladan, Eron olimi Muhammadkozim Yusufpur shunday yozadi: *“Tasavvuf tariqatining ko‘p sonli tarmoqlari ichida ko‘proq jamiyat orasida yoyilgan va rivoj topgan oqimlaridan biri futuvvatdir. Tasavvuf xoslar (ma’rifatli tabaqa) orasida tarqalgandan so‘ng futuvvat odobi bilan ko‘cha va bozorlarga kirib bordi. Darvoqe, futuvvat bu avomona tasavvuf bo‘lib, uning rasm-rusumlari oddiy va amaliy, ya’ni kosib-hunarmandlar, dehqonlarga tushunarli bo‘lgan”*<sup>206</sup>. Ehtimol, shuning uchun bo‘lsa kerak, Pahlavon Mahmudning sufiyona ruboiylari ham xalq orasida mashhur bo‘lgan.

XII–XIII asrning suronli davrida yaratilgan adabiy manbalar, tabiiyki, o‘zidan avvalgi davrlarga nisbatan kam. O‘sha oz sonli manbalar orasida yashagan davri doimiy munozaralarga sabab bo‘lib kelyotgan *Ahmad ibn Mahmud Yugnakiyning* yagona asari “Hibatu-l-haqoyiq” (“Haqiqat sovg‘alari”) ta’limiy doston sifati bilan adabiyot tarixiga kirgan. Asarda ilm manfaati, ilm o‘rganish haqida Payg‘ambarimiz (s.a.v.) aytganlari, til madaniyati kabi masalalar aks etgan. Masnaviy usulida yozilgan bo‘lishiga qaramay, asar voqeaband emas, ilm manfaati, jaholat zarari, tilni tiyish, dunyoning o‘zgarib turishi, saxovat va baxillik, kibr va hirsning zarari va boshqa masalalar xususida hadislarga tayangan

---

<sup>206</sup> *Muhammadkozim Yusufpur*. Naqdi mufiy. Tehron: Ro‘zna, 1380. B. 119.



holda so‘z yuritadi. Har bir bo‘lim va boblar sarlavhasi o‘rnida arab tilida hadisning mazmuni berilib, so‘ngra uning she‘riy sharhi bayon etiladi.

Hazrat Alisher Navoiy qalb ko‘zi ochiq shoir deb tavsif berish bilan birga “*Va aning tili turk alfozi bila mavoizu nasoyihqa go‘yo ermish. Xeyli elning muqtadosi ermish. Balki aksar turk ulusida hikmatu nuktalari shoye’dur. Nazm tariqi bila aytur ermish, aning favoididindur:*

*Ulug‘lar ne bersa yemasman dema,  
Ilik sun, og‘iz ur, yemasang yema!”<sup>207</sup>*

Shuningdek, 14 bobdan iborat asarning hammasi bir xil ikkilik (masnaviy) shaklida emas, ko‘p o‘rinlarda muallif turk she‘riyatidagi an‘anaviy to‘rtlik shaklidan foydalangan, vazni ko‘p hollarda mutaqorib vazniga tushadi. “Hibatu-l-haqoyiq” asarida “so‘z durlarini tergan”, “tahsinga loyiq so‘zlarni qadrlagan” shoirlar ulug‘lanadi, aksincha, o‘z so‘ziga e‘borsiz, uni palapartish ishlatgan suxan egalari tanqid ostiga olinadi.

XIII–XIV asrlar adabiyotida tarixnavislik bilan bir qatorda diniy-tasavvufiy asarlar yozish bir muncha kengaydi. Bu holni Chingizxonning keyingi avlodlari o‘z hukmronligini saqlab qolish uchun islom dinini qabul qilgani va ularni hamda omi xalqni islomiy ahkomlardan xabardor qilish maqsadida bir qator diniy syujet asosiga qurilgan asarlar, jumladan, Alining “Qissayi Yusuf” (1233-y.), Shayx Sharifiyning “Muinu-l-murid” (1313-y.), Ali ibn Mahmud Kardariyning “Nahju-l-farodis” (1360-y.), Husam Kotibning “Kitobi jumjuma” (1370-y.), Imod Mavlaviyning masnaviylarini esga olish mumkin.

**Oltin O‘rda adabiyotshunosligi.** Markaziy Osiyodagi Mo‘g‘ul hukmronligi davrida Chingizxonning to‘ng‘ich o‘g‘li Jo‘jiga Sirdaryoning shimoliga qadar davom etgan qoraxitoylar yerlari, ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyga Markaziy Osiyo, keyingi o‘g‘illari O‘ktoyga Jung‘oriya, Tuluyga Mo‘g‘uliston mulk qilib berilgan

---

<sup>207</sup> *Alisher Navoiy. Nasoyimu-l-muhabbat / MAT. 17-jild. T.: Fan, 2001. B.324.*

edi. Mazkur davlatlarning tarixdagi o'zni to'g'risida o'sha davr muarrixlarining asarlaridan ma'lumot olish mumkin. Oltin O'rda davlati Jo'ji hukmronligidagi hududda vujudga keldi. Lekin Jo'ji erta vafot etdi, uning ishlarini davom ettirgan ikkinchi o'g'li Botu Yevropani zabt etib, o'z hududini kengaytirishi natijasida Bulg'oristonni bosib oldi. Oltin O'rda davlatining tashkil topishi bevosita Chingizxonning g'oyasi edi. Shuning uchun ham "Oltin O'rda" degan nom Chingizxon davlatiga nisbatan qo'llanilib, uning vafotidan keyin Botu egallagan g'arbiy hududlarga nisbatan ham ishlatilgan. Oltin O'rda hududi Bulg'oriston, Qrim, Kavkaz va Shimoliy Xorazmni o'z tarkibiga olgan edi.<sup>208</sup> Botu Idil bo'yidagi Saroy shahrini o'ziga poytaxt qilib belgiladi. Tez orada shahar ko'plab madaniy-ma'rifiy kuchlarni ham birlashtira olgan ilmiy markazga aylandi. Tatar olimi X.Minnegulovning yozishicha, "Saroyda musulmon Sharqining mashhur shoir va olimlaridan Qutbiddin Rohibaxsh, Sug'uddin Taftazoniy, Hofiz ibn Bazodiy, Kamoliddin Xo'jandiy va boshqalar yashagan... E'tiborlisi shundaki, Saroyda yashagan ko'plab so'z san'atkorlari, olimlar o'zlarini Saroyi yoki Bulg'oriy taxalluslari bilan tanitganlar".<sup>209</sup>

Oltin O'rda davlati siyosiy-iqtisodiy jihatdangina kuchayib qolmay, balki madaniy hayotda ham sezilarli o'zgarish sodir qildi. Bu holat O'zbekxon davrida islom dinining qabul etilishi orqali yanada taraqqiy topdi. Diniy e'tiqod bilan birga aholisining asosiy tarkibi turkiy xalqlardan iborat bo'lgani uchun ham davlat miqyosida turkiy til va adabiyot rivojiga e'tibor qaratildi. Yuqorida tilga olingan Rabg'uziy, Mahmud ibn Ali, Husam Kotib asarlari mana shu davrning mahsuli edi.

Ular orasida o'z salmog'i va ommaviyligi nuqtai nazaridan *Nosiruddin Burhoniddin Rabg'uziyning "Qisasi anbiyo"*\* asari (1305-y.) ahamiyatlidir.

---

<sup>208</sup> Grekov B.D., Yakubovskiy A. Oltin O'rda va uning qulashi. T.: O'zdavnashr, 1956. B.53.

<sup>209</sup> Миннегулов Х.Ю. Татарская литература и Восточная классика. Казань: Изд. КГУ, 1993. С.57.

\* Asarning nomi bizdagi nashrlarda "Qisasi Rabug'uziy" deb berilgan (sho'ro davrida "anbiyo" so'zini

Nosiriddin To‘q Bug‘a buyurtmasi bilan yozilgan bu asar 72 qissadan iborat bo‘lib, uning tarkibida Qur‘oni karim va Injildan olingan hikoyatlar, Hasan Basriy, Abu Ishoq Nishopuriy va Jobir ibn Ansoriy kabi mualliflarning arab va fors tilidagi Payg‘ambarlik tarixiga oid kitoblariga asoslanib yozilgan. Qissalar turkumi hamd, na‘t, muqaddima, qissalar va lirik kechinmalar va xotimadan iborat<sup>210</sup>. Muqaddimada aytilgan so‘zlar bu asarning janriy xususyaitlarini belgilashi bilan birga o‘zigacha yozilgan mazkur mavzudagi qissalar haqidagi nazariy umumlashma ham edi: “...qosud bitildikim, payg‘ambarlar qissalarig‘a g‘oyat rag‘batim bor. Tekma yerda tekma kim ersa-da bo‘linur ba‘zisi mustaqim bor, ba‘zisi nomusta‘qim. Bir onchasi muqarrar va bir onchasi mubattar bor. Bir ozining so‘zlari kesuk bor, bir ozining maqsudlari o‘ksuk”<sup>211</sup>. Bu kabi nozik kuzatish va o‘zigacha yaratilgan qissalarga tanqidiy yondashish orqali muallif o‘z asarini imkon qadar ommabop bo‘lishini nazarda tutib, uni og‘ir diniy istilohlar bilan emas, balki xalqqa tushunarli bo‘lgan badiiy tilda yaratdi (ehtimol, turkiy tilning Oltin O‘rda davlatidagi mavqeyini ham ko‘rsatish niyati bo‘lgan ham bo‘lishi mumkin). Natijada o‘z davrigacha bo‘lgan Payg‘ambarlik qissalarini umumlashtirgan, davridagi ayrim hodisalarga ham munosabat bildirgan, qolaversa, lirik kechinmalar tavsifi orqali zamonidagi mavjud adabiy janrlar: hikoyat, to‘rtlik, xabar, latifa, g‘azal, savolu javob, bashorat, pand, foyda, munojot, hikmat kabilarni jam qilgan yirik asar vujudga keldi. Ushbu janriy nomlanishlardan ham ma‘lum bo‘ladiki, Rabg‘uziy qissalari milliy estetik qarashlarning shakllanishida, xalqni halollik ruhida tarbiyalashda ahamiyati katta bo‘lgan. Ularda estetik ideal masalasi birigchi darajaga chiqarilgan va insoniy ideallar bashar yo‘lboshchilari nabi – payg‘ambarlarning hayotini namuna qilib ko‘rsatish orqali hal etilishi lozimligiga e‘tibor qaratgan.

---

ishlatishdan noshirlar qochgan bo‘lishi mumkin). Asarning yuzdan ortiq qo‘lyozmalarining aksariyatida

“Qisasi anbiyo” deb yozilgani uchun mana nomlanish saqlandi.

<sup>210</sup> Fozilov E. Nosuruddin Rabg‘uziy va uning “Qisasi Rabug‘uziy” / Qisasi Rabug‘uziy. Birinchi kitob. T.: Yozuvchi, 1990. B.7.

<sup>211</sup> Носируддин Рабғузий. Qisasi Rabug‘uziy. Birinchi kitob. T.: Yozuvchi, 1990. B.11.

Oltin O‘rda adabiyotida muayyan ma‘noda diniy asarlarning taraqqiy topishi tabiiy hodisa edi. Chunki endigina islomiy davlat taomiliga kira boshlagan mamlakat uchun o‘z aholisini pokiza e‘tiqodga bag‘ishlovchi asarlar bilan ta‘minlanishi zaruriy hodisa edi. Shu ma‘noda Mahmud ibn Ali Kardariy-Bulg‘oriy as-Saroyining “Nahju-l-farodis” (“Jannatlarning ochiq yo‘li”, 1357) asari qisasu-l-anbiyolarning o‘ziga xos davomidir. Bu asar mavzu jihatdan “Qisasi anbiyo”ga bog‘lansa-da, til va adabiy yodgorlik xarakteri jihatidan Qutbning “Xusrav va Shirin” (1342), Xisom Kotibning “Jumjuma sulton” (1370) asarlariga yaqinligi olimlar tomonidan e‘tirof etilgan.<sup>212</sup> M.F.Ko‘prulu va Z.V.To‘g‘on kabi olimlar Kardar shaharchasining G‘arbiy Xorazmda joylashganidan va til xususiyatlariga ko‘ra o‘g‘uz va qipchoq elementlari qarishiqligidan kelib chiqib, bu manbani Xorazm adabiy muhitida yozilgan asarlar qatoriga qo‘shadilar<sup>213</sup>. Prof. E.Fozilov ham asarni Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si, Qutbning “Xusrav va Shirin”i kabi chig‘atoy (eski o‘zbek) adabiyotining bevosita Xorazm davri bilan bog‘liq asarlari sirasida ko‘radi (shuningdek, qo‘lyozma kotib Muhammad ibn Xusrav Xorazmiy tomonidan ko‘chirilganiga ham ishora qila-dilar).<sup>214</sup>

“Nahju-l-farodis” har biri o‘n faslni o‘z ichiga olgan to‘rt bobdan iborat. Tarkiban islom adabiyotidagi “qirq hadis” ruhida yaratilgan bo‘lib, har bir hikoyat alohida bir hadis mazmuni bilan bog‘langani holda mantiqan Payg‘ambarlik tarixi manbalaridan biri sifatida tasavvur beradi. Lekin muallif ko‘p ishonchli manbalar asosida ish ko‘rgani uchun asar Oltin O‘rda hududidagina emas, balki boshqa hududlarda ham mashhur bo‘lgan. Asarning birinchi bobida Muhammad (s.a.v.)ning ilk tarixi va unda Payg‘ambarlik belgilarining zuhur bo‘lishidan tortib uning vafotiga qadar o‘tgan voqealar haqida so‘z yuritilgan. Ikkinchi bob xulafoi

---

<sup>212</sup> Яфаров Б.А. X–XIV йезларда Кама-Волга болгарлары адабияты ham “Нахж ал-Фарадис” кулъязмасы: Дисс. канд. филол. наук. Казань, 1949. С.12-14.

<sup>213</sup> Qarang: Нуриева Ф.Ш. “Нахдж ал-фарадис” Махмуда ал-Булгари. Казань: Фан, 1999. С.19

<sup>214</sup> Фазылов Э.И. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV в. Т. 1-2. Т.: Фан, 1966–977.

roshidin va to‘rt imom (Imom A‘zam, Shofe‘, Malik, Ahmad) va ahli bayt (Payg‘ambar oilasi) haqida. Uchinchi bobda “Haq taolo hazratinda yavung‘u (ezgu) amallar” va to‘rtinchi bobda “yovuz amallar” uchun berilajak jazolar xususida so‘z yuritilgan. Ko‘rinadiki, bu axloqiy-ta‘limiy asar, asosan, islomiy manbalarga tayanib yozilgan.

Adabiyotshunoslik ilmi azaldan ezgu va yovuz amallar, ularning o‘zaro kurashi va ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alabasini ko‘rsatuvchi asarlar tahliliga bag‘ishlangan. Qadimgi “Avesto”dan tortib zamonaviy ruhdagi asarlargacha mana shu ikki ruh – kuch har qanday asarning asosiy konfliktini tashkil etib kelgan. Shunday ekan, ushbu manbada bayon qilingan ezgu amallar va ularning ijrosi uchun da‘vat, yovuz harakatlar va ulardan saqlanish yo‘llari haqidagi fikrlarning birlamchi tarixiy-axloqiy manbalarga tayanib ifoda qilinishi bilan bevosita adabiyotshunoslik ilmi uchun ahamiyatli ekani yaqqol seziladi.

Ayni XIV asr boshlarida “Mu‘inu-l-murid” (“Muridlar oynasi”, 1314) nomli manzum asar ham mashhur bo‘lgan, uning muallifligi masalasida esa munozaralar mavjud. Manbaning turkcha nashrida asardagi 402–raqamli to‘rtlikdan kelib chiqib, shoir ismini Islom va otasining ismini ham Bobo Islom deb tanishtiriladi<sup>215</sup>. Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai tarokima” asarida bu asar urganjli Shayx Sharafga tegishli ekani aytilgan bo‘lsa-da, turkman olimlari bu fikrni “Mu‘inu-l-murid”ga nisbatan emas, balki “Ravnaqu-l-islom” asariga munosabatda aytilganini ta‘kidlaydilar. Biroq turk olimi F.Ko‘prulu yozishicha, “XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida yashagan va yassaviylik silsilasida bo‘lgan mashhur shayx Zangi otaning muridi xorazmli Shayx Sharafning mozori bugun Urganchdadir. Shuhrati turkmanlar orasida keng yoyilgani kabi o‘zbeklar uni “doston qahramoni” kabi ko‘rsatmaktadir. XV asrda yozilgan “Ravnaqu-l-islom” asarining Shayx Sharafga aloqasi yo‘qdir”.<sup>216</sup> Ushbu fikrlarga tayangan holda “Mu‘inu-l-murid” asariga yondashganimizda, uning mazmunida yassaviylik ruhi ochiq ko‘ringani holda shaklan to‘rtlik tarzidagi

<sup>215</sup> Mu‘inü’l-mürîd. Hazırlayanlar: Töparlı R., Argunşah M. Ankara, 2008. S.15.

<sup>216</sup> Köprülü M.F. Türk Edebiyatı Tarihi. 5 bs. Ankara, 2003. S.310.

hikmatlardan iborat ekanini kuzatamiz. 407 to‘rtlikdan tashkil topgan va har biri *aaba* tarzida qofiyalangan, aruzning mutaqorib bahrida (faulun faulun faulun faul), ayrim she’rlarda aruz xususiyatlari saqlanmagan 7 hijoli tizimli (uning tarkibida birgina nasriy rivoyat bor) bu asar iymon, Alloh va uning rasulini bilmak, va’z va nasihat, turli mavzulardagi 12 dars, tayammum, zakot, iroda, adab, suhbat, shariat, tariqat va haqiqat, qalb va nafs, tariqatga kirmak, Alloh shukri va yaxshilarni xotirlash kabi bo‘limlardan tashkil topgan. Asardagi yassaviylik izlarini uning mundarijasidan ham bilsa bo‘ladiki, yassaviylik tariqatida tasavvufdagi to‘rt bosqich. ko‘pincha, uchlik holatida (shariat, tariqat va haqiqat) beriladi va ma’rifat bosqichi bevosida tariqat belgisi sifatida qaraladi. Bundan tashqari mazkur manba nafaqat diniy, balki axloqiy saboq beruvchi ta’limiy asar ham hisoblanadiki, bu kabi asarlarni o‘zbek mumtoz adabiyotida keng uchratamiz.

XIV–XV asrlar adabiyotida keng tarqalgan adabiy hodisalardan biri nomachilik bo‘lib, bu forscha so‘z adabiy janr sifatida bir qancha xususiyatlarni o‘zida jamlaydi va davr adabiyotining faol janrlaridan biriga aylandi. Turkiy tildagi nomalarning avvalida Xorazmiy qalamiga mansub “Muhabbatnoma” (1353) turadi. Asar Oltin O‘rda xoni Jonibek sulton (1342–1357)ning beklaridan biri Muhammadxo‘jabek taklifi bilan yozilgan.

Sirdaryo sohilidagi Sig‘noq shahrida yozilgan bu asar, Rabg‘u-ziyning “Qisasu-l-anbiyo” asari kabi o‘zida bir necha janrlarni birlashtiradi. 11 nomada muallif noma’lum yorga murojaat qilib, uning go‘zalligini kuylab, unga sodiq bo‘lganlarga vafo qilishlikni so‘raydi. O‘ziga xos ichki strukturaga ega bo‘lgan asar hamd, voqea bayoni, Muhammadxo‘jabek madhi, vasfi hol, masnaviy, g‘azal (3 ta o‘zbekcha, bitta forsiy), soqiyga murojaat; munojot, qit‘a, forsiy hikoya va xotimatu-l-kitob kabilardan tashkil topgan.

Oltin O‘rda muhitidagi asarlardan “Muhabbatnoma” nafaqat she’riy yo‘lda bitilgani bilan, balki mazmunan badiiy obrazlar vositasida shakllantirilgani (bu davr asarlarida ma’rifiy yo‘nalish ustun edi) va asar asosiga sof estetik maqsadlar qo‘yilgani bilan farqlanadi. Asardagi ayrim timsollar tasavvufiy ma’no tashigani

bilan u yaxlit holda majoziy (dunyoviy) ishq talqiniga bag‘ishlangani bilan ajralib turadi. “Qadam har neh ki dar ishq i majoziy, Ba maqsude rasi gar pokbozi” (Majoziy ishqqa qadam qo‘y, agar pokiza ish yuritsang, maqsudingg‘a erishasan) bayti shundan dalolat. Tez-tez takrorlanib turuvchi

*Sabrdin yaxshi yo‘qtur, pesh qilsam,  
Bu yo‘lda sabr yo‘q, andesha qilsam*

bayti “Muhabbatnoma”ning mohiyatini anglatishga xizmat qiladi.

Xorazmiyga qadar “noma” asosiga qurilgan asarlardan biri Marog‘ali Avhadiyning “Dahnoma” asari forsiy adabiyotda mashhur edi. Aftidan, shu asar ta’siri bilan bo‘lsa kerak Xorazmiy dastlab o‘n noma bitmakchi bo‘lgan, biroq natijada (“Burun o‘n dedim, o‘n bir bo‘ldi”) turkiy 8 va forsiy 3 nomadan iborat 11 noma tarzida shakllangan. Bu yo‘nalishda qator asarlar bor bo‘lib, Xo‘jandiyning “Latofatnoma”, Said Ahmadning “Taashshuqnoma” asarlarida Xorazmiy an‘analarini davom ettirilgan.

Oltin O‘rda adabiy muhitining bevosita mahsuli hisoblangan Sayfi Saroyi (1321–1396)ning “Gulistoni bit-turkiy” asari (1391) tarkibida “Shoirlar talqinida” degan maxsus bob berilgan. Unda jahon shoirlari, ularning turfa ovozlari, shuningdek, she’riyat bog‘ining “zog‘” (qarg‘a)lari xususida ham so‘z yuritilib, badiiy adabiyotga, she’riyatga yuksak talablar qo‘yilgan. Shoirlar *bulbul, zog‘ va to‘ti* sifatida tavsiflanib, bu bilan shoirlik tabiati xususidagi o‘ziga xos qarashlarini bayon qiladi:

*Jahon shoirlari, ey gulshani bog‘,  
Kimi bulbul durur, so‘zda kimi zog‘.*

*Kimi to‘ti bikin chaynar shakarni,  
Kimi lafzi bilan o‘rtar durarni.*

*Kimining so‘zlari mavzunu shirin,  
Kimining loyiqi tashrifu tahsin.*

*Kimi o‘zganing ash‘orin menim der,  
Kimi halvo kibi shalg‘am cho‘bin yer.*

*Kimi ma‘ni qo‘yub, lafzin tuzatur,  
Kimi vaznin buzub, san‘at kuzatur.*

Bundan tashqari, bizgacha shoirning adabiy merosidan bir necha g‘azallar, qasida, qit‘a, ruboiylar, “Suhayl va Guldursun” dostoni (1394-y.) yetib kelgan. Ayrim asarlari Istanbulda (1926-y.) “Turk adabiyoti namunalari”da berilgan. “Suhayl va Guldursun” dostoni o‘zbek epik she‘riyati taraqqiyotida o‘z o‘rniga ega. Doston xalq afsonasi “Guldursun” asosiga qurilsa-da, unda real tarixiy voqealar, ya‘ni Amir Temurning Xorazmga yurishi voqeasi ham aks etgan.

Oltin O‘rda adabiy muhitining turkiy tildagi adabiyotshunoslik taraqqiyotida alohida davr sifatida qaralishiga sabab shundaki, bu davr adabiyotiga adabiy tilning rivoji va janrlar tipologiyasi nuqtai nazaridan yondashganda ham bu yo‘nalishda bemisli natijalarga erishilganini ko‘ramiz. Poetik mazmun taraqqiyotida diniy mavzudagi qissalardan tortib yuksak tasavvufiy yo‘nalishdagi manzum asarlargacha, nomalardan to tarjimalarga qadar adabiyot rang-baranglashganini, uning ta‘sir hududi kengayganini va keyinroq temuriylar davri adabiyoti nomi bilan jahon tarixiga kirgan yuksak poetik davrga adabiy zamin hozirlaganini kuzatamiz.

### ***Savol va topshiriqlar***

- 1. Markaziy Osiyoda tasavvuf adabiyotiga doir asarlarni adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan sharhlang.*
- 2. Mo‘g‘ul istilosi davri adabiyotshunosligi manbalari qaysilar?*



3. *“Oltin O‘rda adabiyotshunosligi” deyilganda qaysi asarlar xususida fikr yuritish mumkin.*

### *Адабиётлар*

1. Abu Abdurahmon Sulamiy. Tabaqoti sufiyya / M.Nuriddinov tarj. T.: Fan, 2004.

2. Adabiyot nazariyasi. II jild: Adabiy-tarixiy jarayon. T.: Fan, 1979. B. 349–355.

3. Alisher Navoiy. Nasoyimu-l-muhabbat / MAT. 17-jild. T.: Fan, 2001. B.324.

4. Al-Hakim at-Termiziy. Adabu-n-nafs. Termiz, 2006.

5. Avfiy Muhammad Buxoriy. Tazkirai Lubobu-l-albob. 1–2 jild. Prof. Braun nashri asosida. Muqaddima va sharhlar muallifi Muhammad Qazviniiy. Tehron: Mumtoz, 1361. 1036 s.

6. Avfiy M. Nodir hikoyatlar. T., 1977; Hikoyalar va rivoyatlar. T., 1983

7. Ayniy S. Asarlar. Sakkiz jildda. 8-j.. T., 1967.

8. Boltaboyev H. Qagimgi turkiy manbalar Fitrat talqinida / Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2008. B.3–8.

9. Boltaboyev H. Mumtoz she‘r tuzilishi va uning metrik asoslari / Sharq mumtoz poetikasi. T.: ЎМЭДИН, 2006.

10. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo‘stoni / B.Ahmedov, N/Norqulov tarj. T., 1981. B.22–27.

11. Fitrat A. O‘zbek adabiyoti namunalari. 1-jild. Toshkent-Samarqand, 1928. Qayta nashri: T.: MUMTOZ SOZ, 2012.

12. Fozilov E. Nosuruddin Rabg‘uziy va uning “Qisasi Rabug‘uziy” / Qisasi Rabug‘uziy. Birinchi kitob. T.: Yozuvchi, 1990.

13. Grekov B.D., Yakubovskiy A. Oltin O‘rda va uning qulashi. T.: O‘zdavnashr, 1956.

14. Hasaniy M., Razzoqova M. Xojagon tariqati va Xoja Hasan Andoqiy. T.: 2003.
15. Ishoqov Y. Pahlavon Mahmud / O'zbek adabiyoti tarixi. 1-jild. T.: Fan, 1978. B.169.
16. Komilov N. Najmiddin Kubro. B.22.
17. Köprülü M.F. Türk Edebiyatı Tarihi. 5 bs. Ankara, 2003.
18. Köprülü M.F. Türk Edebiyatında İlk mutasavvıflar. İstanbul, 1986.
19. Manbalarda Pahlavon Puryorvaliy zikri / Tarj. Va tabdil muallifi J.Mahmudov. T., 2007.
20. Muhammadkozim Yusufper. Naqdi mufiy. Tehron: Ro'zna, 1380. B. 119.
21. Mu'inü'l-mürid. Hazırlayanlar: Töparlı R., Argunşah M. Ankara, 2008. S.15.
22. Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. v.12.
23. Nasaviy. Jaloliddin Manguberdi. T., 2008.
24. Nizomiy Aruziy Samarqandiy. Nodir hikoyatlar. T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985.
25. Nosuruddin Rabg'uziy. Qisasi Rabug'uziy. Birinchi kitob. T.: Yozuvchi, 1990.
26. Sharq mumtoz poetikasi H.Boltaboev talqinida. T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
27. Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni. Maqomoti Yusuif Hamadoni. T.: Yangi asr avlodi, 2005.
28. Xoja Yusuf Hamadoni. Hayot mezoni ("Rutbatu-l-hayot"). Tarj.: S.Sayfulloh, N.Hasan, So'ng so'z muallifi H.Boltaboyev. T., 2003. B.4.
29. Uvatov U. Al-Hakim at-Termiziy (hayoti va merosi). T., 2001.
30. Абдуллаев И. Бухоронинг арабийнавис шоирлари. T.: Фан, 1965.
31. Бертельс Е.Э. Литература народов Средней Азии от древнейших времен до XV в. // Новый мир. 1939. № 9. С. 275.
32. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. М.: Наука, 1965

33. Босворт К.Э. Мусульманские династии. Справочник по хронологии и генеалогии. Пер. с англ. П.А.Грязневича. М.: Наука, 1971.
34. Гердер Г. Идеи к философии истории человечества.
35. Миннегулов Х.Ю. Татарская литература и Восточная классика. Казань: Изд. КГУ, 1993.
36. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика. X–XV вв. М.: 1989.
37. Мунтахаби «Тарчумону-л-балоға» (Таҳияи матн, муқаддима ва тавзеҳоти Худой Шарифов). Душанбе: Дониш, 1987.
38. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика. X–XV вв. М.: 1989.
39. Нуриева Ф.Ш. “Наҳдж ал-фарадис” Махмуда ал-Булғари. Казань: Фан, 1999. С.19
40. Рашид ад-дин Ватват. Хада’ик ас-сехр фи дақа’ик аш-ши’р. Перевод с персидского и факсимиле. М.: Наука, 1985. С.161-172.
41. Тримингэм Ж.С. Суфийские ордены в Исламе (под ред., предисл. и примеч. О. Ф. Акимушкина). М.: Наука, 1989.
42. Яфаров Б.А. X–XIV йезларда Кама-Волга болгарлары адабияты һам “Наҳж ал-Фарадис” кулъязмасы: Дисс. канд. филол. наук. Казань, 1949.

## 7-mavzu. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI ADABIYOTSHUNOSLIGI

### *Reja:*

1. *Amir Temur tuzgan markazlashgan davlatda adabiyotshunoslik taraqqiyoti.*
2. *Boysung 'ur Mirzoning Nafis san'at akademiyasi*
3. *Shayx Ahmad Taroziy va uning "Fununu-l-balog'a" asari.*
4. *Sulton Husayn davrida yaratilgan adabiyotshunoslik asarlari.*
5. *Atoulloh Husayniy va uning risolasi.*

*Tayanch tushunchalar:* markazlashgan davlat, Nafis san'at akademiyasi, "Fununu-l-balog'a", aqsomu-sh-she'r, qofiya, aruz, badoye', risola.

**Amir Temur tuzgan markazlashgan davlatda adabiyotshunoslik taraqqiyoti.** Amir Temur (1336–1405) saltanatining vujudga kelishi YevroOsiyodagi juda ko'p madaniy-ilmiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Avvalo, jahonni fotih Chingizxon va uning imperiyasi asoratidan saqlab qolishi, Osiyoda markazlashgan davlat barpo etishi, Yevropaga tahdid solayotgan sharqiy kuchlar (Usmonli saltanati)ni yengib, bu xavfning bartaraf etishi kabi olamshumul voqealar bevosita Amir Temur va temuriylar saltanati bilan bog'liq asosiy hodisalarning bir qismi xolos. XIV asrning ikkinchi yarmidan boshlab Markaziy Osiyodagi ilmiy-madaniy ko'tarilish ma'lum ma'noda to'xtalish davri bo'lgan mo'g'ul istilosi davrida yuzaga chiqmay qolgan ilmiy-ijodiy imkoniyatlar (potensial)ning taraqqiy etishiga ham sabab bo'ldi.

Buyuk sohibqironning adabiyotga munosabati masalasida biz o'zbek adabiyotshunosligining muhtasham asarlaridan biri Alisher Navoiyning "Majolisu-n-nafois"ning 7–majlisida tilga olingan so'zlardan kelib chiqamiz: "Muluk shajarlarining bo'stoni va salotin gavharlarining ummoni, xoqoni jahongiri sohibqiron, ya'ni: Temur Ko'ragon – agarchi nazm aytmoqqa iltifot

*qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xub mahal va mavqe'da o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'qug'oni ming yaxshi bayt aytqoncha bor. Tabarruk haysiyatidinkim, ul hazratning muborak ismi bu muxtasarda bo'lg'ay va ul latoyifdin biri bila ixtisor qo'shilur*"<sup>217</sup>.

Amir Temur va temuriylar davri adabiy manbalari haqida gap ketganda, *"Temuriylar davrining eng birinchi namunasi qilib, Temurning o'z tilidan (balki o'z tomonidan) yozg'ilgan "Tuzuki Temur" yo "Tuzukoti Temuriy" otli asarni ko'rsatish kerak*"<sup>218</sup>. Bu asar haqida Sharafiddin Ali Yazdiy (vaf. 1454-y.), Nizomiddin Shomiy, Shamsiddin Somiybek va boshqa mualliflar xabar bergan. "Tuzuklar" ikki qismdan iborat bo'lib, dastlabki qismda Amir temurning 1342–1405- yillardagi hayoti va faoliyati, ikkinchi qism esa uning nomidan aytilgan o'ziga xos o'gitlardan iborat. *"Men Alloh dini va Muhammad hukmlarining tarqalishi uchun harakatda bo'ldim: men har qanday vaqtda va joyda islomni qo'llab-quvvatladim. Men o'zimga sodiq kishilarni 12 toifaga ajratdim: ularning birlari menga davlatni egallashda va boshqarishda o'z jasorati bilan yordam berdi, boshqalari – maslahati bilan. Men ulardan saodat qal'asini tiklashda foydalandim, ular saroyimning ko'rki bo'ldilar... Shunday qilib, men qo'shinlarim va sodiq voliylarim yordamida 27 mamlakatning hukmdori bo'ldim: men Eron, Turon, Rum, Mag'rib, Shom, Misr, Iroqi Arab va Iroqi Ajam, Mozandaron, Gilon, Shirvon, Ozarboyjon, Fors, Xuroson, Chitta, Buyuk Tatariston, Xorazm, Xo'tan, Kobuliston, Baqtrzamin va Hindistonni davlat qildim. Bu mamlakatlarning hammasi mening hokimiyatimni tan oldilar, men ularga qonunlar yubordim*"<sup>219</sup>. Mana shu 27 mamlakatda birday amal qilingan qonunlar natijasida madaniy hayotda misli ko'rilmagan natijalarga erishildi. Nafaqat Amir Temur hayotligi paytida, balki uning vafotidan keyin temuriylar davrida ham fan va madaniyatning yuksalishi adabiyotshunoslikning taraqqiyotiga ham omil bo'ldi.

---

<sup>217</sup> *Alisher Navoiy*. Majolisu-n-nafois / MAT. 13–jild. T.: Fan, 1997.

<sup>218</sup> *Fitrat*. O'zbek adabiyoti namunalari. 1–jild. T., 2013.

<sup>219</sup> *Amir Temur*. Temur tuzuklari. T.: Cho'lpon, 1992. B.7.

Amir Temurning o‘g‘illari Mironshoh (1366–1408) va Shohrux Mirzo (1377–1447), nabiralari Xalil Sulton (1384–1409), Boysung‘ur Mirzo, Mirzo Ulug‘bek (1394–1449) va boshqa amirzodalarning hukmronliklari davrida adabiy manbalarning jamlanishi va yozilishi davr adabiyotshunosligining taraqqiy etishiga kuchli ta‘sir ko‘rsatdi. Bu davr adabiyotshunoslik manbalarini o‘rganishda uch jihat ko‘zga tashlanadi. Ularning birinchisi bevosita adabiyot ilmiga doir risola va tazkiralarning yozilishi va tarqalishi (masalan, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkiratu-sh-shuaro” asari); ikkinchisi tarixiy va siyosiy adabiyot tarkibida adabiyotshunoslikka oid ma‘lumot va talqinlarning berilishi (masalan, Xondamirning “Xabibu-s-siyar” asari), uchinchisi – turli xil axloqiy-tasavvufiy asarlar tarkibida kelgan adabiy siymo, jarayon va alohida asarlar xususidagi fikrlar (misol uchun Navoiyning “Nasoyimu-l-muhabbat” tazkisasi)dir. Bu yo‘nalishlarda yozilgan har bir asar davr adabiyotshunosligining ma‘lum bir jihatini to‘ldiradi, undagi janrlar va uslublar xilma-xilligi xususida ma‘lumotlar beradi, bir manbada qisqa tilga olingan epizodik hodisalarni ikkinchisi batafsillashtiradi.

**Mirzo Boysung‘urning Nafis san‘at akademiyasi** Hirot tasviriy san‘at maktabi nomi bilan shuhrat qozonib, ulkan nafosat ijodxonasi sifatida Shohrux Mirzo zamonida tashkil topdi. Bu ishda uning o‘g‘li va vaziri Mirzo Boysung‘ur (1397–1433) bosh bo‘ldi. 19 yoshida otasi Shohrux Mirzo yonida vazir bo‘lib turgan (1416-y.), birodari Mirzo Ulug‘bek singari ilmu ma‘rifat va fozilligi bilan tanildi. Shoir, xattot, Hirot miniatyura maktabining asoschisi Boysung‘ur Mirzo xizmatida Xoja Yusuf Andijoniy kabi zamonasining ulug‘lari hozir bo‘lgan.

Alisher Navoiy “Majolis...”da: *“Boysung‘ur Mirzo – xushtab’ va saxiy va ayyosh va hunarparvar podshoh erdi. Xattot va naqqosh va sozanda va go‘yandadin muncha benazir kishikim, aning tarbiyatidin orog‘a kirdi, ma‘lum emaskim, hech podshoh zamonida paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay”*<sup>220</sup> deb baho berish bilan uning asosiy sifatlarini aytib o‘tgan edi. Boysung‘ur Mirzoning forsiy

---

<sup>220</sup> Alisher Navoiy. Majolisu-n-nafois / MAT. 13–jild. T.: Fan, 1997. B.171.

she'rlari adab ahliga ma'lum bo'lsa-da, uning turkiy ash'oridan namunalar bizgacha yetib kelmagan deb tasavvur qilinardi. "Fununu-l-balog'a" asarining ro'yobga chiqishi bu taxminning noto'g'riligini ko'rsatdi. Shayx Ahmad Taroziy asarida quyidagi qit'a Boysung'ur Mirzo asari sifatida keltiriladi:

*Furqatingda sorig' o'ldi olmangiz,  
Ey musulmonlar, yaraqon o'lmasun.*

*O'lmagimdin fikrim oncha yo'qturur,  
Qo'rqaram, o'lsam yara qon o'lmasun<sup>221</sup>.*

Boysung'ur Mirzo Hirotda ulkan kutubxona ta'sis etdi. Unda qirq nafar yetuk xushnavis xattot, Ja'far Tabriziy (nasta'liq xatining ixtirochisi Mir Alining shogirdi) raisligida kitobat bilan mashg'ul bo'lib, kitobatga lozim bo'lgan varroqlik, sahhoflik, tasvir, tazhib, tajlid, vassollik, zarafshonlik va boshqa nafosat turlari – badiiy san'at ijodi bilan band bo'ldilar. Shams Boysung'uriy – xattotlikda Boysung'ur Mirzoning ustoz, olti nav yozuvni mukammal bilgan yetuk xattot, shoir Mavlono Shams devonini ko'chirgan, uning sha'niga qasidalar yozgan<sup>222</sup>. Xalil Hiraviy chizgan Amir Temur surati bizgacha yetib kelgan (sahroda shoh chodiri, udnavez soz chalmoqda).

*Shoh Qosim Anvor* Shohrux Mirzo saroyi shoir va olimlarining peshvosi bo'lib (Hazrat Navoiy tazkirasining Avvalgi majlisini bejiz u kishining ismi bilan boshlamagan: "*har necha alarning rutbasi shoirlik poyasidin yuqoriroqdur*"), fors va turkiy tilda ijod qilgan. Bizgacha uning bir devoni, "Anisu-l-oshiqin" masnaviysi yetib kelgan. Shohiy Sabzavoriy tazkiranavislar uning yetti yozuvni mukammal bilgani haqida yozadilar, she'riy devoni ma'lum. Qavomiddii Sheroziy (vaf. 1444-y.) – Shohrux Mirzo zamonining mashhur muhandisi, me'mori va tarrohi (loyihachi)si, Muhammad Pahlavon ibn Abdulloh Kotibiyning "Majma'u-

<sup>221</sup> *Shayx Ahmad Taroziy*. Fununu-l-balog'a. T.: MUMTOZ SO'Z, 2016. B. 14.

<sup>222</sup> *Norqulov N.* Temuriylar davri madaniyatidan lavhalar. Urgench: Xorazm, 1996. B.38.

l-bahrayn”, “Husnu Ishq”, “Muhib va Mahbub”, “Bahrom va Gulandom” singari dostonlari bo‘lgan. Zahiriddin Azhar Tabriziy kabi zamonasining shoir, olim, naqqosh va xattotlari uning maktabiga yig‘ilgan edilar.

Boysung‘ur Mirzo kutubxonasi nodir qo‘lyozmalar to‘planib, ko‘chirilib kitob holiga keltirilgan. Ja‘far Tabriziy tomonidan 1425–30 yillarda 20 ta surat bilan ziynatlangan “Shohnoma”ga Boysung‘urning o‘zi so‘zboshi (“Boysung‘ur muqaddimasi”) yozgan. “Yetti iqlimda benazir” hisoblangan Xoja Yusuf Andijoniy Boysung‘ur saroyida xushovoz ashulachi va musiqashunos bastakor sifatida shuhrat qozongan. Tarixchi Xondamir Mirzo Boysung‘ur tarbiyati va rioyati bilan xushnavis, musavvir, naqqosh va jildsoz bo‘lib yetishdi.

Samarqandda Boysung‘urning inisi Ulug‘bek saroyida nafis adabiy, tasviriy san‘atdan ko‘ra ko‘proq fanga e‘tibor berilib aniq fanlar: falsafa, riyoziyot fanlari sohiblariga homiylik ustun turar edi. Shohrux Mirzo vafotidan so‘ng Ulug‘bek hirotlik musavvirlar Shahobiddin Abdulloh va Mavlono Zahiriddin Azharni Samarqandga olib kelgani ma‘lum. G‘iyosiddin Jamshid Koshiy (1385–1430) Ulug‘bek Mirzo ustozlaridan bo‘lib, uning “Talxisu-l-miftoh”, (“Hisob kaliti”), “Ta‘ribu-z-zij” (“Zij-ning arabchasi”), “Ziji Xoqoniy”, “To‘garak haqida risola”, “Xorda va sinus haqida risola” kabi asarlari mavjud. G‘iyosiddin Jamshidning jahon fani tarixidagi o‘rni beqiyosdir.

“Temur tuzuklari”dan keyin tilga olinishi lozim bo‘lgan bevosita temuriylar xonadoniga tegishli asarlardan biri Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt usul tarixi” asari bo‘lib, unda va Mirzo Ulug‘bekning boshqa ilmiy asarlari tarkibida ham adabiyot ilmiga tegishli qaydlarni uchratish mumkin.

**Shayx Ahmad Taroziy va uning “Fununu-l-balog‘a” asari.** Mirzo Ulug‘bek davrida yashagan Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy (XV asr) haqidagi dastlabki ma‘lumot Boburning “Aruz risolasi” asarida uchraydi: *“Rajaz bahrida bir rukn matviy, bir rukn maxbun vaznini yigirma rukn bila aytibturlar, nechukkim Taroziyning bu bayti”, – deb misol keltirgan.*<sup>223</sup> Bu bilan Bobur hatto

---

<sup>223</sup> Bobir. Muxtasar. T.: Fan, 1971. B.586.



Navoiyning nazari tushmagan “Fununu-l-balog‘a” (“Balog‘at fanlari”)dan asaridan xabar topmagan bo‘lsa ham uni shoir sifatida tilga olishining o‘zi zamonidagi hech bir manbada so‘z yuritilmagan buyuk alloma haqida izlanishga asos bo‘ladi. XX asr olimlarining izlanishlari natijasida Shayx Ahmad asari qo‘lga kiritilgandan keyin yana shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, bu asar Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlangan bo‘lib, turk tilida yozilgan, adabiyot ilmidan saboq beruvchi bu risolada an‘anaviy Sharq adabiyotshunosligining besh muhim tarmog‘i: she‘r nav‘lari, qofiya va radif, badiiy san‘atlar va aruz vazni hamda muammo janri masalalari aks etgan. So‘nggi qismda “muammoning usul va arkoni” haqida bahs yuritish rejalashtirilgan edi. Taassufki, asar ushbu qismining qismati bizga noma‘lum. Shayx Ahmad risolasida Nosiriddin Tusiyning “Me‘yori-l-ash‘or”, Rashididdin Vatvotning “Hadoyiqu-s-sehr” an‘analari davom ettirilgan. Vohid Tabriziy (“Jam‘i muxtasar” muallifi) bilan deyarli bir davrda yashagani uchun uning asariga ishora uchramaydi. “Fununu-l-balog‘a”ni zamondoshlari “Latoyifi Taroziy” deb ham atashgan. Asar hijriy 840 (milodiy 1436–37) yilda yozilgan. Bizga yetib kelgan nusxa 1581-yil Buxoroda Mir Kulinki Hoji ismli kotib tomonidan ko‘chirilgan. Muallif arab va fors she‘riyatini yaxshi bilgan, misollar Qur‘oni karimdan tortib o‘ziga zamondosh bo‘lgan shoirlar ijodigacha keltirilgan. Aksar hollarda muallif misollarni o‘z “Devon”idan olgan. “Fununu-l-balog‘a” mumtoz adabiyotdagi ayrim munozarali masalalarga aniqlik kiritish nuqtai nazaridan ham ahamiyatlidir.

Islomiy adabiy manbalarda adabiy tur va janrlar tasnifiga oid qarashlar nasr va nazmni ifoda shakli sifatida farqlashdan, ularning xos xususiyatlarini aniqlab, nasriy va she‘riy asarlar tahlilida mana shularga amal qilinishni tavsiya qilishdan boshlanadi. Bu jihatdan mashhur arab olimi Qudama ibn Ja‘farning «Naqdu-sh-she‘r» va «Naqdu-n-nasr» asarlari e‘tiborlidir. Nasr va nazm xususida so‘z ketar ekan, “Fununu-l-balog‘a”da: *“Va ulamo qoshinda nutq ikki nav‘dur: nasr va nazm. Onikim, istisvob<sup>3</sup> bobinda murattab ko‘rdilar, “nazm” atadilar. Va onikim, avroq visoqinda<sup>4</sup> parishon topdilar, “nasr” dedilar. Qit‘a:*

*Nazm tovisist dar bog‘i balog‘at jilvagar,  
Kaz kamoli jilvai u aqli kull shaydo shavad.  
Nasr dar bo‘stoni xotir to‘tiyi shirinnavost;  
Zon sabab ta‘siri fahm az ne‘matash paydo shavad”.*

(Mazmuni: Balog‘at bobida nazm tovis singari shunday jilvalar qiladiki, Uning bunday yetuk jilvalari har qanday aqlni o‘ziga shaydo etadi, Nasr esa fikr bo‘stonida to‘tiga o‘xshab shunday shirinso‘zlik ko‘rsatadiki, Shu sababdan, buning ne‘mati tufayli (bir narsani) tez tushunib olish mumkin).

Bu ikki ifoda (nutq) shakli farqlangach, muallif “*Fehrestu-l-funun: Avvalgi fanda she‘rning aqsomin va anvoin sharh qilur. Ikkinchi fanda qofiya va radifning qavoidin bayon aylar. Uchinchi fanda so‘zning badoye‘in va sanoye‘in zikr etar. To‘rtinchi fanda she‘rning taqti’ va avzonin taqrir qilur. Beshinchi fanda muammoning usul va arkonin tahrir etur*” tarzida o‘z kitobining mundarijasini keltiradi.

“Fununu-l-balog‘a”da “Aqsomu-sh-she‘r” (She‘r taqsimi) rukni ostida quyidagi 10 ta she‘r nav‘i tasnif qilingan: *qasida, g‘azal, qit‘a, ruboiy, masnaviy, tarje’, musammat, mustazod, mutavval va fard*»<sup>16</sup>. Olim ushbu tasnif bilan cheklanmasdan har bir she‘riy janrning mohiyati, o‘zgarishi, tamsillari va boshqa jihatlarini jiddiy tahlildan o‘tkazgan. Bu o‘n nav‘ asosiy she‘r turlari sanab, ularning janr xususiyatlari saqlangan holda yozilajak *tavhid, munojot, manoqib, tamadduh, mazammat va mutoyiba* kabilar mustaqil janr bo‘lmay, ular yuqorida keltirilgan o‘n nav‘dagi shakllarga mos holda ularning vazn va qofiyasini saqlab yozilajagini tushuntiradi. Dastlabki janr qasidaning bayoniga o‘tishdan avval mumtoz matn tarkibi haqida ma’lumot berib, Muqaddima yoki debocha tarkibiga kiruvchi “*tavhid va munojot va na‘t va manoqib va madh va sababi ta‘lif*” va matnning yakuniy qimida Xotima bo‘lishi zaruratini tayinlaydi. “*Va she‘rning ibtidosi matla’ va oxirin maqta’ derlar. Va baytning avvalgi juzvin sadr o‘qurlar*

---

<sup>16</sup> *Shayx Ahmad Taroziy. Fununu-l-balog‘a. T.: Xazina, 1996. B. 4.*

va oxir juzvin ajz va zarb. Va qofiya va misra'ning oxirin aruz derlar. Va so'ngg'i misra'ning avvalin ibtido". Muallif har bir janrga nazariy ta'rif berish bilan cheklanmay, janrdagi o'zgarishlarni alohida ko'rsatishi barobarida ularning har biriga mos misollar keltiradi. Mumtoz qasidaning xususiyatlarini bayon qilib, uning mazmuniga alohida urg'u beradi, qasidada aytiladigan mamduh (qasida bag'ishlangan)ning adlu insofi, shijofti, saxovati va boshqa fazilatlarini zikr qilinishi lozimligini, agar shoirning iltimosi bo'lsa, shu qasida tarkibida taxallusdan avval aytishi lozimligini shoirlarga eslatadi. Shu bilan birga misol tariqasida keltirilgan qasidadagi badiiy san'atlarni ham izohlab o'tadi. Mutatavil nomli eng murakkab she'riy janrning izohi faqatgina ushbu risolada bor: *"Mutatavil ul bo'lurkim, hech bahr sekkiz juzvdan ortuq bo'lmas. Shoir takalluf qilib, bu bahrlardan birisin ixtiyor etib, har misra'ni o'n juzv qilurlar. Yo yigirma juz. Haddu hududi yuz juzv bo'lur. Andin ortiq bo'lsa, lutfi qolmas va muning salosati andadurkim, musajja' bo'lsa. Misoli bu qiyos, misra': "Subhidam uyqudin uyg'ondimu bir yori muvofiq bila bo'ston sori bordimki, dame bodai gulrang icholi va kecholi bu jahondinkim, erur asru sitamkoru dilozoru siyah kosa va xunrezi g'amangizkim, ul holda bulbul qilibon nolau g'ulg'ul, taqi bir shoxda qumri bo'lubon muqri, o'qur edilar ovoz qilib soz, biri birig'a muqobil ochibon til, taqi bo'ston ichida rang-barang gullar ochilib, qilibon «Ji ma'iyni no'sh, urub jo'sh, yana saru sarafrozu sarandoz bo'lub, sahn tutib, jumla rayohin bila; alqissa, chaman jannati firdavs bikin dilkash va bisyor xush ediki, banogoh ko'rarmenki, chaman o'rtasinda sarvi ravoneki gulandom va dilorom va pari paykar va mahi manzar erur, orazi gul, kokili sunbul, bo'yi shamshod va yana g'amzasi jallodu base sho'xu sitamgar, ko'zi kofur, o'zi bisyor dilovoz va shakarrez; yurub o'tru salom ettim va dedimkim, ey gulchehrai mahi paykar, xurshid jabin xurmusen yo guli firdavs, bu bog' ichra netib turarsen, ayur: men suxani turkiy namedonam, agar porsiy po'rsi, ba tu go'yam javobeki: hama ahli fasohat bepisandad"*<sup>224</sup>. Ushbu janrning

---

<sup>224</sup> Shayx Ahmad Taroziy. Fununu-l-balog'a. T.: Xazina, 1996.

birgina misrasi shundan iborat bo‘lib, u to‘qson juzv (rukn)ni (ayrimlari yuz juzv)ni tashkil qiladi.

“Fununu-l-balog‘a” (“Balog‘at ilmlari”)ning ilmi aruzga bag‘ishlangan qismida “Aruzi Qustos”, “Aruzi Andalusiy” va “Me‘yori-l-ash‘or” kabi risolalar tilga olinadi, bular Mahmud Zamahshariy, Ibn Hojib va Nosiriddin Tusiy qalamiga mansub asarlar bo‘lib, Shayx Ahmad Taroziy o‘z asarini yaratishda bu asarlarga ma‘lum ma‘noda tayangan: *“Bilgilkim, arab ulamosining ittifoqi birla bahr o‘n olti kelibtur. Ajam ulamosi so‘ngra oriy turub, yigirma to‘rt qilibturlar. Faammo, bu zaif tiladikim, ul azizlarning paydo qilg‘an bahrlarini qalamg‘a keltursa va turkiy iborat birla bayon aylab, har vazng‘a turkiy bayttin misol keltursa»*<sup>225</sup>. Ana shu maqsadda ko‘p kitoblarni mutolaa qilib, aruz dengizida g‘avvoslik qilgan olimi mutaqqaddimlar, ya‘ni 16 bahrni ixtiro qilgan arab ulamosi va mutaaxxirlar, ya‘ni unga forsiy ko‘rk bag‘ishlab, bahrlar sonini 19 ga yetkazgan fors aruziylari mehnati qadrlanadi. Alloma aruz bahrlari soni mutaaxxirlar (so‘nggi aruzshunoslar – Hamidulla Boltaboyev) tomonidan 34 taga yetkazilganini aytadi: *“mutaqorib, mutadorik, hazaj, ramal, rajaz, vofir, komil, saqil, muqorin, muvofiq, mutaloyim, mutanosif, jadid, madid, muhit, basit, muzore‘, mushokil, sahih, sarih, hafif, mujannas, ajib, g‘arib, muntaxab, muqtazab, muzhar, muzmar, munsarij, mundarij, sare‘, bade‘, qarib, salib”*. So‘ngra alloma rukn sifatini o‘rganish uchun 6 usul (usuli sitta) tavsiya qiladi. Shu olti asosni paydo qilgan juzvlar: sabab, vatad va fosila keltiriladi. Va olti asosdan hosil bo‘lgan sakkiz rukn tahlil qilinadi. Buni olim *ajzoyi afoiyl* deb ataydi. Shu bilan birga bahr o‘zgarishlari, ya‘ni zihoflar haqida ma‘lumot beradi. Olimning aruz bahrlari xususidagi fikri o‘zigacha bo‘lgan fikrlardan keskin farqlanib, u arab va ajam she‘ridagi bahrlar sonini 24 ta, o‘zi nomlari keltirgan bahrlarni esa 34 ta deb aytadi. Masalaga jiddiy yondoshilsa, Taroziy domla nazarda tutgan 15 bahr (34–19=15) tabiati jiddiy suratda o‘rganilganda muallif bahrlar sonini turkiy she‘riyatdagi aruziy jihatlar hisobiga ko‘paytirganini aniqlash mumkin bo‘ladi.

---

<sup>225</sup> Shayx Ahmad Taroziy. Fununu-l-balog‘a. T.: Xazina, 1996.

Arab-fors aruziga bunday turkiy she'riyat nuqtai nazaridan yondoshish Shayx Ahmad Taroziydan boshlangan va Boburning "Aruz risolasi"da o'zining komil natijasiga erishgan.

«Fununu-l-balog'a» asarida forsiy «ilmi bade'»lar tajribasi umumlashtirilgan, asarda tahlilga tortilgan san'atlar sonining ortishi bilan she'riyat namunalarining badiiyati ham chuqurlashib, mavzu va janr doirasi kengayib borgan. Muallifning yozishicha, *"har aqsomi sanoat va anvo'i balog'atkim, fusaho va bulag'o arosinda mo'tabardur, majmu'ni jam' qilib, har bir san'atqa turkiy lafz birla misol kelturub va kechgan zurafo va shuaroning bu sanoat birla tazyin qilg'an arabiy va forsiy nazm va nasr so'zlarinda nazir kelturduk. Va ba'zi yerda Kalomi majidtin va Rasul alayhissalom hadisidin naql qilduq"*. Demak, balog'at nav'lari va san'at taqsimlariga doir barcha fikrlarni jam' qilgan alloma arab va fors tillaridagi nasr va nazm namunalarini tergan va quyidagi badiiy san'atlarga ta'rif va misollar keltirgan: *Va majmui sano'ekim, balog'at ahli e'tibor qilurlar, bu turur: tarse', tarse' maat-tajnis, tajnisi tom, tajnisu-s-zoyid, tajnisu-n-noqis, tajnisu-l-murakkab, tajnisu-l-mukarrar, tajnisu-l-mutarraf, tajnisu-l-xat, tashif, tashbehi mutlaq, tajbihi-l-mashrut, tashbehu-l-kinoyat, tashbehu-t-tas-viyat, tashbihi-l-aks, tashbehu-l-izmor, tashbehu-t-tafzil, taf-siru-l-jalo, tafsiru-l-xafo, tazmin, tazminu-l-muzdavaj, tan-siqu-s-sifot, ta'kidu-l-madh, bimo yushbihuzzam, tarjima, taajjub, tajohilu-l-orif, xayol, ihom va ihomu-t-tom, ashkol, e'not, ibdo', irsolu-l-masal, irsolu-l-masalayn, ig'roq fi-s-sifat, ishtiyoq, iltifot, intiboh, iqtibos, istifhom, istidlol, istidrok, istiora, maqlubu-l-ba'z, maqlubu-l-kull, maqlubu-l-mujannax, maqlubu-l-mustaviy, mutazod, murootu-n-nazir, muta-nosib, mutarodifi matlun, musalsal, mutazalzal, muxtamiluz zi-d-dayn, muvajjah, mukarrar, maleh, mukarrari qabih, maqta', mavsil, mushajjar, murabba', mulamma', mujarrad, muvashshah, muammo, mag'lata, lug'z, raqto, xayfo, baroati istihlol, raddu-l-matla', raddu-l-fajr, ala-s-sadr, laffu nashri murattab, laffu nashri mushavvash, tard-ul-aks, xashvu-l-maleh, xashvu-l-qabih, xashvu-l-mutavassit, saj'u-l-muvozana, saj'u-l-mutavo-riy, saj'u-l-mutarraf, sehri hilol, siyoqu-l-e'dod, savolu*

*javob, jam'u-l-mufrad, tashbihu-l-mufrad, tariqu-l-mufrad, jam'u-n-ma at-tafriq vat-taqsim, kalomu-l-mujome', husnu-l-matla', husnu-l-taxallus, husnu-t-ta'lil, husn-talab husnu-l-maqta', at-tarzih*». <sup>12</sup> Bu yuz xil badiiy san'atlarning nomini berish bilan cheklanmay, ularning har biriga o'ziga xos e'tiborli misollar keltirganki, bu allomaning adab ilmlarini puxta egallagan zakiiy dahosidan dalolat beradi. Shayx Taroziyning ulkan xizmatlaridan yana biri shuki, u o'z asarini turkiy tilda yozish bilan cheklanmay, bu tilda ijod qilgan ellikdan ortiq shoir va nosirlarning sara asarlaridan namunalar bergan. Ayrim hollarda misoli uchramagan o'rinlarda o'z ijodidan namunalar keltirib, talqindagi san'at turini o'zbek kitobxoniga to'la yetib borishiga harakat qilgan.

Turk dunyosida Shayx Ahmad Taroziyning nazariy qarashlari barcha arab va fors olimlarining qofiya haqidagi fikrlarining mujassamidir: *“Bilgilkim, majmui ulamo va fuzalo mazhabinda ahli tab'g'a qofiya ilmin bilmak muhimdir. Zeroki, tab'ning natijasi she'rdur. Va she'rning asli qofiya. Va qofiyasiz she'r mumkin ermas. Magar bir tariqa she'r bo'lurkim, oni harora derlar, anda qofiya bo'lmas. Va zurafo baytni xaymag'a nisbat qilibturlar va qofiyani stung'a. Ya'ni stun birla barpoydur”*. Bunda alloma she'rning asl mohiyatini belgilovchi unsur sifatida qofiyani qayd etadi va bayt – uy devorlardan iborat bo'lsa, qofiya uning ustunidir, degan qat'iy qarashni ifoda qiladi. Qofiyaning arab mumtoz adabiyotshunosligi belgilagan besh turini *mutavotir, mutarodif, mutarokib, mutadorik, mutakovis* keltiradi. *«Va Ajam fuzalosining mashhuri yana uch qism ziyoda qilibturlar»* ilovasi bilan *mutasovi, mutarojih, mutazoyid* kabilarni ilova qiladi<sup>226</sup>. Har biriga nazariy talqin va amaliy misollar beradi.

Taassufki, asarning so'nggi qismi saqlanmagan. Chunki ilmi adabning boshqa fanlariga oid turkiyda risolalar mavjud bo'lgani holda risolayi muammo yozilmagan yoki yozilsa ham saqlanmagan. Hatto o'zida butun Sharq adabiyotshunosligining barcha jihatlarini qamragan ustod Navoiy ham muammoga oid risolasini fors tilida yozgani ma'lum.

<sup>12</sup> Shayx Ahmad Taroziy. Fununu-l-balog'a. T.: Xazina, 1996.

<sup>226</sup> Shayx Ahmad Taroziy. Fununu-l-balog'a. T.: Xazina, 1996.

**Husayn Boyqaro davrida adabiyotshunoslikning rivoji.** Shohrux va Mirzo Ulug‘bekdan keyingi davrlarda Xurosonni nisbatan uzoq boshqargan (1469–1506), temuriylar saltanatining yirik vakili Husayn Boyqaro (1438–1506) Husayniy taxallusi bilan “Devon” tartib bergan shoh va shoirdir. She’riyat majlislari tashkil etib, shoirlarga rahnamolik qilgan. “Boburnoma”da: *“Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajib zamon edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxis Hiriy shahri mamlu edi. Har kishiningkim bir ishga mashg‘ullug‘i bor edi, hashamatli va g‘arazi ul edikim, ul ishni kamolga yetkurgay”*, deb bejiz yozilmagan. Husayn Boyqaro turkiy so‘zning nozik xususiyatlari aks etgan g‘azallar bilan birga Navoiy she’riyatiga bag‘ishlangan «Risola» yozgan. Bu asarida Hazrat ijodi haqidagi kuzatishlarini bayon qilgan. Adabiyotshunoslikda bir shoirga bag‘ishlangan bunday ijodiy portret kam uchraydigan holdir. Risola an’anaviy hamd, na’t, so’ngra Yaratganga shukr qilib, dastlab Jomiy xususida: *“Javohiri nazmidin jahon sadafi to‘la durri zamin va luoliyi nasridin aflok atlasig‘a zebu tazyin, tasonifi jame‘i ulumda behad va har tasnifda xazoyini maoniy beaded... G‘azallari sho‘rangiz, baytlari dutfomizkim ko‘p yillar Haq subhonahu va taolo alarning soyai irshodini bardavom va bu davlat ayyomig‘a aningtek sohibdavlatni mustadom tutsun”* deya ta’rif beradi<sup>227</sup>. Manbalarda risolaning ta’rif sanasi ko‘rsatilmagan, ta’rifdagi so‘nggi jumladan ma’lum bo‘lishicha, “Risola” yozilgan paytda Jomiy hayot ekan. Demak, ushbu risola 1492-yilga qadar yozilgandir. Risolaning asosiy maqsadi Alisher Navoiy adabiy siymosining talqini bo‘lganidan Husayniy yozadi: *“Turk tilining o‘lmas jasadig‘a Masih anfosi bila ruh kiyurdi va ul ruh topqanlarga turkioyin alfoz toru pudidin to‘qulg‘an xulla va harir kiydurdi. Va so‘z gulistonida navbahor tab‘idin ravonoso yog‘inlar bila rango-rang gullar ochti va nazm daryosig‘a sahobi fikratidin ruhparvar qatralar bila gunogun durlar sochti”*<sup>228</sup>. Bu ta’rifda Hazrat Navoiy ijodining asosiy jihatlari: turkiy tilda asarlar yozib, uning boqiyiligini ta’minlagani, so‘z gulistonida yangi va rango-rang gullar

<sup>227</sup> Husayn Boyqaro. Risola, devon. T.: Sharq NMAK, 1995. B.11-12.

<sup>228</sup> Husayn Boyqaro. Risola, devon. T.: Sharq NMAK, 1995. B.12–13.

ochgani, ham shaklda, ham ma'noda chuqur asarlar yozib, inson ruhiyatiga madad bo'lgani aytilgan.

*Hirov tazkirachilik maktabi.* Sulton Husayn davrida yaratilgan *Davlatshoh ibn Alovu-d-davla Samarqandiy* (~1436/37–95)ning “Tazkiratu-sh-shuaro” asari (1487) Hirov tazkirachilik maktabini ustivor etgan asarlardan. Tazkira Muqaddima, yetti tabaqa va Xotimadan iborat. Muallif boshlanmada “Bu kitobni osmon tabaqalari tariqasida yetti (qavat osmon – Hamidulla Boltaboyev) tabaqaga bo'ldim, ki uning har bir tabaqasi yigirma fozilga mastur. Va bu tabaqalarg'a muqaddima va xotima ham qo'shdim” deb xabar qiladi. Asarda 150 ga yaqin shoir haqida ma'lumot berilgan. Muqaddimada Labid ibn Alosudolbohliy, Farazdak, Da'bil ibn Ali al-Huzoiy, Ibn Rumiyy, Mutannabiy, Abu A'lo b. Sulaymon al-Maariy, Haririy, Abul Fath al-Bastiy, Ka'ab ibn Zokir Abi Sullamiy, Mu'iniddin Tantarony kabi arab shoirlari qisqa satrlarda tilga olinadi. Fixrist bo'yicha: *1–tabaqa. Forsiyzabon shoirlar tabaqasi bo'lib, unda Rudakiy, Asadiy Tusiy, Asjadiy, Firdavsiy Tusiy, Farruxiy, Amir Muazziy, Nizomiy Aruziy, Nosir Xisrav, A'maq Buxoriy kabi mashhur forsigo'y shoirlar; 2–tabaqada Abdulvose' Jabliy, Afzaliddin Xoqoniy, Avhadiddin Nuriy, Rashid Vatvot, Adib Sobir, Sayfiy Nishoburiy, Asiriddin Axsikatiy, Sayfiddin Isfarangiy kabilar; 3–tabaqada Nizomiy Ganjaviy, Zulfiqor Shirvoniyy, Shohfuroshhariy Niso-buriy, Mavlono Shamsiddin Tabsiy, Mavlono Imomiy Hiraviy, Abdulqodir Niyoziy kabi; 4–tabaqada Farididdin Shayx Attor, Mavlono Jaloliddin Rumiyy, Sa'diy Sheroziy, Xisrav Dehlaviy, Xoja Hasan Dehlaviy, Amir Kirmoniy kabilar; 5–tabaqada Imod Kirmoniy, Salmon Sovajiy, Mavlono Muzaffar Hiraviy, Nosir Buxoriy, Hasan Koshiy, Xoja Hofiz Sheroziy, Mavlono Sharafid-din Romiy, Kamol Xo'jandiy, Xoja Abdulmalik Samarqandiy; 6–tabaqada Qosim Anvor, Bisotiy Samarqandiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Malikushshuaro Kotibiy, Nishoburiy, Xayoliy Buxoriy, Bobo Savdoiy va 7–tabaqada Orifiy Hiraviy, Yusuf Amiriy, Sharafiddin Rizo, Abdulrahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Ahmad Sahliy, Shahobiddin Marvorid, Xoja Osafiy va boshqa shoirlar haqida ma'lumot va she'rlaridan namunalari bor.*



Tazkiraning xotima qismida muallif o'ziga zamondosh bo'lgan Jomiy, Navoiy, Xoja Afzaliddin Muhammad, Amir Ahmad Suhayliy, Xoja Shahobiddin Abdulla Marvarid hamda Xoja Osafiy haqida ma'lumot bergan hamda Alisher Navoiyga bag'ishlangan qasidasini ilova qilgan. Xususan, muallif Navoiy haqida yozadi: "Moliki rivobi kilku shamshir Nizom ul-millat vaddin Alisher (Sohibi shamshir va qilichning, Alisher Nizomidir millatu dinning) davr ulug'larining madhida bo'lgan buyuklik. U barcha oliy xulqlarni o'zida jamlagan siymo... Uning shiori ko'rinishidan loy imorat bo'lsa ham haqiqatda ko'ngil imorati qurish bo'ldi"<sup>229</sup>.

Sharq tazkirachiligida Hirot maktabining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, u Avfiy asos solgan Buxoro maktabidan bir qator xususiyatlari bilan farq qilgan va imkon qadar ijodkorlar haqidagi ma'lumotlarda aniqlik, asarlaridan berilajak namunalarda qisqa va ijodining asosiy jihatini ko'rsatuvchi baytlarga e'tibor hamda tarkib jihatdan mansab va kasblariga nisbatan emas, balki adabiyotga munosabatidan kelib chiqib ish ko'rish, adabiy tarixdagi o'rnini belgilovchi fikrlar aytish yoki mavjud fikrlarga tayanish kabi hollarni kuzatamiz.

Hirot tazkira maktabi haqida so'z ketganda, adabiyotchilar uchun *Jomiy (1414–1492) "Bahoriston" asari* (1487)ning 7–ravzasi tazkiralar qatorida sanaladi. Muqaddimada muallif yozishicha, "Bahoriston" sakkiz ravza – bog'dan tashkil topgan bo'lib, bu jannat ravzalarining har birida o'zgacha gullar jilvasi va o'zgacha rayhonlar atri. Buning gullari kuz shamolidan hazon bo'lmaydi va rayhonlari qish sovug'idan so'limaydi" deb anglatadi. Asarning tarkibi: Birinchi ravza: Darvishlar haqida; Ikkinchi ravza: Donolar hikmati bobida; Uchinchi ravza: Shohlik va adolat bobida; To'rtinchi ravza: saxovat va karam bobida; Beshinchi ravza: Do'stlik va muhabbat bobida; Oltinchi ravza: Mutoibot; Yettinchi ravza: "She'r va shoirlik" bobida deb nomlanib, unda 39 shoir haqida ma'lumot berilgan: Rudakiy, Daqiqiy, Imora, Ursuriy, Asjadiy, Farruxiy, Firdavsiy, Nosir Xusrav, Amir Muizziy, Adib Sobir Termiziy, Anvari, Rashididdin Vatvot, Afzaliddin

---

<sup>229</sup> *Davlatshoh Samarqandiy*. Shoirlar bo'stoni / B.Ahmedov, N.Norqulov tarj. T., 1981.

Xoqoniy, Faxr Jurjoniy, Nizomiy, Salmon Sovajiy, Shayx Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Kamol Xo'jandiy, Xusrav Dehlaviy, Orif Hiraviy va Alisher Navoiy ijodiga kengroq to'xtalgan. Sakkizinchi ravza: Masallar va Xotimadan iborat<sup>230</sup>.

Tazkirachilik an'alariga to'la mos kelmasa-da, 40 yaqin shoirlar haqida qisqa professional talqin berilgani, asarning ilmiy-adabiy qimmatini ham ko'targan. Qolaversa, Jomiyning baho va munosabatida ulkan adabiyotshunos olimning qarashlari mujassam bo'lganini ko'ramiz. Chunki Jomiy hazratlari bevosita adab ilmlariga oid bir necha maxsus risolalar tartib bergan alloma hamdir. Hazrat Navoiy Abdurahmon Jomiyning 38 asariga tavsif bergan. "Haft avrang" ("Yetti taxt") majmuasiga "Tuhfatu-l-ahror" ("Nuroniylar tuhfasini"), "Sibhatu-l-abror" ("Ozodalar, ya'ni nafs qulligidan qutulganlar tasbihi"), "Laylovu Majnun", "Yusufu Zulayho", "Xiradnomai Iskandar", "Silsilatu-z-zahab" ("Tariqat silsilasi"), "Solomon va Absol" dostonlari kiritilgan. She'riy asarlari asosida uch devon tuzilgan. "Bahoriston" nomli nasriy asari (1487), «Risolai aruz», «Risolai qofiya», «Risolai musiqiy», «Favoidi ziyoiya» («Ziyolilik foydalari»), «Sarfi forsii manzumu mansur» («Forsiy nazm va nasrning morfologiyasi») kabi ilmiy-nazariy asarlari uning mumtoz adabiyotning ulug' nazariyotchisi bo'lganidan darak beradi.

Mumtoz poetikaga doir risolalarni tahlil qilganda shu narsa ayon bo'ladiki, qofiya ilmiga oid risolalar aruz va badiiy san'atlarga doir asarlardan kamroq yozilgan. Bu poetika ilmida qofiyaning ulardan keyinroq turishini bildirmaydi, aksincha, mumtoz poetikaning eng murakkab ilmi qofiya va muammodirki, ustod Jomiy har ikki yo'nalishda ham bir necha risolalar muallifidir. Abdurahmon Jomiyning «Risolai qofiya» asari (1465) Shamsiddin Qays Roziyning «Al-Mo'jam...» asariga asoslanib yozilgan. Risola Muqaddima va Xotimadan tashqari «Hurufi qofiya» (1), «Harakoti qofiya» (2), «Mutarodifu muta-votir va mutadoriku muraqorib va mutakovis» (3), «Muqayyadi mutlaqu mujarrad» (4), «Uyubi qofiya (iqtovu ikfo va sinodu yito)» (5) kabi qismlardan iborat. Jomiy yozadi: «Bilgilki, qofiya ajam shoirlari odaticha, baytlar oxiridagi so'zlarning takrorlanib kelishidir,

---

<sup>230</sup> Abdurahmon Jomiy. Bahoriston / Sh. Shomuhamedov tarj. T.: Yozuvchi, 1997. B. 66–90.

shu shart bilanki, talaffuzda mustaqil bo‘lmasin, balki misra’ning bir juzvi bo‘lsin. Ba’zilar jumlaning oxirini qofiya derlar, ba’zilar esa raviy harfini qofiya deb atarlar»<sup>231</sup>. So‘ngra radifga ta’rif beradi: «Radif deb shunday kalimani ayturlarki, bu kalima hamma baytlar oxirida bir xil tarzda takrorlanib kelsin». Jomiy qofiya harflari xususida to‘xtalarkan, ularni bir baytga tizadi, bu esa yodda saqlashni yengillashtiradi:

*Ravivu ridfu digar qaydu ba’d az on ta’sis,*

*Daxilu vaslu xuruju mazidu noira don*

(Mazmuni:

*Raviyu ridfu yana qayd so‘ngra ta’sis,*

*Daxilu vaslu xuruju mazidu noiradir bil)*<sup>232</sup>.

Jomiydan so‘ng ushbu yo‘nalishda fors tilida Nuriddin Ahmad ibn Abdualilning «Qofiya», Atoulloh Mahmud Husayniyning «Risolai dar qavoyidi ilmi qavofi» («Qofiya ilmi qoidalari haqida risola») kabi ilmiy asarlari bitilgan. Bularda Jomiy asos solgan tartib va tarkib saqlangan.

Jomiyning muammo janrining xususiyatlari, uni tuzish, yechish tartiblari haqidagi maxsus to‘rt risolasi: «Risolai kabir dar muammo» («Muammoga doir katta risola»), «Risolai mutavassit dar muammo» («Muammoga doir o‘rta risola»), «Risolai sag‘ir dar muammo» («Muammoga doir kichik risola»), «Risolai asg‘ari manzuma dar muammo» («Muammoga doir kichik nazmiy risola») bor. Hajm va bayondagi ayrim masalalar yuzasidan farqlanuvchi bu risolalar biri ikkinchisini takrorlamaydi, aksincha, muammoday murakkab janrning bir necha muhim jihatlarini bildirishi nuqtai nazaridan biri boshqasini to‘ldiradi. Hatto Jomiy muammoga doir nazmiy risola ham yozgan bo‘lib, bu “Risolai muammoi manzum” (uni fors tilidan Abdulla Gulshaniy tarjima qilgan) Jomiy uslubining o‘ziga xos jihatini ko‘rsatadi. Yuqorida “Risolayi qofiya” mutolaasida ko‘rdikki,

<sup>231</sup> *Abdurahmoni Jomiy*. Osor. Jildi hashtum. Dushanbe: Adib, 1990. S. 141–142.

<sup>232</sup> *Abdurahmon Jomiy*. Risolai qofiya. T., 2018.

Jomiy qofiya harflari va harakatlarini yodda yaxshi saqlanishi uchun baytga joylashtirib, she'r tarzida aytgan. Bu risola esa tamomila masnaviy usulida yozilgan. Dastlab muammo amallari xususida so'z yuritiladi: Muammoiy amallar uch qismdur, bularning har biri nomlar xazinasining tilsimidurlar. Ulardan biri *tahsiliy amallar*, ikkinchisi *suratni takomillash*, *tashiliy amallardir*. Tashiliy amallar o'z navbatida: *intiqod amali*, *tahlil amal*, *tarkib amali*, *tabdil* amalidir. Tahsiliy amallar bobida: *tansis va taxsis (1)*, *tasmiya (2)*, *talmih (3)*, *tarodif (4)*, *ishtirok (5)*, *tarodif (6)*, *tashif (7)*, *hisobiy (8)* va *qonuni kinoyat (9)*. Takmiliy amallar esa *ta'lif*, *isqot* va *qalbdir*, deb tushguntiradi<sup>233</sup>.

Abdurahmon Jomiy "Risolayi aruz" asarining yozilgan vaqti noma'lum. Biroq risolada Xoja Ismat Buxoriydan bayt keltirilishi uning XV asrning 2–yarmida yozilganini bildirsa, Navoiyning "Mezonu-l-avzon" asarida tilga olinishi uning 1492 yildan avval yozilganiga ishora. Anglashiladiki, risola XV asrning 70–80-yillarida ta'lif qilingan. Mazkur 8 fasldan iborat bo'lib, "Mavzn kalom ta'rifi" (1)dan so'ng zihoflar (2), vaznlar usuli (3), ruknlar joylashuvi (4), birinchi doira bahrlari (5: hazaj, rajaz va ramal), ikkinchi doira (6: munsarih, muzori', muqtazab, muj-tass), uchinchi doira (7: sari', jadid, qarib, xafif, mushokil), to'rtinchi doira (8: mutaqorib, mutadorik) kabi tarkiblangan. Tartiblanishiga ko'ra Jomiy, asosan, Shamsiddin Qays Roziyning "Al-mo'jam..." asariga tayangan holda ko'proq misollar keltirish va ularning taqti'larini berish bilan kifoyalangan. Yuqoridagi tarkibdan ko'rinib turibdiki, Jomiy 4 doira: doirayi mo'talifa, doirayi muxtalifa, doirayi muntazia va doirai muttafiqa bilan ish ko'rgan. Risola muallifi Ajamda iste'molda bo'lgan 14 bahr haqida fikr yuritib, misollarini Rudakiy, Anvari, Nizomiy Ganjaviy, Hofiz Sheroziy, Xoja Salmon va Ismat Buxoriydan hamda o'z ijodidan keltirgan. Arab she'riga maxsus tavil, midad, basit, vofir va komil bahrlari tilga olinsa-da, ularning tahlil va misollari berilmagan<sup>234</sup>.

---

<sup>233</sup> Abdurahmon Jomiy. Risolai muammoi manzum / Fors tilidan Abdulla Gulshaniy tarj. O'zRFA Alisher Navoiy nomidagi davlat Adabiyot muzeyi jamg'armasi.

<sup>234</sup> Abdurahmon Jomiy. Risolai aruz. Tarjimon va izohlar muallifi. D.Yusupova. T.: TAMADDUN, 2014.

Abdurahmon Jomiyning adabiy-estetik qarashlari uning dostonlari va boshqa yoʻnalishdagi asarlari tarkibida ham keladi. Hazrat Navoiy oʻziga maʼnaviy pir deb bilgan Jomiy asarlari haqida soʻz yuritib, “*Chun “Silsila” aylading huvaydo, Yuz aqlni qilding anga shaydo*”<sup>235</sup> deya taʼrif bergan “Silsilatu-z-zahab” (“Tariqat silsilasi”) dostonida “*dunyoda qanchadan-qancha tilsim boʻlsa, soʻz uning kaliti*», «*soʻz sayqaligina dil zangini yuvadi*” deyish bilan soʻzning hissiy qudratini ulugʻlash bilan birga uni sanʼatning bir turi sifatidagi salohiyatini alohida taʼkidlagan edi<sup>236</sup>. Bu mulohazalardan maʼlum boʻlishicha, mumtoz adabiyotshunoslikda soʻz qadri ancha baland boʻlgan, badiiy soʻz ham sanʼat, ham hikmat sifatida ham eʼtibor topgan. “Silsilatu-z-zahab”ning 2–daftari ishq falsafasi bilan boshlanadi. Bu yerda shoir Ibn Sinoning “Ishq risolasi”dan farqli oʻlaroq tabiiy mavjudotlarning barchasi unib-oʻsishiga sabab boʻlgan ishq falsafasi haqida ham, faqat yetuk va nodir insonlarga nasib etadigan ilohiy va insoniy ishq haqida ham fikr yuritadi. Jomiy fikricha, nayning shikoyatlari va ishqdan hikoyatlari (Jaloliddin Rumiya ishora)dan maʼlumki, ishq insonlarni adolatga, haqiqatga yetaklaydi. Ishqda nasl-nasab, shohu gadolik ahamiyatsiz. Ishq ohangrabosi soyani ham, nurni ham oʻziga tortadi. Shoirning fikricha, oshiq goʻzallikning quli, agar yori aldasa, baʼzi ishlari yoqmasa koʻngli sovushi, ishq olovi oʻchishi ham mumkin. Ishq otashi soʻnmasligi uchun oshiq dili Vomiq va Qays diliday toza, maʼshuqa jamoli Uzro va Layli kamolidek boʻlishi zarur. “Silsilatu-z-zahab”ning 3–daftarida sheʼr sanʼati va shoirlar tabiati haqida sheʼr – xirad (aql) qushining parvozi, sheʼr – badiiy ijodning mangu ovozi. Aql qushi aytadiki, baʼzan shoirlarni oʻqisang, ilhom bulogʻiga qonasan, baʼzi sheʼrlarni oʻqisang dardu gʻam gulxanida yonasan. Maqtanchoq, havoyi shoirlarning sheʼri yaxshi yonmasdan tutayotgan oʻtin kabi dimogʻingni achitadi, bunaqa shoirlarning soʻzlari insonni qiynab, gʻashlikka soladi. Agar sheʼrda haqqoniylik boʻlsa, bu yaxshi bezakdir. Sheʼrda agar yolgʻon koʻp boʻlsa, rangsiz, qadrsizdir. Yaxshi sheʼr bulogʻida durlar

---

<sup>235</sup> *Alisher Navoiy. Layli va Majnun. / MAT. 9–jild. T.: Fan, 1996.*

<sup>236</sup> *Abdurahmon Jomiy. Tanlangan asarlar / Tuzuvchi va s oʻzboshi muallifi Sh. Shomuhamedov. T., 1971 B. 174.*

ko‘rinadi, she‘r bulog‘i loyqa bo‘lsa, undan suv ichma, tark et. Keyingi faslda esa o‘tmishdagi shoirlar o‘z ijodi bilan podshohlarni abadiy shon-shuhratga noil qilganliklarini aytadi. Unsuriy sulton Mahmudni, Xoqoniy Sharvon shohlarini, Sa‘diy o‘z zamonasidagi nodir insonlar (aka-uka vazirlar Shamsiddin va Alouddin Juvayniy)ni “Guliston”ida va boshqa asarlarida madh etdi. Qudratli shohlarning muhtasham qasrlari vayrona bo‘ldi, ammo ularning nomlari shoirlarning daftarida abadiylashib qoldi. She‘riy so‘z qudrati ko‘ngillarni zangdan tozalaydi, kishanlarni parchalaydi, deb yozadi.

Poetika masalalariga e‘tibor XV asrda kuchli bo‘lgani sababli bir qator ilmiy risolalar ayni davrning mahsuli sifatida yuzaga chiqdi. Abdurahmon Jomiy va Vohid Tabriziy<sup>237</sup>ning risolalarini hamda Yusuf Aziziy va Husayn Voiz Koshifiyning poetika ilmiga doir asarlarida ilmi bade‘ sirlari bayon qilingan.

*Sayfiy Aruziy* Buxoriy (vaf. 1503-y.)ning “*Aruzi Sayfiy*” (1491-y.) asari (Muallif Buxoro va Hirotda tahsil olgan, Alisher Navoiy homiyligida yashagan. Sanoat ahli va hunarmandlar haqida alohida devon tartib bergan) ayrim manbalarda “*Ilmu-l-aruz*”, “*Mezonu-l-ash‘or*”, “*Risolai aruz*”, “*Risolai Sayfiy*” deb yuritiladi. Risola muqaddimadan tashqari, 112 faslni o‘z ichiga olgan. Aruz qismida shoir va she‘r ta‘rifi, aruziy istilohlar lug‘ati, bahr va doiralar, vaznlar tasnifi keltirilgan. So‘ngra hazaj (19 nav‘), rajaz (8 nav‘), ramal (19 nav‘), munsarih (6 nav‘), muzori‘ (7 nav‘), muvtazab (2 nav‘), mujtass (6 nav‘), sari‘ (2 nav‘), jadid (1 nav‘), qarib (2 nav‘), xafif (5 nav‘) bahrlariga o‘rin berilgan. Ruboiy vaznlari to‘g‘risida alohida fasl orttirilgan<sup>238</sup>.

Bundan tashqari, hirotlik shoir va olim Yusuf Aziziyning “*Aruzi Yusufiy*” risolasini (qo‘lyozma nusxasi Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg filiali kutubxonasida 2931 raqami bilan saqlanadi) ko‘rsatish mumkin. Abduqahhor Samarqandiy «*Aruzi Humoyun*» risolasini “*Mezonu-l-avzon*” deb atagan (Navoiyga taqlidan). Eron olimi Muhammad Hasan Adib Hiraviy ushbu

<sup>237</sup> *Вохид Табризи. Джем‘и мухтасар. Критический текст, пер. и примеч. А.Е.Бертельса. М.: Наука, 1959.*

<sup>238</sup> *Валихўжаев Б. Дар бораи “Рисолаи арузи” Сайфи Бухорои / Масъалаҳои назария ва таърихи ад-ти тоҷику ўзбек. Самарқанд, 1975. С.1-11.*

risolani “Aruzi Humoyun” nomi bilan (1959-y.) chop etgandan so‘ng aruzshunoslikda bu asar ushbuayni nom bilan yuritiladigan bo‘ldi. Risola 2 bobdan iborat. Dastlabki bobda aruz ilmi va uning istilohlari sharhlanadi. Ikkinchi bobda aruz qonun-qoidalariga oid fikrlari ifoda qilinadi. Muallif ko‘proq Shams Qays Roziy va Nosiruddin Tusiy asarlariga tayangani asar mundarijasidan ma’lum bo‘ladi.<sup>239</sup>

Ayni davrda yaratilgan ilmi bade‘ga bag‘ishlangan risolalar orasida nisbatan mukammali Atoullloh Husayniyning “Bade‘u-s-sanoye” asaridir. *Amir Burhoniddin Atoullloh Mahmud Husayniy* Nishopuriy (XV asr o‘rtasi – 1513-y.) hayoti haqida ma’lumot kam uchraydi. Hirotda o‘qigan va Sultoniya, Rafiya, Ixlosiya madrasalarida dars bergan. Keyinroq Mashhadga ko‘chib o‘tib, ilmiy va mudarrislik faoliyatini o‘sha yerda davom ettirgan. Navoiyning “Majolis...”ida: “Bovujudi donishmandlik, she‘r va muammo va sanoye‘da dag‘i mahorat paydo qildi va muammog‘a ko‘p mashg‘ul bo‘lur erdi. Holo sabaq kasratidin anga avqoti vafo qilmas, ammo sanoye‘da kitobe tasnif qilibdur “Bado‘i Atoiy”g‘a mavsumdur... Bovujudi ixtisor maqlubi mustaviy (arab yozuvi bo‘yicha o‘ngdan ham, chapdan ham o‘qilishi mumkin bo‘lgan she‘r) san‘atidakim, andin mushkulroq san‘at bo‘lmas, bu bayt ul risolada aning xossa baytidurkim:

*Shakkar dahano, g‘ame nadorad,*

*Dayr ovu nayi mug‘ona darkash.*

Aning tab‘i diqqatig‘a bu bayt dalili basdur”<sup>240</sup>, deb yozgan. Bobur u haqda: “Yana Mir Atoullloh Mashhadiy edi. Arabiy tilini yaxshi bilur edi. Qofiyada bir forsiy risola bitibdur, tavre bitibdur, aybi budurkim, amsila (misol – Hamidulla Boltaboyev) uchun tamom o‘zining abiyotini kelturubtur”<sup>241</sup>. Bu risolaning manti bizga ma’lum emas. Biroq “Badoyi‘u-s-sanoye” risolasida 220 dan ortiq san‘at

<sup>239</sup> *Touq V., Saudali C.* Qomusi qofiya va aruzi she‘ri Ajam. Dar du chilid. Chilidi avval. Душанбе: Ирфон, 1994. Б.53.

<sup>240</sup> *Alisher Navoiy.* Majolisu-n-nafois / MAT. 13–jild. T.: Fan, 1997.

<sup>241</sup> *Zahiriddin Muhammad Bobur.* Boburnoma. T.: Sharq NMAK, 2002.

turlarini farqlash bilan birga ularni lafziy san'atlar, ma'naviy san'atlar hamda lafziy ma'naviy va ma'naviy lafziy san'atlar kabi sinflarga taqsim qiladi.

Atoulloh Husayniy asarida muammo janrining xususiyati to'g'risida jiddiy nazariy fikr bor: *“Muammo bir nomni ishora yo'li bilan ko'rsatuvchi bir mavzun kalom bo'lib, ul tarzda bo'lg'aykim, sog'lom tab' egasi ul kalomdin o'shal nomni chiqara olg'ay, shul jihat bilakim, ismini ko'rsatmak maqsudi bo'lg'ay. Va bu shart ul jihattin qo'yuldikim, agar bir kishi bir she'rni aytqan bo'lsayu bir ism ko'rsatmakni qasd etmagan bo'lsa, andin sog'lom tab' sohibi bir ism chiqarsa, fan ahli odatan ani muammo demaslar”*<sup>242</sup>. Demak, she'r muammo bo'lishi uchun shoir unda kimning ismi yashirin ekanini alohida ajratib ko'rsatishi yoki ishora qilishi kerak.

Sulton Husayn davrida san'atning barcha turlariga e'tibor berilishi bilan birga Hirot xattotlik maktabi mashhur bo'lgan. Navoiyning shaxsiy kotibi *Abduljamil kotib* (vaf. 1505) o'nlab nodir asarlarni, jumladan, “Xamsa”, “Navodiru-n-nihoya” devonini ko'chirgan. Xattotning “Tuhfatu-s-salotin” (“Sultonlarga tuhfa”) nomli shohbaytlar majmuasi o'z davrida shuhrat topgan. Kitobda 45 mavzudagi shohbaytlar jamlanib, o'z davrining kitobat san'ati adabiyotshunoslik<sup>243</sup> ilmi bilan qanchalar bog'langanini ko'rsatuvchi manba sifatida e'tiborlidir.

*Kamoliddin Behzod va uning tasviriy san'at maktabi*. Behzod (1455 y.t.) Shohrux Mirzo zamonida Boysung'ur Mirzo tomonidan asos solingan tasviriy san'atning Hirot maktabini takomiliga yetkazdi. Sulton Husayn Mirzo kutubxonasining raisi Mirak naqqosh Behzodga ustozlik qildi. Mavlono Mirak Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa”sida uning qo'li bilan chizilgan besh surat bor (kitobdagi qolgan suratlar Behzod qalamiga mansub). She'riy munozara va ijodiy majlislarda, anjuman va yig'ilishlarda Behzodning ham asarlari muhokama qilindi. Zayniddin Vosifiy “Badoyi ul-vaqoye” asarida Behzod chizgan Navoiyning bir suratini do'stlari orasida muhokama etilganini hikoya qiladi. Behzod-ning Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”siga chizgan suratlariga jahon

<sup>242</sup> Atoulloh Husayniy. *Badoye'u-s-sanoyi'* / Forschadan A.Rustamov tarj. T., 1981. B.192.

<sup>243</sup> *Abduljamil Kotib*. *Tuhfatu-s-salotin* / Nashrga tayyorl. P.Shamsiyev. T., 2007.



olimlari yuqori baho beradilar. “Zafarnoma”dagi ikkinchi surat Urganch qal’asining Amir Temur qo’shinlari tomonidan qamal qilinishini tasvirlaydi. Tasvirning aniqligi, jangchi va otlarning tez chaqqon va shiddat bilan harakat qilishi, jonliligi sezilib turadi. Naim Norqulov fikricha, Behzod asarlari tufayligina asrlar bo’yi jahon xalqlarini o’z muhtashamligi va ko’rki bilan hayratga solib kelgan me’morchilik obidalarining haqiqiy ijodkorlari ko’z oldimizda namoyon bo’ldi. Ular oddiy xalq vakillari tarix sahifalarida ularning nomi deyarli saqlanmagan bo’lsa ham, o’zlaridan o’lmas yodgorlik qoldirdilar. Bu me’morchilik obidalarini o’tmish madaniyatimiz taraqqiyotidagi bir bosqichning jonli guvohidir<sup>244</sup>. Sulton Husayn Mirzoning bog‘ sayrini aks ettiruvchi surat (Tehrandagi Guliston saroyi san’at koshonasida) ham Behzod ijodiyotining qimmatbaho durdonalaridan biridir. Amir Xisrav Dehlaviy “Xamsa”sidagi to’rt surat Behzodga taalluqli, Shayx Sa’diyning “Guliston” asari Behzodning dastlabki ishlaridan. Keyinroq mamlakatni shayboniylar egallaganidan so’ng Behzod Shayboniyxon xizmatida ekan, uning suratini chizgan. Shayboniyxon eronlilar tomonidan o’ldirilgandan keyin Hirot tasviriy san’at maktabi o’zining ilgarigi, temuriylar davridagi mavqeini yo’qotdi. Shoh Ismoil Behzodga katta imtiyozlar va’da qilib, o’z poytaxti Tabrizga olib ketadi va Tabriz kutubxonasining kitobdori etib tayinlanadi (1522-y.). Mirzo Haydar “Tarixi Rashidiy” asarida sulton Husayn Mirzo zamonidagi musavvirlar haqida yozganida birinchi bo’lib tilga olgandi.

Mashhur naqqosh va musavvir *Mahmud Muzahhib* Husayn Boyqaro saroyida ijod etgan va Behzoddan ta’lim olgan. Shayboniyxon 1507-yili Hirotni olgach, Mahmud Muzahhib Samarqandga ko’chadi va bu yerda ham ijodiy ish bilan shug’ullanadi. Mahmud Muzahhib qalamiga mansub bo’lgan buyuk Alisher Navoiyning surati mashhur. U shoirniig keksalik chog’larini aks ettirib, surat yuqorisida “Surati Amiri kabir Mir Alisher”, degan yozuv bilan chehrasi chuqur ma’nodor chizilgan.

---

<sup>244</sup> Norqulov N. Temuriylar davri madaniyatidan lavhalar. Urgench: Xorazm, 1996. B.57-60.

Tarixchi *Mirxond* “Ravzat us-safo” (to‘liq nomi “Ravzat us-safo fi siyrat ul-anbiyo val-muluk val-xulafo” – “Nabilar, sultonlar va xalifalar siyratlarining poklik bog‘i”) nomli tarixiy asari bilan mashhur. Sulton Husayn hokimiyat tepasiga kelgach (1469-y.), Mirxond Hirotga ko‘chadi. Navoiy iltimosi bilan boshlangan tarixiy asar haqida uning nabirasi va davomchisi Xondamir yozadi: “...ul kitobning oltita daftarini 900 hijriy (milodiy 1494-y.) yilda yozib tugatdi... “Ravzatu-s-safo”ning musavvada holida qolgan tugallanmagan yettinchi daftari Sulton Husayn Boyqaro davrida yuz bergan ahvol tufayli yo‘qolib, tamomlanmay qolgan”. Asarning yettinchi jildi va xotimasini Xondamir (1521-y.) yozib tamomlaydi.

Milliy adabiyotimiz tarixi nafaqat adabiyotshunoslikka oid risola va tazkiralar, bayoz va majmualarda, balki tarix kitoblarida ham aks etgani yuqorida bayon qilindi. Temuriylar davri voqealari bitilgan sara tarixlar qatorida *G‘iyosiddin Humomiddin o‘g‘li Xondamirning* “Habibu-s-siyar fi axbori afrodi bashar” (“Bashar ahli siyratidan xabar beruvchi do‘st”, 1520–24) asari<sup>245</sup> badiiyatga yaqinligi nuqtai nazaridan “Boburnoma” va “Tarixi Rashidiy” singari mo‘tabar manbalar qatorida turadi. Muarrixning “Maosiru-l-muluk” (“Asrdosh podshohlar tarixi”, 1498–99), “Xulosatu-l-axbor fi bayonu-l-ahvolu-l-axyor” (“Xayrli kishilar ahvolidan xabarlar xulosasi bayoni”, 1498–99) kabi asarlarida madaniy hayot tasviri mo‘lroq bo‘lib, “Makorimu-l-axloq” (“Mukarram xulqlar”, 1501)da esa Navoiy biografi sifatida ko‘rinadi<sup>246</sup>.

“Habibu-s-siyar”ga Hazrat Navoiy “Sulton Husaynning eng yaqin kishisi” sifati va Amir Nizomiddin Alisher nomi bilan kirgan. Xondamir tarixida shahzoda Mo‘min Mirzo o‘limi tafsiloti orqali Hazrat Navoiy holatiga yuzlanadi: “Amir

---

<sup>245</sup> *G‘iyosiddin Humomiddin o‘g‘li Xondamir. Habibu-s-siyar fi axbori afrodi bashar. T.: O‘zbekiston, 2013.*

<sup>246</sup> Xondamir asarlarida ilmiy-madaniy hayot, xususan, Alisher Navoiy bilan bog‘liq nuqtalar xususida quyidagi asarlarga qarang: *Boltaboev H. Javohir shodaga q o‘shilgan gavhar // O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati. 2014. 12 fevral; “Bag‘ringdagi durni bilmaysan, tuproq” // Guliston. 2016. 1-son. B.6-7; “Makorimu-l-axloq”da Navoiy siyrati / Alisher Navoiy. Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar. T.: Sano-standrt, 2016. B. 253-255.*

<sup>246</sup> Yuqoridagi asar. B. 853.

Alisher bu ulkan musibat ro‘y berganidan uch kun o‘tgandan so‘ng Mashhad shahridan Hirotga qaytib keldi va ayancli xabarni eshitib, iztirob dengiziga cho‘kkanicha ko‘z arig‘idan qon selini oqizdi”<sup>247</sup>. Xondamir tarixining eng iztirobli sahifalari “Amir Nizomiddin Alisherning o‘tkinchi uydan mangulik saroyiga ko‘chib o‘tgani”i voqeasidir. Ayni rutubatli hodisalar shohidi bo‘lgan tarixchi o‘z ko‘rganlarini yozadi. Muzaffar Sulton Husaynni qarshilamoq uchun yo‘lga chiqqan Hazratning sog‘ligi yomonlashadi: “oliy maqomli amirning avzoyi o‘zgardi va qattiq og‘riq iskanjasida “Xoja Abdulloh, mendan xabardor bo‘lib turing, dedi”. Hazratning bu xavotiri bejiz emas ediki, ko‘p hodisotlarni oldindan bashorat qiluvchi qalbi bo‘lg‘usi judolikni payqagan edi: “Shu so‘zlar aytilib turgan paytda hazrat xoqonning mahofasi yaqinlashib, sultonning yaqin kishisi (ya’ni Navoiy) oldinroq yurib, olampanoh podshoh bilan ko‘rishish maqsadida otdan tushdi... oyoqlarida mador qolmagani uchun bir qo‘lini Xoja Abdullohning yelkasiga, yana bir qo‘lini mavlono Jaloliddinning kiftiga tashlab, ne ilojda mahofaga yaqinlashdi va qo‘l o‘pishga chog‘landi. Biroq zaiflik kuchaygani sababli o‘sha yerga o‘tirib oldi. Saodatmand xoqon qanchalik lutf va ko‘ngil so‘rashlik tili bilan ul sof qalbli amirga so‘z qotib, hol-ahvol so‘ramasin sira ham javob bera olmadi. Bu ish xoqon ko‘ngliga tashvish solib, ul janobni bezatilgan otga o‘rnatilgan xos mahofaga yotqizishlarini buyurdi... Shanba kuni kasallik kuchayishi oldingidan ko‘proq bo‘lib, yakshanba tongi (1501-yil 3-yanvar)da pok ruhining qushi badan qafasini sindirdi va jismoniy tan torligidan mangulik bog‘ining ko‘rkam kengliklari sari parvoz etdi”<sup>248</sup>.

Xondamir bu voqealar tafsilini yanada to‘laroq tasvirlamaydi, u haqda “Makorimu-l-axloq” asari bitilgani bois Hazrat Navoiy bilan bog‘liq tafsilotlar shu o‘rinda yakunlanadi. Bu tarixiy voqealar tarix muallifining adabiy zakosi va she’riy iste’dodi yuksakligidan xabar topamiz. Muarrixning “Makorimu-l-axloq” asari ulug‘ shoir hayoti va faoliyati, asarlari va siyrati, ulug‘lik sifatlarini amirlik

---

<sup>248</sup> *G‘iyosiddin Humomiddin og‘li Xondamir. Habiby-s-siyar fi axbori afrodi bashar. T.: O‘zbekiston, 2013. B. 926-27.*

xislatlari haqida komil ma'lumot berishi mumkin bo'lgan asardir<sup>249</sup>. Xondamir asari hasbi hol emas, shuning uchun ham u ulug' shoir hayotining voqealarini davriy ketma-ketlikda bayon qilishni o'z zimmasiga olmagan. Faqat Muqaddimada Hazratning tavalludi voqeasi va Xotimada esa ularning vafotlari batafsil bayon qilinadi. Kitob Debocha, Muqaddima va Xotima qismlaridan tashqari "O'n maqsad" deb nomlanuvchi boblardan iborat. Har bir "maqsad"da muallif biror ilmiy-ma'rifiy muammoni o'rtaga qo'yadi, uning yechimini beradi va Hazrat Navoiy faoliyatining karomatli axloqidan namuna keltiradi.

Birinchi maqsadda aql-idrokining ulug'lik va yuksaklik martabasi xususida so'z yuritib, "Xulosatu-l-axbor"da keltirgan dono maslahatlari bilan Sulton Husaynning zafar qozonishiga sabab bo'lgan ikki hikoyat keltiriladi va ulug' Amirning boshqalarni to'g'ri yo'lga boshlovchi zakiy aqliga tan beradi. Ikkinchi maqsadda ilmning fazilati va olimlik martabasi xususida so'z yuritib, Hazrat ilmu irfon yo'lida qilgan saxovatli harakatlari, jumladan, ular qurdirgan madrasalar va "oliy martabali ul Amir nomiga atab yozilgan kitoblar"ning mundarijasi va qisqa sharhini keltiradi. Uchinchi maqsad "She'r fazilati va shoirlarning yuksak martabalari" xususida bo'lib, Hazratni "sultonning eng yaqin kishisi" sifatida emas, "so'z san'atida dunyoda yagona bo'lgan hamda ungacha hech kim turkiy tilda undan ko'proq va undan yaxshiroq yozmagan"i (Boburshohning ta'rifiga yaqin) asosli misollar bilan bayon qilinadi. Shu kabi keyingi "maqsadlarda" adiblik fazilati, oxirat yo'lida qilgan savob ishlari, shariat arkonlariga rioya qilishi va tariqat odobida ko'rsatgan o'rnaklari, mehribon va rahmdillikda Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) kabi hech bir jonzotga ozor yetkazmagani, kamtarlik fazilati, ochiqqo'llik va saxovatining bemislligi, topqirlik va hazil-mutoyibalari bayoniga qadar tavsiflanadi. Bu shunchaki bayon va tarixiy tavsif emas, balki turli xil hikoyatlar, hujjatlar, shohidlar va mutoyibalar asosiga qurilgan bir ma'naviy-ilmiy asar tasavvurini beradi. G'iyosiddin Xondamir qofiyasanj shoir va zakiy ta'bli adib sifatida har bir hodisani yuksak nazokat va til odobi bilan

---

<sup>249</sup> *G'iyosiddin Xondamir. Makorimu-l-axloq. T., 2015.*

tasvirlaydi, fikrlariga Qur'oni karim va Hadisi sharifdan asoslar keltiradi, doimiy suratda Hazrat xatti-harakatlari Payg'ambarimiz tutimlariga rioya tarzida ekanini ta'kidlaydi va juda ko'p o'rinlarda ruboiy, bayt va misralar keltiradiki (ularning aksariyati o'zining qalamiga mansub), "qora nasr" ifodada ojizlik qilgan o'rinlarda yuksak she'riyatga joy beradi.

Zamonasining ulkan olimlaridan biri *Zayniddin Vosifiy* (1485–1566)ning "Badoye'u-l-vaqoye" asari adabiyotshunoslik tari-xidagi o'ziga xos original yo'l tutgan asarlardan biridir. Unda garchi voqealar tavsifi safarnoma shaklida boshlansa ham muallif davr voqealarini (1532-yilgacha) xronologik tartib va tarixiy izchillikda emas, balki olim va ijodkorlar hayotidan olingan go'zal hodisalardan lavhalar tarzida shakllantirgan. Asar Vosifiyning Ko'chkunchixon vaziri Xoja Yusuf Malomatiy bilan munozarasi, Hazrati Ubaydullohxon va uning vaziri ta'rifi, Firdavsiy dostonining yozilishi, Ulug'bek Mirzoning ba'zi fazilatlari zikri, Mavlono Binoiy, Kotibiy, Havofiy hikoyatlari kabi alohida fazilatli lavhalardan iborat<sup>250</sup>. Sulton Husayn saroyidagi adabiy majlislar xususida, Hazrat Navoiy bilan kechgan tarixlarda yozilmagan nozik masalalarning bayoni xususida ham so'z yuritiladiki, kitobdagi lavhalar adabiyot tarixini va adabiyotshunoslik masalalarining ayrim jihatlarini yoritishi bilan xarakterli.

Ma'lumki, 1525-yildan so'ng Zaynuddin Vosifiy Toshkentga keladi va umrining so'nggi o'ttiz yili shu yerda kechadi. "Badoye'e-l-vaqoye" esa 1532-yil voqealari bilan yakun topadi. Ne sababki, muallif Toshkentda kechgan hayoti bilan bog'liq nodir voqealarni kitobga kiritmagan, agar shunday bo'lganda edi, XVI asr Toshkent adabiy muhitiga oid ko'plab adabiy hodisotlarning guvohi bo'larmidik.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. Amir Temur tuzgan markazlashgan davlatda adabiyotshunoslik taraqqiyotining asosiy olmillarini keltiring.

---

<sup>250</sup> *Zayniddin Muhammad Vosifiy*. Badoye'u-l-vaqoye' (Nodir voqealar) / Fors tilidan N.Norqulov tarj. T., 1979.

2. Boysung‘ur Mirzoning Nafis san‘at akademiyasi a‘zolari kimlar, ular qaysi fanlar bilan mashg‘ul bo‘lganlar.

3. Shayx Ahmad Taroziy va uning “Fununu-l-balog‘a” asarida mumtoz poetika masalalarining ifodalanish tizimini o‘rganing va boshqa poetik tizimlar bilan solishtiring.

4. Sulton Husayn davrida adabiyotshunoslikning qaysi sohalari taraqqiy topgan va qanday asarlar bitilgan.

5. Kamoliddin Behzod va uning tasviriy san‘at maktabining adabiyotshunoslik masalalariga aloqasi bormi? Bo‘lsa nimada?

6. Atoulloh Husayniyning risolasi mumtoz poetikaning qaysi sohalariga bag‘ishlangan?

### *Adabiyotlar*

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. T.: Cho‘lpon, 1992. B.7.
2. Atoulloh Husayniy. Badoye‘u-s-sanoyi’ / Forschadan A.Rustamov tarj. T., 1981. B.192.
3. Abdujamil Kotib. Tuhfatu-s-salotin / Nashrga tayyorl. P.Shamsiyev. T., 2007.
4. Abdurahmon Jomiy. Bahoriston / Sh. Shomuhamedov tarj. T.: Yozuvchi, 1997.
5. Abdurahmon Jomiy. Risolai muammoi manzum / Fors tilidan Abdulla Gulshaniy tarj. O‘zRFA Alisher Navoiy nomidagi davlat Adabiyot muzeyi jamg‘armasi.
6. Abdurahmoni Jomiy. Osor. Jildi hashtum. Dushanbe: Adib, 1990.
7. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo‘stoni / B.Ahmedov, N.Norqulov tarj. T., 1981.
8. Eson M. Tazkiradan boigrafiyaga. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2012.
9. Mulla Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma. T.: Cho‘lpon, 1990.

10. Norqulov N. Temuriylar davri madaniyatidan lavhalar. Urgench: Xorazm, 1996.
11. Samarqandiy A. Matla’u-s-sadayn va majla’u-l-bahrayn / Forschadan A.O’rinboyey tarj. T.: Fan, 1969.
12. Shayx Ahmad Taroziy. Fununu-l-balog’a. T.: MUMTOZ SO’Z, 1996.
13. Hojiahmedov A. O’zbek aruzi lug’ati. T.: Sharq NMAK, 1998.
14. Табризи. Вохид Джам’и мухтасар. Критический текст, пер. и примеч. А.Е.Бертельса. М.: Наука, 1959.
15. Тоир У., Саидали С. Қомуси қофия ва арузи шеъри Ажам. Дар ду чилд. Чилди аввал. Душанбе: Ирфон, 1994.

## 8-mavzu. ALISHER NAVOIYNING ADABIYOTSHUNOSLIK MEROSI

### *Reja:*

1. *Alisher Navoiyning filologik asarlari tarkibida adabiyot muammolari.*
2. *Navoiyning adabiyotshunoslik merosi.*
3. *“Mezonu-l-avzon” asarida aruz ilmining taraqqiyoti.*
4. *“Majolisu-n-nafois”da badiiy ijod muammolari.*
5. *“Nasoyimu-l-muhabbat” asarida adabiy siymalar*

**Tayanch tushunchalar:** *filologik asarlar, adabiyot muammolari, adabiyotshunoslik merosi, “Mezonu-l-avzon”, “Majolisu-n-nafois”, “Nasoyimu-l-muhabbat”.*

Buyuk shoir va mutafakkir, olim va mutasavvif Alisher Navoiyning ilmiy merosini filologik, falsafiy-tasavvufiy, iqtisod va tarixga oid asarlar tashkil qiladi. Ulug‘ adib o‘zigacha mavjud barcha ilohiy-falsafiy-adabiy ilmlarni izchil o‘rganib, ularni o‘z asarlarida mukammal bir suratda tartiblay olgan ediki, zero Navoiy so‘zlari bag‘ridagi hikmatni, dardu hasrat ham san‘atni anglash hamda o‘sha buyuk ruhiy dunyo ichiga kirish uchun uning dastlab filologik asarlari va badiiy so‘z haqidagi qarashlarini o‘rganishimiz kerak bo‘ladi.

**Alisher Navoiyning filologik asarlari** tilshunoslik va adabiyotshunoslik yo‘nalishida bo‘lib, tilshunoslikka oid asarlari orqali ilk bor tipologik lingvistikaga asos solingan. “Muhokamatu-l-lug‘atayn” (“Ikki til muhokamasi”, 1499-y.) asari muqaddimasida hamddan so‘ng ruboiy keltirib, So‘zning mohiyatini anglatmoqchi bo‘ladi:

*Ey, so‘z bila qilg‘an ofarinish og‘oz,  
Insonni aroda aylagan mahrami roz,  
Chun «kun fayakun» safhasiga bo‘ldi tiroz  
Qilg‘an oni nutq ila boridin mumtoz.*



Mazmuni: Ey, so‘z bilan borliqning boshlanishini yaratgan, Insonni bu jihatdan o‘ziga sirdosh va xizmatchi qilgan. Chunki U “Bo‘l!” deb yozganida borliq yaraldi, insonni nutqi bilan mumtoz (saralangan) qildi. Navoiyning shu singari so‘z ta’rifini keltirgan, uning ibtido va intihosidan so‘z ochgan fikrlari deyarli barcha yirik asarlarida uchraydi. Chunki Alisher Navoiy asarlaridagi fikr teranligi, ozod ruh, mustahkam iymon, tuyg‘ular nafosati va nihoyat, mukarram va ulug‘vor turk (o‘zbek) so‘zining qudratini anglamay turib, ma’naviy yo‘limiz qanchalik yorug‘ va ravshan bo‘lmasin undan dadilroq odimlash mumkin emas. Hazrat Navoiy “Xamsa” muqaddimasida va “Hayratu-l-abror” dostonida so‘z ta’rifiga ayricha bob bag‘ishlagan. So‘zning “bashar vujudining sipehri (yulduzi), inson zotining javhari” ekanligi uqtirilgan hamda nazm tarkibi va nasr tartibi so‘z bilan izoh qilinishi aytilgan.

Mumtoz adabiyotda so‘zning muqaddas sanalishi va uning asosida mukarram bir san’at vujudga kelishi so‘zga Yaratganning buyuk mo‘jizasi degan munosabat bilandir. Chunki so‘zga dunyoning ibtidosi deb qaralishi so‘z san’atkorlari o‘ylab topgan hikmat emas, balki Yaratganning hukmi bilan ekanini Navoiyning talqini orqali yanada aniqroq ilg‘aymiz:

*So‘z kelib avvalu jahon so‘ngra,  
Ne jahonki, kavn ila makon so‘ngra.*

Jahonga avval so‘z kelgan, hali jahon bor bo‘lmay turib, borliq va makonga so‘z kelgan. Yaralmish dunyo vujudga kelishidan avval “kun – yaral!” degan ilohiy so‘z Yaratganning qudratini ro‘yobga chiqardi:

*Chunki mavjud bo‘lsa nuktai “kun”,  
Bo‘ldi mavjud toza, yo‘qsa kuhun.*

Dunyoning yangidan mavjudligi, to‘g‘rirog‘i, tavalludiga “kun-yaral!” so‘zi sabab bo‘ldiki, yo‘qsa “kuhun” (havo, tuman) shaklidagi borliq dunyoga aylanarmidi?!

Alisher Navoiy estetikasining dasturiga aylangan «Insonning guhari shariflig‘i», ya‘ni yaralmish zotlar ichida mukarram va ulug‘ligi so‘z bilan («So‘z ayladiki, insonni judo hayvondin...») deyilishining asosi shundaki, So‘z bilan ziynatlangan go‘zal va komil tarzda yaratilgan Inson o‘zining eng go‘zal so‘zini, eng samimiy va tabiiy tuyg‘ularini Yaratganga bag‘ishlaydi, unga hamdu munojotlar aytadi. Bunday samimiy tuyg‘u va fikrlarning ta‘lifi Xoliq bilan yuzma-yuz muloqotdagina yuzaga chiqishi tabiiy bir hol bo‘lib, Alloh so‘zini tanishday iste‘dod sohibi qilib yaratilgan shoir o‘zining go‘zal va ulug‘vorligi so‘z bilan ekanligini qaysidir ma‘noda, qaysidir darajada anglagani uchun ham uni xalq qilgan Xoliqiga so‘z bilan murojaat qiladi, o‘zining eng oliy fikrlari, insoniy tuyg‘ulari va ilohiy kayfiyatlarini o‘sha so‘zda ifoda qiladi. Yaratgan uni so‘zga oshno qilganligining boisi uchun ham Hazrat Navoiy yozadi:

*Ki so‘z zodai tab‘i farzand erur,  
Chu farzand erur, jonga payvand erur.*

So‘z tab‘ (iste‘dod)ning farzandi bo‘lgandagina u jonga payvand bo‘ladi. Tab‘li farzand esa zoda, ya‘ni yaralmishlar ichida e‘tiborlisidir. Shuning uchun ham o‘zining butun iste‘dodi so‘z bilan ekanligini anglagan shoir yozadiki:

*So‘zni gar tuz dedim va ozdim,  
Neki taqdir aylading yozdim.*

Demak, shoirlik Hazrat Navoiy talqinicha, taqdir ekan, u so‘zning tuzuklari – qoidalarini bilishi, “ko‘z” orqali atrofga, dunyoning boshi va oxiriga razm solishi ham zarur ekan. Chunki so‘z faqat ibtido emas, balki intiho hamdir, hatto intihogina emas, bu ikki qutb o‘rtasidagi mavjudlik belgisidir:

*Avvalu oxiringga solg‘il ko‘z,  
Bil ham avval so‘zu oxir so‘z<sup>251</sup>.*

Hazrat Navoiyning so‘z haqida aytilgan fikrlarining yig‘indisi sifatida so‘z – azal-abad kitobi (*Lavhu-l-mahfuz*), so‘z – dunyoning ibtidosi (*kun – yaral!*), so‘z – Qur‘oni karim («*So‘zga quloq tutib...»*), so‘z – insonni insonlatiruvchi shariflik belgisi («*...guhari sharifroq yo‘q ondin*») kabi qarashlar silsilasidan faqat badiiy so‘z – nafis adabiyotga dahldor ma‘nilarinigina ajratib olinganda ham bu ulkan ta‘limot ekani ma‘lum bo‘ladi.

Alisher Navoiy “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asarida turk va sort (fors) tillarini o‘zaro qiyoslab, turk (o‘zbek) tilining ustunligi, uning poetik imkoniyatlari kengligini ham nazariy jihatdan, ham amaldagi yorqin misollar bilan isbotlab berdi. “Navoiy forsiyda muodil (ekvivalent)ji bo‘lmagan yuzta fe‘lning ro‘yxatini beradi va turli sohalarga oid buyum, tabiiy hodisa, hayvon va parranda ismlarini keltiradi va ularning ba‘zilariga she‘riy misollar keltirib, ma‘nolarini tushuntirib beradi”<sup>252</sup>. Turk tilida tajnis (shakldoshlik) so‘zlar ko‘pligi uchun ham tuyuq janri faqat turkiy tilga xos ekanini dalillangan. Shu bilan birga bu asarda tillarning, xususan, arab, fors, turk va hind tillarining kelib chiqishi va adabiy til sifatida joriylanishiga e‘tibor qaratadi. Qiyosan olganda, “*turk sortdin tez-fahmroq va baland idrokroq va xilqati sofroq va pokroq maxluq bo‘lubdur va sort turkdin taaqqul va ilmda daqiqroq va kamolu fazl fikratida amiqroq zuhur qilibdur va bu hol turklarning sidqu safo va tuz niyatidin va sortlarning ilmu funun va hikmatidin zohirdurur*” deyish bilan<sup>253</sup> baytul egalari o‘zining cheksiz imkoniyatlarga ega ona tili turganda o‘zga til bilan asar yozib, o‘z tilida yozish salohiyatidan mahrum qolmasalar, degan fikr bildiradi. O‘zining turkiy tilda yozgan asarlariga qisqa avtotalqin beradi. To‘rt devon, besh doston, “Nasoyimu-l-muhabbat”, “Lisonu-t-tayr”, “Mezonu-l-avzon” va boshqa asarlarini tilga oladi. Xusrav Dehlaviy, Hofiz

<sup>251</sup> Alisher Navoiy. Hayratu-l-abror / MAT. 7–jild. T.: Fan, 1996. B.60.

<sup>252</sup> Rustamov A. Hazratning tilshunoslikdagi o‘rni / Hazrati Navoiyning ma‘naviy olami. T.: NAVRO‘Z, 2014. B.23.

<sup>253</sup> Alisher Navoiy. Muhomamat-l-lug‘atayn / MAT. 16–jild. T.: Fan, 2000. B.9.

Sheroziy, Abdurahmon Jomiy forsiy tilning ustozlari sanalsa-da, Navoiy ularning asarlariga javoban yozilgan “Sittai zaruriya” va “Fusuli arbaa” turkum qasidalarini keltirish bilan har ikki til shoir ijodida birday ustivor bo‘lganini yozadi. Shu bilan birga turkiy tilda nazm tizgan Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoyi, Muqimiy, Yaqiniy, Amiriy, Gadoiy kabilar orasida Mavlono Lutfiy ijodiga yuksak baho beradi. Sulton Abulqosim Boburning hech qaysi manbalarda uchramagan g‘azalidan matla’ keltirib, “iste’dodidan nishona” ekanligini ta’kidlaydi. So‘ngra “forsiy demakka qodir va turkiy so‘z aytmoqqa mohir” sulton Husayn turkiy tilda devon tuzganini yuksak qadrlaydi. Lekin turk tilidagi ma’no kengligi, mazmundorligiga qaramasdan *“turfaroq bukim, bu nav’ podshohi suxandon targ‘ibi va talqini, ehsoni va tahsini qoidai mutobaat va muvofaqatni unutib va joddai nofarmonlig‘ va zalolatni tutub, ko‘pi, balki borisi forsiyg‘a moyil bo‘ldilar va ul til bila nazmga qoyil”*<sup>254</sup>. Hatto sultonning targ‘ibi va talqini, bu yo‘ldagi ehsonu tahsinlarini bila turib, o‘zga tilda nazm aytishga berilib ketdilar. Shuning uchun ham turk (o‘zbek) tili sharhida bir necha varaq yozishlik menga lozim ko‘rindi. Bu bilan men turk xalqi fasohatining ustozlariga yo‘l ochdim, ularning haq-huquqlarini tanitdimki, ular o‘z tillarining haqiqiy boyligidan voqif bo‘lib, forsiyo‘ylarning ta’na va dashnomlaridan qutildilar. Hazrat Navoiyning bu fikrlari nafaqat filolog olimning nazariy kuzatishlari, balki til siyosati, til istiqloli va kelajagi xususidagi amaliyotchi dahoning xulosalari hamdir.

Navoiyning ”Sab’at abhur” (“Yeti dengiz”) nomli mumtoz arab (Qur’on) tilining izohli lug‘atini tuzgani ma’lum. Asarning nomlanishi ushbu lug‘at kitobiga asos qilib olingan yetti manbaga ishora bo‘lib, bular: 1. Abu Nasr Ismoil ibn Hammod Javhariy (vaf. 1008)ning “Toj al-lug‘a va Sahoh al-arabiyya”. 2. Sag‘oniy-ning “At-Takmila vaz-zayl va-s-silla” (“Sahoh”ga qo‘shimcha). 3. Zamahshariyning “Kashshof”i (Qur’on tafsiri). 4, 5. Ibn Hojibilaning “Mufassal” asarining ikki muqaddimasi va sharhlari. 6. “G‘aroyibu-l-hadis” – hadislar sharhiga bag‘ishlangan lug‘atlar turkumi (ularning birinchisini Abu Ubayda

---

<sup>254</sup> Ko‘rsatilgan asar.

Mu'ammara tuzgan, Muttaqiy lug'ati "G'aribu-l-hadis" mashhur). 7. "Zavoyid" deb nomlangan turli izoh va sharhlar shartli ravishda bir "dengiz" deb olingan<sup>255</sup>. Bulardan tashqari, Majididdin Muhammad ibn Yoqub Feruzobodiyning "Al-Qomus al-muhit va-l-qobus al-vasit" asari (qisqacha "Qomus al-muhit" deb yuritiladi), Abulfazl Muhammad ibn Mukarram ibn Manzur Ansoriy (1232–1311)ning "Lison al-arab" lug'ati va Zamahshariyning "Asos al-balog'a" nomli lug'ati ham Navoiy asariga qo'shimcha manba bo'lib xizmat qilgan.

"Sab'at abhur"da arab alifbosi asosida 28 bob, har bir bob esa 28 fasllarga bo'lingan. Asar 8609 lug'at-maqoladan iborat<sup>256</sup>. Boblarda so'z o'zagining oxirgi, fasllarda esa so'z o'zagining birinchi harflariga e'tibor qaratilgan. Ushbu lug'atning adabiyotshunoslik uchun ahamiyati shundaki, Navoiy ayrim so'z va istilohlarga izoh berarkan, uning lug'aviy ma'nosiga tayanadi. Natijada istilohga asos bo'lgan so'zning ma'nosini bilish orqali, adabiyotshunoslikka oid tushuncha sharhlanishi mumkin. Masalan, ShZR (ش ذ ر) o'zagi asosidagi so'zlarning she'rni munchoq (kabi tartibli) tizmoq (1); gapini she'r bilan (qo'shib) aytmoq (2); so'kmoq, tanqid qilmoq (3); tez, chaqqon ishlamoq (4); sher (5); boshni harakatga keltirmoq (6) kabi ma'nolarni farqlab ko'rsatgan.<sup>257</sup>

**Alisher Navoiyning adabiyotshunoslikka oid asarlari** risola va tazkiralardan iborat<sup>258</sup> bo'lib, ulardan biri aruz nazariyasi va amaliyoti xususidagi "Mezonu-l-avzon" ("Vaznlar o'lchovi", 1492-y.) asaridir. Asarning boshlang'ich qismida yozilishicha, "*aruz fanida bu muxtasar sabt bo'ldi va anga «Mezonu-l-avzon» ot qo'yuldi va necha qoidau doira va vaznkim, hech aruzda, misli fan voziyi Xalil ibn Ahmad va ilm ustodi Shams Qays kutubida va Xoja Nosir Tusiyning «Me'yoru-l-ash'or»ida, balki Hazrati Maxdumiy Nuran (Jomiy) «Aruz»larida yo'q erdikim, bu faqir bu fan usulidin istixroj qilib erdikim, bu kitobg'a izofa qildim*". Chunki bu aruz kitoblari arab va fors tillarida bitilgan bo'lib, turkiy tilda bunday risola

<sup>255</sup> Hasanov B. Alisher Navoiyning "Sab'at abhur" lug'ati. T.: Fan, 1981. B.65.

<sup>256</sup> Hasanov B. Alisher Navoiyning "Sab'at abhur" lug'ati. B.85.

<sup>257</sup> Hasanov B. Alisher Navoiyning "Sab'at abhur" lug'ati. B.70 (tarjima asar maullifiga tegishli).

<sup>258</sup> Hayitmetov A. Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari. T., 1959.

yo‘qligi tufayli (Navoiy Shayx Ahmad Taroziyning “Fununu-l-balog‘a” asaridan xabar topmagan) *“turk tili bila qalam surdum va har nechuk qoidadakim, ma’ni abkorig‘a ziynat va oroyish ko‘rguzub erdilar, chig‘atoy lafzi bila raqam urdum. Andoqkim, to bu mazkur bo‘lg‘on til va lafz binosidur, hech nozing‘a bu dast bermaydur va hech roqing‘a bu muyassar bo‘lmaydur”*<sup>259</sup> deb yozgan.

Aruz istilohiga asosli izoh bergach, juzv (rukn)lar izohiga o‘tadi va olti: sababi xafif (yengil) va sababi saqil (og‘ir); vatadi majmu‘ (birikkan, jamlangan) va vatadi mafruq (ajralgan, farqli); fosilayi sug‘ro (kichik) va fosilai kubro (ulug‘) kabi ruknlarni keltiradi. So‘ngra “asllar” (“usul”) nomi bilan sakkiz rukn keladi: *faulun, foilun, mafoiylun, mustaf’ilun, foilotun, mafoilatun, mutafoilun, maf’ulotu*. Asllardan so‘ng ular asosida hosil bo‘luvchi zihof (o‘zgarish) va furu‘ (tarmoq) ruknlarni anglatadi. Navoiy risolada yetti doira haqida ma’lumot berish bilan cheklanmay, aruz nazariyasiga jami to‘qqizta doirani birlashirgan «*doirai mujtamia*»ni yaratdi va uni nazariy jihatdan asoslab berdi<sup>260</sup>. Alloma taqti‘ qoidalari xususida so‘z yuritarkan, har bir vazn va vazn o‘zgarishlariga turkiy she’riyatdan (ayrim o‘rinlarda forscha she’rlardan) misollar keltirgan, 19 bahr, 160 vaznga izoh bergan. Ushbu risolada Hazaj bahrining axrab va axram shajaralariga oid 24 ruboiy vazni tegishli misollar orqali tushuntirilgan.

“Mezonu-l-avzon”da arab va fors aruzi xususiyatlari anglatilar ekan, shu bilan birga turkiy aruz asosiga qo‘yiladigan lisoniy sifatlarni ham belgilaydi. Navoiy asarida birinchi marta aruzdan boshqa vazn tilga olinadi: «*Yana bir necha vaznki, ba’zini ajam shuarosi mutaaxxirlari aytipturlar va ba’zi bu zamonda nazm topibdur va hech aruzga doxili bo‘lmaydur*»<sup>261</sup> va unga misol keltiriladi. Bu jihatdan Navoiy og‘zaki ijod namunalari tegishli vazn (ya’ni hozirgi istilohdagi barmoq vazni) va janriy shakllarni ta’riflab o‘tib, yozadiki: “*Chun o‘zonlarning o‘zmog‘i va o‘zbaklarning budi-budayi hech vazn bila rost emas erdi, anga taarruz qililmadi, agarchi asarlari bordur, ammo aning aruz ilmig‘a daxli*

<sup>259</sup> Alisher Navoiy. Mezonu-l-avzon / MAT. 16–jild. T.: Fan, 2000. B.31.

<sup>260</sup> Mirzayev S. Navoiy aruzi. NDA. T., 1946.

<sup>261</sup> Alisher Navoiy. Mezonu-l-avzon / Kritik tekstni nashrga tayyorl. I.Sultonov. T., 1949. B. 90-91.

yo‘qtur”<sup>262</sup>. Ko‘rinadiki, Navoiy boshqa bir vazn borligini e‘tirof etgan, uning misollarini ham keltirgan, “budi-buday”, ya‘ni baxshi she‘rlari aruz vazniga tushmasligini ham belgilagan, lekin uning “aruz ilmiga daxli yo‘q”ligi tufayli bu vaznning nazariy xususiyatlarini ochib berishni o‘zining vazifasi deb bilmagan.

Arab-fors-turk adabiyotshunosligida adabiy tur va janrlarga bag‘ishlangan maxsus risola yo‘q (“Fununu-l-balog‘a”ning birinchi qismida she‘r nav‘lari xususida to‘xtalingani ma‘lum), chunki ilmi adab tarkibidagi aruz ilmi doirasida vaznlar xususida so‘z yuritilar ekan, har bir bahrning ifoda shakllari, ya‘ni she‘r janrlari (Shayx Ahmad Taroziyda “nav‘lari”) uning vazn xususiyatlari bilan birgalikda ko‘rsatiladi. “Mezonu-l-avzon”da ham mana shu ilmiy an‘anaga asoslanilgan holda Hazaj bahrining “axram va axrab zihofotining amsoli” sifatida ruboiy («du baytiy» va «tarona» ham derlar”), boshqa munosabat bilan tuyuq kabi janrlar xususida ham to‘xtalgan.

Ilmi adab tarkibida *muammo ilmi* ancha murakkab bo‘lib, bu ilmga oid turkiy risolalar (Shayx Ahmad Taroziy asarining so‘nggi qismi) bizgacha yetib kelmagani, Navoiy davrida esa bunday risola yo‘qligi tufayli “*Mufradot*” asari (1485-y.) fors tilida bitilgan. “*Bu go‘zal zamonda va sharaflı davronda muammo ilmi shuhrat topdi va bu ilmning latofati va daqiqligi haddan oshdi. Bolalar va havasmand turklarning xotirlari ham bu ilmga moyil bo‘ldi... mening ojiz xotirimga keldiki, muxtasar bir risola tuzilsa va har qoidada bir necha qisqa muammodan ravshan va ochiq misollar keltirilsa, takallufdan holi va shubhadan xorij bo‘lgan ma‘noli bir she‘r – muammo bo‘lsa*”. Muammo fanining murakkabligi shundaki, “*har qoidani oydinlashtirish uchun shunday muammo keltirish kerakki, boshqa qoidaning u muammoga daxli bo‘lmasin. Faqat o‘sha ko‘rsatilgan qoidaga tegishli bo‘lsin. Uning haqiqatini kishi tushunsin*”<sup>263</sup>. Shuningdek, Navoiy bu asar muammo fanidan boshlang‘ich ma‘lumot berish uchun yozilgani tufayli shunday nomlagani eslatiladi. Chunki alifboni o‘rganishda dastlab harflarning yakka shakllari (so‘ngroq boshqa harflarga qo‘shilishi) va

<sup>262</sup> Alisher Navoiy. Mezonu-l-avzon / MAT. 16–jild. T.: Fan, 2000. B. 71.

<sup>263</sup> Alisher Navoiy. Mufradot (forschdan L.Zohidov tarj.) / MAT. 20–jild. T.: Fan, 2003. B.392.

birdan o'ngacha bo'lgan raqamlarning yozilishi *mufradot* deb atalgan. Navoiy kamtarinlik bilan o'z risolasini mana shu kabi ilk ma'lumot beruvchi asar sifatida nomlagan. Ikkinchidan, Navoiy nazariy fikrlarning misoli tariqasida keltirgan 121 muammoning hammasi fard shaklida berilgani uchun ham uni "Mufradot" (fardlar) deb atagan bo'lishi mumkin<sup>264</sup>.

Risolada muammoning ta'rifi, 15 amali va 48 uslub qoidalari (yechim yo'llari) zarur misollar orqali bayon qilingan. Navoiyning bunday murakkab ilmga qo'l urishi bejiz emas, bu janrda uning o'zi fors tilida 400 ga yaqin muammo bitgan, birgina "Navodiru-sh-shabob"ning o'zida o'zbek tilida yozilgan 52 muammo borligi ulug' shoirning har ikki tilda bu murakkab janrni puxta egallab, so'ng ilmiy risola yozishga kirishganini ko'rsatadi.

Sharq adabiyotshunosligining asosiy janrlaridan biri tazkira bo'lib, uning bir necha turi mavjud. Eng ko'p tarqalganlari shoir (tazkuratu-sh-shuaro) va valiyalar (tazkiratu-l-avliyo)lar tazkiralari. Alisher Navoiy har ikki tur tazkiraning turkiy adabiyotdagi asoschisi hisoblanadi. Tazkira milliy va o'zaro yaqin adabiyotlar tarixini yaratishda, muayyan davr adabiy muhitini o'rganishda, alohida adabiy siymolar va asarlarni tadqiq etishda adabiyotshunoslikning benazir janri sifatida xizmat qiladi. "*Majolisu-n-nafois*" ("Nafis majlislar", 1491–92, 1498-y.) asarida XV asrda Markaziy va Kichik Osiyoda yashab, ijod qilgan 459 shoir haqida ma'lumot beradi, ularning ijodlaridan namunalar keltirib, zamonining adabiy mezonlari asosida baholaydi.

Asar kichik muqaddima bilan ochiladi, unda o'zigacha tazkira yozgan shoirlardan Jomiy va Davlatshoh Samarqandiy tilga olinib, qisqa mundarija va to'rt ruboiy keltiriladi. Sakkiz majlis tartibida tuzilgan tazkiraning avvalgi majlisida, "*jamoati maxodim va azizlar zikridakim, bu faqir alarning sharif zamonining oxirida erdim va mulozamatlari sharafiga musharraf bo'lmadim*", ya'ni shoirdan avval yashagan va u ko'rishga muyassar bo'la olmagan (1); "*ikkinchi majlis: ul jamoati azizlar zikridakim, faqir alardin ba'zining*

---

<sup>264</sup> Zohidov L. Alisher Navoiy ijodida muammo janri. T., 1986.



*mulozamatig‘a kichiklikda yetibmen va ba‘zining suhbatiga yigitlikda musharraf bo‘libmen, alar sitta va tis‘ina va samona mia tarixidakim, bu muxtasar bitiladur, bu fano domgohidin baqo oromgohiga boribdurlar”, ya‘ni bolalik va yigitlik davrida ko‘rishishga erishgan (2); “uchinchi majlis: alar zikridakim, holo zamon sahoifida moiniy abkori alarning daqiq tab‘lari hullaboflig‘idin nazm libosi kiyadur, nazm libosi alarning amiyk zihnlari mo‘y shikoflig‘idin san‘at va salosat naqsh va nigore topadurkim, ba‘zining mulozamatig‘a musharraf va sarbaland va ba‘zining musohabatidin xushnud va bahramand-durbiz”, ya‘ni zamonining mashhur shoirlari (3); “to‘rtinchi majlis: asr fuzalosi zikridakim, she‘rga mashhur va mubohiy emasturlar, ammo alardin nazm tariyqida ko‘p latoyif zohir bo‘lur va ko‘p zaroyif bosh urar”, ya‘ni zamon fozillari, ya‘ni she‘rda mashhur bo‘lmasada, latif so‘z aytuvchilar (4); “beshinchi majlis: Xurosonning va ba‘zi yerning mirzodalari va soyiri ozodalari zikridakim, tab‘ salomati va zihi istiqomati alarg‘a boisi nazm bo‘lur, ammo mudovamat qilmaslar”, ya‘ni ijodkor amirzodalar (5); “oltinchi majlis: Xurosondin o‘zga mamolik fuzalo va zurafosi zikridakim, bu asrda holo bordurlar va har qaysi o‘z xo‘rdi holig‘a ko‘ra shiringuftor va sohibdevon va ash‘ordurlar”, ya‘ni Xurosondan tashqari (asosan, Movarounnahr va qisman Kichik Osiyo)da yashayotgan shoirlar (6); “yettinchi majlis: salatini izom va avlodi vojub ul-ehtiromlari zikridakim, ba‘zi yaxshi mahallarda xub bayt o‘qubturlarkim, filhaqiqat o‘zlari aytqondek xo‘bdur va ba‘zi nazm latoyifiga mashg‘ul bo‘lubturlarkim, ul dag‘i matlub va marg‘ubdur”, ya‘ni Amir Temur va temuriyzodalardan chiqqan ijodkorlar (7); “sakkizinchi majlis: Sulton sohibqironning latif tab‘i natoyijining zebolari, husn va jamoli zikrida va sharif zehni xasoisining ra‘nolari ganj va daloli sharhidakim, har qaysi zamon safhasi bo‘stonida ranginlig‘ va ravonlig‘din gul‘uzoredur sarvqad va har birisi davron arsasi gulistonida ravonlig‘ va ranglikdin sarvi ozodedur, ulxad Sulton-u-s-salotin Abdulg‘ozi Sulton Husayn Bahodirxon”, ya‘ni Husayn Boyqaro ijodi haqidagi so‘z (8) bilan asar nihoyasiga yetgan.*

Tasnifdan kuzatilishicha, tazkirada ko‘proq muallif o‘zining yaqin o‘tmishdoshlari va asosan, zamondoshlari haqida ma’lumot bergani tufayli asar, birinchidan, muallifga zamondosh bo‘lgan ijodkorlar tarjimai hollari, ijodi va adabiy jarayondagi o‘rnini aniqlashda yordam beradi; ikkinchidan, bizning adabiyotshunosligimizda yetarli o‘rganilmagan adabiy muhit mohiyati va davr qamrovi masalalarini tadqiq etishda; uchinchidan esa, adabiyot tarixining u yoki bu muammolarini yoritishda foydali bo‘lgani ushbu tazkiradan anglashiladi. Qolaversa, tazkirachilik tarixi ma’lum ma’noda adabiyotshunoslik tarixi ekanini ham e’tiborda tutsak, asarni o‘rganmay turib, milliy adabiyot tarixining Alisher Navoiy davri deb atalgan qismini keng ko‘lamda tasavvur etish va yoritish mumkin emas.

Tazkira so‘ngida “Xilvat” sarlavhasi ostida Husayn Boyqaro huzuridagi oliy majlislardan ikki lavha (birinchi lavhada Xusrav Dehlaviyning hindcha she’rlari haqida, ikkinchisi hisorlik yosh shoir haqida) keltirilgan: *“Chun «Majolisu-n-nafois»ning yetti majlisni tab’ ahli g‘avg‘osi va nazm xayli alolosi bila o‘tkarildi. Sekkizinchi majlis Sultoni Sohibqiron majlisidur-ki, ani andoqki, haqidur bayon qilmoq mumkin ermas... Emdi xilvatda dag‘i bir-ikki naql ul hazratning g‘ayri nazm latoyifidin ham bitilsa va bir-ikki so‘z sharh etilsa yiroq bo‘lmag‘ay”*. Ushbu ikki majlis bayonining ahamiyati shundaki, birinchidan, tazkira nafislar majlisi asosida tartib berilgan, shunday ekan, o‘sha majlislardan birini bayon qilish, tazkira mazmunidan tashqarida emas. Ikkinchidan, Sulton Husayn xususida so‘z ketar ekan, shoh tashkil qilgan majlislarda ham “to biling‘ay har kishining tab’i birla holati” deyilganidek, shohning ham, majlis ahlining ham badiiy ahvolutini berish uchun bu muhim imkoniyat. Mana shu imkoniyatni darig‘ tutmagan Hazrat bizga adabiy majlislar haqida tasavvur beradi, ularning tartibi va majlisda bahs yuritilayotgan masalalardan ham ogoh qiladi.

Mazkur tazkira Faxriy binni Sulton Muhammad Hiraviy (1521–22), Muhammad Qazviniy (1522–23), Shoh Abdul Ali (1598-y.) tomonidan fors tiliga

bir necha bor tarjima qilingan<sup>265</sup>. Navoiy tomonidan yaratilgan turkiy tazkirachilik maktabi XX asr boshlariga qadar nafaqat Turkiston yoki Markaziy Osiyoda, balki Eron, Hindiston, Afg‘oniston, Ozarboyjon hamda Turkiyada muvaffaqiyat bilan davom etgan<sup>266</sup>. O‘tgan 500 yildan ortiqroq vaqt davomida yaratilgan tazkiralarda “Majolisu-n-nafois”ning izlarini ilg‘ash qiyin emas. Birgina Onado‘lida turkiy tilda 36 tazkira yozilgan bo‘lib, bular, asosan, “Shoir tazkiralari”dir<sup>267</sup>. “Majolis...”ning ta’siri haqida professor Mustafo Eson shunday yozadi: “Hazrat Alisher Navoiy boshqa ko‘plab tazkiralarga namuna bo‘larlik asar yaratgani bilan ahamiyatlidir... muhimi, tazkiralarning Onado‘lida paydo bo‘lishiga ta’siri, ya’ni bu tazkiralarga andozalik vazifasini bajarishidir. Yanada to‘g‘rirog‘i, Hirot maktabi tazkiralari sifatida nom olgan Jomiy, Davlatshoh va Navoiy hazratlarining asarlari keyinroq Usmonli o‘lkasida paydo bo‘lgan tazkirai shuaro janriga teran ta’sir etib, adabiy biografiya rivojini tezlashtirdi”<sup>268</sup>. Hirot maktabi tazkirachiligining shakllanishiga asos bo‘lgan Navoiyning asari nafaqat turkiy tazkiralarga<sup>269</sup>, balki butun Sharqda tazkirachilik taraqqiyotiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

Navoiyning ikkinchi tazkirası – “*Nasoyimu-l-muhabbat min shamoyimu-l-futuvvat*” (“Ulug‘lik xushbo‘yliklarini taratuvchi muhabbat shabadalari”, 1495–96) valiyar tazkirası bo‘lib, Farididdin Attorning “Tazkiratu-l-avliyo”, Jomiyning “Nafahotu-l-uns” (“Do‘stlik tarovati”) asarlariga munosabat bildirib yozilgan. Jomiy asarida 618 shayx, valiy va mutasavvif adıblar haqida so‘z yuritilsa, Navoiy asarida ularning miqdori 770 ta bo‘lib, turkiy sufiylar, Jomiydan keyin yashagan valiy va valiyalar haqida ham ma’lumotlar berilgan. Ularning shayxlik maqomi, tariqatdagi o‘rni, suluk yo‘li va irfoniy sifatlari bayon qilingan. Asar Farid Shakarganj kitobida zikr etilgan sufiylar va Ahmad Yassaviydan tortib Navoiy

<sup>265</sup> Vohidov R. “Majolisu-n-nafois” tarjimalari. T.: Fan, 1984.

<sup>266</sup> Klasik Turk Edebiyatında Biografi / Mustafa Isen Adina Uluslararası Sempozyum. Bildiriler. Ankara, Atatürk Kültür Merkezi, 2010. 709 s.

<sup>267</sup> Sair Tezkireleri. Haz. Dr. Haluk Ipekten. Ankara, 2002. S.17–28.

<sup>268</sup> Eson M. Tazkiradan boigrafiyaga. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2012.

<sup>269</sup> Mufassal ma’lumot uchun qarang: *H.Boltaboyev*. Turkiy tazkiralarda Alisher Navoiy siymosi // Jahon adabiyoti. 2013. №2. B.157–161.

davrigacha yashagan mashhur turk mashoyixlari haqidagi ma'lumotlar bilan to'ldirilgan.

Muqaddimada kitob ta'lifining sabablari aytilishi barobarida sufiylar toifasi xususida fikr yuritilib, ularga xos jihatlarni yetti bandda ma'lum qiladi, ulardan biri *“adabdirki, yaxshiyu yomong‘a va ulug‘u kichikka bajo keltururlar. Andoqki, barcha xaloyiqdin o‘zlarin kichik va kamroq tutarlar va barchag‘a xizmat huzurida bo‘lurlar. Hattoki o‘z farzandlarig‘a va xodimu mamluklarig‘aki, har necha alardin beqoidalig‘ ko‘rsalar, xushunat birla alarg‘a so‘z demaslar, balki nasihatni yumshog‘ va chuchuk til bila qilurlar, hattoki o‘g‘rig‘acha...”*<sup>270</sup> Bu kabi fazilatlar va sufiylikning martabalari anglatilgach, Hazrat Navoiy Uvays Qaraniydan boshlab Bibichayi Munajjimaga qadar o‘tgan ulug‘ fozil va sufiylarga tavsif beradi. Bu tavsiflarning tasavvuf adabiyoti uchun ahamiyati qanchalik ulug‘ ekanini ta'kidlagan holda tazkiratu-l-avliyolar tarixida ilk bor Robia Adaviya, Lubbobatu-l-muta'abbida, Maryam Basriya, Rayhonai Voliha, Mu'ozai Adaviya, Ufayrai Obida, Sha'vona, Kurdiya, Hafsa binti Shirin, Robiai Shomiya, Hakimai Dimishqiya, Umni Hasson, Fotima Nishoburiya, Zaytuna, Fotimai Barda'iya, Umni Ali zavjai Ahmad Xizravayx, Umni Muhammad validai Abu Abdulloh Xafif, Fotima binti Abobakr Kattoniy, Fizza, Tilmizai Sariy Saqatiy, Tuhfa, Umni Muhammad, Bibiyaki Marviya, Ka'b qizi, Fotima binti Musanno, Joriyai Savdo, Imra'atun Majhula, Joriyai Majhula, Imra'atun Misriya, Imra'atun Misriyai Uxro, Imra'atun Xorazmiya, Joriyai Habashiya, Imra'atun Isfahoniya, Imra'atun Forsiya, Bibichai Munajjima singari valia va fozila ayollarni o'z asariga kiritgani bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, unda adib va shoirlar, faylasuf va mutafakkirlar qatorida Ahmad Jomiy, Pahlavon Mahmud, Abulvafo Xorazmiy, Jaloliddin Rumiy, Shamsuddin Tabriziy, Bobo Ko'hiy, Sharafuddin Yazdiy, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Hasan Dehlaviy, Shayx Kamol Xo'jandiy, Mavlono Lutfiy kabilar ijodiga doir maxsus maqolalar borki, bu adiblarning adabiyot tarixidagi o'rnini belgilashda shaksiz Navoiyning e'tiroflariga suyanamiz.

---

<sup>270</sup> Alisher Navoiy. Nasoyimu-l-muhabbat / MAT. 17–jild. T.: Fan, 2001.

Yuqorida ko‘rganimiz “Hayratu-l-abror” tarkibida va “Xamsa” muqaddimasidagi kabi “*Xazoyinu-l-maoniy*”ning *debochasida* ham devon tuzish tartibi, ayrim janrlar nazariyasiga oid salmoqli ta’limot mavjud. Adabiyotshunoslikdagi muhim masalalardan biri shakl (mumtoz adabiyotshunoslikda surat) va ma’no munosabatidir. “Hayratu-l-abror” dostonida Alisher Navoiy «*Bir necha so‘z ul ma’nidakim, so‘zdag‘i ma’ni jone dururkim, so‘z qolibi onsiz qolibe dururkim, jonsiz va ani topmoq ishini kishi bilmas, balki ani topqon kishi topilmas va ahli g‘azof noin sofligiga munsif bo‘lmoq, balki o‘z g‘azofiga insof berib, alarning uzrin qilmoq*»<sup>271</sup> degan talqin bilan maxsus maqolat yozadi. Ma’no haqida so‘z yuritganda, u so‘z qolipining jonidir, jonni qolipdan ajratib bo‘lmaydi, shunday ekan, ma’no va surat ajralmas bir mohiyatdir. Uni nazmda ko‘rmoqchi bo‘lganlar, ularni bir butunlikda ko‘rishlari, vazn va bahr kabi zohiriy sifatlarni, she’rning jonidan ajratmasliklari kerak, chunki qolip jonga munosib kelgandagina jozib bo‘ladi. Tuyuq bahrini anglamagan kishi, qo‘shiqni tuyuqdan farqlay olmaydi. Lafzi bemaza, tarkibi sust asarda ma’ni ham nosara va uning xulosasi nodurust bo‘ladi:

*Anglamayin so‘zda tuyuq bahrini,  
Qaysi tuyuq, balki qo‘shuq bahrini.*

*Lafzalari bemaza, tarkibi sust,  
Nosara ma’niyu ado nodurust.*

*Borchasiga da’viyi ma’niyi xos,  
Xoslarim topmay alardin xalos.*

Demak, surat va ma’no munosabati biri ikkinchisini taqozo qilgan, faqat o‘zaro mavjudlikdagina harakatga kelishi mumkin bo‘lgan jon va jasaddir.

---

<sup>271</sup> Alisher Navoiy. Hayratu-l-abror / MAT. 7–jild. T.: Fan, 2000. B. 62.

Tasavvuf adabiyotida bu talqin yanada chuqurlashib, ma'no va surat birligi *ruh-jon-nafs* tarbiyasi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Alisher Navoiy asarlarida bo'lsa, ifoda shakli sifatida e'tirof etilgan "nazm" va "nasr"ga munosabat alohida ilmiy ta'limot sifatida yuzaga chiqadi. Bu so'zlar nafaqat adabiy istiloh ma'nosida qo'llanilgan, balki ularning ma'no va ifodaviy mazmunlari ham anglatiladi. Hazrat Navoiyning «nasr qaro yerga sochilmoqliq'i» misrasida «nasr» so'zining adabiy istiloh sifatidagi ma'nosi ham «sochmoq»dan olinganiga ishora bor. Darhaqiqat, ayni so'z ( ن ر ن ) arab tili lug'atlarida yuqoridagi ma'nolardan (ular «sod» va «sin» bilan yozilgan edi) farqlanib (biz kutgan ma'nodagi nasr «se» bilan yoziladi), «sochilgan» ma'nosini anglatadi. Navoiy hazratlari nasrning xos xususiyatlarini sharhlash orqali aytilmoqchi bo'lgan fikrning yangi inja qirralarini ochib berishni ham lozim biladi:

*Nasr andaki, anjom ila og'oz erdi,  
Har lafzi aning moyayi e'joz erdi.*

Agar (yozganing) chin mohiyat, ya'ni oqibat natijani ifoda qilsa, uning har lafzi asl mo'jiza bo'lsa, o'shanda nasr tugal bo'ladi. Bunday zohiriy ma'nodan tashqari «anjom ila og'oz» jihati, ya'ni «nujum bila boshlamoq»ni ham nazarda tutadigan bo'lsak, Navoiyning nasriy asarlarga bo'lgan talabi nazmnikidan kam emas, balki undan ziyodaligini uqish mumkin. «Layli va Majnun»da shunday qiyosiy ta'rif mavjud:

*Ham nazming nasrdek kelib xo'b,  
Ham nasring nazmdek diloshub.*

Navoiy agar nazming (she'rlaring) nasrdek yaxshi tushunarli bo'lsa, nasring ham nazmdek dildan, ehtirosli qabul etilsa, deb adabiy niyat qilgan ediki, «Mahbubu-l-qulub»ning nasriy va uslubiy tajribasi bu niyatga erishganligini

tasdiqlaydi. Nasr va nazm bahsida Navoiyning nazmga ustivor xoslik tilaganini ham unutib bo‘lmaydi. Albatta, bu «nazmning har sinfini raqam qilgan» ulug‘ san’atkor uchun nasrning murakkab ifoda usullari og‘ir kelganini ko‘rsatmaydi, balki turk lafzi og‘ir va zalvorli edi, uni nazmga solganlar ham mana shu og‘irlikni dildan tuygan va unga munosib shakl va vaznlar topa bilgani mumtoz adabiyotga oshno bo‘lganlar uchun tushunarli hol.

Alisher Navoiy o‘zigacha devon tuzgan shoirlar haqida “Badoye’u-l-bidoya”ning debochasida so‘z yuritib, *“har harf g‘azaliyotining avval bitilgan g‘azal bila o‘zga g‘azallar orasida uslub xaysiyatidin tafovut rioya qilmaydurlar”* deya devon tuzishda faqat alifbo tartibotini saqlashning o‘zi bilan emas, balki u g‘azallarning usluban o‘zaro bog‘liq bo‘lishi e’tiborga olinish lozimligini uqtiradi. Yana devon tuzganlar majoziy husnu jamol ta’rifi bilan cheklanadilar. *“Devon topilg‘aykim, anda ma’rifatomiz bir g‘azal topilmag‘ay va g‘azal bo‘lg‘aykim, anda mav’izatangiz bir bayt bo‘lmag‘ay. Mundoq devon bitilsa, xud asru behuda zahmat va zoyi’ mashaqqat totilg‘an bo‘lg‘ay”*<sup>272</sup>. Demak, g‘azaldan murod faqat yorning jamolini tasvirlash emas, balki unda ma’rifatomiz bir hikmat, g‘azalning bosh g‘oyasini mav’iza qiluvchi bir bayt – shohbayt bo‘lishi ham kerak ekan. Navoiy bu tamoyillarni boshqa shoirlardan talab etish uchun emas, balki o‘z devonida mana shu tamoyillarga amal qilgani uchun ham ko‘rsatmoqda. Hazrat Navoiyning “Badoyi’u-l-bidoya”, “G‘aroyibu-s-sig‘ar” devonlari tarkibidagi debochalardagina emas<sup>273</sup>, balki butun she’riyatida mumtoz adabiyotning taraqqiyotiga xizmat qiluvchi, uning joriy tartib va nizomlarini ichdan yangilovchi va she’riyatni yangi bir ulug‘ pog‘onaga olib chiquvchi xislatlarning bayoni ham singganini ko‘ramiz.

Ma’lum bo‘lishicha, *tarixga oid asarlar* ikki turli bo‘lib, biri muqaddas tarix hisoblangan diniy tarix, ikkinchisi shohlardan tortib oddiy fuqarogacha bo‘lgan davlatchilik va fuqarolik tarixiga bag‘ishlangan asarlardir. Islom sharqi tarixchiligida har ikki jihat birlashib, har qanday tarixda Odam (a.s.)dan tortib

<sup>272</sup> Alisher Navoiy. *Badoyi’u-l-bidoya. Debocha / MAT. 1–jild. T.: Fan, 1983. B.15–16.*

<sup>273</sup> Qarang: *Karimova F. O‘zbek adabiyotida debocha. T.: MUMTO‘Z SOZ, 2008.*

nabiyi oxirzamon bo‘lgan Muhammad (s.a.v.)gacha Payg‘ambarlik tarixi, so‘ngra valiy va hakimlar (donishmandlar), shoh va amirlar hamda fuqarolik tarixi bayon qilingan. Alisher Navoiy tarixiy asarlarida ham mana shu tamoyil ustuvor (“Muhokamatu-l-lug‘atayn”da bu tarix kitoblari “Zubdatu-t-tavorix” (“Tarixlar sarasi”) nomi bilan tilga olingani bejiz emas). “Tarixi anbiyo va hukamo” (“Payg‘ambarlar va hakimlar tarixi”, 1485–1498) asarida payg‘ambarlar va donishmandlar tarixi hikoya qilingan bo‘lsa, “Tarixi muluki Ajam” (“Ajam shohlari tarixi”, 1488-y.)da Ajam tarixidagi to‘rt sulola: peshdodiyalar, kayoniylar, ashkoniylar, sosoniylarga mansub 60 dan ortiq hukmdor tarixi bayon qilingan. Biz yuqorida ayrim tarixnavislarning adabiy iste‘dodi va faoliyatidan so‘z yuritdik. Hazrat Navoiy kabi ulug‘ shoir va mutafakkir adabiyotshunosning tarixga oid asarlari qatlarida ham shunday buyuk bir ta‘limot mavjudki, ularni alohida tadqiq etish lozim ko‘rinadi. Biz bu o‘rinda birgina nuqta talqini bilan cheklanamiz.

Alisher Navoiyning nasriy asarlari sifatida (ayrim adabiyotlarda memuar asarlar) qayd etiladigan adabiy-tanqidiy ocherk xarakterini o‘zida aks ettirgan, aslida tasavvuf adabiyotidagi manqaba (ko‘pligi: manoqib) usulida yozilgan uch asari borki, ularni mohiyatan mumtoz adabiyotshunoslikning yuksak namunasi sifatida qabul etish mumkin. Bulardan ”Xamsatu-l-mutahayyirin” (“Besh hayrat”, 1993–94) Jomiyga bag‘ishlangan yodnoma bo‘lib, “Nuran maxdum” deb tavsiflangan ustoz bilan bo‘lgan muloqotlar, voqealar bayonida maktublardan misollar keltirilgan, shuningdek, asarda Jomiy asarlarining ro‘yxati berilganki, bu jihatdan u ham ilmiy, ham badiiy-axloqiy ahamiyatga ega. Shuningdek, ayrim asarlarning yozilish tarixiga oid ma‘lumotlar ham uchraydi. *“Bir kun ul Hazrat xizmatida erdim va har nav’ nazmdin so‘z o‘tar erdi. So‘z asnosida Mir Xusrav (a.r.)ning «Daryoi abror» otlig‘ qasidasi mazkur bo‘ldi. Bu faqir go‘yo aning ta‘rifida mubolag‘a qildim va muhiq erdim. Nevchunkim, Mir Xusravdek kishidin mundoq mashhurdurkim, demish bo‘lg‘aykim: «Agar aflok havodisi va ro‘zgor navoibidin mening borcha nazmim zamona sahifasidin mahv bo‘lsa va bu qasidam golsa menga basdur, nevchunkim, har kishi ani o‘qusa bilurkim, nazm mulkida*



*mening tasarruf va iqtidorim ne martabada erkandur*»<sup>274</sup>. Jomiy hech nima demasdan majlisni tarqatib, boshqa kuni esa bu qasidaga javoban yozilgan «Lujjatu-l-asror»ni o‘qishga beradi. Navoiy ham yo‘lda keta turib, ot ustida qasidani o‘qib, unga javoban «Tuhfatu-l-afkor» qasidasining matla’sini xayolga keltirib, Jomiyga yozib yubordi. Jomiy hazratlari baytni o‘qib, uni ayni shu qasidani yozmoqqa da’vat qildi. Natijada Navoiyning «Tuhfatu-l-afkor» qasidasi dunyoga keldi<sup>275</sup>.

“Holoti Sayyid Hasan Ardasher” – ustoz va do‘sti, komil inson deya sharaflangan Sayyid Hasan Ardasheriga bag‘ishlangan bo‘lsa, “Holoti Pahlavon Muhammad” (1993–94) “shamsu-l-millat” deb ulug‘langan Pahlavon Muhammad haqida.

Alisher Navoiyning nasriy asarlari orasida yirigi va ijtimoiy-falsafiy masalalar qamroviga ko‘ra keng mavzuligi «Mahbubu-l-qulub» (“Ko‘ngillar sevgani”, 1500-y.)dir. Asarda dastlab turli tabaqa vakillari xususida, so‘ngra insondagi go‘zal va xunuk sifatlar bayonida so‘z yuritilgan, ezgulik yo‘lida chorlab, pand va tanbehlariga o‘rin bergan. Ezgulikni ulug‘lab, qabihlikni rad etish, yuksak axloqiy ideal yo‘lida hikmat va maqol keltirish bilan bayonda aniqlik va ixchamlikka erishish, hikoyat va she’riy namunalari omuxtaligi asarga xos xususiyatdir. Asarning 1-qismida alohida bob doirasida shoirlik xususida so‘z yuritadi: “*Nazm gulistonining xushnag‘ma qushlari*”, ya’ni shoirlar bir necha tabaqa bo‘lib: avvalgi jamoat – xalqqa manfaat keltiruvchilarni ta’riflovchilar, ularning “*ishlari maoniy xazoinidin ma’rifat javharin termak va el fayzi uchun vazn silkida nazm termak*. Yana bir jamoat shoirlar borki, *haqiqat asrorig‘a majoz tariqin ahsul qilibdurlar va kalomlari bu uslubda marbut etibdurlar*”. Ular haqiqat sirlarini majoz – obrazlar orqali anglatadilarki, ulug‘lari Sa’diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Hakim Sanoiy, Avhaduddin, Hofiz; yana bir jamoa bordirki, ularning asarlarida majoz tariqi ustivorlik qiladi. Ular: Kamol Isfahoniy, Xoqoiy Shirvoniy,

<sup>274</sup> Alisher Navoiy. Xamsatu-l-mutahayyirin / MAT. 15–jild. T.: Fan, 1999. B.26.

<sup>275</sup> Alisher Navoiy. Xamsatu-l-mutahayyirin / Tanqidiy matn. Tuzuvchi va s o‘zboshi muallifi O.Alimov. T., 2015. B.41–42.

Hoji Kirmoniy, Mavlono Jaloliddin, Xoja Kamol, Anvari, Salmon Sovajiy, Nosir Buxoriy va boshqalar. Yana haqiqat va majoz tariqida komil va ilmi ikkalasi tariqida vofiy va shomil, nazm ahlining muqtado va Abdurahmon Jomiy bo‘lib, “*olamda zavqu hol ahli bular latoyifi bila masrurdurlar va bular maorifi bila huzur qilurlar*”. Bundan tashqari, Navoiy ayrim nafislikda tab’ ahli bo‘lmay, balki shoirlik da’vosi baland bo‘lganlarni alohida tanqid qilib yozadiki:

*A’lolaridur nedinki dersen a’lo,  
Adnolari ham barchadanidin adno.  
Avsatlarikim, hech nimaga yaramas,  
Bilkim, nafas urmamoq alardin avlo<sup>276</sup>.*

Ular o‘zlarini she’rda a’lo bilsalar-da, aslida tubanlardan quyiroqdir, ular o‘rtacha bo‘lsalar ham, bunday o‘rtachalik (vasat) she’r uchun yarashmaydi, undan ko‘ra she’rga qo‘l urmaslik a’lo bo‘lur edi.

Alisher Navoiyning adabiyotshunoslikka doir qarashlari markazida shoirning o‘zigacha o‘tgan ijodkorlar – salafariga munosabati turadi. Navoiy har ikki tazkirasidan tashqari ko‘plab badiiy asarlarida, ayniqsa, “Xamsa” va “Devoni Foni”da bu qarashlari izchillik kasb etganiga guvoh bo‘lamiz.

Alisher Navoiy badiiy ijod sohasida o‘z salafaridan ta’lim oldi. Sharqning mashhur mutafakkirlari ijodi bilan puxta va atroflicha tanishib, ular ko‘tarilgan yuksak darajaga ko‘tarilish uchun ko‘p mehnat sarf qildi va, nihoyat, uning mehnati zoye ketmadi, shoir o‘z maqsadiga erishdi. Professor A.Hayitmetov haqli ravishda ta’kidlab o‘tganidek: “u epik poeziyada Firdavsiy, Nizomiy, Xisrav Dehlaviy, Jomiyni, lirik poeziyada Hofiz, Xisrav Dehlaviy, Jomiy, Lutfiyni tan olar va butun hayotida ular bilan tenglashishga intilgan edi. Shuning uchun uni

---

<sup>276</sup> Alisher Navoiy. Mahbubu-l-qulub / MAT. 14–jild. T.: Fan, 1998. B.21.

Sharq shoirlaridan faqat shu gigantlar bilan ayniqsa, masnaviyda Nizomiy, gʻazalda Hofiz bilan tenglashtirish toʻgʻri boʻlur...”<sup>277</sup>

Alisher Navoiy adabiy merosining muayyan qismi sheʼriy va nasriy yoʻlda bitilgan diniy-tasavvufiy, irfoniy-falsafiy asarlarni tashkil qiladi. Chunki Hazrat Navoiy buyuk mutafakkir sifatida din tarixi va falsafasi, shariat ahkomi va qoidalari haqida fikr yuritmasligi mumkin emas edi. Shu jihatdan ”Siroju-l-muslimin” (“Musulmonlar nuri”, 1499/1500-y.) 197 baytli masnaviy boʻlib, shariat qonun-qoidalari, islom ruknlari va ahkomlariga bagʻishlangan. Shuningdek, musulmon adiblari orasida ayrim hadislar mazmunini sheʼrga solish, mashhur hadislar haqida sharhlar yozish anʼanasi mavjudki, “Arbaʼin” (“Qirq hadis”) asari ana shu anʼana ruhida yozilgan. ”Nazmu-l-javohir” (“Nazmdagi gavharlar”, 1485-y.) asarida xulafai roshidin (asl xalifalar)ning soʻnggisi Hazrat Alining “Nasru-l-luʼoli” (“Nasrdagi durlar”) nomli hikmatlar toʻplamiga kirgan har bir hikmat yoki iboraga taronai ruboiy tarzida badiiy sharh bitgan. Nasriy muqaddima va 265 ruboiydan iborat bu toʻplam irfoniy mazmuni goʻzal toʻrtlik tarzida badiiy mukammal ifodalangani bilan qadrlidir.

Sharq islom adabiyotida Robia Adaviyadan boshlangan sheʼriy va nasriy munajat janri shakllangan. Munajat oʻz qatʼiy sheʼr shakliga ega boʻlmagani uchun gʻazal-munajat, ruboiy-munajat, masnaviy-munajat va boshqa shakllarda ifodalangani, Hazrat Navoiyning sheʼriy munajotlari shoirning devonlari va dostonlari tarkibida uchraydi. Biroq “Munajat” sarlavhali nasriy (ayrim satrlarida sajʼli) asari ham borki, u mazmun teranligi, dil roziga aylangan iltijo, yozgʻurish jihati bilan ajralib turadi va Sharq adabiyotida munajat janrining mumtoz namunasi sifatida oʻzidan keyingi ijodkorlarga namuna boʻlib xizmat qiladi.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. Alisher Navoiyning filologik merosida adabiyotshunoslikka doir asarlarining oʻrnini koʻrsating.

---

<sup>277</sup> Hayitmetov A. Navoiyning ijodiy metodi masalalari. T.: OʻzFA nashriyoti, 1963. B.166.

2. “Mezonu-l-avzon asarining o‘qing, konspektlashtiring va uning adabiyotshunoslik tarixidagi o‘rnini ko‘rsating.

3. “Majolisu-n-nafois” asarida shorlar haqidagi ma’lumotlar barobarida adabiyotning qaysi nazariy masalalariga e’tibor qaratilgan.

4. Navoiy devonlarining debochalarida qanday nazariy fikrlar ilgari surilgan.

5. “Mahbubu-l-qulub” asaridagi shoirlarga bag‘ishlangan bobni sharhlang.

6. Jomiy munosabati bilan adabiyotshunoslikning qaysi muammolari tilga olingan.

### *Adabiyotlar*

1. Alisher Navoiy. Badoyi’u-l-bidoya. Debocha / MAT. 1–jild. T.: Fan, 1983.

2. Alisher Navoiy. Hayratu-l-abror / MAT. 7–jild. T.: Fan, 1996.

3. Alisher Navoiy. Nasoyimu-l-muhabbat / MAT. 17–jild. T.: Fan, 2001.

4. Alisher Navoiy. Xamsatu-l-mutahayyirin / Tanqidiy matn. Tuzuvchi va s o‘zboshi muallifi O.Alimov. T., 2015.

5. Alisher Navoiy. Mahbubu-l-qulub / MAT. 14–jild. T.: Fan, 1998. B.21.

6. Alisher Navoiy. Mezonu-l-avzon / MAT. 16–jild. T.: Fan, 2000.

7. Alisher Navoiy. Mufradot (forschdan L.Zohidov tarj.) / MAT. 20–jild. T.: Fan, 2003.

8. Alisher Navoiy. Muhomamat-l-lug‘atayn / MAT. 16–jild. T.: Fan, 2000.  
B.9. Ko‘rsatilgan asar.

9. Alisher Navoiy. Majolisu-n-nafois / MAT. 13–jild. T.: Fan, 1997.

10. “Bag‘ringdagi durni bilmaysan, tuproq” // Guliston. 2016. 1-son. B.6-7;  
“Makorimu-l-axloq”da Navoiy siyrati / Alisher Navoiy. Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar. T.: Sano-standrt, 2016. B. 253-255.

11. Boltaboyev H. Turkiy tazkiralarda Alisher Navoiy siymosi // Jahon adabiyoti. 2013. №2. B.157-161.

12. Fitrat. O‘zbek adabiyoti namunalari. 1–jild. T., 2013.

13. G'iyosiddin Humomiddin og'li Xondamir. *Habiby-s-siyar fi axbori afrodi bashar*. T.: O'zbekiston, 2013.
14. Hayitmetov A. *Navoiyning ijodiy metodi masalalari*. T.: O'zFA nashriyoti, 1963. B.166.
15. Hayitmetov A. *Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari*. T., 1959.
16. Karimova F. *O'zbek adabiyotida debocha*. T.: MUMTO'Z SOZ, 2008.
17. *Klasik Turk Edebiyatinda Biografi / Mustafa Isen Adina Uluslararası Sempozyum. Bildiriler*. Ankara, Atatürk Kultur Merkezi, 2010.
18. Mirzayev S. *Navoiy aruzi*. NDA. T., 1946. *Naqshbandiyya tariqatiga oid qo'lyozmalar fihristi*. T.: Movarounnahr, 1993.
19. Rustamov A. *Hazratning tilshunoslikdagi o'rni / Hazrati Navoiyning ma'naviy olami*. T.: NAVRO'Z, 2014.
20. *Şair Tezkireleri*. Haz. Dr. Haluk Ipekten. Ankara, 2002.
21. Sirojiddinov Sh., A'zamov A. *Navoiy va Bobur / Bobur ensiklopediyasi*. T.: Sharq NMAK, 2014.
22. Vohidov R. *"Majolisu-n-nafois" tarjimalari*. T.: Fan, 1984.
23. Qayumov A. *Nodir sahifalar*. T.: Fan, 1991.
24. Yusupova D. *Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning Ariz bahriga munosabati // Sharq yulduzi*. 2014. № 5.
25. Zohidov L. *Alisher Navoiy ijodida muammo janri*. T., 1986.

## 9-mavzu. BOBURSHOH VA ADABIYOTSHUNOSLIK. TASAVVUF ESTETIKASI VA SUFIY ADABIYOT POETIKASI

### *Reja:*

1. *Boburshoh asarlari tarkibida adabiyotshunoslik masalalari.*
2. *“Aruz risolasi” va uning aruzshunoslikdagi o‘rni.*
3. *“Boburnoma” va adabiy-estetik tafakkur.*
4. *Temuriylar davrida tasavvuf adabiyoti.*
5. *Naqshbandiulik va adabiyotshunoslik munosabatiga doir.*

*Tayanch tishunchalar:* adabiyotshunoslik masalalari, “Aruz risolasi”, aruzshunoslik, “Boburnoma”, adabiy-estetik tafakkur.

**Boburshoh asarlari tarkibida adabiyotshunoslik masalalari.** Temuriylar saltanatining ulug‘ davomchisi, Sharqda birinchi markazlashgan davlat asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburshoh (1483–1530)ning adabiyotshunoslik merosi alohida ilmiy risolalar, adabiy-tarixiy manbalar tarkibidagi qarashlar va tasavvuf adabiyotiga oid asarlari orqali bizgacha yetib kelgan. Ular orasida “Aruz risolasi” (1522-y.) alohida ilmiy salohiyat kasb etadi. Bobur asarini yurtimizda ilk bor nashr ettirgan Saidbek Hasanov uning aruzshunoslikdagi o‘rnini belgilab, «klassik poeziyamizda qo‘llanilib kelingan 289 vazn va ularning shakllarini ta’rif qilib, umumaruz ilmimi 248 yangi, o‘zi ixtiro qilgan vazn bilan asoslashga ahamiyat bergan va «lafz vazni» yuzasidan ikki toifa o‘rtasidagi bahsni kuzatib, «alfoz boyitib, umumaruz ilmiga benihoya katta hissa qo‘shgan»ini e’tirof etadi<sup>278</sup>. Bobur asarining yana bir muhim jihati shundaki, alloma har bir tilning fonetik xususiyatlaridan kelib chiqib, “aruz vaznidin ikki toifa bahs qilurlar. Biri sarfiylar, yana biri aruziylar” deb yozgan va bu bilan aruz nazariyasiga fonetik (lisoniy) nuqtai nazardan yondashgan olimlarni “sarfiylar” va bevosita aruz qoliplari bilan

---

<sup>278</sup> Hasanov S. Boburning “Aruz risolasi” asari. T.: Fan, 1981. B. 94.

ish ko‘rganlarni aruziylar deb atagani ma’lum. Demak, Boburshoh aruz vaznini nafaqat adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan, balki til ilmi jihatidan ham o‘rganish natijasida poetik nutqdagi rangin go‘zalliklarni inkishof etish mumkinligini anglatadi.

Hazrat Navoiyning muhtasham “Mezonu-l-avzon”idan keyin oradan 30 yil o‘tgach, Boburshohning turkiy aruz masalasiga alohida risola bag‘ishlashi shu bilan asoslanadiki, agar Hazrat Navoiyning nazariy maqsadi: *“G‘araz bu maqolotdin va maqsud bu muqaddimotdin bu erdikim, turk alfozi bilakim, nazm voqi’ bo‘lubtur, anga zobitaye va qonune yo‘q erkondur va ul fan rivoji uchun kishi aruz fanida kitobe va risolaye bitmaydur... va bu sababdin bu ilm zobitasig‘a qalam suruldi”*<sup>279</sup> bo‘lsa, seziladiki, birinchidan, Navoiy Shayx Ahmad Taroziyning “Fununu-l-balog‘a” asaridan bexabar bo‘lgan. Agar tanish bo‘lganda o‘z oldiga bunday maqsad qo‘ymagan va aruz risolasini bu tarzda shakllantirmagan bo‘lar edi, ikkinchidan, Navoiy arab-fors aruzini turkiy lison bilan bayon qilish va amaldagi maqsadi: mavjud 19 [16 (arab) + 3 (ajam) = 19] bahrda turkiy til bilan yozilgan asarlar orqali (misollar keltirish yo‘li bilan) aruz qoidalarini turk tiliga begona emasligini isbotlashdan iborat bo‘lgan va o‘z risolasi va amaldagi shoirlik faoliyati bilan bunga to‘liq erishgan.

Boburshoh bo‘lsa, Navoiy risolasidan keyin oradan 30 yil o‘tib ayni mavzuga qo‘l urishdan maqsadi Navoiy risolasini ijodiy-tanqidiy o‘rganish, ulug‘ shoir kamtarlik qilib, o‘z ijodidan keltirmagan misollarni keltirib, turkiy til bilan aruzning aloqasini yanada mustahkamlash vanihoyat, Navoiy risolasida kuzatilmagan ayrim jihatlarni o‘z asarida aks ettirish edi.

Navoiydagi fikrlar **Boburning «Aruz risolasi»** (nashrda «Muxtasar») asarida nazariy jihatdan ham davom ettirilgan. Bobur to‘qqiz doirani asoslash barobarida «doirai mujtalibai muzaxafa», «doirai mujtalibai muxtari’a» orqali bahrlardagi o‘zgarishli ruknlar, ya’ni zihoflar bilan birga kiritadi. Tavitl doirasiga kiruvchi Ariz

---

<sup>279</sup> Alisher Navoiy. Mezonu-l-avzon / MAT. 16–jild. T.: Fan, 2000.

va Amiq bahrlarini alohida hisoblaydi<sup>15</sup> va turkiy aruzda bahrlar soni 21 ta ekanini isbotlaydi. Doiralari masalasida bo‘lsa, “Mezonu-l-avzon”da tilga olingan 7 doira “Aruz risolasi”da 9 taga yetkazilgan (arab she’riyatidagi mushtabiha va muntazi’a doiralari sanab keltirgan bo‘lsa-da u holda 11 ta doirani bilgan – ular ajam, ya’ni turk va fors she’riyatida qo‘llanilmagani uchun chizmasini bermagan).

Boburshoh hatto Navoiy risolasiga tanqidiy yondashib: “Xoja Nosir “Me’yoru-l-ash’or”ida bu doirani (mushtabihi solim) kelturubtur, jadid bila mushokil bahrining vaznini ko‘rsatub, bu bahrlarni musta’mal emastur debtur. Mir Alisher Navoiy bu to‘qquz bahrning doirasini o‘ziga isnod qilibtur, g‘oliban “Me’yoru-l-ash’or”ni mutolaa qilmag‘andur” (“Risolai aruz”, 21a) deb yozadi. Ko‘rinadiki, Bobur bahrlar doirasini mukammallashtirmoqchi bo‘ladi va bu jihatdan garchi asarini forsiyda yozgan bo‘lsa ham asli turk va turkiy tilni mukammal bilgan Nosiruddin Tusiyning asariga suyanadi. Ikkinchidan, bu 21 bahrni shunday tartibda asoslaydi: “Bilgilkim, usulning takroridin yo ba’zining ba’zi bila tarkibidin bahr hosil bo‘lur. Bu bahrlarkim, musta’mal va mashhurdur, o‘n to‘qquzdur: 1. Mutaqorib, 2. Mutadorik, 3. Hasaj, 4. Rajaz, 5. Ramal, 6. Vofir, 7. Komil, 8. Tavil, 9. Madid, 10. Basit, 11. Munsarih, 12. Muzori’, 13. Muqtazob, 14. Mujtass, 15. Sari’, 16. Jadid, 17. Qarib, 18. Xafif, 19. Mushokil. Yana 2 bahrkim, Ariz bila Amiqdur, tavil doirasidan hosil bo‘lur, ul g‘ayri mashhurdur. Bu bahrlar bila jami’ buhur 21 bo‘lg‘ay” (11b). Demak, Boburshoh aruz ilmida “g‘ayri mashhur” bo‘lgan ikki bahrni nazariy jihatdan asoslabgina qolmay, balki unga misollar keltirgan.

Ulardan birinchisi haqida: “...bu vaznda ham toziy she’r topilmaydur, ba’zi bu bahrni Amiq debturlar, misra’kim doirada bitilib, bu bahr andin o‘qulg‘ay, budur tavil vazni: manga qil guzar sen kel, manga qil nazar sen kel” (16a). Hamda “Amiq bahri musamanoti solimul arkon” sarlavhasi bilan unga forsiy va turkiy misol beradi. Turkiy misoli:

---

<sup>15</sup> *Бабур Захир ад-дин Мухаммад*. Трактат об арузе. Факсимиле рукописи, вступительная статья и указатели И. В. Стеблевой. М.: Наука, 1972. С.11.



*Kel, beri ey parikim, hajrdin xastadurmen,  
La'linga tashnadurmen, zulfunga bastadurmen.*

Fo'ilun fo'ilotun fo'ilun fo'ilotun (72a).

(- v - / - v - - / - v - / - v - -)

Ikkinchisi, Ariz bahri bo'lib, *mafoiylun* (v - - -) va *faulun* (v - -) asllarining ketma-ket takroridan hosil qilinadi<sup>280</sup>. Ariz bahri aruz ilmiga oid risolalardan Nosiriddin Tusiy asarida uchragan, Navoiyning "Mezonu-l-avzon"ida ham tilga olinmagan. Bobur "Aruz risolasi"da "Bu vaznda toziy (arab tilidagi – *Hamidulla Boltaboyev*) she'r topmaydurlar. Bu bahrni ajam shuarosi paydo qilib, *maqlubi tavi*l depturlar, *ariz* ham derlar" deb yozgan va Arizning solim vazniga ushbu misolni keltirgan:

*Labing marjon, tishing dur, xating rayhon, xading gul,  
Soching anbar, yuzung hur, menging mo'lton, yuzung mul.*  
*mafoiylun faulun mafoiylun faulun*  
(v - - - v - - v - - - v - -)

Bobur risolasida *Arizi musammani musabbaga* Navoiy g'azallaridan ushbu misolni keltirgan:

*Sanoyi zoting ichra topib ajz ahli idrok,  
Gahi louhsi aytib, zamoni mo arafnok.*  
*mafoiylun faulun mafoiylun faulon*  
(v - - - v - - v - - - v - -)

(Navodiru-sh-shabob, 322-g'azal)

<sup>280</sup> *Hojiahmedov A. O'zbek aruzi lug'ati. T.: Sharq NMAK, 1998. B.8–9.*

Arizi musammani maqbuzga:

*Sangaki bargi guldin libos qilsa bo'lg'ay,*  
*Gule bu gulshan ichra qiyos qilsa bo'lg'ay.*  
*mafoilun faulun mafoilun faulun*  
(v – – – v – – v – – – v – –)

281

Boburning Ariz bahri haqidagi qarashlari va keltirilgan misollar shuni dalillaydiki, olim tomonidan asoslangan bu bahr turkiy she'riyatda mavjud bo'lgan. Boburshoh boshqa bir o'rinda "...yana Mezonu-l-avzon" otliq aruz bitibtur, bisyor madxuldur – yigirma to'rt ruboiy vaznidin to'rt vaznda g'alat qilibtur" ("Vaqoye", 171a) degan bo'lsa, bu fikrni "Aruz risolasi"dagi 24 ruboiy vazni haqidagi fikrlari bilan to'ldiradi: "Mir Alisher Navoiy dog'i 12 axram vaznig'a uch ruboiy va o'n ikki axrab vaznig'a uch ruboiy aytibtur" (48b) deya Navoiyning 6 ruboiysini keltirish bilan o'zi qo'ygan savolga javob topadi.

Boburshoh o'z ishi haqida shunday xulosaviy axborot yozadi: "Xotirg'a mundoq kechtikim, jami' buurning musta'mal va muxtara' vaznlarining adadlarini bitilgay, matbu'larini misol bila ko'rsatilgay. She'r ahli arosida shoyi' vaznlarda ustoddin g'arro ash'or kelturulgay to bu muxtasar bu vasila bila fusaho nazarig'a manzur va shuaro tiliga mazkur bo'lg'ay. Bilgilki, bu yigirma bir bahrda 537 kelturildi. Bu jumladin, musta'mal vazn – 289, muxtara' vazn 248, musta'malu muxtara'din matbu' vazn – 162, musta'mali matbu – 104, muxtara'i matbu' – 58. Bu buhur avzonining matbu'u nomatbu'inikim farq qilindi, chun tiboyi' muxtalifdur, bo'la olurkim, ba'zi el qoshida matbu' nomatbu' ko'ringay yo aks nechukkim... mutaqorib vazni 42 vazn: 20 musta'mal, ikki muxtara', 8 vazn musta'mali matbu'" (98a). Boburshoh 537 vaznning kayfiyati (sifati) va kamiyati (miqdori) haqida to'liq ma'lumot beradi va misollarini keltiradi. Boburshoh "Aruz risolasi" asari bilan mukammal bir nazariyani yaratdiki, XX asr boshlariga qadar turkiy tilda bunday nazariy asar yozishga hech kim jur'at va ehtiyoj topmagan.

---

<sup>281</sup> Yusupova D. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning Ariz bahriga munosabati // Sharq yulduzi. 2014. № 5.

“**Vaqoye**” – “**Boburnoma**” nafaqat tarixiy-memuar, balki adabiy-badiiy, falsafiy-axloqiy va ilmiy-ma’rifiy qomusiy asar ediki, unda adabiyotshunoslik masalalari asarning bosh ilmiy muammolaridan biri sifatida qo‘yilgan va qalami ostidagi davrning shuaro va ulamolari, ilmiy-madaniy muhiti, adabiy jarayon masalalari o‘zining to‘liq ifodasini topgan. “Boburnoma”da, birinchidan, 2 mingdan ortiq tarixiy shaxslar tilga olinar ekan, ularning kamida yarmi adabiyot va san’at hamda ilm kishilari; ikkinchidan, muallif adabiyot bilan mashg‘ul bo‘lgan professional olim va shoirlarni alohida ehtirom bilan tasvirlabgina qolmay, balki ular haqida xolis haqqoniy baho beradi; uchinchidan, ayrim ilm odamlari faoliyati haqida so‘z yuritarkan, ularning asarlaridagi ilmiy muammolar bilan nazariy munozaraga kirishadi va o‘z fikrini ilmiy aniqlik bilan bayon etib, tilga olingan mavzu yuzasidan o‘zining olimona xulosasini beradi. Tilga olingan jihatlarning barchasini asoslovchi misollarni keltirish o‘rniga biz ayni mana shu jihat bilan buyuk qomusiy asarga yondashish va uni ilmiy maqsad bilan yana bir mutolaa qilishni o‘quvchilarimizdan so‘ragan bo‘lar edik.

“Boburnoma”dagi Hazrat Navoiy haqidagi mashhur talqinlardan avval shunday fikr keladi: *“Alisherbekning mizoji nozukluk bila mashhurdur... bu sifat anga jibilliy ekandur. Samarqandta ekanda ham ushmunodoq nozuk mijoz ekandur”* (170b). Birinchi jumlada, “mizoji” tabiati, xarakteri ma’nosidagina emas, balki badiiy didi, shavqi, ta’bi, shuuri ma’nolarida kelgan. Bu sifatni talqin etarkan, Boburshoh uni “jibilliy”, ya’ni azaliy tug‘ma xususiyat ekanini ta’kidlaydi. Zero, shuur, iste’dod tabiatan tug‘ma bo‘lmasa, Navoiyday daho ijodkor shaxsining asosiy sifatlaridan biri bo‘lolmas edi. Ma’lumki, Hazrat Navoiy Samarqanddalik payti uning tahsil davri, shabob (yigitlik) paytiga to‘g‘ri keladi. Aynan keyingi jumlaning qo‘shish orqali Hazrat Navoiyning daholik sifatleri erta kurtak yozgani, tahsil paytidayoq ulug‘lik kasb etganini ta’kidlamoqchi bo‘ladi.

Boburshoh Samarqand fathi voqeasi munosabati bilan yozadi: *“Ul fursatlarda birar, ikkirar bayt aytur erdim. Vale g‘azal tugatmaydur erdim. Birgina turkiy ruboiy aytib yibordim...”* (87b). Ayni ruboiy ulug‘ shoirning ilk ijodi

namunalaridan ekani jumla mantiqidan sezilib tursa ham, bu o‘rinda bizni “*ruboiyning so‘nggi misrayining qofiyasini radif qilib, o‘zga qofiya bila bir ruboiy aytgan Mulla Binoiy*” va uning she‘riga Boburning munosabati muhim: “*o‘shul radif va qofiyada aytmog kerak edi. Bu ruboiyni Xoja Abulbaraka aytdi*”. Sezishimizcha, Boburga tatabbu‘ tarzida javob Binoiydan kutilgan, biroq uning ruboiysi mazmunan Bobur ruboiysiga yaqin kelsa ham, poetika talablariga ko‘ra unga munosib javob bergan Xoja Abulbarakadir. Nazirago‘ylikda radif va qofiyaning saqlanishi she‘r nazariyasining muhim talablaridan ediki, bu vazifani yetarli aytmagan shoir Binoiyga munosabat orqali Boburshohning she‘r texnikasi talablari va uning nazariy muammolarini chuqur bilganligi ko‘rinadi.

“Vaqoye”da “Devoni Foni”ga nisbatan aytilgan tanqidiy mulohazalar har doim ilm ahlida munozara uyg‘otgani va “*...ba‘zi abyoti yomon emastur, vale aksari sust va furuddur*” so‘zlari mana besh asrki, juda ko‘p olim va adiblarni o‘ylantiradi. Bunga javoban Fitrat domla 1925-yilda “Navoiyning forsiy shoirlig‘i ham forsiy devoni to‘g‘risida” maqolasini yozgani ma‘lum. Fitrat bu jihatdan ham Boburshohning o‘ziga tayanadi: “*Ramal bahri 59 vazn: ...bu vazn forsiyda va turkiyda ko‘p shoyidur. Mavlono Abdurahmon Jomiy bu vaznda bisyor aytibtur. Mir Alisher Navoiyning xud jami‘ o‘zga vaznda aytqon ash‘ori bila bu vaznda aytqon ash‘orining loshah borg‘ay. Sulton Husayn mirzoning devonida ushbu vazndan o‘zga vazn yo‘qtur. Xoja Xisrav Dehlaviyning “Daryoyi abror”i bu vazndadur... bisyor yaxshi qasidadur. Xoja Xisravdin mundoq mashhurdurkim demish bo‘lg‘aykim agar aflok havodisiyu ro‘zgor navoidin mening barcha nazmim zamona sahfasidin mahvu bo‘lsa va bu qasidam qolsa menga bastur. Ne uchunkim, har kishi ani o‘qusa bilurkim, nazm mulkida mening tasarrufu iqtidorim ne martabada ekandur. Ulug‘ shoirlar lahu aksar tatabbu‘ qilibturlar. Mir Alisher Navoiyning “Tuhfatu-l-afkor”ining matla‘icha kam voqi‘ bo‘lubtur*” (124a). Demak, bu o‘rinda Bobur Navoiyning forsiy qasida ustozlari darajasidan

kam emasligini, hatto Navoiyning bir bayti barcha ulug‘ shoirlar qasidalaridan balandroq chiqqan<sup>282</sup>ini eslatib o‘tgan.

Agar Fitrat domlaning maqolasidan va boburshunoslarning xulosasi (S.Hasanov)dan yakun izlaydigan bo‘lsak, bu holat Boburshoh qo‘lidagi forsiy devon xatolar bilan ko‘chirilgani bilan izohlanadi. Chunki Fitrat maqolasida qo‘lidagi “Devoni Foniyy”ning muallifi Alisher Navoiy emas, balki kashmirlik Mulla Muhsin Foniyy ekanini aytgan edi. Bu ehtimolni asos sifatida qabul qilish mumkinki, dastlab Boburshoh ayrim xatolar bilan ko‘chirilgan devonni o‘qigan bo‘lsa, keyinroq risola yozayotganida bevosita Navoiy asarini jiddiy tahlildan o‘tkazgani tufayli u haqda o‘rinli qaydlarni yozgan.

Adabiyot nazariyasining asosiy muammosi har doim poetika masalalari bo‘lib kelgan. Boburday Sharq adabiyotini mukammal bilgan, uning nazariy asoslarini tugal egallagan allomaning ilmiy qarashlarini birgina risola orqali o‘rganish kamlik qiladi. Ulug‘ shoir va adibning “Devon”i tarkibiga kirgan she‘rlarida, “Mubayyin” asarida va “Risolayi volidiyya”ning she‘riy tarjimai qatida qator nazariy masalalarga doir qarashlar aks etgan.

Bobur she‘riy merosida badiiy matnning ma‘no maydoni – kontekstida tushunilgan ulug‘ g‘oya va poetik tafakkur durdonalari orasida shoir ijodkor shaxsiga, uning o‘ziga xos iste‘dodi tabiatiga alohida e‘tibor qaratadi. Iste‘dod insonga Alloh inoyat qilgan ulug‘ ne‘mat, uni asrash, el xizmatiga safarbar qilish o‘sha iste‘dod egasining jamiyat va unga nozik ta‘b va shoirona shuurni ne‘mat qilib bergan buyuk Yaratuvchi oldidagi vazifasi. Bu vazifani adiblar so‘z san‘ati vositasida amalga oshiradilar. Shunday ekan, muallif so‘zi uning o‘zligini anglatuvchi hujjatdir. Bunday ulug‘ haqiqatni Boburshoh birgina shohbaytida soddagina qilib aytgan:

*Har vaqtiki ko‘rgaysen mening so‘zumni,*

*So‘zimni o‘qib anglagaysen o‘zumni.*

---

<sup>282</sup> Sirojiddinov Sh., A‘zamov A. Navoiy va Bobur / Bobur ensiklopediyasi. T.: Sharq NMAK, 2014. B.388.

So‘z talqinida Boburshoh unga Alloh kalomi (ya’ni Qur’oni karim), dunyoning yaralishiga sabab bo‘lgan ulug‘ kalima “Kun! – Yaral!”, kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasi (robita), shuningdek, insonni jamiki maxluqotlardan farqlovchi ulug‘ sifat, inson iste’dodini yuzaga chiqaruvchi imkoniyat deb qaragan. Bu qarashlarning har biri alohida bir timsol (she’riy asarlarda) yoki ayrim shaxslarga munosabat (“Boburnoma”da) tarzida namoyon bo‘ladi. Shu kabi Boburshohning badiiy asarlarida so‘z san’ati va uning sehri, fikrning badiiy ifodasi, iste’dod tabiati va uning daholik quvvati (Navoiyga nisbatan), ruboiyning texnik talablari va badiiy imkoniyatlari, qofiya va radif masalalari kabi o‘nlab nazariy muammolar aks etganki, ularga munosabatda Zahiriddin Muhammad Bobur adabiyot nazariyasining ulug‘ bilimdoni, zakiy alloma sifatida adabiyotshunoslik ilmi tarixida o‘z o‘rniga ega.

*Ash’oringkim, she’r oti to bo’lg’ay,*

*Tab’ ahli anga volayu shaydo bo’lg’ay.*

*Har lafzi duru bahri maoniy anda,*

*Kim ko’rdi dureki, anda daryo bo’lg’ay.*

Ushbu ruboiyda she’r tarzida aytilgan nazariy fikrlarni talqin qiladigan bo‘lsak, birinchi misrada shoir “agar yozganlaring she’r deb ataydigan bo‘lsang” deya tezis qo‘ymoqda, so‘ngra uni davom ettirib, “ta’b ahli – ijodkorlar uni qadrlashini va shaydo bo‘lishini istasang, deya tezisni davom ettiradi va nazariy talab bo‘yicha uning “lafzi” shaklidir kabi baholi, ma’nosi esa dengizday chuqur va cheksiz bo‘lishi kerakligini uqtiradi va nihoyada agar sen adabiyotshunoslikning ana shu talabiga javob bera olsang, asaring sehri – durri oldida daryoday sokinlik bilan qoyil qolishi mumkinligini bayon qilgan. Birgina ruboiy zamiridagi olimona nazariy qarashlar Boburshohning adabiyot ilmi va amaliyotini naqadar chuqur bilishi va teran his qilishining namunasidir.

Zahiriddin Muhammad Boburshoh (1483–1530) tasavvuf talqinida qator asarlar yaratgan, naqshbandiylik tariqati vakillaridan Xoja Ubaydulloh Ahror ta'limotiga yaqin turgan, zamonining ulamosi Ahmad Xojagiy Kosoniy Maxdumi A'zam (vaf. 1542-y.)<sup>283</sup> hazratlariga qo'l bergan. Xoja Ubaydulloh Ahrori Valiyning "Volidiyya" asarini she'riy tarjima qilgan, "Mubayyin" diniy-tasavvufiy asarini yaratgan. "Mubayyin" islomning besh rukni haqida bo'lib, uning boshlang'ichi "E'tiqodiyya" deb nomlangan. Asarda Haq subhanahuning subutiy sifatleri – *hayot, ilm, irodat, qudrat, sam' va basar* (ko'rish va eshitish), *kamol va taqdiri azalga* ishorat qilinadi. Payg'ambarimizning fazilatleri, sahobalarning g'ayratleri, oxirat kuni, nomayi a'mol, mezon, arosat, mavoqi', shafolat, sirot hamda bosh mavzu iymonning sharoiti va natijasi haqida anglatma beriladi.

*Temuriylar davri* adabiyotshunosligini xuddi avvalgi tarixiy davrlarda kuzatganimiz kabi *tasavvuf adabiyotidan* ayricha tushunish mumkin emas. "Buyuk jahongir Amir Temurning piri kim bo'lgan?" degan savolga javoban «Temurnoma»ning muallifi Mulla Salohiddin Toshkandiyning yozishicha, «*derlarkim: avval Amir Temur sohibqironni Shayxu-l-a'lam tarbiyat qildilar, ikkinchisi Shayx Shamsiddin Kulol tarbiyat qildilar. Uchinchi shayx Hasan Boxarziy tarbiyat qildilar. To'rtinchi Naqshband pirim tarbiyat qildilar. Olamdan intiqol qilgunlaricha to'rt valiy tarbiyat qilur erdilar*»<sup>284</sup>. Ro'yxatning boshida kelgan Shayxu-l-a'lam nisbasi bilan Abubakr Zaynuddin Toyibodiy hazratleri nazarda tutilgani mutaxassislerga ma'lum. Buyuk sohibqiron nomiga nisbat berilgan «Temur tuzukleri» asarida: «*Pirim Zaynuddin Abubakr Toyibodiy menga yozmishlarkim...*» so'zlari bilan bu ulug' asarning boshlanishi Amir Temur hayotida Abubakr Toyibodiy pirligining o'rni haqida tasavvur uyg'otadi.<sup>285</sup>

---

<sup>283</sup> Qarang: Naqshbandiyya tariqatiga oid qo'lyozmakar fihristi. T.: Movarounnahr, 1993. B. 45–59.

<sup>284</sup> *Mulla Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma.* T.: Cho'lpon, 1990. B.95.

<sup>285</sup> Зиндагиномаи мухтасари Мавлоно Абубакр Тойибодий ва ошнои жамоли бозоҳгоҳи Тойибод. Чоп рисолат Тойибод. Таълифи 1347. 24 саҳ.

**Temuriylar davrida tasavvuf ta'limotining rivoji** buyuk sohibqiron Amir Temurning pirlaridan biri sifatida tilga olingan valiylerden *Sayyid Muhammad Bahouddin Naqshband* (1318–1389) nomi va faoliyati bilan bog'liq. Alisher Navoiyning dalolaticha, Bahouddinning kamolga yetishishida Xoja ali Romitoni, Xoja Muhammad Boboi Samosiy va Sayyid Amir Kulolning ta'siri bo'lgan. Yusuf Hamadoniyning xalfalaridan Abduxoliq G'ijduvoni kashf etgan sakkizta manzil (kalimati qudsiya)ga Xoja Bahouddin yana uch manzil qo'shgan: 1) vuqufi zamoni; 2) vuqufi a'dodiy; 3) vuqufi qalbiy. Naqshband ta'limotining ixcham ifodasi “Dil ba yoru dast ba kor” hikmatida anglatilgan. Chunki ayni mana shu davrda tasavvufiy tariqatlarga, ayniqsa, xojagon – naqshbandiylik tariqatiga davlat darajasida ahamiyat qaratilgan edi. Naqshbandiylik garchi xojagon tariqatining davomi sifatida shakllanib, Markaziy Osiyoda Yusuf Hamadoniyning shogirdi Abdulxoliq G'ijduvoni tomonidan asoslangan va silsilasi aniqlanib, shakllanish davriga kirgan bo'lsa ham ayrim tariqat vakillari o'z faoliyatlarida undan ham avvalroq o'tgan mutasavviflar faoliyatini o'zlariga ma'naviy va manqabaviy asos sifatida olganlar. Bunday ehtiromning sababi tasavvufdagi sakkiz manzil bevosita Abdulxoliq G'ijduvoni nomi bilan bog'langanligidadir. Faxruddin Ali Safiyning «Rashahotu ayni-l-hayot» asarida Shayx shaxsiga ixlos bilan maxsus maqola bag'ishlanadi. Xoja Muhammad Porso «Faslu-l-xitob» asarida «Hazrati Xoja Abdulxoliqning yo'llari tariqatda hujjat hisoblanadi» deb yozgan<sup>286</sup>. Ehtimol, shuning uchun bu yo'lni hujjat tutganlar keyinroq *naqshbandiylik* nomi bilan mustaqil tariqat sifatida shuhrat topdilar.

Xoja Muhammad Porso Bahouddin Naqshbandning barcha va'zlarini to'plab, “Risolai qudsiya” kitobini ta'lif etgan. Bahouddin Naqshband haqida Mavlono Yaqub Charxiyning “Risolai unsiya”, Abul Muhsin Muhammad Boqirning “Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband”, Faxruddin Ali Safiyning “Rashahotu ayni-l-hayot” kabi o'nlab risolalar mavjud. Ushbu manbalarda Xoja Bahouddinning tarixiy va manqabaviy hayoti, tariqati, ta'limoti, ta'siri va suluk

---

<sup>286</sup> Qarang: *Hasaniy M., Razzoqova M. Xojagon tariqati va Xoja Hasan Andoqiy. T.: 2003. B.13.*



yo'li haqida ma'lumotlar keltirilgan. «Rashahot...» asarida naqshbandiylik tariqatining tarqalishi va qaror topishida benazir xizmatda bo'lgan shayxlar qatorida Xoja Bahouddin Naqshbanddan keyin Xoja Muhammad Porso, Mavlono Muhammad Fag'onaziy, Mavlono Yaqub Charxiy, Xoja Aloiddin G'ijduvoni, Shayx Sirojiddin Kulol, Xoja Aloiddin Attor, Mavlono Hisomiddin Porso Balxiy, Sayyyid Sharif Jurjoni, Mavlono Nizomiddin Xomush, Mavlono Sa'duddin Koshg'ariy, Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy, nihoyat, Hazrati Xoja Ahror Valiy va boshqalar keltiriladi<sup>287</sup>.

*Xoja Ubaydulloh Ahror* (1404–1490) Xoja Nizomiddin Xomush va Sa'diddin Koshg'ariy bilan bir tariqat ilmda bog'langan bo'lib, 29 yoshida Ya'qub Charxiydan irshod olgan va murshidi komillik maqomi bilan Toshkentga qaytgan. Allomaning «Fiqroti Ahroriya», «Risolai volidiya», «Risolai havroiya», «Risolai anfosi nafisa», «Ruqa'ot» asarlari ma'lum.

Nuriddin Abdirahmon Jomiy (1414–1491) hazratlari ulug' tasavvuf shayxlaridan bo'lib, Hazrati Maxdumning yigirmadan ortiq risola va tazkiralari, maqomot va manqabalarida naqshbandiylikning tariqat usullari bayon qilingan. Bu haqda «Rashahot...»da qisqa qilib, «Tariqi xojagon alarni tez o'ziga oldi» deb ma'lumot beriladi<sup>288</sup>.

Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning tasavvufga munosabatini o'rganganda, biz ular uchun ma'naviy ustoz sanalgan Hirot piri *Xoja Abdulloh Ansoriy* (1006–1089)ning adabiy faoliyatini chetlab o'ta olmaymiz. Ulug' xojaning tasavvufiy faoliyati esa shayx Abul Hasan Haraqoni (1033-y.) bilan uchrashuvi orqali ilmiy izga tushganini Ansoriy shunday eslaydi: “Shayx Haraqoniya duch kelmaganimda, haqiqatni bila olmagan bo'lardim”. Bu uchrashuvdan so'ng Ansoriy o'zining “Kashfu-l-asror” (“Sirlarni kashf etish”) deb atalgan Qur'on tafsirini yoza boshlaydi. Ansoriyning “*Yuz maydon*” asari (1057-y.) Hirotida yozib tugallanadi. Mazkur asarda tasavvufning 100 ma'naviy

---

<sup>287</sup> *Faxruddin Ali Safiy*. Rashahotu-l-ayni-l-hayot / Tarjimon Xudoybergan ibn Bekmuhammad. Nashrga tayy. M.Hasaniy, B.Umrzoq. T.: Abu Ali ibn Sino. B.85–265.

<sup>288</sup> K o'rsatilgan asar. B. 181.

manzillariga maydon shaklida tasavvur berib, 12-maydon – Ziyraklik bobida yozadi: *“Ziyraklikning uchta rukni bor: Ulug‘ ne‘matlarni ul zotdan deb bilish, taqdir mashaqqatlarini ortiqlik va kamlikdan deb bilish, makrning nihoyasidan qo‘rqish. Ul zotning ne‘matlarining avvalini uch narsada topish mumkin: dil niyozi, ilmni tinglash, taom pokligi. Gunohni uch narsada topish mumkin: umidning qisqaligi, fikr uzunligi, tong vaqtida uyg‘onish. Va oxirda uch narsani topish mumkin: o‘ziga nisbatan badgumonlik, aloqani uzish va Haq ta‘zimi”*.

1070-yilda Ansoriyga shayxu-l-islom unvoni beriladi. Ko‘zi ojizlanib qolganiga qaramay, “Manozilu-s-soyirin” (1082-y.) va boshqa asarlarini shogirdlariga aytib yozdiradi. Alisher Navoiy “Nasoyimu-l-muhabbat”da Ansoriy haqida to‘xtalarkan, uning asarlari (yuqorida tilga olinganlaridan tashqari) “Ilohiynoma” (ikkinchi nomi “Munojot”), “Ganjnoma”, “Nasoyih” (“Nasihatlar”), “Tabaqotu-s-sufiyya” (“Sufiylarning tabaqalari”) asarlarini hurmat bilan tilga olgani ma‘lum. Navoiyning tasavvufiy qarashlari deyarli barcha asarlarining ruhiga singgan bo‘lsa-da, «Lisonu-t-tayr» sufiylik dostoni bo‘lib, Shayx Farididdin Attor an‘analari ruhida yozilgan. Asarda borliq va ilohiyot haqidagi qarashlar, inson, tabiat va hayot haqidagi fikrlari qushlar tili (qush tasavvufda qalb ramzi, qushlar nutqi esa qalb xitobi) va sarguzashtlari orqali bayon qilingan. «Nasoyimu-l-muhabbat» manqabasi Hazrat Jomiyning «Nafahotu-l-uns min hazaroti-l-quds» tazkirasi yo‘lida yozilib, Jomiy ilgari so‘z yuritgan 618 ta shayxlar va sufiylar soni 770 taga yetkazilgan va ular haqidagi ma‘lumotlarni o‘zida jamlagan «Tazkiratu-l-avliyo»dir. Tasavvufiy qarashlar «Nazmu-l-javohir», «Arbain», «Munojot», «Mahbubu-l-qulub» singari asarlarida ham aks etgan<sup>289</sup>. Ulug‘ adib o‘zigacha mavjud barcha ilmiy-ilohiy-adabiy ilmlarni izchil o‘rganib, ularni o‘z asarlarida mukammal bir suratda tartiblay olgan. N.Komilov Hazrat Navoiy talqinida “komil inson – bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutlaq ruhga tutash, fayzu karomatdan serob, suratu siyrati

---

<sup>289</sup> Qarang: Суфии. Восхождение к истине / Антология мысли. Изд. подготовлено Л.Яковлевым. М.: ЭКСМО, 2007. С. 358–410.

saranjom, qalbi ezgu tuyg‘ularga limmo-lim pokiza zot, Hazrat Navoiy tili bilan aytganda:

*Foniyvasheki, ham so‘zidir pok, ham o‘zi,  
Xush davlat ul kishigaki, tushgay aning ko‘zi*

deydilar... Komil inson mutlaq iloh bilan insoniyat o‘rtasida vosita bo‘luvchi muqaddas xilqat»<sup>290</sup> deb yozgan. Asarda insoni komillikning sifatleri ham ayni payg‘ambarlik sifati va hakimlar ta‘rifi bilan barobar bayon qilinadi.

Navoiy davriga qadar ham, undan keyin ham yuzlab “Tarixi Nabaviy”lar, minglab “Qisasu-l-anbiyo” va “Ka’bu-l-axbor”lar yaratilgan. Lekin ular orasida Hazrat Navoiy yaratgan «Tarixi anbiyo...» nomli payg‘ambarlik tarixi nimasi bilan e‘zozli, tarixi Nabaviyning qaysi sifatlerini Hazrat ustivor bilib ta‘rif qilgan<sup>291</sup>, degan savolga ham asarning mutolaasidan batafsil javob topamiz<sup>292</sup>.

Musulmon sharqida tarix kitoblarining avvali Odam alayhissalom va payg‘ambarlar tarixi, so‘ngra salotin nasabi haqida bo‘lganini “Tarixi Tabariy”, “Tarixi Banokatiy”, “Tarixi Damaskatiy” yoki Alisher Navoiydan keyin “Shajarayi turk”da ko‘rish mumkin. Shuning uchun ham “Tarixi anbiyo...”da Odam safiyulloh, Shis (a.s.), Idris (a.s.), Nuh bahiulloh, Ibrohim xalilulloh, Ismoil (a.s.), Ishoq (a.s.), Ya‘qub (a.s.), Yusuf (a.s.), Xizir (a.s.), Ayyub (a.s.), Sabur (a.s.), Shu‘ayb (a.s.), Muso (a.s.), Ilyos (a.s.), Yunus (a.s.), Dovud (a.s.) Sulaymon (a.s.), Zikriyo (a.s.), Yahyo (a.s.), Iso (a.s.) kabi payg‘ambarlar tarixi berilgan. Asar shunday jumlar bilan yakunlanadi: “...anbiyo alayhissalom so‘zi va ubbod va hukamo tarixi alal ijmol mazkur bo‘ldi”. Seziladiki, Hazrat Navoiy Muhammad Payg‘ambar (s.a.v.) tarixini ham alohida kitobat qilishni niyat qilgan bo‘lishlari mumkin. Shuning uchun ham Hazrat Navoiy Odam safiyullohdan boshlangan payg‘ambarlik tarixi Iso alayissalom tarixi bilan yakunlanadi. Ayrim

<sup>290</sup> Komilov N. Tasavvuf. 1–kitob. T., 1996. B.143.

<sup>291</sup> Payg‘ambarlik tarixiga oid ilk mo‘tabar manba: *Abdumalik ibn Hishom al-Ma‘orifiy. As-Siyra an-Nabaviyya*. 1–2 jild. T.: SHARQ HMAK, 2011.

<sup>292</sup> Qayumov A. Nodir sahifalar. T.: Fan, 1991. B.40–92.

mutaxassislarning fikricha esa, Hazrat Navoiyning o‘zi “Zubdatu-t-tavorix” (“Tarixlar sarasi”) deb atagan ushbu turkum yakunlanmay qolgan.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Boburshoh asarlari tarkibida adabiyotshunoslik masalalari qay tarzda aks etgan.
2. “Aruz risolasi”ning aruzshunoslikdagi o‘rnini ko‘rsating.
3. Boburshohning qaysi asarlari adabiyotshunoslikka bag‘ishlangan?
4. Bobur “Aruz risolasi”ning mohiyatini tushuntiring.
5. “Vaqoye” – “Boburnoma” tarkibidagi nazariy qarashlarni o‘rganing.

### *Adabiyotlar*

1. Bobir. Muxtasar. T.: Fan, 1971.
2. Bobur ensiklopediyasi. T.: Sharq NMAK, 2014.
3. Boltaboev H. Javohir shodaga qo‘shilgan gavhar // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2014. 12 fevral.
4. Hasanov S. Boburning “Aruz risolasi” asari. T.: Fan, 1981.
5. Hasanov B. Alisher Navoiyning “Sab‘at abhur” lug‘ati. T.: Fan, 1981.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.: Sharq NMAK, 2002.
7. Faxruddin Ali Safiy. Rashhotu-l-ayni-l-hayot / Tarjimon Xudoybergan ibn Bekmuhammad. Nashrga tayy. M.Hasaniy, B.Umrzoq. T.: Abu Ali ibn Sino. B.85–265ç
8. Hasaniy M., Razzoqova M. Xojagon tariqati va Xoja Hasan Andoqiy. T.: 2003.
9. Husayn Boyqaro. Risola, devon. T.: Sharq NMAK, 1995.
10. Komilov N. Tasavvuf. 1–kitob. T., 1996.
11. Бабур Захир ад-дин Мухаммад. Трактат об арузе. Факсимиле рукописи, вступительная статья и указатели И.В.Стеблевой. М.: Наука, 1972.

12. Зиндагиномаи мухтасари Мавлоно Абубакр Тойибодий ва ошнои жамоли бозоҳгоҳи Тойибод. Чоп рисолат Тойибод. Таълифи 1347.

13. Суфии. Восхождение к истине / Антология мысли. Изд. подготовлено Л.Яковлевым. М.: ЭКСМО, 2007.

## XULOSA O'RNIDA

Insoniyat dunyosi Ulug' Yaratuvchining beaded qudrati mahsuli ekan, insonga ham o'z navbatida, yaratuvchilik qobiliyati Alloh tomonidan ato etilgandir. Biroq bani Odamning yaratuvchiligi Alloh ning mo'jizaviy qudrati oldida ushoqcha bo'lsa ham uning fitrati tufayli moddiy ne'matlar va ma'naviy bisot dunyoga keladi. Insoniyat juda qadim zamonlardan o'zining mohiyatini anglashga, buyuk Yaratuvchi oldidagi burch va mas'uliyatidan ogoh bo'lishga intilgan. Natijada inson mehnati tufayli ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlar bilan birga uning zakovati tufayli yaratilgan ilm va ijod namunalari ham bunyod bo'lgan. Ushbu yaralish jarayonida, tabiiyki, dastlabki davr moddiy buyumlar ishlab chiqarilishi bilan bog'liq bo'lgani uchun ijod namunalari, qalbdagi tuyg'ularning ifodasi bo'lgan san'at asarlari va badiiyat namunalaridan avvalroq yaratilgan. Keyinchalik mana shu yaralmish ma'naviy bisot mohiyatini boshqalarga anglatish ehtiyoji bilan ijod mevalari haqidagi nazariy fikrlar vujudga kelgan.

Inson garchi yaralmishlarning ichida eng buyugi hisoblansa ham o'zini mutlaq hokim deb emas, balki o'zi qatori yaralgan va maxluq qilingan borliqning tahdiriga, taraqqiyotiga mas'ul ekanini anglashi barobarida o'zi-gacha mavjud bo'lgan ma'naviy merosga vorislik tuyg'ularini shakllantirish, uni to'ldirib, taraqqiy ettirib kelajak ilmiga tutqazish vazifasi ziyolilar zimmasida ekani anglashildi. Shu kabi o'rta asrlar adabiy-estetik tafakkuri mevalariga ham garchi ular diniy, falsafiy, badiiy va ilmiy asarlar tarkibida uchrasa-da, inson kamolotiga doxil ma'naviy meros deb qaraldi. Shu jihatdan o'rta asrlarda Yevropada yaratilgan nazariy asarlar ham «jaholat va inkvizasiya iskanjasida» emas, balki adabiy-nazariy tafakkur taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan ma'naviy omil sifatida qaralib, ularning adabiy-nazariy tamoyillarini belgilashga urinildi. Tabiiyki, bu ilmiy yangilanish yo'lida jahon estetik tafakkuri tarixiga oid fundamental qarashlar, nazariy tamoyillar va adabiy konsepsiyalar asos qilib olindi. Sir emaski, bu jihatdan rus tiliga tarjima qilingan, o'rta asrlar va Uyg'onish

davriga oid ilmiy-tadqiqot ishlari va ayrim manbalarga murojaatda ingliz va olmon hamda arab, fors va turk tillarida yaratilgan ilmiy manbalarga ham e'tibor qaratildi. Shu jihatdan rus tilidagi tadqiqot ishlari Sharq xalqlari estetik tafakkuri namunalarining ingliz, arab, fors va boshqa tillarda yozilgan talqinlar asosida to'ldirildi.

Qo'yilgan muammo nuqtai nazaridan nazariy yondashuv milliy adabiyotshunoslikning jahon adabiy-nazariy tafakkuri taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyatini belgilash imkonini beradi. Shu bilan umumbashariy estetik tafakkurning milliy estetikaga munosabatini ilmiy asoslashga harakat qilindi. Adabiyotshunoslik o'z metodologik asoslarini umumestetik mezonlar asosida qayta ko'rib chiqish davriga kirdi. Adabiy hodisalarni baholashda va ilmiy xulosalarga kelishda jahon adabiyotshunosligi tajribasida sinalgan akademik maktablar va konsepsiyalarning ahamiyati katta.

Mazkur qo'llanma O'zbekistonda ilk bor yaratilayotgani uchun unda ayrim etishmovchiliklar, manbalar noaniqligi, fikr sub'ektivligi va talqinlarda murakkabliklar uchrashi mumkin. Ular haqida mualliflarga xabar berilsa, isloh qalami tortilishiga va keyingi jildlarning bayoni kamqusurliroq bo'lishiga yordam berilgan bo'lur edi.

## MUNDARIJA

### KIRISH

**1-mavzu. «Jahon adabiyotshunosligi tarixi» fanining maqsad va vazifalari**

**2-mavzu. Markaziy Osiyoda adabiyotshunoslikning ilk manbalari**

**3-mavzu. Yozma manbalardagi nazariy qarashlar**

**4-mavzu. Islom Renessansi davrida o'zbek adabiyotshunosligi**

**5-mavzu. Sof adabiyotshunoslikka doir risola va tazkiralarning shakllanishi**

**6-mavzu. XII-XIII asrlarda adabiyotshunoslik taraqqiyoti**

**7-mavzu. Amir Temur va Temuriylar davri adabiyotshunosligi**

**8-mavzu. Alisher Navoiyning adabiyotshunoslik merosi**

**9-mavzu. Boburshoh va adabiyotshunoslik. Tasavvuf estetikasi va sufiy adabiyot poetikasi**

**XULOSA O'RNIDA**

---